

81.633.1

Z 76

ZIYADOVA TURSUNOY

**O'QUVCHILARDA MATN
YARATISH
KOMPETENTSIYASINI
SHAKLLANTIRISHNING
INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARI**



CH0000034773

TOSHKENT

81.633.1


Z 76

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

T. ZIYADOVA

O'QUVCHILARDA MATN
YARATISH KOMPETENSIYASINI
SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARI



Y-8487/1

TOSHKENT-2019

UO'K: 811.512.133'242:37.091.3
KBK 81.2O'zb
Z 67

Z 67 **T. Ziyadova. O'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari. –T.: «Fan va texnologiya», 2019, 248 bet.**

ISBN 978–9943–5675–7–3

Monografiyada o'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyalari, nutqiy kompetentlik va mustaqil matn yaratish muammosini ta'limga kompetensiyaviy yondashuv, tizimli fikrlash, izchillik, bosqichlilik, leksik-semantik maydon nazariyasi asosida o'rganishning o'ziga xos mahsuldor texnologiyasi yaratilgan. Tilni tizimli o'rganish nazariyasining o'zbek tili o'qitish metodikasi fani tarkibiga kiritilishi, umumta'lim maktablarida ona tili o'qitish amaliyotiga joriy etilishi – til sathlararo aloqadorlik qonuniyatlarining o'quvchi ongosti tafakkurida aks etishi, individual nutqda qo'llanilishiga olib keldi. Mustaqil ta'lim, izchil va uzluksiz fikrlash asosida matn yaratish jarayoni o'quvchida nutqiy kommunikativ kompetentlikni shakllantirishning ishonchli, qulay va mahsuldor usuli ekanligi aniqlandi. Yangi usulni amalga oshirishning maxsus, universal mexanizmi (matn yaratishning 4 bosqichli tizimi-MYBT-4 moduli) yaratildi.

Monografiya filolog olimlar, bakalavrlar, aspirant va magistrantlar, metodistlar, ona tili va adabiyoti fani o'qituvchilari, shuningdek, o'zbek tilini o'rganish bilan qiziquvchi barcha millat vakillari uchun mo'ljallangan.

UO'K: 811.512.133'242:37.091.3
KBK 81.2O'zb

Mas'ul muharrir: **Nizomiddin Mahmudov – f.f.d.**

Taqrizchilar: **Q. Yo'ldoshev – p.f.d.;**
 B. Raximov – f.f.n.

Monografiya Guliston davlat universiteti ilmiy Kengashining 2019-yil 4-mart-dagi 7-sonli qaroriga asosan nashr etildi.

ISBN 978–9943–5675–7–3

© «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2019.

*Siz ilmga bor-yo'g'ingizni
bermaguningizcha, u sizga
biror narsa bermaudi.*

Imom G'azzoliy

KIRISH

XXI asrda ta'lim, fan va madaniyat sohasidagi ijtimoiy taraqqiyotning jadallashuvi, axborot tizimining globallashuvi, tezkor axborot olish, yaratish va uzatish zaruriyatini yuzaga keltirdi. Birlashgan Millatlar Tashkilotining "Ma'rifiy, ilmiy va madaniy mazmundagi materiallarni talimga olib kirish tog'risidagi Bitimi dunyo miqyosida o'qituvchilar maqomini oshirish, ta'lim muassasalarida interaktiv ta'lim muhitini yaratish, xalqaro standart talablari asosida o'qituvchilarning -pedagogik mahoratini rivojlantirishga yo'naltirilgan. Mazkur hujjatlarda ta'kidlanishicha, innovatsion ta'lim texnologiyalarini dars jarayoniga kiritish, darsni nostandart mashg'ulotlar, zamonaviy pedagogik yechimlar, kommunikativ kompetentlikni rivojlantirish texnologiyalari asosida tashkil qilishning ustuvor mavqeiga utadi¹.

O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida respublika ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish eng muhim ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilanganligi maktab o'quvchilarining nutq madaniyatini globallashuv jarayoni talablari asosida takomillashtirish zaruriyatini yuzaga keltirdi².

Bugungi ijtimoiy taraqqiyot talablari asosida respublikamizda olib borilayotgan ma'rifiy islohotlar: maktabgacha ta'lim vazirligining tashkil etilishi, 11 yillik umumiy o'rta ta'limning qayta tiklanishi, ta'limga kompetensiyaviy yondashuv texnologiyalarini joriy etishga o'tilishi – maktab o'quvchisining fan va texnika, sport, intellektual salohiyat, kreativlik, ijtimoiy-madaniy muloqot sohasida o'z tengdoshlari bilan umumjahon miqyosida raqobatbardoshlik

¹ YUNESKO xalqaro meyoriy hujjatlari// o'zbekcha nashrining mas'ul muharriri L.Saidova -T.: "Adolat," 2004. B. 19-62.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni PF-4947-son. 2017-yil 7-fevral. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida.

statusiga ega bo'lishini ta'minlash masalasi shu kunning dolzarb muammosi sifatida e'tirof etildi.

Monografiya mavzusining dolzarbligi va zarurati umumiy o'rta ta'lim maktablari ona tili ta'limini yangi – tilni tizimli o'rganish bosqichiga olib chiqish, o'quvchilarda imloviy-uslubiy savodxonlik, mustaqil matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish jarayonida nutqiy kompetentlikni ta'minlash zarurati bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-son Farmoni, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" PQ-2909-son, 2011-yil 20-maydagi "Oliy ta'lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida" gi PQ-153-son qarorlari, sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlar, shuningdek, Rossiya Federatsiyasi Hukumati bilan O'zbekiston Respublikasi Hukumati o'rtasida 2018-yil 20-oktyabrda tuzilgan ilmiy-texnikaviy, madaniy-gumanitar va boshqa sohalaridagi hamkorlik bitimida belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Monografik tadqiqot respublika fan va texnologiyalar taraqqiyotining: «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan. Mustaqil matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga doir ilmiy izlanishlar jahonning yetakchi ilmiy markazlari va oliy ta'lim muassasalari, jumladan, Princeton University (AQSh), Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters, Oxfords university (Buyuk Britaniya), Belfield pedagogical university (Germaniya), Seoul national University (Janubiy Koreya), Gumanitar tadqiqotlar ilmiy markazi (Rossiya)¹ kabi ko'plab ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda.

¹ Базина Н.В. Социально-культурные аспекты речевых умений в условиях изучения немецкого языка. Дисс. канд. пед. наук. М.: 2014. –197 стр. Hawk Ridge. Nev technology in edication. London groom helm. 2003. –180 p.

Matn ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga oid ilmiy tadqiqotlarda qator natijalar qo'lga kiritilgan, jumladan, ta'limga konstruktiv yondashuv, kontekstli ta'lim texnologiyalari ishlab chiqilgan (Princeton university); o'quvchilarning bog'lanishli nutqini shakllantirishning sinxron ta'lim texnologiyalari yaratilgan (Centre of increasing to pedagogical qualification on base Manchesters university); nutqiy-kommunikativ kompetensiyalar majmui, retseptiv va produktiv faoliyatni ijodiy topshiriqlar asosida tashkil etish yo'llari ishlab chiqilgan (Belfield pedagogical university); nutqiy kompetentli shaxsni tarbiyalashda lingvometodik trenajyorlardan foydalanishning elektron lingvodidaktik mexanizmlari yaratilgan (Бурятский государственный университет); interaktiv mashg'ulotlar jarayonida axborotni tinglash va qayta ishlash, adekvat qabul qilish, matn yaratish kompetensiyalarini erkin rivojlantirish mexanizmlari ishlab chiqilgan (Санкт-Петербург, Научный центр гуманитарных исследований)¹.

Jahon ta'lim tizimida interaktiv elektron o'qitish tizimidan foydalanish (interactive E - learn) bo'yicha tadqiqotlar yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarda amalga oshirilmoqda. Jumladan, Purdue University (AQSh), JCM International Management Engineering Institute (Xitoy xalq respublikasi), til o'qitish samaradorligini oshirishda interaktiv metodlardan foydalanish Carl Wieman Science Education Initiative (CWSEI, Britaniya Kolumbiyasi), interaktiv ta'limni amalga oshirish BMTning International Institute for Sustainable Development (IISD), chet tilida muloqot jarayonida ijtimoiy-madaniy kompetensiyani shakllantirish (Московский государственный литературный университет – МГЛУ) mavzularida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Uyg'onish davrining etuk namoyondalari Unsurul Maoliy Kaykovus, Shayx Sa'diy Sheroziy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Alisher Navoiy, Abdurahmon Jomiy, Husayn Voiz al-Koshifiy ilmiy merosi hamon respublika ta'lim tizimini ustoz-shogird munosabatlarini shakllantirishda muhim manba sifatida xizmat qilmoqda. An'anaviy o'zbek tili o'qitish metodikasi fani asosiy e'tiborni til qoidalarni yod olish, til hodisalarini tahlil qilish kabi

¹Беккер Джонвант Образование по модели свободных речевых механизмов. Пед.исслед., Санкт-Петербург 2007. –С. 128-139

nazariy bilimlarni egallashga qaratdi. Nutq madaniyati – soʻz boyligi, ogʻzaki va yozma nutq taraqqiyoti, notiqlik, uslubiyat masalalari ilmiy grammatizm sohasida oʻlib, ularga ikkinchi darajali vazifa sifatida qarash odat tusiga kirdi.

Mustaqillik davrida¹ ona tili oʻqitish metodikasi fani yangilanish davriga oʻtdi. Sh.Yusupova² N.Sattorova³, R.Safarova⁴, A.Gʻulomov, B.Qobilova⁵, Q.Husanboeva⁶, I.M.Toshev⁷ N.I.Bekniyazova⁸ S.Adilova⁹, M.Rixsiyeva¹⁰, H.Muhitdinova¹¹, R.Yoʻldoshev¹² va boshq. ilmiy tadqiqotlari oʻzbek tili oʻqitish metodikasi rivojiga samarali taʼsir koʻrsatdi.

A.Abdugʻodirov, R. Djuraev, M.Quronov, Sh.Qurbonov, Sh.Sharipov, E. Seytxalilov, U.Inoyatov, E.Yuzlikaeva, D.Sharipova, Sh.Mardonov, O.Musurmonova, N.Muslimov, Oʻ.Tolipov, B.Rahimov, Sh.Shodmonova, N.Gʻ.Egamberdieva¹³ va boshqalar boʻlajak

¹ Mahmudov N. Taʼlim boʻgʻinlarida ona tili oʻqitish mazmunini yangilash muammolari// Taʼlim boʻgʻinlarida ona tili oʻqitish mazmunini yangilash asoslari. –Qarshi, 1993. –B. 5–7;

² Yusupova SH J Hozirgi oʻzbek adabiy tili darslarida oʻquvchilar tafakkurini oʻstirishning ilmiy-metodik asoslari. ped.fan.doktori diss. avtoreferati, – T.: 2005 – 46 b.

³ Sattorova N. Oʻquvchilarning insho yozish malakalarini shakllantirish: ped. fan. nom. diss., – T.: 1995. –141 b.

⁴ Safarova R. Ona tili taʼlimining yangilangan mazmuni va uning didaktik asoslari. –T., 1995.–18–31-b

⁵ Gʻulomov A., Qobilova B. Nutq oʻstirish mashgʻulotlari. –Toshkent: Oʻqituvchi, 1995. –157 b.

⁶ Husanboeva Q. Adabiy taʼlimda mustaqil fikrlashga oʻrgatish asoslari. –Toshkent: “Uzinkomsent”, 2003. –101b.

⁷ Toshev I.M. Qoʻshma gap sintaksisini oʻtishda matndan foydalanish. Taʼlim jarayonida matn ustida ishlashning asosiy omillari. –Toshkent, 1997. –35– 93-b.

⁸ Bekniyazova N.I. Boshlangʻich sinf ona tili darslarida oʻquvchilarni matn yaratishga oʻrgatish metodikasi. –Toshkent, «Fan va texnologiya», 2012. –160 bet

⁹ Adilova S.A. Oʻzbek tili mashgʻulotlarini kompyuter texnologiyasi vositasida tashkil etish (oliy taʼlim muassasalarining rusiyzabon guruhlarida). ped. fan. nom. diss., avtoreferati. – Tashkent: 2004. –B. 26.

¹⁰ Rixsiyeva M. Taʼlim rus tilida olib boriladigan maktablarning oʻzbek tili darslarida oʻquvchilarni matn tuzishga oʻrgatish. –Toshkent: RTM, 2000. –12–23-b.

¹¹ Muxitdinova X. Taʼlim bosqichlarida oʻzbek tili oʻqitilishi uzluksizligini taʼminlashning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtrish. ped. fan.dokt. diss., – Tashkent, 2011. –323 b.

¹² Yoʻldoshev R. Oʻzbek tili darslarida oʻquvchilarning ogʻzaki nutqini ularni koʻp gapirtirish orqali oʻstirish metodikasi. Fan va texnologiyalar. – Tashkent: 2012. –213 b. Yoʻldoshev R. Taʼlim rus tilida olib boriladigan maktablarda oʻzbek tilini oʻqitish metodikasi. – T.: «Oʻqituvchi», 2015. –157 b.

¹³ Abdugʻodirov A., Pardayev A. Pedagogik texnologiyalarga oid atamalarining izohli lugʻati. –Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2012. – 44 b. Djuraev R. Taʼlimda interfaol texnologiyalar. –T, 2010. – 87 b;

Quronov M. Oʻzbekiston umumiy oʻrta taʼlim maktablarida milliy tarbiyaning pedagogik asoslari. ped. fan. dok. diss. – Tashkent, 1998. –316 b. Sharipova D. Научные основы гигиенического воспитания обучающихся. Автореферат дисс., док. пед. наук. –Ташкент: 1990.–47 с. Tolipov Oʻ. Q. Oliy pedagogik taʼlim tizimida umummehnat va kasbiy koʻnikma va malakalarni rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. ped. fan. dokt. diss., –Tashkent: 2004. –314 b. Rahimov B.X. Talaba yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga yoʻnaltirishning ijtimoiy-pedagogik asoslari. ped. fan. dokt. diss., –Tashkent: 2010. –265 b. Mardonov SH.Q. Pedagog kadrlarni taʼlimiy qadriyatlar asosida tayyorlash va malakasini oshirishning pedagogik asoslari. ped. fan. dokt. diss., – Tashkent: 2006 –302 b. Muslimov N.A. Kasb taʼlimi oʻqituvchisini kasbiy shakllantirishning nazariy-metodik asoslari. ped. fan. dokt. diss. avtoreferati. –T.: TDPU, 2007. –47 b. Musurmonova O. Yuqori sinf oʻquvchilari maʼnaviy madaniyatini rivojlantirishning pedagogik asoslari. ped. fan. dokt. diss. –Tashkent, 1993. –253 b. Шодмонова Ш. Формирование и развитие мышления независимости у студентов высших учебных заведений профессионального направления. Дисс., док. пед. наук. – Ташкент, 2010. –С 250. Egamberdieva N. Madaniy-insonparvarlik yondashuv asosida talabalarni shaxsiy hamda kasbiy ijtimoiylashtirish nazariyasi va amaliyoti (pedagogika oliy taʼlim muassasalarida misolida): ped. fan. dokt. diss. – Tashkent TDPU, 2010. –332 b. Qurbonov SH., Seytxalilov YE., Inoyatov U., Yuzlikeyeva E., Sharipov SH.S Kadrlar tayyorlash milliy modeli va dasturi «Islom Karimov modeli» Oʻzbekiston mustaqilligining yuksak yutugʻi va natijasi/ Oʻquv qoʻllanma. – Akad. T. Rixsiyev tahriri ostida: – Tashkent: TDPU, 2013. –234 b

o'qituvchilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirish masalalari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib bordi.

“O‘zbek tili” doimiy anjumanlarida (O‘TDA) (1991-2015 yillar) ona tilidan dastur va darsliklar mazmunini yangilash, amaliyotda tilshunoslik qonun-qoidalarini emas, tilning o‘zini, uning nutqiy imkoniyatlarini o‘rganish¹, innovatsion texnologiyalardan foydalanish muammosi ko‘tarildi. Ona tili darsliklarini yangi texnologiyalar bilan boyitish til ta‘limining dolzarb vazifasiga aylandi.

Ta‘limda interfaol metodlardan foydalanishning amaliy-texnologik jihatlari H.Brown, D.Ciuffetelli, R.G.Isyanov, M.Urazova va boshqalarning tadqiqotlarida o‘rganilgan².

O‘zbek tili o‘qitish metodikasi fanining taraqqiyot sari yuz tutishida N.M. Mahmudov, H.G‘. Ne‘matov, A.Nurmonov, L.M. Loseva, I.R. Galperin, R. Rasulov, A. Sobirov, A. Rafiev, Yo. Tojiyev, B. Mengliev, E.Qilichev kabi tilshunos olimlarning, Q.Yo‘ldoshev, B.To‘xliiev, A.Q. G‘ulomov, Sh. Yusupova, R.Safarova kabi pedagog olimlar, L.S.Vigotskiy, E.G‘oziev, B.R.Qodirov kabi psixolog olimlarning izlanishlari³ muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Mazkur tadqiqotlarda ona tili ta‘limi mazmunini yangilash, ta‘limni takomillashtirish, matn yaratishda tilning nutqiy imkoniyatlaridan keng foydalanish masalalari ko‘tarildi.

Tadqiqot ishi Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining F-1-80. «Zamonaviy universitet modulini shakllantirishda innovatsion ta‘lim muhitini yaratish» (2009-2016-yy.) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 5-9-sinf o‘quvchilarida ona tilida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning innovatsion texnologiyalarini ishlab chiqishdir.

Monografik tadqiqotning vazifalari 5-9-sinf o‘quvchilarida mustaqil matn yaratish kompetensiyasini uzluksiz shakllantirish va takomillashtirish mexanizmini yaratish;

¹ Mengliyev B., Sayfullayeva R. Til qurilishini o‘rganishdan til imkoniyatlarini egallashga. Til ta‘limi bosqichlarida uzviylikni ta‘minlashning ilmiy-amaliy muammolari – Andijon: O‘TDA. 2009.

² Уразова М.Б. Современные педагогические технологии в преподавании гуманитарных дисциплин. – Ташкент: Центр информационных технологий, 2013. – С. 145.

³ Adabiyotlar nomi dissertasiyaning “Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatida” keltirilgan.

5-9-sinf o'quvchilarida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik-psixologik va metodologik xususiyatlarini ochib berish;

5-9-sinf o'quvchilarida ijodkorlik, matn asosida yangi matn tuzish, mustaqil ravishda nasriy va nazmiy matnlar yaratish kompetensiyasini shakllantirish;

5-9-sinf o'quvchilarining «MYKSH» jarayonida egallangan nutqiy kompetentlik darajasini aniqlash, baholash va uzluksiz rivojlantirish texnologiyasini ishlab chiqish;

5-9-sinf o'quvchilarida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning amaliy tatbiqini qulaylashtiruvchi elektron o'quv dasturlar, slaydli o'quv-metodik qo'llanmalar, psixolingvistik va matn yaratish topshiriqlaridan iborat didaktik ta'minot tizimini yaratish.

Tadqiqotning obyekti – umumta'lim maktablari ona tili darslarida 5-9-sinf o'quvchilarining matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish jarayoni.

Tadqiqotning predmeti ona tili ta'limida o'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning metodik shart-sharoitlari va amaliy-texnologik tizimi. Tadqiqotda induksiya, deduksiya, savol-javoblar, nazorat ishi, test, suhbat, sotsiometrik anketa, so'rovlar, pedagogik eksperiment, kuzatuv, tahlil, qiyoslash, tarixiy modellashtirish, retrospektiv-istiqbolli modellashtirish, tajriba-sinov, matematik statistika metodlaridan foydalanilgan.

1. 5-9-sinflarda ona tilida mustaqil matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning didaktik imkoniyatlari kengaytirilib, o'quvchilarda so'z boyligi, imlo, og'zaki va yozma nutqni o'zaro uyg'unlik va uzluksizlikda o'rganish asosida, yaxlit sistema sifatida takomillashtirilgan.

2. 5-9-sinflarda matn ustida ishlash, matn yaratish, matn qismlarini to'g'ri shakllantirish texnologiyalari takomillashtirilgan. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish dasturi ishlangan. O'quvchi nutqiy kompetentlik darajasini aniqlash modul tizimida amalga oshirilgan;

3. Tilning fonetik, leksik, grammatik hamda matnda faollashadigan sintaktik vositalari: emotsional gap, ritorik so'roq gap, o'xshatish, ulab ketishning metodik imkoniyatlari, o'quvchi

ijodkorligi, nutqiy kompetentligiga ustuvorlik berish asosida takomillashtirilgan.

4. Matn mazmunini shakllantirishda umumxalq tilidan erkin foydalanish – o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativlik, so‘zni tanlab ishlatish, ravon nutq, o‘z-o‘ziga ishonch, omillarini optimallashtirish asosida o‘quvchilarning nutqiy kompetentligi takomillashtirilgan.

5. O‘quvchining nutqiy kommunikativ kompetentlik xususiyatini mustahkamlovchi neyrodidaktik ta‘minot tizimi –“Media-trening” o‘quv qo‘llanmasi yaratilib, amaliyotga joriy etilgan, kompyuter sinflarida maxsus “mustaqil ta‘lim saytlari”ni yaratish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari o‘quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishga oid virtual innovatsion texnologiya – matn yaratishning 4 bosqichli tizimi moduli «MYBT-4» yaratilgan va tajriba-sinov asosida ona tilini o‘qitish amaliyotiga joriy etilgan;

matn yaratishning 4 bosqichli tizimi moduli vositasida o‘tkazilgan tajriba-sinovlar yakuniga ko‘ra 5-9-sinf o‘quvchilarida nutqiy kompetentlik o‘rtacha 15-20% ga oshgan;

tilni tezkor o‘rganishga mo‘ljallangan “Media-trening” o‘quv qo‘llanmasi respublika miqyosida ommalashtirilgan, umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining 5-9- sinflarida ona tili fani amaliyotiga joriy etilib, ijobiy natijalar bergan;

tadqiqot ishida slaydlar asosida ishlashning 15 turi, matn ustida ishlashning 12 turi, mustaqil matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirish topshiriqlarining 63 turi taklif qilingan, tajriba-sinov ishlarida qo‘llangan va ijobiy natijalarga erishilgan. Modul tizimida matn yaratish asosida 5-9-sinf o‘quvchilarining nutqiy kompetentlik darajasini aniqlash va baholash mezonlari takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi bilish nazariyasining dialektik metodi, til va nutq hodisalarini tizimli o‘rganish texnologiyasi, O‘zbekiston Respublikasi, xorij pedagog va psixolog olimlarining ilmiy-nazariy g‘oyalari asoslanilgani,¹ bir-birini

¹Sharipov SH S. O‘quvchilar kasbiy ijodkorligi uzviylikini ta‘minlashning nazariyasi va amaliyoti: ped. fan. dokt. diss., avtoreferati. –T. 2012. –46 b. Sharipov SH. O‘quvchilar bilish faolligini oshirishda ijodkorlik metodlarining o‘rni Uzluksiz ta‘lim. Toshkent 2009. №4. –18–22-b. Уразова М.Б. Современные педагогические технологии в преподавании гуманитарных дисциплин. –Ташкент: Центр информационных технологий. 2013. – С. 145. Хэтчер У. Логические основания математики. –Москва: 1982. – С. 235.

uzluksiz to'ldirib boruvchi virtual usullar qo'llangani, tilni tizimli o'rganish, nutqiy kommunikativ kompetensiyani takomillashtirish mexanizmi yaratilgani, tadqiqotda olg'a surilgan ilmiy g'oyaning tajriba-sinovda ijobiy natija bergani, olingan natijaning matematik statistika metodlari yordamida tahlil qilingani va umumlashtirilgani bilan ta'minlanadi.

Tizimli fikrlash tarzi va matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning o'zaro aloqadorligi asoslangani; o'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning didaktik xususiyatlari, pedagogik-psixologik mohiyati, o'ziga xosliklari aniqlangani; matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning ijtimoiy-ma'naviy ahamiyati, ijobiy va salbiy omillari ko'rsatilgani bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati qo'lga kiritilgan natijalar til o'qitish metodikasi mazmunini takomillashtirish, 5-9-sinf o'quvchilarida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish, tilni tizimli o'qitish texnologiyasini ona tili mashg'ulotlariga tatbiq etish, o'quvchilarda nutqiy kompetentlik darajasini aniqlashning bosqichli-me'yoriy ko'rsatkichlarini belgilashga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Monografiyaning bosh g'oyasi matn yaratishning 4 bosqichli moduli «MYBT-4», o'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning uzluksiz harakatdagi universal mexanizmi vazifasini bajaradi.

O'quvchilarda «MYKSH» innovatsion texnologiyalari bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinovda erishilgan natijalar umumiy o'rta ta'lim maktablarining ona tili o'qitish amaliyotiga chop qilingan 34 ta metodik adabiyot, 2 ta monografiya, 21 ta ilmiy jurnal maqolasi, 63 ta tezis orqali joriy etilgan;

o'quvchilarda mustaqil matn yaratish, nutqiy kompetentlikni rivojlantirishga oid innovatsion texnologiyalar tizimi ijtimoiy – gumanitar fanlar turkumiga kiruvchi ona tili, o'zbek tili, adabiyot fanlari bo'yicha uzviylashtirilgan Davlat ta'lim standarti mazmuniga singdirilgan (“O'zstandart” agentligining 2017-yil 6-aprel 187-qarori bilan tasdiqlanib, 1713-raqami bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan);

tadqiqot g'oyasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 9-iyuldagi "2004-2009-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umummilliy dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 321-qarorini amalga oshirishda foydalanilgan (Xalq ta'limi vazirligining 2016-yil 14-dekabrda 02-02/1-8-5473-ma'lumotnomasi);

tadqiqotning axboriy-didaktik ta'minoti natijalaridan Davlat ilmiy-texnika dasturlari doirasidagi 2012–2016-yillarga mo'ljallangan FA–F1–GO41-raqamli "O'zbek tili leksikasi terminologiyasining mustaqillik davri taraqqiyotini tadqiq etish" mavzusidagi fundamental ilmiy loyihani amalga oshirishda foydalanilgan (Vazirlar Mahkamasi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni Muvofiqlashtirish Qo'mitasining 2016-yil 21-oktyabrda 0313/702-ma'lumotnomasi);

5-9-sinf o'quvchilarida tasnifiy matn yaratish kompetensiyalarini shakllantirishning didaktik ta'minoti "Ona tilidan didaktik slaydlar to'plami" (2005), "Ona tilidan videorepetitor" (2009), "MEDIA-TRENING" (2017) kabi elektron o'quv qo'llanmalarda o'z aksini topgan;

matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning neyropedagogik xususiyat va diagnostik ko'rsatkichlari dissertantning "So'z boyligini oshirish", "Matn yaratish texnologiyasi" kabi monografiyalari, "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (2006, 2010, 2012), "Ona tilidan amaliy mashg'ulotlar" (2012), "Ona tili darslarida matn yaratish ko'nikmalarini shakllantirish" (2015) nomli o'quv qo'llanmalarida o'z ifodasini topgan;

tadqiqot natijalaridan bo'lajak o'qituvchilar – filologiya fakulteti talabalarining matn yaratish kompetensiyasini takomillashtirishda, respublika malaka oshirish tizimi ona tili kursi tinglovchilarining innovatsion texnologiyalardan foydalanish tajribasini mustahkamlashda foydalanilgan.

Tadqiqot natijalari 23 ta respublika va 6 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda muhokama qilingan. O'zbekiston teleradiokompaniyasining "O'zbekiston", "Diyor" telekanalida berilgan ma'ruza va intervyular, "Ma'rifat", "Uchitel Uzbekistana" gazetalarining "Faslining eng yaxshi ijodkori" tanlovi g'olibi bo'lgan 2 ta metodik maqola asosida aprotatsiyadan o'tkazilgan. "MYBT-4" moduli 2011-2012-

yillar O'zEKSPO yarmarkasida *nutqiy salohiyatni aniqlashning "O'zbek testi"* nomini olgan.

Monografiya mavzusi bo'yicha jami 120 ta ilmiy ish, jumladan, 2 ta monografiya, 34 ta o'quv-metodik qo'llanma (shundan 5 tasi elektron o'quv adabiyoti), O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop qilish uchun tavsiya qilgan ilmiy nashrlarda 21 ta maqola, 12 tasi respublika va 9 tasi xorijiy jumallarda chop qilingan.

I BOB. O'QUVCHILARDA MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI

§ 1.1. Tilni tizimli o'rganish – nutq madaniyatini egallashning bosh omili

O'zbekiston Respublikasida davlat va jamiyat taraqqiyoti, ta'lim mazmuni [4;11–19-b, 5; 23–27-b], O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlarini tasdiqlash to'g'risida” gi 2017-yil 6-apreldagi 187-sonli qarori, ta'lim jarayoniga kompetensiyaviy yondashuv, innovatsion g'oyalarning so'nggi yutuqlari asosida yo'lga qo'yiladi, rivojlantiriladi, takomillashadi.

Tadqiqot ishi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Umumiy o'rta ta'lim to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida” gi 2017-yil 15-martdagi 140-son qarori; umumiy o'rta ta'limning tayanch o'quv rejasi, o'quv dasturi, malaka talablari; baholash tizimi talablari asosida amalga oshirildi.

Ona tili fanidan davlat ta'lim standartlari – DTSning [167] malaka talablari bo'yicha o'quvchining o'z fikrini yozma bayon etishi quyidagi me'yorlar: o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish; kamolotga intilish, mustaqil o'qib-o'rganish; nutqiy kommunikativ kompetensiyani muntazam oshirib borish; o'z bilimi, hatti-harakatini baholash va mustaqil qaror qabul qila olish kompetensiyasini egallash, tilning nutqiy imkoniyatlaridan foydalangan holda fikrni to'g'ri, ravon, izchil bayon etish asosida aniqlanadi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida ona tili fanini o'qitishning asosiy maqsadi – kitobxonlik madaniyati shakllangan, o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri, ravon bayon qiladigan, mustaqil va ijodiy fikrlaydigan, o'zgalar fikrini anglab, o'z munosabatini bildira oladigan – muloqot va nutq madaniyati rivojlangan barkamol shaxsni tarbiyalashdan iborat.

Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv esa o'quvchilarda ilmga chanqoqlik, izlanuvchanlik, yangilik yaratishga intilish hislatlarini tarbiyalaydi. *Kompetensiya* tushunchasi lotincha “*competentia*”

so'zidan kelib chiqqan bo'lib, izohli lug'atda "qonunan ega", "haqdor" degan ma'noni anglatadi, umumiste'molda keng ishlatiladigan "qobiliyat", "ko'nikma," "iqtidor" tushunchalariga yaqin turadi [137; 91]. **Kompetentlik** atamasi esa ...muayyan turdagi kompetensiyaga ega, izlanishga layoqatli, o'z sohasini biladigan, uni boshqalarga taqdim etishni o'rinlatadigan "mahorat sohibi" ma'nolarini beradi [137, 93].

Tadqiqotda tavsiya qilinayotgan yangi g'oya – tilni tizimli o'rganishning innovatsion texnologiyasidir. Mazkur texnologiya o'zaro uzviylik va uzluksizlikda, sathlararo va fanlararo aloqadorlikda tashkil qilinsa, o'quvchi subyektida imlo, lug'at boyligi, nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasi ortib boradi. Unda o'z-o'ziga ishonch, notiqlik, guruh bilan madaniy muloqot malakalari shakllanadi.

Ona tili uchun quyidagi tayanch va *umumiy kompetensiyalar tizimi* belgilangan: Kommunikativ kompetensiya. Axborotlar bilan ishlash kompetensiyasi. O'zini o'zi rivojlantirish kompetensiyasi. Ijtimoiy faol fuqarolik kompetensiyasi. Milliy va umummadaniy kompetensiya. Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor bo'lish hamda undan foydalanish kompetensiyasi. Mazkur kompetensiyalar o'quvchilarga ona tili fani orqali singdiriladi.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarida MYKSHning asosiy vazifasi quyidagilardan iborat:

o'quvchi shaxsini mustaqil fikrlashga, o'zgalar fikrini anglashga, o'z fikrini og'zaki va yozma shaklda, tezkor, savodli bayon qila olishga qaratilgan **nutqiy kompetensiyani** rivojlantirish:

o'quvchilarda **nutqiy kompetensiya** unsurlarini (fonetika, leksikologiya, so'z tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sintaksis, yozuv va imlo, tinish belgilari, nutq uslublari) so'z ma'nosini sharhlash, matn yaratish jarayonida mustahkamlash va rivojlantirish;

ona tilining nutqiy imkoniyatlaridan keng foydalangan holda matnni takomillashtirish, o'quvchilarda fikrni og'zaki va yozma holda to'g'ri, ravon bayon etish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan nutqiy, imloviy, uslubiy kompetensiyalarni shakllantirish.

Umumta'lim muassasalarida ona tili ta'limini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishda quyidagi *ta'lim printsiplariga* tayanildi:

Izchillik prinsipi – o‘quvchilar tomonidan tilga oid tushunchalarni izchil o‘zlashtirish, nutqiy kompetensiyalarni bosqichli ketma-ketlikda shakllantirish, til imkoniyatlaridan mavzu talabi doirasida, maqsadli foydalanish.

Ilmiylik prinsipi ona tilida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan grammatik qoidalar nazariy bilim, tushuncha va ilmiy atamalarni o‘rganishni kafolatlaydi.

Sistemalilik prinsipi – ona tilini o‘qitish jarayonining barcha tarkibiy qismlari: o‘qitish maqsadi, vazifalari, mazmuni, metodlari, vositalari va shakllarini, tilning o‘zini yaxlit bir tizim shaklida tasavvur qilish va foydalanishni, shuningdek, o‘quvchilar tomonidan yaratiladigan matnlarning ravon, izchil, ixcham shakllanishiga imkoniyat yaratadi.

Ko‘rgazmalilik prinsipi – o‘quvchilar tomonidan mustaqil matn yaratishda tabiiy, tasviriy, tarqatma, didaktik, audio-videomateriallar, multimedia, internet, mavzuviy slaydlardan unumli foydalanishni ko‘zda tutadi.

Ta‘lim va tarbiyaning uzviyligi prinsipi ta‘lim va tarbiya mazmuni, izchilligi va mantiqan bog‘liqligi, matn yaratish jarayonida ta‘lim-tarbiya uzviyligini ta‘minlash, o‘quvchilarda madaniy muloqot, nutqiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratiladi.

Onglilik prinsipi – mustaqil matn yaratish kompetensiyasini egallashda o‘quvchilarning yosh xususiyatlariga muvofiq keladigan matnlardan foydalanish, ularda nutqiy kompetentlik darajasini ongli yuksaltira bilishni talab qiladi.

Tushunarlilik prinsipi – ona tilini o‘qitishda o‘quvchilarning matn mazmuniga oid yangi bilimlarni o‘zlashtirishini qulaylashtiruvchi, matnni tushunish va asosiy g‘oyani anglashni osonlashtiruvchi atama va tushunchalardan foydalanish ko‘zda tutiladi.

Nazariya va amaliyot birligi prinsipi – ona tilini o‘qitishda o‘quvchilarga nazariy va amaliy bilimlarni o‘zaro uyg‘unlikda singdirishni, matn yaratishga oid nutqiy kompetensiyalarni egallash, ularni turli nutqiy vaziyatlarda, to‘g‘ri qo‘llashga odatlantirishni taqozo etadi.

Uzviylik va uzluksizlik prinsipi – o‘quvchilarning avval o‘zlashtirgan bilimlari bilan yangi o‘rganilayotgan mavzular o‘rtasidagi aloqadorlik saqlanishi, shuningdek, imlo, punktuatsiya va uslubiyatga doir bilimlarning ham matn yaratish bilan uzviylikda shakllantirilishiga sharoit yaratib beradi.

Ona tilini o‘qitish printsiplari “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”da ko‘zda tutilgan vazifalarni bajarishga qodir yangi avlodni, tashabbuskor, raqobatbardosh yosh mutaxassislarni tayyorlashga qaratilgan. Bu vazifani amalga oshirish uchun esa, tilni tizimli o‘rganish, o‘quvchilarda mustaqil matn yaratish, ijtimoiy muloqot kompetensiyasini mustahkamlash, intensiv ta‘lim zaminida o‘quvchi subyektila nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasini orttirish talab etiladi.

Ona tilini tizimli o‘rganishda tilning serqirra imkoniyatlari, jumladan, boy madaniy meros: she‘r, qo‘shiq, hikoya, qissa, roman, rivoyat, doston singari tayyor matnlardan samarali foydalanish lozim. Bunday usullar XI-XVIII asrlar davomida Sharqning buyuk allomalari: Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg‘ariy, Mahmud Zamaxshariy va Alisher Navoiylar tomonidan keng qo‘llanilgan, til va nutqning fikr ifodalash, munosabat bildirish, targ‘ibot quroli ekanligi haqida ibratli fikrlar aytilgan [94; 71–81, 104–110, 96–104, 124–130, 132–137, 125–231].

Matnning yaxlit nutqiy asar sifatida talqin qilinishi Aristotel va uning izdoshlari, shuningdek, sharq mutafakkirlari: Mahmud Qoshg‘ariy, Abu Rayhon Beruniy, Mahmud Zamaxshariy, Kaykovus, Navoiy va boshqalar tomonidan XI-XVI asrlardayoq ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lib, mazkur tushunchaning Rossiyada alohida fan tarmog‘iga aylanishi XX asr o‘rtalariga to‘g‘ri keladi. Rus tilshunosligida: “Matn, ya‘ni gaplar zanjiridagi o‘zaro aloqamunosabatlarni tilshunoslikning sintaksis bo‘limida o‘rganish maqsadga muvofiq”ligi XIX asrning 50-yillarida tan olingan bo‘lsa, evropaliklar 60-yillarga kelib “...matn lingvistikasi tilshunoslikning alohida sohasigina emas, balki asosiy poydevori, zahira manbasi..” degan fikrni o‘rtaga tashladilar. Shuningdek, rus tilshunosligida matn qurilishi, undagi belgi-xususiyatlar, kategorial farqlanishlar L.M.


Loseva [81: 4–12], I.R.Galperin [47, 48: 26–28] va boshqalar tomonidan chuqur oʻrganildi.

Oʻzbek tilshunosligida matn masalasida oʻziga xos ilmiy qarashlar mavjud. Masalan, A. Gʻulomov [186:12-b] matn va uning mohiyati haqida toʻxtalib, "...gapdagi fikr tugalligining nisbiy ekanligi, asarning toʻliq mazmuni faqat butun matndan anglanilishi mumkin" ligini taʼkidlaydi. Matnning A. Gʻulomov tomonidan kiritilgan oltita belgisi hozirgi kunda ham katta ilmiy qimmatga ega boʻlib, ularda matnning asosiy xususiyatlari aks etgan.

Turkiyshunoslikda matn mavzusiga tatar olimi M.Zakiev [57: 23–27] tomonidan qoʻl urilib, matnning "yaxlit birlik" ekani eʼtirof etilgan boʻlsa, "matn sintaksisi" ozarbayjon tilshunosi K.M. Abdullayev [21: 33–46] tomonidan tadqiq etilgan.

Bugungi tilshunoslikda matnga nutqning alohida yirik birligi yoki super-sintaktik butunlik sifatida qarash keng tarqalgan. Tilshunos olim M.Hakimovning fikricha "matn" atamasini "nutq", "kontekst" kabi boshqa lingvistik atamalardan farqlash lozim: "Nutq ogʻzaki va yozma shakllarda namoyon boʻladi. Nutqning yozma shakli matn atamasi ifodalaydigan mazmunga muvofiq keladi", - deydi u [196: 21–23] "Oʻzbek tilining izohli lugʻati"da matnga quyidagicha taʼrif berilgan: "...yozilgan, koʻchirilgan yoki bosilgan ijodiy, ilmiy asar, nutq, hujjat yoki uning parchasi. Matn. Maqola teksti, muzika asariga (opera, romans va hk.) asos boʻlgan sheʼr, soʻz. [199] Uslubshunos olim E. Qilichev "Matn – hamma elementlari oʻzaro zich aloqada boʻlgan va avtor nuqtayi nazaridan maʼlum bir maqsadga yoʻnaltirilgan nominativ-estetik axborotni ifodalovchi murakkab tuzilma", - deb taʼriflasa [177: 10–12], rus tilshunosi I. R. Galperin matnning maʼlumot berish, boʻlinuvchanlik, kogeziya (ichki aloqalar tizimi), kontinium (vaqt va makon izchilligi), qismlar avtosemantiyasi, retrospeksiya va prospeksiya, modallik, yaxlitlik, tugallanganlik kabi sakkiz kategoriyasini [47: 5–16] sanaydi. M.Yu. Lotmanning taʼkidlashicha: ...matn *ifodalanganlik* (axborotning ifodalanishi), *chegaralanganlik* (mazmun va ifodadagi meʼyoriylik) va *struktural butunlik* belgilariga [82: 8-11] ega boʻlishi lozim. Matnning ham til, ham nutq birligi ekanligi haqidagi tilshunoslar tomonidan tan olingan ilmiy qarashlar, metodika fani nuqtayi nazaridan pedagog olimlar A.Q. Gʻulomov [191: 5-35], Sh.

U-84871



Yusupova [161: 4–21], Q. Yoʻldoshev [64, 65: 4–9]lar tomonidan ham oʻrganilgan. Metodist olim A. Q. Gʻulomov nutqning ichki va tashqi nutqqa ajratilishi, ogʻzaki va yozma holatda namoyon boʻlishi, ularning oʻzaro oʻxshashlik va farqli tomonlarini ishonchli misollar asosida koʻrsatib oʻtadi: “Matn nutqiy hodisa boʻlib, u ikki va undan ortiq gapning mazmunan birikishidir. Insho matnning oliy koʻrinishidir” [194: 4–17].

Matn yaratish jarayonining matematik modelini taklif qilgan Uilyam Xetcherning fikricha, “matn – ijtimoiy tajriba faoliyatining bir turi va uning asosida “konstanta”, yaʼni oʻzgarmas element turadi. Ammo matnning yaratilishi davriylik belgilariga ega va uning jarayoniy bosqichlarida muallif (yaratuvchi)+oʻquvchi (isteʼmolchi)ning kommunikativ munosabatlari yotishini ham eʼtiborga olish lozim” [157: 12-37]. Uning taʼkidlashicha, matnning yaratilishida nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, balki muallif va oʻquvchi munosabatlari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki muallif va oʻquvchi matnning oʻzi singari muayyan ijtimoiy muhitda, maʼlum zamon va makonda mavjud boʻladilar. Aytilganlardan kelib chiqilsa, til oʻqitish metodikasida matn yaratish faoliyati ishtirokchilari (subyekt₁ // subyekt₂) munosabatlarini quyidagicha belgilash mumkin: MYaS₁ – matn (axborot) yaratuvchi subyekt + MIS₂ – matn isteʼmolchisi, matndan foydalanuvchi subyekt q MYaIS_{1,2} – matnni yaratuvchi va matndan foydalanuvchi subyektlar, matn yaratish faoliyati ishtirokchilaridir. Demak, didaktikada matnning davriyligi tushunchasi – matn yaratuvchi va matndan foydalanuvchi (isteʼmolchi) subyektlarning taʼsir va aks taʼsir faoliyati natijasi boʻlib, uni maktab oʻqituvchilari ham tushunadigan sodda formula bilan ifodalash mumkin. Masalan, MYaS₁ + MIS₂ q MYaIS_{1,2} OʻUHH, yaʼni m a t n n i n g d a v r i y l i g i – matn yaratuvchi (muallif) hamda undan foydalanuvchi (isteʼmolchi) subyektlarning oʻzaro uzviylikdagi ijtimoiy-iqtisodiy hamkorliklari hosilasidir.

Til va nutqni farqlab oʻrganishga asoslangan ilmiy izlanishlarga H. Neʼmatov [105], N. Mahmudov [90], A. Mamajonov, M. Abdupattoev [95], M. Tuxsonov [148], B. Mengliev [97], M. Hakimov [196], N. Turniyozov [146], M.Yoʻldoshev [67], A.S. Erkinovlarning matnning sintagmatik va pragmatik xususiyatlari,

kommunikativ-pragmatik mazmuni shakllantiruvchi kategoriyalar, matn lingvopoetikasi yoʻnalishida olib borayotgan tadqiqotlarini kiritish mumkin.

Oʻzbek tilshunosligida matn muammosi bilan izchil shugʻullanib kelayotgan filolog olimlar: A. Mamajonov, M. Abdupat-toevlar “Matn – oʻziga xos murakkab sintaktik strukturaga ega boʻlgan nutqning eng yirik ifodasidir,” – deb taʼkidlaydilar va matn tarkibidagi bogʻlanishlar, grammatik va mazmuniy umumiylikka koʻra uzvlar birikuviga [95: 21–27] alohida ahamiyat beradilar.

Matnshunos olim A.S.Erkinov “Matn – ijodkor fikri, niyatining yozuvdagi ifodasi. Matn anglab amalga oshirilgan harakat natijasidir” deydi. Ammo tilshunoslikka oid ilmiy adabiyotlarda matn taʼrifi yuzasidan ikki xil qarash mavjud. Bir guruh tilshunoslar faqat yozma shakldagi yaxlit nutq yoki nutq parchasini matn deb hisoblashsa [47: 6–7; 48: 9–21], boshqa guruh olimlar ogʻzaki nutqni ham (masalan: doston, ertak, topishmoq, qoʻshiq, oʻlan, marsiya) matn sifatida qabul qilish mumkin degan fikrdalar. Matn muammosi bilan shugʻullangan tilshunoslarning uchinchi bir guruhi: “Matnning ilmiy mohiyati, asosiy sintaktik vazifasi axborot uzatish, fikr mahsulini yaxlit aks ettirishdan iboratligi hisobga olinsa, “matn” tushunchasini ham ogʻzaki, ham yozma holatda erkin ishlatish mumkin”,– deb taʼkidlaydilar [83: 12–13; 87].

Bizningcha, keyingi qarash haqiqatga yaqinroq boʻlib, *matn – muallif nutqiy salohiyatining muayyan mavzu, shakl, zamon va makonda, ogʻzaki yoki yozma holatda moddiylashuvi mahsulidir*. Zero, buyuk alloma Mahmud Zamaxshariy ham: “...matn – shaxsning til imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini aniqlash mezonini” [94: 132–135] deb taʼrif berganlari maʼlum. Demak, pedagogik nuqtai-nazardan qaralsa, mustaqil yaratilgan matn – oʻquvchi nutqiy kommunikativ kompetensiyasining muayyan mavzu, uslub, zamon va makonda ogʻzaki yoki yozma holatda moddiylashuvidir.

Mutafakkir tilshunos, uslubshunos Fitratning “Oʻzbek tili grammatikasi” [94: 392–394] kitobi, 1924–1930-yillarda olti marta nashr qilingan “Sarf” va “Nahv” nomli darsliklari, til va adabiyotga oid oʻnlab maqolalarida [94: 393; 32: 72–74] oʻzbek tilining boy va betakror til ekanligi taʼkidlab oʻtiladi. Til oʻqitish metodikasi tarixiga

e'tibor qilinsa, S.A.Fessaloniskiyning "Ona tili metodikasi" (1940) darsligida imlo, grammatika va orfoepiya o'zaro bog'langan holda talqin qilingan bo'lib, unda nutq o'stirishga alohida ("Obrazli nutqni o'stirish", "Yozma nutq", "Insho") e'tibor qaratiladi. O'zbek metodisti, "Alifbe" darsligi muallifi Murod Shamsning "O'zbek tili o'qituv metodikasi" (1950), Faxri Kamolning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (1952) o'quv qo'llanmalarida ham nutq o'stirishga bir qadar e'tibor mavjud.

H.Rustamovning 1960-yilda nashr qilingan "Sintaksis va punktuasiya o'qitish metodikasi" darsligida esa, punktuatsion malakalarni shakllantirish faqat sintaksis bo'limida amalga oshirilishi, lisoniy va nutqiy hosilalarni farqlamaslik ko'zga tashlanadi. Shu yo'nalishda G'.Abdurahmonovning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" (1969), Yo.G'ulomov ning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" darsliklari (1975) nashr qilinib, ularda ona tili grammatikasini o'qitishni takomillashtirish masalasi ustuvor mavqega ega bo'ldi.

O.Roziqovning "Ona tilidan dars tiplari" (1976), M.Omilxonova va boshqalarning "5–8-sinflarda "Ona tili" darslari" o'quv qo'llanmalari bosmadan chiqdi. Mazkur darslik va dasturlarning bosh maqsadi grammatik bilimlarni chuqur o'rgatish, "butundan bo'lakka", "umumiydan xususiyga" prinsiplariga asoslangan bo'lib, 5–11-sinflarda asosiy e'tibor talaffuz, imlo, punktuatsion savodxonlikni egallashga qaratildi, ona tili ta'limi oldiga tilning nazariy asoslarini egallash, so'z va gaplarni grammatik-sintaktik tahlil qilishni o'rganish vazifasi qo'yildi [187; 13; 15; 55; 57; 62].

O'zbekistonda ona tili o'qitish metodikasining fan sifatida shakllanish davri 1930–1940-yillarni o'z ichiga olsa, alohida ilmiy ahamiyat kasb etish davri 1940–1970-yillarni qamrab oladi. Ona tili ta'limida nazariy grammatikaning ustuvor mavqega ko'tarilishi 1970–1990-yillarga to'g'ri keladi.

Mustaqillik yillarida (1991–2017) ona tili ta'limi yuzasidan olib borilgan ilmiy-metodik izlanishlar ko'proq ta'lim mazmunini yangilash, o'quvchida ijodiy tafakkur, yozma nutqni shakllantirish, mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirishga qaratildi. Tilshunos va metodist olimlarning katta bir guruhi aynan shu

muammo yechimi ustida izlanib, tajriba-sinov maydonchalarida ilmiy-tadqiqotlar olib bordilar.

UO'TM o'quvchilarida og'zaki va yozma nutq madaniyatini shakllantirish, ona tilini formal-funksional va semantik tizimda o'rganish masalalari o'zbek tilshunosligining Andijon va Buxoro maktabi vakillari [83: 11–15; 110: 4–12] tomonidan rivojlantirildi va takomillashtirildi. Ona tili o'qitish metodikasi "O'qituvchi nutqi madaniyati" [90: 78], "Hozirgi o'zbek adabiy tilida matnning lingvistik tahlili [68: 58], "Badiiy matn lingvopoetikasi" [67: 34–37], "Leksikologiya sathini sistemalar sistemasi sifatida o'rganish" [139: 31–38], "Ona tili darslarida o'quvchi tafakkurini shakllantirish" yo'nalishidagi [24; 64; 159; 161] ilmiy tadqiqotlar zaminida boyitilib, takomillashib bordi.

O'zbekistonda matn lingvistikasi fanining jadal taraqqiyoti o'zbek tili o'qitish metodikasi fanida ham jiddiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Ona tili darslarida "tilshunoslik qonuniyatlarini emas, tilning o'zini, uning nutqiy imkoniyatlarini o'zaro uzviylik va uzluksizlikda o'rganish" [83: 21–37] "...ona tili ta'limi mazmunini yangilash masalalari" [83: 5–17] dolzarb mavzu sifatida ko'tarildi. So'z va so'z birikmasi qurilishi, gap qurilishi, matn qurilishi, grammatika va uslubiyatning soddadan murakkabga qarab boruvchi lingvopsixologik xususiyatlari o'rganildi [96; 79; 177].

Tadqiqot ishida nutq o'stirish va matn yaratish jarayonini modellashtirishga e'tibor qaratilishi o'zbek tilshunosligi va til o'qitish metodikasi fanlarining hamkorlikdagi taraqqiyoti natijasidir. Erishilgan natijalar esa ona tili darslarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilish, o'quvchilarda MYKSHning intensiv texnologiyalarini yaratish, ularni til o'rganish amaliyotiga tezkor joriy etishni taqozo etmoqda. Kompyuter lingvistikasi fanining dunyoga kelishi va jahon miqyosida jadal rivojlanishi respublika umumta'lim tizimida ona tili o'qitishni takomillashtirish [16: 2–7], axborot olish va uzatishni, matn yaratish va uni tahrir qilish jarayonini modernizatsiyalash zaruriyatini keltirib chiqardi. Kompyuter tilshunosligi sohasida keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borgan olimlar R. R. Kotov, L. E. Berzon, V. G. Britvin, A. B. Kuznetsovlarning [35: 39-43] asosiy xizmati shundaki, ular avtomatik tahrir qiluvchi dasturlar uchun lingvistik manba yaratib

berishdi. Natijada rus tilidagi matnlarni tahrirlovchi dasturlar ishlab chiqildi. Ko'rinadiki, bu dastur asosan so'zma-so'z tarjimaga mo'ljallangan bo'lib, unda ega-kasim munosabatlari, gap qurilishidagi uslubiy xatoliklarni aniqlash ko'zda tutilmagan. Kelajakda yaratiladigan o'zbek tilidagi lingvistik dasturlar, avtomatik tahrirning bu jihatlarini ham qamrab olishi ehtimoldan uzoq emas. Bu sohada ilmiy faoliyat yuritayotgan lingvist-texnolog S.Muhammedovning R.Piotrovskiy bilan hammualliflikda yaratgan "Injennemaya lingvistika i opo't sistemno-statisticheskogo issledovaniya uzbekskix tekstov" nomli kitobida lingvistik model, modellashirishning umumiy tamoyillari [101: 23–37] haqida fikr yuritilib, o'zbekcha matnlarning elektron modellari namunasi keltiriladi.

Umumjahon pedagogikasiga "muammoli ta'lim" tushunchasining kirib kelganiga unchalik ko'p bo'lmagan bo'lsa-da, O'rta Osiyoda u bir necha ming yillik tarixga ega. Qadimgi Sharq mutafakkirlari bilish – izlanish mahsuli ekanligini XI asrdayoq qayd qilganlar. Abu Ali ibn Sino (980–1037) o'zining "Donishnoma" asarida: "...qiyinchiliklarni engish orqali bilimlarni egallashning afzalligi"ni, Umar Xayyom (1042–1112) o'zining "Matematik traktat"larida: "...bilish uchun fikrlash, qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun esa o'ylash zarurligi...", Al-Tusiy (1201–1274) "...bilimni puxta egallash uchun mustaqil ishlashning zarur va muhim..."ligini ta'kidlab o'tishgan [94: 38–176]. Mazkur g'oyalar keyinchalik Evropada evristik ta'lim nazariyasining shakllanishiga asos bo'lib xizmat qildi. Rus tilshunosi M. Ro'bnikova "evristik ta'lim" nazariyasini ko'tarib chiqib, "mustaqil ishlash bilan o'quvchilarni, qolaversa, ta'lim jarayonining o'zini faollashtirishga erishish mumkin..."ligini asoslab berdi [124: 34–44]. Respublikamizda muammoli ta'lim yo'nalishida amalga oshirilayotgan keyingi ilmiy izlanishlar [64; 115: 22–25, 197: 42–48] ona tili va adabiyot darsliklarini takomillashtirish, ijodiy fikrlovchi barkamol avlodni tarbiyalash, innovasion ta'lim vositalarini yaratish va uni amaliyotga joriy etishga bag'ishlandi. Ayni kunda muammoli ta'limga "...o'quvchida mantiqiy tafakkurni faollashtiruvchi mustaqil vosita" [197: 4–9] sifatida qarash ona tili va adabiyot ta'limida ustuvor mavqeda turibdi. Lekin mazkur sohada olib borilgan ilmiy

izlanishlar, tajriba-sinovlar tahlili shuni ko'rsatdiki, muammoli ta'limdan nafaqat faol fikrlash, yechimni topish, qiyoslash, to'g'ri javobni tanlashda, balki o'quvchining MYKSHda, uning imloviy-uslubiy savodxonligi va nutq madaniyatini yuksaltirishda, nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasini kengaytirishda ham unumli foydalanish mumkin ekan.

Respublika UO'T tizimini innovatsion texnologiyalar asosida takomillashtirish, ona tili ta'limini zamon talablari darajasiga olib chiqish zaruriyati o'zbek tili o'qitish metodikasi oldiga quyidagi vazifalarni qo'ydi:

1. Ona tili darsliklarida **mustaqil ta'lim** topshiriqlarini ustuvor mavqega olib chiqish, tilni yaxlit bir sistema sifatida, tizimli o'rganish, o'quvchida nutqiy kommunikativ kompetentlik sifatini ko'tarishni bosh vazifa qilib belgilash;

2. O'quvchini mustaqil matn yaratishga yo'naltiradigan topshiriqlar miqdorini ko'paytirish, mustaqil fikrlash, fikr mahsulini to'g'ri ifodalash, matn ustida ishlash, MYKSH jarayonida so'z boyligini oshirish, berilgan so'z, so'z birikmasi, gap va mavzuiy slaydlar vositasida nutq o'stirish, uslubni farqlash;

3. Berilgan muammoni o'rganish va to'g'ri yechimni topishda nutqiy kompetentlikka asoslanish, javoblar orasidan eng to'g'risini tanlay bilish, yozma javob matni yaratishda mantiqiylik, tanqidiy tafakkur ustuvorligini ta'minlash;

4. Ona tili ta'limi mazmunini takomillashtirish: matn ustida ishlash va matn yaratish topshiriqlaridan o'quvchi nutqiy kompetentlik darajasini aniqlovchi va rivojlantiruvchi mezon sifatida foydalanish;

5. O'quvchini o'z g'ra nutqini tanqidiy nazorat qilishga odatlantirish, uning kichik matnlarni qayta ishlash, mazmunni takomillashtirishga qaratilgan urinishlarini rag'batlantirish;

6. O'quvchilarda o'z fikrini mustaqil, to'g'ri va izchil bayon etish kompetensiyasini shakllantirish, egallangan nutqiy kompetentlik darajasini MYKSH topshiriqlari vositasida aniqlash, rivojlantirish va mustahkamlash;

7. O'quvchiga og'zaki va yozma nutq jarayonida so'z va iboralarni to'g'ri tanlash, uni nutqiy vaziyat taqozosiga ko'ra o'rinli

ishlatish kabi madaniy muloqot kompetensiyasini [203: 13-15] singdirish.

O'quvchining ona tili fanidan DTSning [167] málaka talablari bo'yicha o'z fikrini yozma holatda, to'g'ri bayon etishi quyidagi parametrlar bo'yicha aniqlanadi: o'z-o'zini jismoniy, ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirish; kamolotga intilish, mustaqil o'qib-o'rganish; madaniy muloqot kompetensiyasini mustahkamlab borish; o'z bilimi, xatti-harakatini muqobil baholash va mustaqil qaror qabul qila olish kompetensiyasini egallash, milliy til imkoniyatlaridan unumli foydalangan holda fikrni to'g'ri, ravon bayon eta olish qobiliyatini rivojlantirish. Ammo matn sifatini aniqlashning yuqorida belgilangan parametrlari o'quvchi tafakkuri, nutqiy kompetentlik darajasi, fikr ifodalash mahoratini baholash uchun yetarli deb bo'lmaydi. Chunki mazkur talablarni amalga oshirishning aniq mexanizmi yaratilmagan.

Tadqiqot ishida tavsiya qilinayotgan o'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini 4 bosqichli tizimda shakllantirish texnologiyasi moduli "MYBT-4" yuqoridagi muammoning to'g'ri yechimi sifatida qaralmoqda. Bu tizim o'quvchilarning o'zlikni anglash, nutqiy bilim, intellektual qobiliyati va ma'naviy dunyosini uyg'unlikda rivojlantirish, o'quvchi shaxsini ona tilida to'g'ri, ravon, o'rinli va jadal fikrlovchi barkamol inson qilib tarbiyalashga xizmat qiladi. Agar o'quvchining so'z boyligi kam, nutqiy malakasi nochor bo'lsa, unda fikrni jamlash, so'z tanlash, matn yaratish jarayoni qiyin kechadi. Badiiy kitoblar o'qish, matn ustida ishlash, matn tilini boyitish, matn yaratish bilan muntazam shug'ullanish esa o'quvchida ijodiy tafakkurga, nutqiy kommunikativ kompetentlikka yo'l ochadi, o'ziga, o'z nutqiy mahoratiga ishonch uyg'otadi, ikkilanmay qaror qabul qilish, nasriy va nazmiy matnlarni mustaqil, o'zganing yordamisiz yaratish faoliyatiga tayyorlaydi.

MYKSHning asosiy tamoyillari va shart-sharoitlari. Tilni tizimli o'rganishda til sathlariaro va fanlararo aloqadorlik tamoyiliga qat'iy amal qilish; uyadosh, ma'nodosh, zid ma'noli, shakldosh, tarixiy, olinma, paronim so'zlar topish, ularni guruhlash va tanlash asosida o'quvchi so'z boyligini oshirish; so'zning lug'aviy ma'nosini sharhlash, morfologik va grammatik xususiyatlarini qiyoslash asosida nutq o'stirish; mavzu yo'nalishida so'z birikmalari (SB)

hosil qilish hisobiga o'quvchining grammatik bilimlarini aniqlash, shuningdek, fikr elementini ajratib ko'rsatish, ta'kidlashda foydalanish; o'quvchilarda gap tuzish kompetensiyasini shakllantirish – so'zni o'rinli ishlatish, gapni ixchamlash, kengaytirish, ega-kesim munosabatlariga diqqatni qaratish, uslubiy-grammatik savodxonlik kompetensiyasini egallash.

O'quvchilarning MYKSHda **matn tilini boyitish** muammosi esa maqol, matal, hikmatli so'z, ibora va tasviriy ifodalardan, matn ichida matn, ya'ni rivoyat, qissa, hadis, hikoyat, lirik chekinish, qit'a, ruboiy kabi barqaror nutqiy atamalardan o'rinli foydalanish, kontekstga mos so'z va atamalar tanlashni o'rganish orqali o'z yechimini topadi.

O'quvchiga matn va uning tarkibiy qismlari: kirish, asosiy qism, xulosa, gap, xatboshi, MSB (murakkab sintaktik butunlik)larni farqlash, ularni o'zaro moslashtiruvchi, bog'lovchi vositalar, uslubiy ravonlik, ohangni ta'minlovchi tinish belgilari, mantiq, bog'lalarning uslubiy - grammatik xususiyatlari haqida ma'lumot berish, olmoshlar, kirish so'z, undalmalarning gapda bajaradigan sintaktik vazifasini tushuntirish, ularni gap tuzish va matn yaratish amaliyotiga to'g'ri tatbiq yetishni o'rganish MYKSHda muhim ahamiyatga ega. Mazkur kommunikativ yondashuvdan ko'zlanadigan asosiy maqsad – o'quvchini mustaqil matn yaratishga tayyorlash, imloviy-uslubiy ko'nikmalarni singdirish, og'zaki va yozma nutq kompetensiyasini shakllantirishdir.

O'quvchini matn yaratishga yo'naltirish, nutqiy kompetentlikni tizimli rivojlantirish ishlari – MYKSHning innovatsion texnologiyasini yaratish, uni ona tili ta'limiga izchil joriy etish zaminida o'z yechimini topadi. MYKSHning asosiy sharti o'quvchini so'zni tanib va tanlab ishlatishga, doimiy izlanishga odatlantirish shuningdek, ona tili darslarida turli shakl va mazmunda matnlar tuzishga o'rgatishdir. Shu bilan birga nutqiy kompetentlikni rivojlantiruvchi yangi texnologiyalarni yaratish, shu maqsadga xizmat qiluvchi psixolingvistik topshiriqlar tizimini ishlab chiqish (qarang, 18-ilova) va uni ona tili darsliklari tarkibiga kiritish zaruriy didaktik ahamiyat kasb etadi.

O'quvchi so'z zahirasini boyitish, nutq o'stirish, matn yaratishga yo'naltirilgan mashqlar til imkoniyatlaridan foydalanishning

samarali usullaridan hisoblanadi. Ona tili ta'limida uyadosh so'zlar ustida ishlash, so'zlarning birikuvchanlik doirasi, ixtisosiy atamalarining bajaradigan vazifasini sharhlash singari mashqlarni yo'lga qo'yish nutqiy kompetentlikka erishishning sinalgan usulidir. Demak, MYKSH yoshlarda fikr mahsulini izchil, to'g'ri, ravon ifodalash, nutqiy vaziyatga ko'ra, jadal fikrlash, ixcham va mazmundor matn yaratish, nutqiy-intellektual kompetentlikni ta'minlashdan iborat. Masalan, darsda faks, SMS matnlari yozish, elektron pochta, uyali aloqa vositasi uchun tabrik, reklama matnlari tuzish, muammoli vaziyatlarga javoblar yozishni o'rganish shular jumlasidandir. Chunonchi, matn tilini boyitishga xizmat qiluvchi leksik imkoniyatlar: uyadosh, ma'nodosh, shakldosh, zid ma'noli, paronim, yangi va eskirgan so'zlar, ibora va tasviriy ifodalar tanlash, ularning umumiy va xususiy ko'rinishlarini o'rganish o'quvchida nutqiy kompetentlikni ta'minlaydi, nutqni mahsuldor qiladi. Ona tilidan DTSni ishlab chiqishdan ko'zlangan bosh maqsad o'quvchida mustaqillik, ijodiy tafakkur, nutqiy taraqqiyotni ta'minlash ekanligi hisobga olinsa, tilni tizimli o'rganish asosida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish, nutqiy kompetentlikni ta'minlash ana shu maqsadga eltuvchi ko'prikdir.

Buning uchun ona tili ta'limiga kompetensiyaviy yondashuv, tilni tizimli o'rganish g'oyasiga to'liq tayanish, har bir til mavzusini o'rganishni kichik matnlar yaratish bilan yakunlash lozim, zero matn yaratish faoliyati dars amaliyotining tarkibiy qismiga, o'quvchida nutqiy kommunikativ kompetentlikni ta'minlash vositasiga aylanishi zarur.

1. MYKSH jarayonida nutqiy kommunikativ kompetentlikni mustahkamlash, matnni shakllantirish uchun zahira manbalar hosil qilish, fikrni ixcham, to'g'ri va o'rinli ifodalashda til imkoniyatlaridan foydalanish, gapni takomillashtirish, undagi so'z va SBlarini boshqa, yaxshirog'iga almashtirish, gapni kengaytirish va ixchamlash, unga ma'nodosh gaplar tanlash orqali amalga oshadi.

2. Matn tilini boyitish, imloviy-uslubiy savodxonlik muammosi esa maqol yoki hikmatli so'zlardan keng foydalanish, maxsus tanlangan, imloviy-uslubiy xatoli matnlar ustida ishlash, o'zi yaratgan matnni mustaqil tahrir qilish, matnni guruh muhokamasiga taqdim etish asosida o'z yechimini topadi.

3. Ona tilida kichik badiiy matnlar yaratish o‘quvchida ijodiy tafakkurni shakllantirsa, til hodisalarini kuzatish, so‘z ma’nolarini qiyoslash, farqlash, tanlash, analiz va sintez qilish – ma’naviy barkamollik, nutqiy kommunikativ kompetentlikning tarkib topishiga xizmat qiladi [64; 68; 109; 161, 104; 105]. Turli frazeologik birikmalar, tasviriy ifodalar, atamalar ma’nosini sharhlash, un xususiy nutqda qo‘llash o‘quvchida o‘z fikrini ixcham, aniq, qiziqarli ifodalash layoqatini shakllantiradi. Masalan, *“Bu gapdan xabar topgan Salimaning “labiga uchuq toshdi”* (seskandi, qo‘rqib ketdi, xavotirga tushdi ma’nosida).

Ta’limga MYKSH texnologiyalarini joriy etish – o‘qituvchi va o‘quvchi hamkorligi, subyekt-subyekt munosabatlarida ijobiy natija beradi, milliy til imkoniyatlarining matnda moddiylashuvini ta’minlaydi. Bunda o‘quvchi ta’lim jarayonining faol subyeksi sifatida o‘zi mustaqil faoliyat yuritadi, izlanadi, matn yaratadi. Yozilgan ishni o‘zi mustaqil tahrir qilish, baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

MYKSH jarayonida egallanadigan nutqiy kompetentlik darajalari 6 ta bo‘lib, u quyidagicha belgilandi: 1. Matnni ifodali o‘qish, anglash, qayta hikoya qilish va to‘g‘ri xulosa chiqarish darajasi. 2. Matn ustida ishlash, yangi g‘oyalar topish va izchil rivojlantirish (kreativlik) darajasi. 3. Matnning tarkibiy qismlarini (kirish, asosiy qism, xulosa) to‘g‘ri shakllantirish darajasi. 4. Matnni iqtibos, fakt va dalillar, maqol va hikmatli so‘zlar bilan boyitish darajasi. 5. Matn tahriri bilan mustaqil shug‘ullanish: matnni ixchamlash, kengaytirish, matn turi va uslubini o‘zgartira bilish darajasi. 6. Matn xulosasini to‘g‘ri, ixcham, mazmundor shakllantirish darajasi.

Shunday qilib, o‘quvchi va o‘qituvchi o‘rtasidagi hamjihatlik, o‘zaro hamkorlikda ishlash, mustaqil ta’lim faoliyati o‘quvchida mavjud bo‘lgan ijodiy tafakkurni faollashtirishi, nutqiy kompetentlikni mustahkamlashi lozim. O‘qituvchi o‘quvchilarni matn yaratishga qiziqtirish uchun darsni puxta rejalashtirishi, matn yaratish faoliyatiga tayyorlovchi mashq namunalari, rangli slaydlar tayyorlab, qo‘shimcha manba sifatida dars rejasiga kiritishi, darsni guruhlararo musobaqa ruhida tashkil qilishi, ilg‘or o‘quvchilarni rag‘batlantirib borishi nihoyatda muhim. Haqiqiy pedagog

o'quvchining qiziqishlari, o'z iste'dodini namoyish qilishga bo'lgan ishtiyoqini ijobiy qabul qilishi, uni guruh oldida rag'batlantirishi, ijodkor o'quvchilarning kreativ rivojlanishi uchun zaruriy shart-sharoit (musobaqa, ko'rik-tanlov, taqdimot) yaratib berishi lozim. Chunonchi, nutqiy madaniyatni shakllantiruvchi adabiy uchrashuvlar, ko'rik-tanlovlar, bahs-munozara va debatlar uyushtirishda o'quvchi ijodini ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlash zarur bo'ladi. O'qituvchi shu tariqa nafaqat o'quvchi bilimi, balki o'zining pedagogik mahoratini ham ortira boradi. Haqiqiy pedagog xulosada shoshmasligi, yetti o'lchab bir kesishi, o'zida insonparvarlik, bag'rikenglik, muruvvat ko'rsatish fazilatlarini tarbiyalashi lozim.

Ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot va kommunikasion texnologiyalar, texnologik innovatsiyalarning kirib kelishi o'qituvchini o'z pedagogik faoliyatini takomillashtirishga, texnologik malakalarni egallashga bo'lgan mas'uliyatini oshiradi. Kompetensiyaviy ta'limda pedagog faoliyatini quyidagicha modelashtirish mumkin (1.1-jadvalga qarang). Jadvalda berilganidek, pedagog faoliyati modeli qo'yilgan maqsad va uni amalga oshirish usullaridan tarkib topadi.

Pedagogik faoliyat natijasi unda mujassamlangan to'rtta ta'limiy-pedagogik xususiyatlar: *pedagogik faoliyat mazmuni, uslubi, o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasi, pedagogik tajribasi* bilan o'lchanadi. Ta'lim maqsadi, muammolari, vazifalari, dars samaradorligi pedagog faoliyatining mazmunini tashkil qilsa, ta'lim metodlari, shakllari, AKTdan foydalanish – pedagogik faoliyat uslubini belgilaydi. Uning ish tajribasi, pedagogik mahorati – nutqiy madaniyat, muloqot usullarini [202: 10-14] takomillashtirsa, dars sifatining yuqoriligi – xususiy pedagogik texnologiyalar yaratish, uni amaliyotga joriy etish kabi kasbiy kompetentlikda, o'quvchisining og'zaki va yozma muloqot madaniyatida ko'rinib, pedagogik faoliyat samarasini kafolatlaydi.

Kompetensiyaviy ta'limda o'qituvchi faoliyati modeli.



1.1-rasm.

O'quv faoliyatini amalga oshirish shartlari darsliklarda ko'rsatilsa, uning sharoit va imkoniyatlari, texnologik yechimlari o'qituvchi tomonidan belgilanadi.

Mazkur modelda pedagogik faoliyatga alohida ahamiyat berilgan. O'qituvchining dars berish mahorati qancha kuchli bo'lsa, o'quv faoliyati ham shuncha samarali bo'lishi shubhasiz. Ammo zamonaviy texnologiya asosida tashkil etilgan dars samarasida nafaqat o'qituvchi mehnati, balki yana bir subyekt – o'quvchining izlanishlari ham yotadi. Zamonaviy dars mustaqil ta'lim, ya'ni fikrlash, izlanish, kashf qilishga asoslangan bo'lib, u o'quvchilarda so'z boyligi, imlo savodi, grammatik bilim, gapga badiiy ishlov berish, uslub, nutqiy salohiyatni rivojlantirish va matn yaratish kompetensiyasini o'zaro uzviylikda shakllantirishga xizmat qiladi.

O'quvchida nutqiy kommunikativ kompetentlikni shakllantirish jarayoni ta'limga izchil va uzluksiz yondashuvni talab qiladi. Ishning foydalilik koeffitsiyenti olingan natijaga qarab belgilanadi. Zero, har

qanday natija baholanishi lozim. Demak, o'quvchining nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasi – so'zlangan nutq, yaratilgan matn mazmun, muloqot madaniyati, komillikka intilish, tanqidiy fikrlash, nutqiy vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qila bilish, fikr bayonida til imkoniyatlaridan keng foydalanish, yaratilgan matnni guruh oldida taqdimot qila bilish doirasida baholanadi.

Ayni paytda umumta'lim tizimida ishlayotgan ona tili o'qituvchisi belgilab qo'yilgan muayyan kasbiy pedagogik kompetensiyalarga ega bo'lishi shart va bu davlat va jamiyat, ijtimoiy taraqqiyot talabiga muvofiqdir [83; 140: 30-50; 144: 91; 146: 23-24] (1.1-jadvalga qarang).

| | |
|--|--|
| 1. Tashkilotchilik kompetensiyasi | 2. Madaniy muloqot kompetensiyasi |
| 3. Metodologik kompetensiya | 4. Konstruktiv kompetensiya |
| 5. Matematik prognoz, loyihalash kompetensiyasi | 6. Innovatsion texnologiyalardan foydalanish kompetensiyasi |

1.2-jadval. Ona tili o'qituvchisi egallashi lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar

Ayni kunda UO'TMda amalga oshirilishi tavsiya qilinayotgan ona tilini tizimli o'rganish jarayonida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi mazmunini quyidagicha tasniflash mumkin.

1. Mavzuga oid tayanch uyadosh so'zlar tanlab, matn tilini boyitish. 2. So'zning lug'aviy ma'nosi, leksik-grammatik xususiyatlarini izohlash. 3. SB, gap va matn mazmunini sharhlash asosida nutq o'stirish. 4. Nutq sharoitiga moslab, mustaqil va tezkor fikr ifodalash. 5. Fikrni ixcham, to'g'ri, ravon, o'rinli ifodalash. 6. Nutq madaniyati [90: 5–27; 144: 21–30-b. 170: 34–44]; 7. Adabiy til me'yorlariga amal qilish [73: 35–37; 177: 16–28]; 8. Imloviy-uslubiy tahrir bilan shug'ullanish. 9. Matnni taqdimot qilish; 10. O'quvchi ongosti tafakkurini maqsadli boshqarish, uzluksiz yangilanuvchi, doimiy harakatdagi nutqiy komponentlar tizimini hosil qilish. 11. "Aqliy hujum", "Media-trening", "debat", "bahs-munozara", "musobaqa", "ko'rik-

tanlov”, “ijodiy taqdimot” darslarini tashkil qilish [109; 130; 161: 12–28]. 12. O‘quvchining o‘z qarori, dunyoqarashini fakt va dalillar, taqdimotlar yordamida isbotlashiga sharoit yaratish.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ona tili fanidan til bo‘limlarini o‘zlashtirish, nazariy BKmlarini egallash kabi muammolarni hal etishda o‘quvchini mustaqil fikrlashga yo‘naltiruvchi *tayanch kompetensiyaviy yondashuvlardan foydalanish yaxshi natija beradi*. Tayanch kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim tizimi samaralidir.

Nutqiy kompetentlik – bu o‘quvchi shaxsining og‘zaki va yozma nutqqa oid bilimlarini amaliyotda qo‘llash, madaniy muloqot, mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Agar o‘quvchi egallangan nutqiy kompetensiyani o‘z kundalik muloqoti, guruh bilan ishlash faoliyatida amaliy qo‘llay olsa, u nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasiga erishgan bo‘ladi. Nutqiy kommunikativ kompetentlikdan ko‘zlanadigan yagona maqsad esa – davlat va jamiyatning bosh talabi – ijtimoiy muammolarni mustaqil hal qilishga qodir barkamol avlodni, raqobatbardosh mutaxassislarni tarbiyalab etishtirishdir [83; 144: 28-35].

O‘quvchidagi nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasi, uni tashkil qiluvchi komponentlar ustida kengroq to‘xtalinsa, quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: ravon, tushunarli so‘zlash, o‘z-o‘ziga ishonch, guruh bilan muloqotni yo‘lga qo‘yish; erkin suhbatga kirishish; mantiqan to‘g‘ri savol berish, savolga to‘g‘ri va aniq javob berish; bahs-munozara tashkil qilish va uni boshqara bilish; o‘z fikri va dunyoqarashini himoya qilish; og‘zaki so‘rov o‘tkazish; intervyu olish; vaziyatga mos qaror qabul qilish.

Ona tili ta’limida “kompetensiya”, “kompetentlik” tushunchalari tarkibiga kiritilgan quyidagi 7 holatga alohida e’tibor qaratish lozim:

- 1) muayyan bilimlar majmuiga egalik va uni amalda qo‘llay olish;
- 2) shaxsning zehni, uquvi, hislati va fazilatlarini;
- 3) mustaqil nutqiy- amaliy faoliyatga tayyorlik;
- 4) muammoni hal etish, zaruriy natijalarni qo‘lga kiritish layoqati;
- 5) shaxsning biror kasbiy faoliyatni yo‘lga qo‘yish uchun kerakli ko‘nikma, malakalarga egaligi;
- 6) faollashgan, ya’ni amaliyotga tatbiq etilgan bilim va

tajribalarga egaligi; 7) maqsadga yo'naltirilgan emotsional iroda kuchining mavjudligi.

UO'TM da o'tkazilgan ko'p yillik tajriba-sinov ishlari shunday ilmiy xulosaga olib keldiki, ta'limga nafaqat nutqiy BKMLarni rivojlantiruvchi, balki nutqiy kommunikativ kompetentlikni kafolatlovchi interaktiv metodlar, mustaqil amaliy faoliyat bilan uzluksiz takomillashib boruvchi kompetensiyalar tizimi kerak. Kompetensiyaviy ta'lim ana shunday metodlar sirasiga kiradi: *"Men o'zimga nima kerakligini, o'rganilayotgan hamma narsani qachon, qaerda va qanday ishlatishni bilaman"* – mazkur ta'lim metodining asosiy tezisi hisoblanadi. Umumta'lim maktablarida o'quvchining o'ziga xos va mos, turli sohaga oid tayanch kompetensiyalar shakllanishi mumkin. Lekin har qanday kompetensiya avvalo, ko'nikma shaklida voqelanadi.

Mustaqil MYKSH jarayonida 5–9-sinf o'quvchisining nutqiy kompetentligi refleksiv ko'nikmalar, izlanuvchanlik, analiz va sintez, qiyoslash, tanlash, matn yaratish, tahrir va tahlil jarayonida uzluksiz shakllana boradi. O'qituvchi faoliyati motiv, muammo, maqsad, vazifa, metod va usullar, ish faoliyati, natija, baho kabi zaruriy komponentlardan tashkil topadi.

Mazkur uzluksiz harakatdagi metodologiyani darsga tatbiq etishning ayrim nazariy asoslari H.G'. Ne'matov, A.Q. G'ulomovlar tomonidan ishlab chiqilgan o'quv-metodik qo'llanmalarda [189 – 194], O'TDA anjumanlari materiallarida [166 – 175] aks etgan bo'lib, unda o'quvchining ijodiy yozma ish – matn ustida ishlash bo'yicha egallagan kompetensiyasini quyidagi tartibda mustahkamlash tavsiya qilinadi:

ijodiy yozma ish (matn) tushunchasi: rasm asosida hikoya, manzara tasviri, shaxs, hayvon, narsa-buyum, voqea-hodisa tasviri; o'quvchi (muallif) va borliq; yozma ish – o'quvchining o'zligi; yozma ishga mavzu tanlash, uni tayyorlash; ayni bir narsa (buyum, manzara, voqea-hodisa) haqida turli mavzuda matn yaratish; mazmunning mavzu bilan uyg'unligini ta'minlash; berilgan mavzu, erkin mavzu ustida ishlash; mavzuni yoritish uchun zarur material yig'ish, o'quvchining mavzu doirasidagi nutqiy bilimi, so'z boyligi, tasavvur, idrok, mulohaza, hukm va xulosalari; yozma ishning rejasiga qo'yilgan asosiy talablar: tor reja, keng reja; mavzuni

yoritishda mazmun izchilligi: “xatboshi” (abzas) tushunchasi; yozma ishni qayta ishlash; gapda uyadosh, ma’nodosh, shakldosh, zid ma’noli soʻzlar, maqol va hikmatli soʻzlardan foydalanish matn uslubi, imlo va ohang (tinish belgilari) ustida ishlash; xatolar ustida ishlash va hk. Ammo mazkur tavsiyalarda tilni tizimli oʻrganish, yozma nutq komponentlarini bosqichli egallash, ya’ni oʻquvchilarni til imkoniyatlaridan keng foydalanishga oʻrgatish; mustaqil matn yaratishga tayyorlash; matn yaratish uchun zarur leksik manba hosil qilish; ulardan foydalanib, mavzuga oid sintaktik birliklar, SBlari va gaplar tuzish; toʻplangan zahira manbadan matn yaratishda foydalanishga e’tibor qaratilmagan.

Oʻquvchilarda MYKSHning didaktik tamoyillari sirasiga quyidagi ta’limga kompetensiyaviy yondashuv talablarini kiritish lozim:

1. Tilni yaxlit bir sistema sifatida sathlararo va fanlararo aloqadorlik tamoyilida oʻrganish, matn mazmunini shakllantiruvchi lugʻaviy manbani yaratishda *tilning uyadoshlik hodisasidan* foydalanish.

2. Oʻquvchi nutqini shakllantirishda izchillik, uzviylik va uzluksizlik, bosqichlilik, ilmiylik va tushunarlilik, koʻrgazmalilik, tizimlilik kabi umumdidaktik tamoyillarga asoslanish.

3. Ogʻzaki va yozma nutqni MYKSH texnologiyalari asosida jadal rivojlantirish, fikrni toʻgʻri, ixcham, oʻrinli ifodalashga oʻrgatish.

4. Dars amaliyotini ta’limga *kompetensiyaviy yondashuv* tamoyili asosida tashkil qilish. Nutqiy kommunikativ kompetensiyani nutqiy vaziyatli topshiriqlar, slaydlar yordamida mustahkamlash, tasnifiy matnlar yaratish, savol va topshiriqlar, nazorat testlari tuzish asosida uzluksiz rivojlantirish.

5. Ilmiy, rasmiy, publisistik, badiiy, kichik nasriy va nazmiy, tasnifiy matnlar yaratish asnosida ona tili darslarida mustaqil izlanish, ijodiy tafakkur, nutqiy kompetentlik, oʻquvchi subyekti faolligini ta’minlash.

Ma’lumki, 5–9-sinf oʻquvchilarining oʻzlashtirish darajasi, bilimi, fikrlash layoqati va fikr ifodalash qobiliyati har xil. Shu sababli ona tili darslarida MYKSHni jadallashtirishning muhim sharti – har bir oʻquvchining soʻz zahirasi, nutqi, til imkoniyatlaridan foydalanish darajasini toʻgʻri aniqlash va uni izchil rivojlantirib

borishdir. O'quvchi nutqiy imkoniyatlari deganda – uning milliy tilni bilishi, uni og'zaki va yozma nutqda to'g'ri, o'rinli, erkin qo'llash darajasi tushuniladi. Berilgan topshiriq (masalan, rasmin asosida matn yaratish) asosida ishlagan ijodkor o'quvchi matnida nafaqat tasvirning o'zi, balki uni ko'rish va kuzatishdan olingan taassurotlar ham aks etadi. Nutqiy imkoniyatlari o'rtacha, fikrlash qobiliyati sustroq bo'lgan ikkinchi o'quvchi esa hech bo'lmaganda rasmda tasvirlangan narsa-buyum, o'simlik va jonzorlar nomini to'g'ri yozadi, guruhlaydi, sharhlaydi, ular asosida SBlari va gaplar tuzadi. Har bir o'quvchida faqat uning o'zigagina xos bo'lgan kuzatish, eshitish va anglash qobiliyati, tasavvur va tafakkur quvvati mavjud bo'lib, ular fikr ifodalashga kuchli ta'sir o'tkazadi. Mazkur ruhiy quvvatlarni to'g'ri o'zanga solish esa nutqiy vaziyatli rasmlar, veb-sahifalar, alohida saytlar tavsifi ustida ishlash, turli adresatlarga (o'qituvchiga, otasi, akasi, dugonasi, bobosiga) telefon yoki kompyuterda xat va SMSlar yozish, ovozli multfilmlar, videokliplar mazmunini sharhlash, darsda san'at asarlaridan foydalanib matn yaratish orqali amalga oshiriladi.

O'qituvchi MYKSHda o'quvchining yosh psixologiyasi, til qobiliyati, ijtimoiy doirasi, egallagan nutqiy kompetentlik darajasi, nutqiy-intellektual layoqati, idrok va xotira kuchiga oid individual xususiyatlarini aniq hisobga olishi muhim ahamiyatga ega.

Axborot kommunikasiya texnologiyalaridan foydalanish boshqa fanlar qatori ona tili ta'limida ham muhim o'rin tutadi. O'quvchi ongida MYKSHning jadal rivojlanishi va malakaga aylanishi – ona tili ta'limi mazmuni, o'quv dasturi va darsliklarning sifati, ta'limning yangi pedagogik texnologiyalar asosida tashkil qilinishiga bog'liqligi isbot talab qilmaydigan haqiqat. Individual nutqda so'z ishlatishni o'rganish darslikdagi til birliklari va uning grammatik xususiyatlarini yodlashdan iborat bo'lib qolmasligi, asosiy e'tibor to'g'ri talaffuzga, so'zning lug'aviy ma'nosi, grammatik xususiyatlari tasnifiga qaratilishi, o'quvchi til va nutqdagi umumiy va xususiy belgilarni farqlab sharhlash, ulardan o'rinli foydalanish kompetensiyasini egallashga yo'naltirilishi lozim. Darslik materiallari, mustaqil ish, mashq va o'quv topshiriqlari ko'proq imlo savodxonligi, og'zaki va yozma nutq, mustaqil matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirishga

qaratilishi zarur. Ana shunda ona tili ta'limining og'riq nuqtasi – imlo va uslubiy savodxonlikni mustahkamlash muammosi o'zining haqiqiy yechimini topadi.

5–9-sinf “Ona tili” darsliklarining MYKSHga yo'naltiruvchi mustaqil ishlar, rangli slaydlar, lingvistik mashqlar, muammoli vaziyat, muammoli topshiriqlar, tabiat manzaralari, psixolingvistik topshiriqlar bilan intensiv boyitilishi o'quvchilarda ijobiy o'quv motivlarini uyg'otadi, nutqiy taraqqiyotni jadallashtiradi.

Hozirgi tilshunoslikda sistemalar sistemasi [139: 23–37] tamoyilida o'rganilayotgan o'zbek tili leksikasi o'zining bir qator farqlanuvchi, guruhlanuvchi, yaxlitlanuvchi va tarmoqli kengayuvchi – “kommunikativlik” belgi-xususiyatlariga ega. Ular barqarorlik (doimiy mustaqil faoliyat), ochiqlik (yangi so'zlar kiritilishi va keraksizlarining iste'moldan chiqishi), ichki bo'linuvchanlik (diskretlik, semantik maydon), ierarxik munosabat (shartlanganlik), butun-bo'lak va jins-tur (variant va invariantlik) munosabatlarida [139: 23–37] mavjud bo'ladi.

Tilshunoslikka oid “sistemalar sistemasi” tushunchasining [139: 23–37] o'zbek tili o'qitish metodikasi fani tarkibiga kiritilishi, o'quvchi so'z boyligini oshirish va nutqiy kompetentlik darajasining ortishida alohida didaktik ahamiyat kasb etadi: Masalan, *Bahor* mikromaydonida to'plangan Navro'z, hamal, gul, boychechak, binafsha, ochilmoq, urug', ekin, unmoq, kurtak, maysa, sumalak, ko'k somsa, sel kabi so'zlar o'rtasidagi munosabatlar yaxlit holda ***tilning uyadoshlik hodisasi*** sifatida qaralishi, ona tili ta'limiga so'z boyligini oshirish va boyitish, tilni uzluksiz-tizimli o'rganish texnologiyasi sifatida kiritilishi – o'zbek tili o'qitish metodikasi fanida mustaqil ta'lim taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradi.

Uyadoshlik munosabatlari (bir sathga mansub bo'lgan, qiymat jihatidan bir xil til birliklarining ma'lum umumiy belgi asosida bir guruh (uya)ga birlashuvining tarmoqli sistemasi), uning mikro va makromaydonlari [139: 12–17], leksik maydon tushunchasining amaliy mohiyatini anglash [104: 52–66], uyadosh so'zlardan gap va matn uchun o'rnlilarini tanlab ishlatish XXI asr o'quvchisi uchun qulay va qiziqarli. Mazkur faoliyat musobaqa tarzida tashkil qilinsa, bu o'quvchilarning idrok va tafakkurini uyg'otib, darsni qiziqarli va sermahsul qiladi, o'quvchi-o'qituvchi munosabatlarida o'quvchini

ustuvor mavqega ko'taradi – o'quvchi eshituvchi, bajaruvchi emas, izlanuvchi subyektga aylanadi.

Uyadoshlik hodisasidan maktab ona tili ta'limida foydalanish, o'quvchiga til xazinasini ochib beruvchi "kalit" vazifasini o'taydi. Uni mustaqil izlanishga, so'zlarni guruhlash va qiyoslashga, analiz va sintez asosida zarur so'zni tanlashga o'rgatadi. Uyadosh so'zlar ustida ishlash o'quvchini qo'shimcha lug'aviy manbalar hosil qilish, uyadoshlarning leksik-semantik qurshovini tiklash, MYKSHda til va tafakkur integratsiyasidan unumli foydalanishga keng yo'l ochadi. Uyadoshlik hodisasining ona tili ta'limi tarkibiga kiritilishi, o'quvchi lug'at zahirasi shiddatli kengayishi va boyishi, so'z ustida ishlash, so'z tanlash texnologiyasining takomillashuviga olib keladi. Yangi mavzuni o'rganish, takrorlash darslarida tilni tizimli o'rganishning to'rt omilidan (so'z zahirasi kengaytirish va nutq o'stirish; so'z birikmalari hosil qilish, ularda ma'no o'zgarishlarini sharhlash; gapni ixchamlash yoki kengaytirish; matn yaratish, uni tahrir va tahlil qilish) muntazam foydalanish o'quvchida nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasining ortib borishi – madaniy muloqot komponentlarining shakllanishiga qulay sharoit yaratadi.

Uyadosh so'zlarni guruhlash MYKSHda muhim ahamiyatga ega. U o'quvchi so'z zahirasi boyitishdan tashqari, so'zni muayyan yo'nalishda qo'llash va ijodiy izlanishga yo'l ochadi. O'quvchi ongida bir uyaga, bir turga, bir guruhga mansub so'zlar va ularni bir-biriga bog'lab turgan leksik-semantik qurshov haqida ilk nazariy tushunchalar hosil bo'ladi. So'zning ishlatilish doirasi, boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasi (sathlararo va fanlararo aloqa), bo'yicha nutqiy bilimlar shakllanadi va mustahkamlana boradi. O'quvchining uyadoshlar ustida ishlashi, qofiyadosh so'zlar topishi va tanlashi uning uchun "evrika!" (kashfiyot), o'z nutqida ishlatmagan so'zni kashf qilish, so'zning sehrli dunyosiga qadam qo'yishdir. Bunday kichik tadqiqotlar o'rganuvchi subyektning bilish faoliyatini jadallashtiradi, uyadosh mikroguruhlarini hosil qilish (venn diagrammasi), so'zlarning o'xshash va farqli tomonlarini kuzatish, so'zni lug'aviy tahlil qilish kabi nutqiy komponentlarni rivojlantiradi. Darsda uyadosh so'zlarning lug'aviy ma'nolari izohlanadi, o'zaro qiyoslanadi, sharhlanadi, matnga mosi tanlanadi, asosiysi, nutq ravonlashadi. Shu jarayonda o'quvchiga uyadosh so'zlardan SBlari

hosil qilish, uyadosh gaplar tuzish, ulardan bo'lg'usi matn uchun eng maqbulini tanlash imkoniyatining berilishi esa ijodiy fikrlash va matn yaratishga qulay sharoitni yuzaga keltiradi.

Tayanch uyadosh so'zlar matnning pragmatik loyihasi, zaruriy qurilish materiali bo'lib, u so'z tanlash, SBlari hosil qilish, ixcham, mazmundor gap tuzish, ohang, yangi xatboshilarning shakllanishi va mazmunning boyishiga xizmat qiladi.

Umumiy o'rta ta'limning 5-9-sinflarida uyadosh so'zlar ustida ishlash mashqlari ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchi lug'at zahirasini yangi so'z va atamalar bilan boyitish, matn qurshovini belgilashning ishonchli vositasidir. Uyadoshlarning lug'aviy ma'nosini farqlash va sharhlash texnologiyasi boshlang'ich sinfdanoq o'quvchida to'g'ri nutq, madaniy muloqot kompetensiyasining shakllanishiga [61,62, 139, 202: 20-25] olib keladi. Mazkur "sharhlash" texnologiyasi o'quvchida nutqiy taraqqiyotni tezlashtiradi, tafakkurni rivojlantiradi, leksik – grammatik, sintaktik, uslubiy bilimlarning kengayishi, mustahkamlanishiga sabab bo'ladi. Zero, o'quvchini matn yaratishga tayyorlashni "sathlararo va fanlararo aloqalar"siz [195: 5-9], uning ajralmas qismi bo'lgan uyadosh so'zlarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. MYKSH amaliyotida evristik-kreativ topshiriqlar ustida ishlash [63: 21–22; 40: 29–34], matn uchun tayanch so'zlar tanlash bilan muntazam shug'ullanish o'quvchi yaratgan matn tilining ravon, boy va mazmundor bo'lishiga, matnda imloviy-uslubiy nuqsonlarning kamayishiga olib keladi. Evristik-kreativ topshiriqlar o'quvchi shaxsini o'z "men"ini anglab etishga, nutqiy salohiyati, matn yaratish mahoratini o'zgaralar oldida namoyish qilishga undaydi. Umuman, uyadosh so'zlar asosida matn yaratish texnologiyasi ona tili o'qitish metodikasi uchun yangi, tezkor va mahsuldor usul sanalib, u o'quvchi lug'atining kengayishi, so'z tanlash imkoniyatining ko'payishiga olib keladi.

Tilning uyadoshlik kategoriyasi – metodika fani uchun beqiyos bir imkoniyat, didaktik topilma, so'zlar xazinasining kaliti. Unda mavzu doirasidagi tushunchalar jamlanadi, fikr yo'nalishi belgilanadi, boy va ko'pqirrali lug'aviy manba hosil qilinadi. Quyida tilning leksik qatlamini sistemalar sistemasi sifatida o'rganish [139: 23–37], o'quvchi lug'atini boyituvchi, nutq o'stiruvchi, uyadosh so'zlarning mikromaydonlarda jamlanuvchi xususiy turlarini topish,

tanlash va ma'no farqlarini sharhlash texnologiyasiga oid mustaqil ish namunasi berildi (1.2-jadvalga qarang).

Ona tili fanidan yangi avlod o'quv adabiyotlari – videodastur va videodarsliklarni yaratishda MYKSHga yo'naltiruvchi evristik-kreativ o'quv topshiriqlaridan foydalanish, o'quv motivlarini harakatga keltiruvchi mediamashqlarni [22; 23; 25; 26; 27] ko'paytirish, nutqiy kompetensiyalar integrasiyasi (yaxlitlashuv) dan foydalanish nihoyatda zarur. Til o'rganish amaliyotida og'zaki va yozma nutqning izchil, tizimli, uzluksiz rivojlantirilishi o'quvchida nutqiy kompetentlikni ta'minlash bilan bir qatorda MYKSH jarayonini ham jadallashtiradi. O'quvchining nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasi – mustaqil matn yaratishi, yaratilgan matnning mukammalligi, video axborotlarni qayta ishlash, matnni tahrir va tahlil qilish, o'z-o'ziga ishonch, guruh bilan madaniy muloqot layoqatining mavjudligi bilan baholanadi.

1.2-jadval

“Dori” leksemasi bilan bog‘liq uyadosh so‘zlar

| Tibbiy mutaxassis nomi: | Tibbiy muassasa nomi: | Dori turlari: | Dorivor o‘simliklar nomi: | Kasallik nomlari: | Davolash usullari: |
|---|--|---|--|--|---|
| jarroh, terapevt, urolog, okulist, onkolog, akusher, feldsher, vrach... | shifoxona, kasalxona, tug‘ruqxona, kurort, klinika, sanatoriya, oromgoh, sihatgoh... | dori, qaynatma moy, malham, efir, spirt, rinza, noshpa... | jiyda, bodom, behi limon, anor, olma, o‘rik, xurmo, eman, qalampir, bodring, sedana ach-chiqmiya, piyoz, tarvuz... | gepatit, gripp, raxit, terlama, stomatit, ekzema, infarkt, insult... | massaj, parafin, balchiq qo‘yish, malham bog‘lash, bug‘lash, moylash... |
| Dori tayyor lash: | Doridan foydalanish tartibi: | Dorini saqlash joyi: | Bemor holatni ifodalovchi so‘zlar: | Dori ta‘sirini ifodalash: | Dorining shakli, belgilari: |

| | | | | | |
|---|--|--|---|---|---|
| terish, saralash, quritish, maydalash, tuyish, eritish, qizdirish, bug'lash, qaynatish, ivitish... | so'riladi, suv bilan yutiladi, kompres qilinadi, kunda 1/2/3 mahal ichiladi, surtiladi, bog'lanadi... | salqin qorong'i joyda, folgada, qog'oz, plastik, elim paketda, suvli idishda... | isitmasi: baland, yo'q qon bosimi: yuqori, past me'yoriy. yuzi: sariq oppoq, ko'k. holati: shok, asabiy, tinch, hushsiz... | issig'i tushdi, boshini ko'tardi, qon bosimi tushdi, ahvoli yaxshilandi yomonlashdi o'rtacha... | rangsiz, oq, ko'k, achchiq, shirin, nordon, dumaloq, yapaloq, qobiqli, quyuq, suyuq... |
|---|--|--|---|---|---|

1.2. O'quvchilarni matn yaratishga yo'naltirishning pedagogik-psixologik asoslari

XX asrning 60-yillarida Osiyo va Evropaning iqtisodi rivojlangan davlatlari ta'lim tizimiga kognitivizm hodisasi shiddat bilan kirib keldi. Kognitivizm o'sha davrda ancha ommalashgan, ta'limning verbal tizimi, ya'ni, ta'lim oluvchining o'z bilimini ko'proq og'zaki yo'sinda bayon etishi [39: 32] bilan birlashib, **ongli verbal-kognitiv ta'lim** (bundan buyon OVKT) yo'nalishi paydo bo'ldi. Taniqli pedagog D. Ozbel bu yo'nalishga asos solib, ta'lim jarayonida kashfiyot (inglizcha *Discovery*) [44: 4–7] etakchi usul ekanligini alohida ta'kidlaydi. Kashfiyot ta'lim usulining mohiyati shundaki, ta'lim oluvchi har bir topshiriqni bajarish jarayonida o'zi uchun yangi-yangi hodisalarni kashf etish yoki nimadir yaratish bilan shug'ullanadi. Bunday ta'lim jarayonida onglilik (ing. *Meaningool learning*) yetakchilik qiladi. Yuqorida sanab o'tilgan onglilik, kognitivlik, kashfiyotchilik (nutqiy kompetentlik) ijodiy tafakkur egasi – barkamol shaxsni tarbiyalashning asosiy pedagogik-psixologik omillari sanaladi.

Sho'ro pedagogikasi ijodkor shaxsni emas, balki bilimdon ijrochini tarbiyalashga qaratilganligi sabab, O'zbekistonda ongli verbal-kognitiv ta'lim usuli ommalashtirilmadi. Faqat istiqlol sharofati bilan bunday to'siqlar barham topib, O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunida ta'limning bosh vazifasi "...barkamol va ijodkor shaxsni tarbiyalash..." deb belgilandi [163: 20-29].


Innovation texnologiyalar asri ona tili ta'limida o'qituvchi-o'quvchi munosabatlarini subyekt – obyekt emas, balki subyekt –

subyekt tarzida tashkil etilishini talab qilmoqda. Unda o'quvchi ta'lim jarayonining oddiy ishtirokchisi emas, balki shu jarayonning ijrochisi, izlanuvchi-kashfiyotchisi sanaladi. O'z navbatida, o'qituvchi tushuntiruvchi, nazoratchi, baholovchigina emas, balki yo'naltiruvchi, boshqaruvchi vazifasini bajaradi. OVKT tizimida **onglilik** – o'quv materiali va o'quvchi shaxsining o'zaro uyg'unligi, **verballik** o'quvchi – o'qituvchi muloqotida o'quvchining faolligi, egallagan bilim va qobiliyatini namoyish qilishga sharoit va imkoniyatning mavjudligi, **kognitivlik** – ona tilidan egallangan nutqiy kompetensiyalardan, til imkoniyatlaridan unumli foydalanish – matn yaratishga oid nutqiy kompetensiyalarni hosil qilish faoliyati etakchilik qiladi [153: 10-17; 202]. Quyida ongli verbal-kognitiv ta'limning (ayni kunda kognitiv-pragmatik ta'lim) tarkibiy qismlari, o'quvchi-o'qituvchi hamkorligining rangli chizmasi keltirildi (1.2-rasmga qarang). O'quvchining mustaqil nutqiy faoliyat yuritishi, guruh bilan ijodiy muloqoti, unda ijodiy tafakkurning yuksalishi, ishlovchi subyektga aylanishi, mavjud nutqiy kompetentlik darajasining ortishiga imkon beradi. Umumta'limda o'quvchilarni matn yaratish faoliyatiga tayyorlashning muhim omili sifatida tavsiya etilgan OVKT tizimida ishlash – til imkoniyatlaridan foydalanib, matn yaratishning sermahsul usulidir.

O'qituvchi va o'quvchi hamkorligiga asoslangan mazkur tizim yozma nutqni shakllantirish [195: 5-9], fanlararo aloqadorlik, nutqiy kompetensiyalarning o'zaro integrasiyasiga xizmat qiladi. OVKTga asoslangan Amerika va Evropa pedagogikasida asosiy e'tibor o'quvchini madaniy muloqotga yo'naltirish hamda aqliy va jismoniy yetuk shaxslar qilib tarbiyalashga qaratilsa, Sharq pedagogikasida ruhiyat tarbiyasi, ma'naviy barkamollik, jismoniy va axloqiy etuklik, surat va siyrat birligi [183] ustuvor mavqeda turadi.

Ona tili ta'limi jarayoniga kompetensiyaviy yondashuvning, o'quvchini mustaqil fikrlashga o'rgatishning pedagogik-psixologik omillari ko'p va rang-barang. Ulardan ayrimlari ustida alohida to'xtalamiz:

1. O'quvchi har bir mashg'ulotda darslikda berilgan bilimlarni takrorlash bilan kifoyalanmasligi, balki o'qituvchi ko'magida yangi bilimlar hosil qilishi lozim. Bu kognitivlikning bosh omilidir.



1.2- rasm. Ongli verbal-kognitiv ta'lim tizimi va uning tarkibiy qismlari

2. O'quvchi darsda passiv tinglovchi, takrorlovchi, bajaruvchi emas, balki izlovchi, qiyoslovchi, kashfiyotchi bo'lishi kerak. Buning uchun o'quvchi o'z so'zi, fikri, xulosasiga ega bo'lmog'i shart. Albatta, o'quvchida tug'ilgan fikr olamshumul kashfiyot emas, lekin o'qituvchi aytgan yoki darslikda berilgan axborotning shunchaki takrori ham emas. Bunday ta'lim usuli o'quvchida nutqiy kompetentlik: mustaqil fikrlash, so'zga mas'uliyat, o'z "men"ni anglash, ijodiy izlanish, bunyodkorlik, "lider"lik ruhini tarbiyalashga xizmat qiladi. O'qituvchi bilan o'quvchilar orasidagi aloqamunosabat (fikr almashish) juda ko'p hollarda muhokama, munozara tusini oladi. O'quvchi subyekti darsda ustuvor mavqega ega bo'ladi.

3. Uy vazifasini bajarish va uni sinfda tahlil etishda o'quvchi o'qituvchi yo'llanmasi asosida ishlashi, fikrlashi lozim. Masalaning to'g'ri yechimini topishdan tashqari, u o'z fikrini asoslashga urinishi zarur, buning uchun darslikdagi o'quv materialini o'quvchining yosh psixologiyasi va nutqiy-intellektual qobiliyatiga mos kelishi lozim. Ta'limning onglilik tamoyili shu omillar tufayli yuzaga chiqadi.

XX asrda amalga oshirilgan psixologik tadqiqotlarda o'smir-larning so'z, tafakkur va tasavvurga tayanib, mantiqiy fikrlash qobiliyati 11-12, 15-16 yoshlardan boshlab faollashuvi isbotlangan [41: 11–24, 50: 22–34]. XXI asrda esa faol nutqiy intellektual rivojlanish, mantiqiy fikrlash keskin yoshardi, bolalarda mustaqil fikrlash, analiz va sintez, tanlash, mulohaza bildirish jarayonlari 3-5 yoshdan boshlab faollashishi kuzatilmoqda. Demak, oilada, maktabgacha ta'lim muassasalarida bola lug'atini kengaytirish, nutq o'stirish, tilning ertak, doston, topishmoq, qo'shiq kabi tilning nutqiy imkoniyatlardan keng foydalanish lozim [96: 36–46]. Boshlang'ich va umumiy o'rta ta'limning ona tili mashg'ulotlarida mustaqil matn yaratish, muammoli ta'lim, o'quvchi subyektiga kompetensiyaviy yondashuv [153; 202; 21–22] – dars sifatini oshirish, o'quvchida nutqiy kompetentlik, aqliy va jismoniy kamolot, milliy ma'naviyatni ta'minlashning muhim sharti sifatida qaralishi lozim [112: 30–48].

Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv UO'TM o'quvchilarini imlo savodxonligi, so'z boyligini oshiruvchi qo'shimcha axborot manbalari (ensiklopedik lug'atlar, izohli lug'at, uyadosh, ma'nodosh, zid ma'noli so'zlar lug'ati, tarixiy so'zlar, yangi so'zlar, tasviriy ifodalar, iboralar lug'ati, so'zlarda ma'naviy darajalanish, olinma so'zlar, ters lug'at, shakldosh so'zlar lug'ati) [97: 3–19], elektron o'quv adabiyotlari bilan to'liq ta'minlashni talab qiladi. Media darsliklar gipersso'lkalar, giperilovalar, til boyligini o'quvchiga etkazadigan turfa lug'atlar, imlo qoidalari, qomusiy ma'lumotlar bilan ta'minlanishi, kompyuter sinflari esa internet tizimiga ulangan bo'lishi nihoyatda zarur. Ana shunda darsliklarning keyingi avlodi nutqiy kommunikativ kompetensiyani mustahkamlaydigan psixolingvistik topshiriqlar, o'quv dasturlari, mustaqil matn yaratish (mashg'ulot so'ngida) topshiriqlari kompleksi bilan ta'minlangan bo'lar edi. Albatta, ijtimoiy taraqqiyot talabiga mos keladigan innovatsion texnologiyalar, media darslik va dasturlar yaratish, ekran va monitordan o'quvchi daftari o'rni foydalanish oson ish emas. Ammo XXI asr ijtimoiy taraqqiyoti oldimizga qo'yayotgan va uzluksiz takomillashib borayotgan ta'limiy-tarbiyaviy muammolar yechimi bilan izchil shug'ullanish metodik zaruriyat. Mazkur muammolar umumta'lim maktablari tizimida ona tili amaliyotiga

kompetensiyaviy yondashuv asosida o'zining to'g'ri yechimini topadi.

5-9-sinf ona tili amaliyotida yangi mavzuni mustahkamlash ishlari matn yaratish bilan yakunlanib, ...grammatik terminlarni qo'llash [99: 36–46]. nazariy bilimlar, nutqiy malakalar bilan o'zaro uyg'unlikda, o'zaro musobaqa, muhokama, rag'batlantirish asosida rivojlantirilsa, o'quvchi intellekti kommunikativ kompetentlik, raqobatbardoshlik, o'quv texnikaviy muloqot xususiyatlari bilan boiydi, o'smir o'zi yashaydigan ijtimoiy hayotga moslashib boradi.

Ona tili mashg'ulotlarida o'quvchi nutqiy faoliyatini maqsadli boshqarish, o'qituvchilardan kasbiy malakalarini muntazam oshirib borishni, ta'lim texnologiyalarini jadal egallab, til o'rganish amaliyotiga joriy etishni talab qiladi. O'qituvchi o'quvchi ongida nutqiy layoqat, tizimli fikrlash kompetensiyasini shakllantirishi; internet bilan muloqotni ta'minlashi; o'quvchini mantiqiy izchil, uslubiy ravon, ixcham, to'g'ri, o'rinli va tushunarli fikr ifodalashga o'rgatishi zarur. MYKSH da o'quvchini matn turlarini farqlash, matnni tahlil qilish, berilgan so'z, rasm-tasvir asosida kichik matnlar yaratish bilan izchil shug'ullanish, berilgan matnning tili, uslubi, janrini aniqlash, uni tarkibiy qismlarga ajratish, matnga sarlavha tanlash, matn yuzasidan xulosa chiqarishga odatlantirish muhim. Shuningdek, ular so'z va SBlari, gaplarni shaklan va mazmunan o'zgartira bilishi, so'zlar ma'nosini qiyosiy sharhlashi, turli uslubdagi matnlar ustida mustaqil ishlashni bilishlari lozim.

Tizimli fikrlash texnologiyasining birlamchi unsuri – mavzuga oid so'zlar tanlash topshiriqlari o'quvchilarni til imkoniyatlaridan foydalanishga, tuziladigan jumla uchun eng ma'qul so'zni topish va tanlashga o'rgatadi. So'zning lug'aviy ma'no guruhlarida ustida ishlash [109: 21–22, 111], uning boshqa so'zlar bilan birikish qobiliyatini, grammatik bilimlarini aniqlashga imkon yaratadi. SB lari hosil qilish orqali esa o'quvchi nutqiy birliklarni farqlash, kengaytirish, ixchamlash usullari bilan tanishadi, so'zlarni o'zaro biriktiruvchi *lisoniy sintaktik qoliplar* [108: 21–22] haqida muayyan tasavvurga ega bo'ladi. M: "ot+ot" SB qolipi, "sifat+ot" SB qolipi... va h.k.

O'quvchilarda MYKSHning zaruriy omillaridan yana biri *muomala-muloqot me'yorlarini* egallashdir. O'zaro muloqot o'quvchining lug'at boyligi, ma'naviy - axloqiy madaniyati [100: 23–

42], ...grammatik terminlarni qo'llab [99: 36–46] fikr ifodalash kompetensiyasining to'g'ri shakllanishi bilan bog'liq bo'lib, mazkur "texnika"ning yo'qligi o'quvchida qo'rquv, hadiksirash, yuzma-yuz muloqotdan qochish kabi holatni keltirib chiqaradi. Bu o'z navbatida o'ziga ishonch, fikrni ravon ifodalash, mustaqil matn yaratish kompetensiyasining susayishiga sabab bo'ladi. Bu holni bartaraf etishda interaktiv ta'lim metodlaridan biri *ijtimoiy-psixologik treninglar* katta foyda beradi.

Ijtimoiy-psixologik treninglar o'qituvchi tomonidan maxsus uyushtirilishi kerak. Yuqori sinf o'quvchilari turli soha: *o'qituvchi, tarbiyachi, haydovchi, vrach, boshliq, sotuvchi* rollarini improvizatsiya (taqlid) qilishlari ularda muomala-muloqot madaniyatini shakllantiradi, tengdoshlariga bo'lgan munosabatni o'zgartirib, o'quvchini ijtimoiy-nutqiy faoliyatga tayyorlaydi [144: 23-24; 145,153].

Ona tili darslarida tashkil etiladigan *ijtimoiy-psixologik treninglar*: o'quvchida madaniy muloqot komponentlarini hosil qilish; ijtimoiy faoliyatni tashkil qilish va boshqarish [202: 52–66]; o'zida mavjud nutqiy malakalardan o'rinli foydalanish; o'zgalar fikrini diqqat bilan eshitish; tanqidiy fikrni to'g'ri qabul qilish; nutqiy vaziyatga moslashish; bahs-munozaraga kirisha olish singari nutqiy kompetentlik unsurlarining shakllanishiga xizmat qiladi. *Ijtimoiy-psixologik trening* mashg'ulotlari sheriklarning shaxsiy fikrlarini hurmat qilishga asoslanmog'i lozim. Shunda o'quvchi o'zganing fikri bilan hisoblashishga, o'zini o'zganing o'rnida ko'rish, boshqalarni sabr bilan tinglash, nutqiy vaziyatga mos tarzda o'z fikr-mulohazalarini bayon etishga odatlanadi, tanqidiy fikrlash va madaniy muloqotni o'rganadi. Zero, ona tili ta'limining yangilangan mazmuni va unda matn yaratish muammosi bugungi kun til o'qitish metodikasida eng dolzarb masalalardan biri bo'lib turibdi. Chunki jamiyat taraqqiyotining barcha davrlarida metodikaning oltin qoidasi "*Nimani, qancha va qanday o'qitish kerak?*" degan muammoga javob izlangan. Didaktikaning so'nggi yutuqlarini o'zida jam qilgan, interaktiv ta'lim mazmuni bo'yicha berilayotgan eng yangi ma'lumotlar ham bunga to'liq javob bera olmaydi. Ta'limni milliy va ma'naviy qadriyatlariga, milliy madaniyatga muvofiq tashkil etish.

shu bilan birga ijtimoiy taraqqiyotdan ortda qolmaslik rivojlangan demokratik jamiyat uchun g'oyat muhimdir.

Bu muammo, ayniqsa, fan va texnika shiddat bilan rivojlanib, har lahzada bir yangilik yaratilayotgan XXI asrda o'zgacha ahamiyat kasb etadi. Barcha rivojlanayotgan fanlar qatori ona tili o'qitish metodikasini ham zudlik bilan innovatsion texnologiyalar asosida boyitish hozirgi kunning dolzarb vazifadir.

Umumta'lim tizimida ona tili ta'limi fikr ifodalash turlari va fikr ifodalash vositalari yordamida amalga oshadi. Ta'lim mazmuni zamonaviy talab bo'yicha beshta muhim tarkibiy qismdan iborat bo'lib, har bir qismda egallanadigan bilim, nutqiy-amaliy kompetensiyalar qamrovi quyidagicha belgilangan.

1. **O'quvchi egallashi zarur bo'lgan nazariy bilimlar tizimi** (til hodisalari, tushunchalar, atamalar, qoidalar, ta'riflar).

2. Tanlangan **nazariy bilimga muvofiq nutqiy BKMLar tizimi**. Bunda *bilim* – o'rganilgan ma'lumotlarni eslab qolish va qayta tushuntirib berish; *ko'nikma* – o'rganilgan bilimlarni tanish vaziyatlarda qo'llay olish; *malaka* – o'rganilgan bilim va shakllangan ko'nikmalarni notanish vaziyatlarda qo'llay olish va yangi bilimlar hosil qilish; **nutqiy kompetentlik** – mavjud nutqiy bilim, ko'nikma va malakalar, idrok, xotira tafakkur integratsiyasidan muammoli vaziyatlarda, targ'ibot-tashviqotda, o'z fikrini himoya qilish, reklama zarurati tug'ilganda, ijtimoiy faoliyatda foydalana bilish qobiliyatidir.


3. **O'quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish tizimi** qayta xotirlash, qisman izlanuvchanlik, ilmiy-ijodiy shaklda bo'lishi mumkin.

Qayta xotirlash – o'qituvchi tomonidan ko'rsatilgan yoki darslikda berilgan namunaga qarab ishlash, mashq bajarish faoliyati. Bu usulda o'quvchining faollik darajasi chegaralanib, izlanishga, kashf qilishga ehtiyoj sezmaydi. *Qisman izlanuvchanlik* faoliyatida o'quvchi yo'naltiruvchi topshiriqlar yordamida til hodisalarining o'xshash va farqli tomonlari ustida o'ylashi, topishi, avvalgi bilimlarni qisman ma'lum sharoitlarda qo'llashi mumkin. *Ilmiy-ijodiy* faoliyatda o'quvchi olgan bilimlarini yangi sharoitda qo'llay olishi, hech qanday tashqi yordamsiz zarur bilim manbasini topib, ulardan to'g'ri foydalanish kompetensiyasini egallashi talab qilinadi. O'quvchining ijodiy izlanishi, mustaqil matn yaratishga urinishi

qanchalik yuqori bo'lsa, ona tili ta'limining samaradorlik darajasi ham shunchalik sermahsul bo'ladi.

4. **O'quvchi va o'qituvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi** o'zaro hamkorlik, maqsadga intilishda yakdillikka, darsda o'quvchi subyekti ustuvorligiga asoslanmog'i lozim. Ta'lim mazmuni ko'zlangan maqsad yo'lida erkin harakatlanuvchi til va nutq birliklari, ijodiy-amaliy kompetensiyalar zahirasi va uni o'quvchi ongida shakllantirish usullaridan iborat bo'ladi (1.3-rasmga qarang).

ONA TILI TA'LIMI MAZMUNI VA UNING TARKIBIY QISMLARI



O'quvchining imlo savodi, og'zaki va yozma fikrlash faoliyati mustaqil matn yaratish mashqlari bilan mustahkamlansa, uning **nutqiy kompetentlik** darajasi ortadi, malakaga aylanadi.

1.3-rasm

5. **O'quvchida MYKSH va nutqiy kompetentlikni ta'minlash tizimi.** O'quvchida mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma fikr ifodalash kompetensiyasi nutq o'stirish, til sathlariaro, fanlararo

aloqadorlik, xususan, ona tili, adabiyot va boshqa fanlarning o'zaro uyg'unligi asosida matn yaratishda namoyon bo'ladi. Nutqiy kompetentlik o'quvchining o'zi tuzgan matnni uslubiy-tarkibiy tahrir qila bilishi, slayd-jadvallar ustida ijodiy ishlashni bilishi, o'zi mustaqil yaratgan matn, reklama va e'lonlar taqdimotini o'tkaza olishi bilan belgilanadi. Nutqiy kompetentlikni baholash tizimi – DTS bo'yicha umumiy o'rta ta'lim malaka talablarining o'quvchi tomonidan o'zlashtirilishi darajasini aniqlaydigan mezonlar majmuidan iborat. Bu holat, ona tili va adabiyot darslarida mustaqil matn yaratishga alohida e'tibor qaratilishini taqozo etadi. MYKSHda fanlararo aloqa, ayniqsa, til va adabiyot darslarini o'zaro uyg'unlikda tashkil qilish nihoyatda muhimligini nazardan qochirish kerak emas.

Ona tili ta'limida so'z boyligi, so'z tanlash va fikrni to'g'ri ifodalash, imlo, til qonuniyatlari, adabiy me'yor, uslubiyat asoslari ustuvor mavqeda bo'lsa, adabiyotda badiiy adabiyotning ifoda unsurlari bilan tanishish, inson tafakkuri, ruhiyatini tuyish va uni badiiy ifodalashga urinish ustuvorlik qiladi. Milliy tilsiz milliy adabiyot mavjud bo'lmaganidek, adabiyotsiz til ham yo'qlikka mahkum. Zero, mustaqil yaratilgan matn – til imkoniyatlarining yozma nutqda aks etishi, o'quvchidagi individual tafakkur va tasavvur mahsulining muayyan mavzu, shakl, zamon va makonda moddiylashuvidir.

Mustaqil yaratilgan matn – o'quvchining imlo savodxonligi, tafakkur ko'lamini, so'z boyligi, nutqiy mahorati, matn tuzish kompetensiyasini aniqlashning ishonchli mezonini. O'quvchining o'z fikrini ifodalashga qaratilgan ehtiyoji asosiga qurilgan faoliyatgina nutqiy kommunikativ kompetentlikning shakllanishiga sabab bo'ladi. Matn tarkibida ishlatiladigan monolog va dialoglar esa o'quvchida milliy muloqot madaniyatini shakllantiradi [59: 17-28, 60: 35-65]. Ayni kunda o'quvchiga ijodiy-tanqidiy fikrlashni, fikrni bexato ifodalashni, o'z dunyoqarashini dadil himoyalash kompetensiyasini singdirish nihoyatda zarur.

Bugungi o'qituvchining kasbiy kompetentligi fanga oid innovatsion texnologiyalar, darsni tashkil etishning zamonaviy shakllari, metod va usullaridan xabardorligi, og'zaki nutqning ravon va tushunarliqligi, pedagogik faoliyat jarayonida to'g'ri qarorlar qabul

qilish layoqatiga egaligi, o'quvchilar egallagan nutqiy kompetentlik sifati bilan belgilanadi.

§ 1.3. Ona tili darsliklarida matn tuzish muammosining yoritilishi

O'quvchining matn tuzish va matn ustida ishlash faoliyati – matnni tarkibiy qismlarini bilish, mazmuni kengaytirish, ixchamlash, matn tili va uslubini muvofiqlashtirish orqali amalga oshirilsa, nutqiy kompetentlikni shakllantirish – matn yaratishda so'z tanlash va qo'llash mahorati, o'quvchining ma'naviy-axloqiy qarashlari, tildan foydalanish imkoniyatini kengaytirishga, ijodiy tafakkurni rivojlantirishga yordam beruvchi psixolingvistik mashq-topshiriqlardan foydalanish orqali amalga oshiriladi (qarang, 18-ilova).

Innovatsion texnologiyalarni harakatga keltiruvchi interaktiv usullar o'quvchida ravon badiiy nutq, matn tili, qurilishi, tarkibiy qismlarning shakllanishi bo'yicha bilimlarni egallash, idrok, xotira, tasavvur va tafakkur integrasiyasi hosilalarining nutqda moddiy-lashuviga sabab bo'ladi. Bu esa o'z navbatida o'quvchilarda og'zaki va yozma MYKSHga, nutqiy kompetentlikning rivojlanishiga yordam beradi.

Ona tili ta'limi jarayonida matn ustida ishlash mashqlari sirasiga quyidagi 10 ta maxsus topshiriqlar tizimi kiritilishi zarur: matnni qiroat bilan ifodali o'qish; uni qayta hikoya qilish; tarkibiy qismlarga ajratish; matn yuzasidan ixcham (yoki keng) reja tuzish; matnga oid savol va topshiriqlar, testlar tuzish; matndagi olinma so'zlar ma'nosini sharhlash; ajratilgan so'zlarga uyadoshlar tanlash [139: 18–27]; ulardan SBlari hosil qilish; SBlari ishtirokida yangi gap tuzish; mavzuga oid slaydni og'zaki yoki yozma tasnif qilish asosida yangi mavzuni mustahkamlash.

Mazkur topshiriqlar tizimi o'quvchini matn yaratishga tayyorlashning muhim tarkibiy qismlari hisoblanadi. Berilgan matnning sarlavhasini o'zgartirib ko'rish, avvalgi sarlavha bilan taqqoslash, matnni qayta nomlash, bajarilgan tuzatishning to'g'riligini guruhda isbotlash ham o'quvchi ongida o'z-o'ziga ishonch,

ijodiy-tanqidiy tafakkur, nutqiy kommunikativ kompetentlikning [203; 161: 13-16] rivojlanib borishini ta'minlaydi.

5-9-sinflar uchun "Ona tili" dasturi va darsliklari ta'hlili.

Amaldagi "Ona tili" fanidan o'quv dasturida 5-sinflar uchun 204 o'quv soati ajratilgan bo'lib, kirishga 2 soat, takrorlashga 10 soat, sintaksis va punktuatsiyani o'rganishga 48 soat, takrorlashga 4 soat, morfologiya uchun 40 soat, takrorlashga 2 soat, fonetika va grafikani o'rganish uchun 46 soat, takrorlash uchun 4 soat, leksikologiyani o'rganish 35 soat, o'quv yili ohirida takrorlash uchun 13 soat ajratilgan, shulardan jami sinov-nazorat ishlariga qo'shimcha 24 o'quv soati (matn tuzish, diktant, ijodiy bayon, test) ajratilgan. Nutqiy kompetentlikni shakllantirish, mustaqil matn yaratish uchun alohida o'quv soatlari ajratilmagan.

O'quv dasturida 6 - sinf uchun 170 soat vaqt berilgan.

Mustaqil ta'lim bilan shug'ullanish, mustaqil matn yaratish, uni sinfda taqdimot qilish kabi nutqiy kompetentlikni rivojlantirishga qaratilgan o'quv soatlari mavjud emas.

"Ona tili" o'quv dasturida 7-sinflar uchun 102 soat vaqt ajratilgan bo'lib, sinov-nazorat ishlari uchun berilgan qo'shimcha vaqt me'yori 12 soatni tashkil etgan. Bu sinfda ham tilni tizimli o'rganish, mustaqil matn yaratish kompetensiyasini egallash, nutqiy-kommunikativ kompetentlik darajasini ko'tarishga qaratilgan o'quv soatlari yo'q.

8-sinflar uchun dasturda 102 soat vaqt ajratilgan bo'lib, undan nazorat-sinov ishlari uchun berilgan qo'shimcha vaqt 12 soatni tashkil etgan.

Bu sinfda ijodiy matn, insho va uning turlarini o'rganish uchun 8 soat vaqt berilgan. Unda ijodiy matn, insho turlarini o'rganish uchun juda kam soat ajratilgan. Nutqiy kommunikativ kompetensiyani egallashning tarkibiy qismi sanaladigan *nutq uslublari va uslubiyatni o'rganish* esa 9-sinfga qoldirilib, unga jami 10 soat vaqt ajratilgan. Aslida, 5-9-sinf dars mavzulariga singdirilishi lozim bo'lgan nutq uslublari va uslubiyat qoidalarini o'rganish topshiriqlari matn ustida ishlash va matn yaratish mashg'ulotlari tarkibiga singdirilishi, imloviy - uslubiy tahrir - matn yaratish mavzusining tarkibiy qismiga aylantirilishi ona tili

o'qitish metodikasining kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb vazifasidir.

Kuzatishlardan ma'lum bo'ldiki, faqat 8-sinf ona tili darsligida "Ijodiy matn. Insho va uning turlarini o'rganish" mavzusi berilgan. Vaholanki, insho, ijodiy bayonlar, diktant va testlardan foydalanish 5-sinfda 24 soatni, 6-sinfda 20 soatni, qolgan sinflarda 12 soatdan vaqtni tashkil qiladi. 5-sinf o'quvchisi insho, bayon haqida to'liq ma'lumot olish, nazorat-sinov ishini to'g'ri bajarish uchun 8-sinf darsligidan foydalanishi kerakmi? 5-9-sinf darsliklarida tilni tizimli o'rganishga, matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishga yetaklovchi topshiriqlar kam. Ta'limni innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish, nazariy va amaliy bilimlarni o'zaro uzviylik va uzluksizlikda o'zlashtirish, matn ustida ishlash, fikr ifodalashda til imkoniyatlaridan foydalanish, qolaversa, ona tili amaliyotida o'quvchi subyektining ustuvorligi masalasi dastur va darslik mualliflari e'tiboridan chetda qolgan. Ular nazariy bilimlar bilan bir qatorda o'quvchining mustaqil ta'lim bilan shug'ullanishi, badiiy asarlar o'qishi, matn ustida ijodiy ishlashi, matn tuzish layoqatini mustaqil rivojlantirib borishiga imkoniyat yaratishlari, o'rganilgan mavzuga oid testlar tuzish, ta'limga kompetensiyaviy yondashuv usullarini takomillashtirish ustida bosh qotirishlari lozim.

5-9-sinflar uchun amaldagi "Ona tili" darsliklarida mashqlar miqdori etarli. Faqat matn ustida ishlash, matn tuzishga oid mashqlarning shartlari boyitilishi, o'quvchilarda MYKSHga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiyalar, tilni tizimli o'rganish mexanizmi ona tili darsliklari tarkibiga kiritilishi, matn yaratish topshiriqlari takomillashtirilishi – o'quvchilarda so'z boyligini oshirib, nutqni ravonlashtirgan, imlo savodxonligi, og'zaki va yozma nutq kompetensiyasini uzluksizlikda shakllantirishga, nutqiy kommunikativ kompetentlikni mustahkamlashga keng yo'l ochgan bo'lardi.

Bizning fikrimizcha, matn ustida ishlash, ijodiy izlanish, mustaqil matn yaratish haqidagi boshlang'ich nazariy ma'lumotlarni darslikka kiritish o'quv dasturida ko'rsatilgandek 8-sinf dan emas, 4-5-sinflardan boshlanishi maqsadga muvofiq. 5-6-sinf darsliklarida to'g'ri, o'rinli gap tuzish, gapni kengaytirish va ixchamlash usullari,

matni tashkil qiluvchi tarkibiy qismlar, uslub, adabiy me'yor haqida ma'lumot bermay turib, o'quvchilarga "...matn tuzing", "...hikoya tuzing", "... hikoyacha tuzing", "...dialogik matn yarating", "...iboralar ishtirok etgan matn tuzing" kabi shartlar qo'yish holati ko'p uchraydi [89: 6-137].

UO'TMning 5-sinflari uchun tuzilgan amaldagi "Ona tili" darsliklarida fonetika bo'limi uchun 48 soat ajratilgani holda, sintaksis va punktuasiya bo'limidagi [89: 6-137] "So'z birikmasi" mavzusini o'rganish uchun 1 soat, "Uyadosh so'zlar" mavzusini o'rganish uchun 1 soatgina vaqt ajratilgan. Vaholangki, uyadosh so'zlar, so'z birikmasi mavzulari o'quvchining nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasini orttirishga, mustaqil izlanishga, ijodiy tafakkurga yo'naltiradi. Darslikda ta'limiy, ma'rifiy, rivoyat matnlaridan unumli foydalanilgani holda unga alohida "Matn" mavzusi kiritilmagan, "matn"ning lug'aviy ma'nosi, uni gaplar qo'shilmasidan farqlaydigan "matnning tarkibiy qismlari" tushunchasi ustida to'xtalinmagan. Mustaqil ta'lim uchun Rasm asosida "Ona – ulug' zot" mavzusida matn tuzing (8-mashq, 6-bet), "Rasm asosida "Bolalikning beg'ubor tongi"..? mavzusida og'zaki matn tuzing" (53-mashq, 16-bet), "Rasm asosida matn tuzing" (137-bet) kabi jami 58 ta mustaqil matn tuzish mashqlari berilgan bo'lib, ulardan 12 tasi rasm asosida matn tuzishga qaratilgan. Ammo darslikda tilni tizimli o'rganish, rasm asosida matn yaratishning modulli tizimi haqida hech qanday ma'lumot berilmagan. Vaholangki, tilni tizimli o'rganishning innovatsion texnologiyasi "MYBT-4" moduli haqida 2002-yilda nashr qilingan "O'qituvchi kitobi"da, 2006-yilda nashr qilingan "O'zbek tili o'qitish metodikasi" o'quv qo'llanmasida, 2008-yilda "Fan" nashriyoti tomonidan chop qilingan "Matn yaratish texnologiyasi" nomli ilmiy monografiya tarkibida, "Ona tilidan amaliy mashg'ulotlar" kitobida (2012), boshlang'ich sinflar uchun "Ona tili darslarida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish texnologiyasi" (2015) nomli o'quv-uslubiy qo'llanmalarda to'liq, mufassal ma'lumot berilgan. Yana shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, 2011//2012-yillarda O'zEK SPO markazning innovatsion texnologiyalar yarmarkasida namoyish qilingan "MYBT-4" moduliga hakamlar tomonidan "nutqiy

salohiyatni aniqlash va rivojlantirishning "O'zbek testi" nomi berilgan edi.

5-sinf darsliklarida matn ustida ishlash, uni takomillashtirish, ixchamlash, kengaytirish mashqlari kam, unda bot-bot uchraydigan "Rasm asosida hikoya tuzing" topshiriqlari ko'proq "uyga vazifa" doirasida tavsiya qilingan. Mashq shartlarida mavhumlik seziladi [8-,32-,76-,347-,388-,407-, 438-,571-mashqlar]. Shuningdek, 14-darsda berilgan an'anaviy nazorat diktanti o'rniga "MYBT-4" moduli asosida mustaqil matn yaratish bilan shug'ullanish, 15-darsda esa "Gaplarning mazmun jihatidan turlari" slaydi ustida ishlash, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, tasnifiy - matnlar, savol va topshiriqlar, nazorat testlari tuzish zaminida o'quvchi nutqiy kompetentlik darajasini ko'tarish mumkin edi. Olib borilgan tajribas-inov natijalariga tayanib, amaldagi 5-sinf "Ona tili" darsligida matn mavzusining yoritilishi yuzasidan quyidagi taklif va tavsiyalar berildi:

- 5-sinf "Ona tili" darsligining "Sintaksis va punktuasiya" bo'limida tavsiya qilinayotgan innovatsion texnologiyaning "Tilni tizimli o'rganish", "Matn tarkibi haqida ma'lumot" mavzulari qisqacha yoritilib, o'quvchilarga matn so'zining lug'aviy ma'nosi, matnning tarkibiy qismlari, grammatik-sintaktik xususiyatlari, matn turlari haqida boshlang'ich ma'lumotlar taqdim etilishi;

- darslikka mustaqil matn yaratishning bosqichli moduli "MYBT-4" ning rangli grafik chizmasi, MYKSH dasturi topshiriqlari kiritilishi, modul tizimida yaratilgan nasriy va nazmiy matnlardan, rasm asosida matn yaratish usullaridan namunalar berilishi (qarang, 3-bob; 3.§);

- darslikning ilovalar qismiga shu sinfda o'rganiladigan mavzularga mos rangli slaydlardan namunalar ("Media-trening", RTM. 2017) kiritilishi, slayd ustida ishlashda nutqiy kommunikativ kompetentlikni mustahkamlashning interaktiv usullari haqida ma'lumot berilishi lozim.

Amaldagi 6 - sinf "Ona tili" darsliklarida [88] sintaksis bo'limini o'rganish umuman ko'zda tutilmagan. Matn tuzish topshiriqlari kam. So'z turkumlari bo'limi o'ta maydalashtirib yuborilgan. Darslik mundarijasiga 8 ta "mustahkamlash" darslari kiritilgan. Ammo birortasida mustaqil matn yaratish yo'nalishida

nazorat-sinov ishlari berilmagan. Mavjud ijodiy topshiriqlar ham an'anaviy ta'lim ta'siri ostida "Rasm asosida hikoya tuzish" doirasida cheklanib qolgan. 6-sinf "Ona tili" darsliklari MYBT-4 – moduli topshiriqlari bilan boyitilsa, matn yaratish bo'yicha nutqiy kompetentlikni shakllantirish sohasida ulkan imkoniyat yaratiladi, ya'ni yangi darsni mustahkamlashda kichik matnlar tuzish, matn tahriri bilan mustaqil shug'ullanish, uni guruhda taqdimot qilish, mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar, nazorat testlari tuzish, imlo savodi, yozma nutq bo'yicha egallangan nutqiy kompetentlik darajasini baholash mumkin bo'ladi.

7-sinf "Ona tili" darsliklarida mustaqil va yordamchi so'z turkumlari, olmosh, fe'llarning zamon jihatdan uyg'unligi, sifatdosh, ravishdosh, harakat nomi, taqlid so'zlar, modal so'zlarning ma'nosi va gapdagi vazifasi mavzulari bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish ko'zda tutilgan. Darslikni takomillashtirish uchun o'rganilayotgan mavzular bo'yicha slayd asosida kichik matnlar, nazorat testlari, savol va topshiriqlar, ijodiy matnlar yaratish mashqlarini kiritish, slayddan foydalanib, mavzuni sharhlash, darsni mustahkamlash, og'zaki nutq o'stirish, o'quv-nazorat testlari tuzish va berilgan testdan to'g'ri javobni belgilash bilan shug'ullanish – 7-sinf o'quvchilarning nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasini oshirishi shubhasiz. Sintaksis bo'limida fe'lli birikma, otli birikma, o'zlashtirma gapda tinish belgilari, ega bilan kesim orasida tirening ishlatilishi, dialogda tinish belgilarining qo'llanilishi singari mavzularni o'rganish dialogik matn yaratish topshiriqlari bilan mustahkamlansa, o'quvchilarda so'z boyligi, imlo savodxonligi, nutq madaniyati, adabiy me'yor, individual uslub, nutqiy kompetentlik o'zaro uyg'unlikda shakllanadi.

Tilni tizimli o'rganish texnologiyasi tarkibiga **kiritilgan** uyadosh so'zlar tanlash, so'z birikmalari hosil qilish, sodda va qo'shma, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar tuzish, kichik matnlar yaratish, tahrirda tinish belgisini o'rinli ishlatish, so'zlarning grammatik va lug'aviy ma'nosini farqlash, so'z tarkibi, so'z birikmalari, maqol va hikmatli so'zlar, alohida she'riy misralar tuzish, gap va matn mazmunini *sharhlash* mashqlari bilan muntazam shug'ullanilsa, o'quvchi nutqi ravonlashadi, imloviy-uslubiy savodxonlik, nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasi ortadi.

Umumta'lim maktablarining 8-sinfi uchun yozilgan "Ona tili" darsligida [88] "Ijodiy matn. Insho va uning turlari" mavzusini o'rganishga 7 soat vaqt ajratilgan. Darslikning 14-betidagi 8-dars "Ma'lumotnoma matni va ijodiy tavsifiy matn" larni farqlashga bag'ishlangan. Darslikning "Bilib oling!" ruknida "Insho" atamasining kelib chiqishi izohlanib, ma'nosi sharhlangan, ammo "matn" tushunchasiga ta'rif berilmagan. 33-mashq uyga vazifa qilib berilgan, unda "Oila a'zolaringiz haqida avval ma'lumotnoma matni, so'ngra ijodiy-tavsifiy matn tuzing" topshirig'i berilgan. Bizningcha, har ikki topshiriq birlashtirilib, "MYBT-4-tizimida oila a'zolaringiz haqida ijodiy-tavsifiy matn tuzing" shaklida berilsa, o'quvchi ongosti tafakkurida matn yaratish texnologiyasi mexanizmi harakatga tushadi, natijada, o'quvchining tildan foydalanish imkoniyati kengayib, ijodiy fikrlash: uyadosh so'zlar tanlash, so'z birikmalari hosil qilish, to'g'ri gap tuzish, matn yaratish mahorati oshadi. Mustaqil ish jarayonida o'quvchining nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasi ortadi.

8-sinf darsligidagi "Matndagi asosiy fikr" deb nomlangan 30-dars, unda berilgan 89-, 90-mashqlar shartining mukammalligi, o'quvchida tanqidiy fikrlash, matnni takomillashtirishga yo'naltirilgani, darsda o'quvchi subyekti ustuvorligiga erishish, uni mustaqil fikrlash, fikrni izchil, to'g'ri, o'rinli ifodalashga qaratilganligi tahsinga loyiq. Shu bilan birga, 89-mashqning 1-3-abzatsidagi e'tirozlar qismiga "Farhodning bobosi kim? (ismi-familiyasi)", "U kishi qaysi kasb bilan shug'ullangan edi?" kabi aniqlashtiruvchi so'roqlarning kiritilishi o'quvchini izlanuvchi subyektga aylantiradi, uni tanqidiy fikrlash, nuqsonlarni izohlash, tugal fikr ifodalashga odatlantiradi. Darslikdagi 90-mashq sharti "Xohlaganlar she'rni davom ettirishi mumkin" qabilida takomillashtirilsa, o'qituvchi - o'quvchi hamkorligi hosilasi: badiiy bo'yoqdor gaplardan qofiyadosh so'zlar va SBlari, she'rqatorlar, to'rtliklar tuzish, she'riy matnlar yaratish layoqati ham shakllanadi, o'quvchining ongosti ijodiy tafakkur komponenti harakat boshlaydi, kommunikativ kompetentlik darajalanadi, rivojlanadi.

Darslikdagi 38-, 39-mashqlar, xususan, 40-mashq shartini "MYBT-4" moduli asosida tasnifiy matn yarating" holatida o'zgartirish ham o'quvchida MYKSHiga imkon beradi. Umuman

mazkur darslik "MYBT-4" moduli topshiriqlari bilan boyitilsa, MYKSH faoliyati til mavzularini o'rganishning tarkibiy qismiga aylansa, o'rganilgan mavzu qamrovida kichik matnlar yaratilsa, o'quvchida kommunikativ kompetentlik darajasining ortib borishi ta'minlanadi, imlo, uslub, madaniy muloqotning uzviylikda shakllanishi uchun qulay didaktik sharoit yaratiladi.

Maktab ona tili darsliklarida mustaqil ta'limga alohida ahamiyat berilishi, lug'atni boyitish, so'z birikmalari hosil qilish, gap tuzish, mustaqil MYKSH ishlari boshlang'ich sinflardan boshlanishi [30: 5-47-b; 37: 3-48-b.], o'qituvchidan MYKSH amaliyotini til mavzulari bilan o'zaro uyg'unlikda tashkil etish, egallangan imloviy-grammatik bilimlarning matnda moddiylashuviga e'tibor ko'rsatish talab qilinishi lozim.

Mazkur holat tilshunos olim I.Qo'chqortoev ta'biri bilan aytganda: "...ehtiyot qismlarni o'rgatish bilan band bo'lib, mashina haydashni o'rgatishni unutish..."ga o'xshaydi, ya'ni o'quvchilar nazariy bilimlarni egallash bilan band bo'lib, milliy til boyliklarini individual nutqda qo'llash usullaridan bexabar qoladilar. Bu esa o'quv faoliyatida izchillik, bosqichli ketma-ketlik, uzviylik va uzluksizlik prinsiplarining buzilishi, tasavvur va tafakkur integratsiyasi mahsulining xususiy nutqda moddiylashuvini sekinlashtiradi. Aslida gap tuzish va matn yaratish faoliyati o'rganiladigan har bir mavzuning tarkibiy qismiga aylantirilishi, o'quvchiga til boyligini nutqda qo'llash yo'llarini ko'rsatib turishi lozim. O'quvchi nutqi, ijodiy tafakkurini maqsadli boshqarish, ma'naviyatini rivojlantirishga qaratilgan bu mashqlar unda nutqiy layoqat, muloqot madaniyati, o'z-o'ziga ishonch, insonparvarlik, o'z faoliyatini baholash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasining mustahkamlanishi, rivojlanishi uchun o'ta zarurdir [30, 37, 153].

Tilni tizimli o'rganish texnologiyasidan foydalanish mavzuga oid so'z va atamalardan nutqiy birliklar hosil qilish, ularni kengaytirish va ixchamlash, ma'nodagi o'zgarishlarni sharhlash, SBlardan badiiy bo'yoqdor gaplar tuzish, gaplarni kengaytirish, ixchamlash, gap qurilishi, mazmuni va uslubini o'zgartirish, matnda mantiq, shakl va mazmun uyg'unligi, gapda ega - kesim munosabatlariga e'tibor qilish, ta'lim samaradorligining oshishiga, matn yaratish kompetensiyasining shakllanishiga olib keladi.

SBlarini kengaytirishdan nafaqat gap tuzish, balki matn tilini boyitish, fikrni bo'rttirishda ham unumli foydalanish mumkin (hegunoh odam // qo'y og'zidan cho'p olmagan odam, epchil yigit // yulduzni benarvon uradigan yigit).

Ma'lumki, balog'at davriga kirib kelayotgan 8 – 10- sinf o'quvchilarida kuzatish, tanqid, izlanish, kashf qilish, muammoli vaziyatlar yechimini topishga, o'z bilim va iqtidorini o'rtoqlari oldida namoyish qilishga intilish kuchayadi. Demak, mazkur bosqichda asosiy e'tibor ma'rifiy matnlar, maqol, hikmatli so'z, rivoyat va topishmoqlar mazmunini sharhlashga qaratilishi lozim. Shuningdek, o'quvchining qo'shma gaplardagi uslubiy xatolarni topish va bartaraf etish, bir fikrni turli shakl va usullarda ifodalash, tilning nutqiy imkoniyatlaridan foydalanish, kommunikativ kompetentlik ko'rsatkichini ko'taruvchi mashqlarni ko'paytirish zarur.

5–9-sinf darsliklarida nazariy bilimlarni o'rganish bilan uyg'unlikda matn ustida ishlash, matn uchun tayanch so'zlar tanlash, ularning grammatik va lug'aviy ma'nolarini sharhlash, SB hosil qilish, gap tuzish va matn yaratishning o'zaro uzviylik va uzluksizlikda olib borilishi o'quvchida mavjud nutqiy layoqatni mustahkamlaydi, takomillashtiradi, tilni yaxlit sistema sifatida o'rganishga qulay sharoit yaratadi. O'quvchini matn yaratish faoliyatiga tayyorlash quyidagi amaliy mashqlar, o'yin-topshiriqlar orqali amalga oshiriladi:

1. Berilgan so'zga uyadoshlar tanlang, ular ishtirokida SBlari hosil qiling, birikmalardagi ma'no o'zgarishlarini sharhlang. *Maktab*.
2. Berilgan so'zga qofiyadoshlar tanlang. *Dildoralar (sayyoralar, favvoralar, ruxsoralalar, dilporalar... / 3. "Kim ko'proq, kim tezroq?"* topqirlar bellashuvini o'tkazing. (O'yin sharti: 1-guruh: 3-5-daqiqa ichida berilgan uyadosh so'z bilan ko'proq SBlari hosil qiling. 2-guruh: hosil qilingan SBlari yordamida sodda va qo'shma gaplar tuzing.)
4. Berilgan SBlari tarkibidagi hokim va tobe so'zlarni aniqlang. SBlarini kengaytiring: M.: *Katta ko'cha / katta, markaziy ko'cha // archalar saf tortgan, barhavo ko'cha...; yuk mashinasi / besh tonnalik yuk mashinasi // tog' yo'lida o'rmalayotgan besh tonnalik bahaybat yuk mashinasi; sohildagi toshlar / dengiz sohildagi qirralik, chag'ir toshlar // sohilda yurishni qiyinlashtiradigan o'tkir qirralik yirik toshlar;* 5. "Olmosh+ot"

qolipidan foydalanib, nutqiy hosilalar (SB) tiklang. 6. Berilgan soʻz bilan “sifat+ot” soʻz qolipi yordamida SBlari hosil qiling, ularni kengaytiring va ixchamlang: *kitob*. M.: kengaytirish; *yangi kitob / yangi, rasmi kitob // chiroyli bezalgan, rasmi topishmoqlar kiritilgan, qiziqarli kitob* ixchamlash: *Soʻnggi dizaynda nashr qilingan kitob*; 7. Berilgan sifat-soʻzlar ishtirokida badiiy boʻyoqdor SBlari, gaplar tuzing. *Ulkan*. SBlari: *ulkan, ignabargli daraxtlar, bahaybat sherlar, epchil, sharpasiz yoʻlbarlar, qonxoʻr boʻrilar*. Gap: *Togʻdagi oʻrmonda bahaybat yoʻlbarlar, qonxoʻr boʻrilar yashaydi*. 8. Berilgan soʻzga 10 ta qofiyadosh soʻzlar tanlang, ular yordamida SBlari (radiflar) hosil qiling: *Keladur: kuladur, koʻradur, biladur, suradir...*, 9. Slayd mavzusida savol va topshiriqlar, nazorat testlari, kichik tasnifiy matn tuzing: “*Son*”. 10. Berilgan gapning maʼnodosh qatorlarini hosil qiling, ularni kengaytiring yoki ixchamlang, badiiy boʻyoqdor gapga aylantiring: *Valijon bugun xursand edi / Bugun Valijonning yuz-koʻzidan nur taralardi // Bugungi yangilikdan Valijonning boshi osmonda, ogʻzi qulogʻida, bir gapirib, oʻn kulardi // ixchamlash: Bugungi gʻalabadan Valijonning dimogʻi chogʻ, bir gapirib, oʻn kulardi*.

Mazkur tizimli mashq-topshiriqlar oʻquvchi soʻz boyligini oshirib, uyadosh soʻzlarni guruhlash, sharhlash, qiyoslash va tanlashga oʻrgatadi, uslubiy ravon gaplar tuzish, matn mazmunini boyitish, mazmunga mos epigraflar tanlash, matnning ravonligi, ohangning toʻgʻri va oʻrinliligini aniqlash, gaplarda badiiy boʻyoqdorlik, ixchamlik va mazmundorlikni taʼminlash komponentlarini shakllantiradi. Ular oʻquvchi ongida yaxlit metodik tushuncha - matn yaratish kompetensiyasini mustahkamlaydi.

Xulosa qilib aytilsa, umumtaʼlim maktablarining 5-9-sinf oʻquvchilarida nutqiy kompetentlikni shakllantirish uchun “Ona tili” darsliklariga tilni tizimli oʻrganish, mustaqil va ijodiy fikrlash, matn yaratish, matn ustida ishlash, uni video taqdimot qilishga qaratilgan mustaqil ishlarni kiritish, tilni tizimli oʻrganish mexanizmi asosida MYKSH, nasriy va nazmiy matnlar ustida ishlash, modul tizimida toʻrtliklar yozish, muammoli vaziyatlar tuzish shuningdek, psixolingvistik xarakterdagi mashq - topshiriqlarni koʻpaytirish lozim.

Umumta'lim maktablarida tilni tizimli o'rganish va MYKSH topshiriqlaridan joriy va oraliq nazorat, yakuniy nazorat ishlarini tashkil qilishda, o'quvchidagi kommunikativ kompetentlik darajasini aniqlashda samarali foydalanish mumkin. Masalan, 5-9-sinflarda muayyan mavzu, bob yoki bo'lim o'rganilgandan so'ng joriy nazorat, oraliq nazorat (ON) o'tkaziladi. Oraliq nazorat o'quvchining mavzu yuzasidan o'zlashtirgan nutqiy kompetensiyasini aniqlash, test tuzish, savolni takomillashtirish, mustaqil yozma ish va boshqa ijodiy usullar bilan o'tkazilishi mumkin.

Umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'tkazilgan tajribasinoqlar jarayonida ijobiy omillarning izchil qo'llanilishi natijasida 5-9-sinf o'quvchilarida MYKSH jarayoni jadallashgani, nutqiy kompetentlik darajasining ortgani kuzatildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida MYKSHga ta'sir ko'satuvchi salbiy va ijobiy omillar aniqlandi (1.4-jadvalga qarang).

1.4-jadval

Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishga ta'sir ko'rsatuvchi omillar

| t/r | ijobiy omillar | salbiy omillar |
|-----|--|---|
| 1 | Matn yaratish modulidan nutq o'stirish vositasi sifatida foydalanish – yangi mavzuni mustahkamlashda kichik matnlar tuzish bilan shug'ullanish. | Ona tili darslarida matn ustida ishlash va matn yaratish bilan muntazam shug'ullanilmaslik. Mavzuni mustahkamlash matn tuzish bilan yakunlanmasligi. |
| 2 | Respublika oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari qoshidagi XTXQTMOM lari ona tili kursi dasturlarini innovatsion texnologiyalar bilan boyitish. Tilni tizimli o'rganish va MYKSH texnologiyalari asosida Media-treninglar tashkil qilish. | Respublika oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari qoshidagi XTXQTMOMlarida ta'limga kompetensiyaviy yondashuv yo'qligi, darsni interaktiv texnologiyalar, elektron adabiyotlar bilan ta'minlashga yetarli e'tibor berilmasligi. |
| 3. | MYKSH mashg'ulotlarida ijodiy muhit-ning xukmronligi, o'quvchi subyekting ustuvor | Darslarning bir qolipda, zerikarli o'tishi, rag'batlantirish kamligi, ijodiy izlanishning |

| | | |
|----|---|--|
| | mavqeda bo'lishi, tezkor fikr ifodalash kompetensiyasining shakllanishi va rivojlanishi. | susayishi, madaniy muloqot qobiliyatining rivojlantirilmaligi, tafakkurning turg'unlashuvi. |
| 4. | “MYBT-4” asosida turli uslubda matnlar tuzish, badiiy asarni sahnalashtirishda, monolog, dialog kabi nutq usullaridan unumli foydalanish. | Darslikda MYKSH topshiriqlarining kamligi, to'garaklar ishi ko'proq qog'ozda qolishi, ijodkor o'qituvchilar faoliyatini omalashtirishning oqsashi. |
| 5. | Ona tili darslarini o'zaro musobaqa, izlanish, tanqidiy fikrlash, baxs-munozara, ma'naviy rag'batlantirishlar asosida tashkil qilish. | O'quvchi yutuqlariga e'tibor qilmaslik, iste'dodini rag'batlantirmaslik, uning darsdan sovlisi, “ma'naviy bo'shliq”ning shakllanishiga olib kelishi. |
| 6 | Ijodkor o'quvchini qo'llab-quvvatlash, g'oliblarni rag'batlantirish ona tili ta'limi samarasini oshiradi, o'quvchini izlanishga, kashfiyotga etaklaydi, barkamol shaxsga aylantiradi. | Maktabda suxandonlik, she'riyat, nasr, adabiy o'qish ko'rik-tanlovlarning o'tkazilmaligi, o'quvchilarda zakovat ma'naviyat, nutqiy mahoratning o'sishiga mone'lik qilishi. |

Umumta'lim maktablari o'quvchilarining fikrni yozma ifodalash kompetensiyasi qanchalik shakllanganligini bilish maqsadida yozma nazorat ishlari olinib, natijalar tahlil qilindi. Nazorat ishida mustaqil yaratilgan matnning yuqori reyting bahosi 20 ball qilib olindi.

Tadqiqotning birinchi bosqichida quyidagi 7 ta ta'lim muassasalarida ona tili darslari kuzatilib, o'quvchilarning yozma fikr ifodalash darajasi o'rganildi: 1. Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 299-umumiy o'rta ta'lim maktabi. 2. Buxoro shahridagi 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi. 3. Toshkent shahar Yunusobod tumani TDYul qoshidagi akademik litsey. 4. Toshkent shahar Shayxontohur tumanidagi 84-umumiy o'rta ta'lim maktabi. 5. Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumanidagi 13-umumiy o'rta ta'lim maktabi. 6. Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi. 7. Sirdaryo viloyati GulDU qoshidagi Guliston akademik litseyi. O'quvchilarning matn yaratish kompetensiyasi darajasini aniqlash maqsadida olingan erkin mavzudagi 220 ta

nazorat ishi DTS talablari bo'yicha tekshirilib, 3 guruhga ajratildi va 3 xil parametr bilan o'Ichandi: a) fikr izchilligi va imlo; b) matn qismlari, gapda so'zlarning o'zaro grammatik bog'lanishi; d) til imkoniyatlaridan foydalanish darajasi.

Fikr izchilligi, imlo. O'quvchilardan olingan 220 ta yozma ishdan atigi 44 tasida imlo savodxonligi, izchillik, badiiy bo'yoqdorlik ta'minlangan, sodda va qo'shma gaplar to'g'ri shakllantirilgan, matn xatboshilarga ajratilgan, uslubi ravon. Kirish, asosiy qism va xulosa bor. Takror kam, mazmuniy yaxlitlik ta'minlangan. Bu ishlar birinchi guruhga kiritildi. Ikkinchi guruhga kiritilgan 64 yozma ishda ham mazmuniy tugallik, izchillik mavjud. Kirish, asosiy qism, xulosa farqlanadi, uslubiy g'alizliklar, takrorlar uchraydi. Xatboshi, tinish belgilari, atamalar noo'rin ishlatilganligi ko'rinadi. Shu parametr asosida qolgan 112 ta yozma nazorat ishlari tekshirilganda gap qurilishi, fikr izchilligi, adabiy me'yorlarga rioya qilinmaganligi kuzatildi. Bunday ishlar 3-guruhga kiritildi.

Matn qismlari va gaplarning o'zaro grammatik bog'lanishi darajasi. Matnlar mazkur parametr asosida tekshirilganda, 220 ta ishning 44 tasi birinchi guruhga, 62 tasi ikkinchi guruhga loyiq topildi, qolgan 112 ishda gaplarda so'z tartibi, uslubiy-mantiqiy tugallik borasida kamchiliklar borligi aniqlandi.

Matn tuzishda til imkoniyatlaridan foydalanish darajasini aniqlash bo'yicha sinov ishlarida qatnashgan 220 o'quvchidan 20 ballik reytingdan 10-15 ball to'plagan 43 nafari 1-guruhga kiritildi, 6-10 ball to'plagan 65 o'quvchining yozma ishi 2-guruhga kiritildi. 6 dan past ball to'plagan 112 o'quvchining yozma ishlari 3-guruhga loyiq topildi.

"O'QUVchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning nazariy-metodologik asoslari" shaklida nomlangan birinchi bobda nazariy-metodologik, pedagogik-psixologik yondashuvlar talqini, ilmiy-metodik adabiyotlar, darsliklar tahlili, darslarni kuzatish va 5-9-sinflarda o'tkazilgan yozma nazorat ishlari natijalariga tayangan holda **1-bob yuzasidan quyidagi umumiy xulosalar chiqarildi:**

1. O'quvchilarning yangi mavzuni o'rganish, egallangan nazariy bilimni mustahkamlash mashqlari innovatsion texnologiyalar

vositasida amalga oshirilsa, o'quvchining imlo savodi, kommunikativ kompetentlik darajasi ortadi.

2. Yozma ishdagi tinish belgilari, uslubiy xatolarni aniqlash o'qituvchi va o'quvchilarning e'tiboridan chetda qolmoqda. Ona tili o'quv dasturi va darsliklarining MYKSHga taalluqli qismi *o'quvchida individual uslubni shakllantirish* maqsadida qayta ishlanishi lozim.

3. O'quvchilarda MYKSH faoliyati til bo'limlarini o'rganishda bosqichli ketma - ketlikda amalga oshirilsa, o'quvchilarda matn yaratish kompetentligi, nutqiy BKMLar rivojlanadi, mustahkamlanadi.

4. Ona tili darslari matn yaratish, o'yin-musobaqa, konferensiya, ijodiy taqdimot kabi innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilinsa, matn tahriri va o'zaro tanqid yo'lga qo'yilsa o'quvchida ijobiy o'quv motivlari uyg'onadi, tafakkur faollashib, unda o'ziga xos individual uslub shakllana boradi.

5. O'zbek tili imkoniyatlaridan til sathlararo va fanlararo aloqa-dorlikda, izchil va tizimli foydalanish – o'quvchi so'z boyligi, nutqini boyitish, imlo savodxonligi, yozma nutq kompetensiyasini mustaqil rivojlantirishning ishonchli usulidir.

6. Hamkorlik pedagogikasida kognitiv-pragmatik ta'lim tizimiga, ta'limga kompetensiyaviy yondashuvga asoslanish – o'quvchi subyektida ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalashning asosiy pedagogik-psixologik omillari sanaladi.

7. Tilni yaxlit sistema sifatida, tizimli o'rganish nutqiy kompetentlikka erishishning asosiy omili bo'lib, u o'quvchida mustaqil fikr ifodalash va matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

II BOB. O'QUVCHILARNI MATN YARATISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH

§ 2.1. Matn ustida ishlash kompetensiyasini shakllantirish – ijodiy tafakkur egasini tarbiyalashning zaruriy omili

Til va nutq o'zaro bog'liq hodisalardir. Til tasavvurimizda mavjud cheksiz imkoniyatlar xazinasini bo'lsa, nutq tilning kundalik hayotda voqelanishi, moddiylashuvdir. Nutq harakatdagi til demakdir. Tilning nutqiy imkoniyatlaridan mavzuga mos, zarur tushunchalar tanlanadi, grammatik qonuniyatlar, nutqiy layoqat, adabiy me'yor, individual uslub qamrovida harakatga keltirilib, og'zaki yoki yozma fikr, axborot yaratiladi [105: 21].

Respublika umumta'lim maktabi o'quvchilarining ona tilidan egallaydigan asosiy kompetensiyalari quyidagilar: shaxsiy lug'at zahirasini boyitish; til va nutq birliklarining amaliy mohiyatini farqlash; nutqiy mahoratni rivojlantirish; matn yaratishda til imkoniyatlaridan foydalanish malakalarini egallash, nutqiy kompetentlik darajasini oshirish. Umumta'lim maktablarining 5-9-sinflari uchun ona tili o'quv fani bo'yicha yaratilgan DTS [135: 3-20] o'qituvchilar oldiga quyidagi zaruriy talablarni qo'ydi:

o'quvchining mustaqil fikrlash, izchil fikr ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, til hodisalarini qiyoslash, nutqiy vaziyat talabiga mos so'zni tanlash, ijodiy-tanqidiy, mantiqiy tafakkur darajasini o'stirish;

o'quvchining ijtimoiy muhit, voqea-hodisalarni to'g'ri idrok etish, o'z dunyoqarashi, tuyg'usini erkin ifodalash ko'nikmasini shakllantirish;

ijtimoiy hayotda o'z o'rnini topadigan, vatanparvar, bilimli, zukko, tadbirkor va raqobatbardosh milliy kadrlarni yetkazib berish.

Bunday talablar o'quvchini til imkoniyatlaridan keng foydalanishga, tevarak-atrofdagi narsa-buyum, voqea-hodisa, zamon va makon tushunchalari ma'nosini to'g'ri anglashni taqozo etadi. Tavsiya qilinayotgan MYKSH dasturida o'quvchining nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasini rivojlantirish g'oyasi uch qismdan iborat bo'lib ular: *matn yaratish faoliyatiga tayyorlash*, *MYKSH*, *matn tahriri va taqdimot* kabi alohida bo'limlardan iborat.

Jadvalning 1-qismida tilning leksik qatlamini sistemalar sistemasi [139] tamoyilida o'rganish orqali o'quvchi lug'at zahirasini kengaytirish, uyadosh so'zlar tushunchasi ostida jamlangan nutqiy birliklar ma'nosini sharhlash zaminida og'zaki nutqni rivojlantirish [61; 62; 98;77; 78] ustida ishlanadi; 2-qismda o'quvchi tayyor matnlar ustida ishlaydi, unda matn qurilishi [73; 81; 82.], uning qismlarini farqlash [73;80], kengaytirish va ixchamlash [73;190] kabi yozma nutq kompetensiyasi shakllanadi; 3-qismda mustaqil matnlar tuzish, muammoli topshiriqlarni bajarish bilan shug'ullaniladi, nutqiy kompetentlik maxsus mashqlar yordamida mustahkamlanib, o'quvchilar matn yaratish faoliyatiga tayyorlab boriladi.

O'quvchilarda MYKSHning innovatsion texnologiyalariga asoslangan usuli—xususiydan umumiyga, soddadan murakkabga qarab borish, uzviylik va uzluksizlik, matn ustida ishlash, mustaqil MYKSH, nutqiy layoqatni rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan topshiriqlar tizimidan tashkil topgan [30; 61; 87; 202.]. MYKSHda ulardan o'rinli foydalanish — o'quvchi ongida adabiy me'yor, matn tili, qurilishi haqidagi bilimlar, soha atamalaridan [73; 80] keng foydalanish kompetensiyasining shakllanishiga yordam beradi.

Ona tili o'qituvchisining yangi texnologiyalardan foydalanmasligi, an'anaviy tizimda ishlashi o'quvchilarni ta'lim subyektiga (ishlovchisi) emas, ta'lim obyektiga (ishtirokchisi) aylantirmoqda. O'quvchilarida nutqiy kompetentlik xususiyatlarini shakllantirishni maqsad qilgan ona tili o'qituvchisining o'zi kasbiy kompetentlik darajasiga ega bo'lishi shart. Quyida MYKSH dasturiga qo'shimcha sifatida umumiy o'rta ta'limning 5–9-sinflari uchun mo'ljallangan matn ustida ishlash topshiriqlaridan namunalar berildi:

5-sinf o'quvchilari uchun: 1. Matndagi so'zlarni turkumlarga ajrating, ulardan SBlari tizimi hosil qiling. 2. Matndagi badiiy bo'yoqdor so'zlar, ibora, tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so'z, topishmoqlar sonini aniqlang, ularning lug'aviy ma'nolarini sharhlang. 3. Nuqsonli matnlarni o'qing, xatolarni to'g'rilang. 4. Nuqtalar o'rniga kerakli so'zlarni qo'yib, matnni ko'chiring. 5. Matnga sarlavha qo'yib, uni tarkibiy qismlarga ajrating, tinish belgilari o'rinli qo'yilganini aniqlang. 6. Matndagi fe'llarni ajrating, ravish va sifat yordamida so'z birikmalari hosil qilib, gaplarni kengaytiring. 7. Matndagi

**MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI
SHAKLLANTIRISH
DASTURI**

(Umumiy o'rtta ta'lim maktablarining 5–9-sinflari uchun)

| Matn yaratish faoliyatiga tayyorlash | Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish | Matn tahriri, taqdimot |
|--|--|---|
| <p>1. Nutqiy muloqot kompetensiyasini shakllantirish: leksikologiyadan uyadosh, ma'nodosh, zid ma'noli, shakldosh so'zlar; mustaqil so'z turkumlarining o'zaro farqi, leksik-grammatik hususiyat-larini sharhlash, muloqot madaniyati haqida suhbat, so'zning lug'aviy ma'nosi ustida bahsmunozaralar o'tkazish, so'z ma'nosini sharhlash, o'tilgan mavzu yuzasidan savol va testlar tuzish musobaqasini tashkil qilish, maxsus matndagi uslubiy-imloviy xatoni topish...</p> <p>2. Matn turlarini farqlash: og'zaki va yozma, nasriy va nazmiy, monolog, dialog, sharh: uslubiga ko'ra so'zlashuv, ilmiy, badiiy,</p> | <p>1. Matn yaratish: 1.1. Monologik matn yaratish; Ixtisosiy atamalardan foydalanib, maktub, SMS, badiiy, rasmiy matnlar yaratish; tasvir, portret asosida matn yaratish; badiiy-ramziy, tasnifiy-grammatik matnlar yaratish.</p> <p>1.2. Dialogik matn yaratish: “Telefonda”, “Lagerda”, “Kafeda”, “Kutubxonada”, “Avtobusda”, “Uyda”, “Mehmonxonada”, “Sirkda” kabi nutqiy vaziyatlar mavzusida kichik dialogik matnlar yaratish.,</p> <p>1.3. Rasmiy-badiiy matnlar ustida ishlash va matn yaratish: Berilgan ish</p> | <p>1. Matn tahriri: 1.1. Imloviy xatolarni aniqlash; matnda tinish belgilarining o'rinaliligini tekshirish; Xatoni bartaraf qilish; Matndagi kirish, asosiy qism va xulosani ajratish;</p> <p>2. Uslubiy tahrir: 1. Gapda so'z tartibiga rioya qilish; 2. Ega-kesim munosabatlarining buzilishi va</p> |

publitsistik. ***nasriy matn:***

badiiy, tasnifiy, ilmiy, ma'rifiy matn, MSB, annotatsiya, ixtisosiy, ilmiy matn, test, rasmiy, reklama matnlari yozish, ular ustida ishlash, matnni ifodali o'qish.

nazmiy matn:

she'rlarni yod olish, ifodali o'qish, badiiy tahlil, she'r vaznlari, bo'g'in, qofiya, she'riy san'at turlarini farqlash, qiroatni o'rganish.

3. Berilgan matn ustida ishlash orqali fonetika, leksikologiya, so'z yasalishi, morfologiya va sintaksisdan egallangan bilimlarni mustahkamlash; nazmni nasrga, badiiy bo'yoqdor gaplarni she'rqatorga aylantirish; ijodiy, muammoli topshiriqlar ustida ishlash, ularga yozma javob matnlari tayyorlash.

4. Matnning tarkibiy qismlarini farqlash: kirish, asosiy qism, xulosani farqlash; mazmun izchilligi, uzviylik buzilgan o'rinlarni belgilash; kirish

qog'ozlari matni ustida ishlash: ariza, tilxat, tarjimai-hol, ma'lumotnomalar mazmuni, hajmi, raqamlari va sanalarini o'zgartirib yozish; rasmi, elektron reklama, kichik shartnoma matnlari yaratish. Darslikda berilgan to'rtlik, bayt, ruboiy ustida ijodiy ishlash; she'r matnidagi qofiyadosh so'zlarni topish, ulardan yangi SBLari, radiflar hosil qilish; yangi she'r qatorlar, to'rtliklar yozishni mashq qilish; iqtidorli o'quvchi-larga kichik yumor, hikoya, hazil, esse, tabrik, reklama va e'lonlar, hikmatli so'z, topishmoq yozishni tavsiya qilish.

Matn yaratish: o'rganilgan asar bo'yicha taqriz, referat yozish, test tuzish, nasriy nazmiy, avtobio-grafik matn tuzish; bayon, insho yozish, asar

takror-dan saqlanish.

3. Sana va raqamlar tahriri.

4. Sarlavha tahriri.

5. Matn hajmi bo'yicha tahrir: matnni kengaytirish;

ixchamlash, o'zgartirish;

6. Matnning leksik-sintaktik tahlili ustida ishlash;

8. Tuzatilgan matnni eskisi bilan

qiyoslab, taqdimot qilish,

tahrirning to'g'ri-ligini dalillar bilan isbotlash;

9. Matnning badiiy tahlili ustida ishlash;

| | | |
|--|---|--|
| yoki xulosa qismi berilgan matnni davom ettirish; matn qismlarini bog'lovchi vositalarni aniqlash, ularning gapda bajarayotgan vazifasini belgilash; matndagi mantiqiy, uslubiy xatolarni topish va bartaraf etish ... | qahramoniga qiyosiy ta'rif berish. Reklama va e'lon matnlarini tuzib, sinfda taqdimot qilish. | |
|--|---|--|

ot, sifat so'z turkumiga oid so'zlardan so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida boshqa turkumga oid so'zlar yasang. 8. Matnda ajratib ko'rsatilgan so'zlarni uyadosh, ma'nodosh, zid ma'noli, shakldoshlari bilan almashtiring, o'zgarishni sharhlang.

5-sinf o'quvchilari uchun so'z boyligini oshirish va nutq o'stirish mashqlari. Berilgan so'z harflari ishtirokida yangi so'zlar hosil qiling, ma'nosini sharhlang, ular asosida SBlari va gaplar hosil qiling. *O'rog'liq* (o'r, o'q, o'g'il, o'g'ri, o'roq, rol, og', g'oq, or, ol, g'or, g'o'r, g'ir, g'iq, il, iliq qir, qil, qo'l, qo'r, qol.), topshiriq (to, top, topshir, tosh, toshir, tor, tiq, tir, tiriq; ot, or, osh, oshiq, oshir, orttir, oriq...), ko'zoynak - Kay, ko'y, ko'z, ko'za, ko'n, ko'k, o'z, o'n, o'y, o'yna..,

6-sinf o'quvchilari uchun mashqlar : 1. Matndagi ot, sifat, ish-harakat fe'llarini ma'nodosh va uyadosh va zid ma'noli birikmalar bilan almashtiring: (*o'qish – uqish, savod chiqarish, kitob mutoala qilish, ilm olish, izlanish, ta'lim olish*; uyadoshlar: *o'qish₁ – kitob, maktab, ustoz, daftar, sinf, sinfdosh*; 2. Zid ma'nolilar: *o'qish₂ – ish, o'yin, dam olish, ta'til va h.k.*) 3. Yasama so'zlarni ajrating, ulardan asosdosh va qo'shimchadosh so'zlar hosil qiling (*borliq– bormoq, borgan, bordon borar..; sog'liq – yasog'liq, taxlog'liq, o'rog'liq, vaqtichog'liq, bog'liq, tug'liq, tuzliq, omonliq*), ular asosida SBlari va gaplar hosil qiling.

7-sinf o'quvchilari uchun mashqlar: 1. Berilgan so'zlardan ijobiy va salbiy bo'yoqli SBlari, o'xshatmalar hosil qiling: *yigit, qiz*. Alpomishday (arsloday, filday, sherday) baquvvat yigit; dovdir, ezma, qo'rqqoq, bo'shang yigit; kiyikdek chaqqon, musichadek

beozor, guldek nafis qiz...). 2.. Ixtisosiy matndagi SBlari soni, ularning tarkibiy tuzilishini aniqlang.

3. Matndagi olinma va yangi paydo bo'lgan so'zlarni toping, ulardan uyadosh SBlari hosil qiling. 4. Berilgan matndan sodda, qo'shma, juft va takroriy so'zlarni toping, ular ishtirokida SBlari va gaplar tuzing. 5. Matndagi sodda gaplarni ixchamlab, qo'shma gaplarga, qo'shma gaplardagi bosh va ergash gaplarni sodda gaplarga aylantiring. 6. Berilgan matndagi xatboshilar sonini aniqlang, qo'shma gaplarni ixchamlang. 7. Berilgan ixtisosiy MSBni bir necha sodda gaplarga ajrating. 8. Matndagi sodda yoyiq gaplarni uyushiq bo'lakli, kiritmali, undalmali, ohang bilan farqlanadigan gaplarga aylantiring. Ma'nodagi o'zgarishlarni sharhlang: – Oydinoy, amming keldilar! – Oydinoy amming keldilar! 9. Matndagi ko'chirma gaplarni o'zlashtirma gaplarga aylantiring. “Yomg'ir tinmayapti – dedi karvonboshi, bugun yo'lga chiqolmaymiz”. Karvonboshi yomg'ir to'xtamasa, yo'lga chiqolmasligimizni aytdi.

8-sinf o'quvchilari uchun topshiriqlar.: 1. Sodda gaplarni murojaat, tasdiq-inkor, taassuf, takalluf, shubha-gumon, mavhumlik, hurmat, munosabat ma'nosini anglatadigan kirish so'zli ma'nodosh gaplarga aylantiring: Otam safardan qaytdi. / Ehtimol, otam safardan tezda qaytarlar. // Baxtimizga, (afsuski, taassufki, negadir) otam safardan erta qaytdilar. // Kutganimizdek, otamiz haj safaridan mamnun qaytdilar. 2. Yuqoridagi gaplardan “ota” so'zining ma'nodoshlarini toping, ulardan gap tuzing. ota – dada, ada, padari buzrukvor, qiblagoh. Masalan: –Azizlarim, shu hafta muhtaram qiblagohimiz haj safaridan qaytadilar! –Oyijon, bugun tongda padari buzrukvorimiz safardan qaytadilar! –Bugun qiblagohimiz haj safaridan qaytdilar-u, xonadonimizga xursandchilik, xotirjamlik kirib keldi... Bunday uslubiy bo'yoqdor gaplarni tuzish, ularni matn tarkibiga kiritish yoki kiritmaslik o'quvchi yashayotgan muhitga, ma'naviyatga, o'ziga bo'lgan ishonchi, nutqiy-intellektual qobiliyati, kommunikativ kompetentlik darajasi, matnda so'z ishlatish mahorati, lug'at zahirasi qamroviga bog'liq.

Shuningdek, 9-sinf o'quvchilarining til sezgirligini oshiruvchi, muammoli mashq-topshiriqlar ustida ishlashlari, o'quvchilarni matnni to'liq tushunishga, undagi atamalarni to'g'ri izohlashga odatlantiradi, matn tarkibida mavjud bo'lgan mantiqiy va uslubiy

xatolarni aniqlash, bartaraf etishga yordam beradi. Matn ustida ishlash usullarini egallagan o'quvchi matn mazmuni va uslubini o'zgartirish (matnni qayta ishlash, ixchamlash, kengaytirish, unga iqtibos, ibora va tasviriy ifoda, maqol, hikmatli so'zlar kiritish, tahrir qilish) imkoniga ega bo'ladi.

Ona tili ta'limida til va nutq imkoniyatlari, ko'p ma'nolilik, uyadoshlik, ma'nodoshlik, shakldoshlik, zid ma'nolilik, til hodisalarini o'rganish, birinchidan, o'quvchi lug'at boyligini oshirsa, ikkinchidan, leksik, morfologik, sintaktik hosilalarni farqlash, grammatik qoidalarni bilish va ulardan nutqda erkin foydalanishga xizmat qiladi. Grammatik qoidalarni bilish – ifodali o'qish, so'z ma'nolarini sharhlash, nutq o'stirish, til sathlariaro va fanlararo aloqadorlik, tizimlilik, uzluksizlik bilan uyg'unlashtirilmasa, o'quvchida fikrni og'zaki va yozma ifodalash, mustaqil matn tuzish kompetensiyasining shakllanishi qiyinlashadi. Til qoidalari matn tarkibida mustahkamlanib, matn ustida ishlash, uning tahlili bilan birgalikda amalga oshirilsa, o'quvchi til hodisasining nutqdagi o'rni, til me'yori haqida zarur bilimlarga ega bo'ladi, uni o'z nutqiy faoliyatiga tatbiq etadi.

UO'TMda "Nutq madaniyati", "Matn yaratish texnologiyasi", "Mahorat maktabi" kabi ona tili to'garaklarining uzluksiz ishlashi, badiiy o'qish, kitobxonlik, ijodiy matn yaratish bo'yicha tanlovlar o'tkazib borilishi, shoir-yozuvchilar bilan uchrashuvlar bo'lishi o'quvchida o'z ona tiliga, kitobga, she'riyatga muhabbat tuyg'usini tarbiyalaydi. O'quvchi til mashg'ulotlarining har birida o'z lug'at zahirasi bo'yib borayotgani, nutqi ravonlashayotgani, o'quv qiyinchiliklarini mustaqil engib borayotganini his qilsa, ona tili darsini zoriqib kutadigan, so'z ilmiga mehr bilan yondashadigan bo'ladi.

MYKSHning ajralmas tarkibiy qismi hisoblangan matn ustida ishlash faoliyati psixolingvistik topshiriqlar asosida kengaytirilishi mumkin (qarang, ilova). Psixolingvistik testdagi "to'g'ri javob"ni isbotlash zaruriyati, o'quvchini o'z nuqtayi nazarini himoyalashga, dalillardan foydalanishga o'rgatadi. O'quv faoliyatini shunday tashkil qilishdan maqsad, birinchidan, o'quvchida matn yaratishning zarur omili bo'lgan og'zaki nutqni rivojlantirish bo'lsa, ikkinchidan,

unda suxandonlik, boshlovchilik notiqlik, milliy ma'naviyat va madaniy muloqot kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi.

Ona tili ta'limida diktant, bayon va insho yozish bilan shug'ullanish ham o'quvchining MYKSHda muhim ahamiyatga ega [35:12-17-b; 76:16-26-b; 81:12-27]. Diktant yozishdan maqsad imlo savodxonligi, husnixat, matnning shakllanish jarayonini kuzatish, o'quvchining imlo savodxonligi darajasini aniqlash, fikr ifodalashda tinish belgisini o'rinli ishlatishga odatlantirishdan iborat. Insho va bayonda esa asosiy e'tibor o'quvchida erkin fikrlash, fikrni to'g'ri ifodalash, matn qismlarini to'g'ri shakllantirish, matnda ibora, tasviriy ifoda, maqollardan o'rinli foydalanish kompetensiyasini shakllantirishga qaratiladi.

UO'TMning 5-7-sinflarida diktant va bayonning ijodiy turlaridan keng foydalanish mumkin. O'quvchini matn yaratish faoliyatiga tayyorlash ijodiy diktant, bayon va kichik insho matnlari ustida ishlashdan boshlanadi. Quyida diktant, bayon va kichik insholar ustida ishlash uchun tuzilgan topshiriqlar tizimi tavsiya qilindi:

1. Matnni ifodali o'qing, unga sarlavha tanlang.
2. Matnda tushirib qoldirilgan tinish belgilarini to'g'ri qo'ying.
3. Gap tarkibidagi ot, sifat (son, olmosh, ravish, fe'l) larni boshqa ma'nodoshlari bilan almashtiring.
4. Matndagi sifatlarni zid ma'noli so'zlar bilan almashtiring.
5. Fe'llardan ravishdosh va sifatdoshlar hosil qiling.
6. Fe'llarga bo'lishsizlik ma'nosini kiriting.
7. Ajratilgan so'zlar bilan so'z birikmalari hosil qiling.
8. Matndagi so'z birikmalari soni va turini aniqlang.
9. Matndagi yasama so'zlarni toping, ulardan yangi SBlari hosil qiling;
10. So'z yasovchi qo'shimchalarning tagiga chizing;
11. Yasama so'zlardagi asosni ajrating, ulardan yangi so'zlar hosil qiling;
12. Matndagi so'z yasovchi qo'shimchalar yordamida yangi, qo'shimchadosh so'zlar hosil qiling;
13. Matndagi sodda va qo'shma so'zlarni guruhlarga ajratib, ko'chiring;
14. Matndan xatboshilarni ajrating, ularni ixchamlang yoki kengaytiring.

Mustaqil ish. 1. Berilgan muqobil so'zlar ma'nosini izohlang. Har bir juftlikdan 2 ta SB va 2 ta gap tuzing. Arava-aroba, masjid-machit, nabira-nevara, obro'-obro'y, shoyi-shohi, baravar-barobar. Sharhlash:

Arava – ot, eshak, ho‘kiz qo‘shiladigan g‘ildirakli yuk tashish vositasi; *aroba* – eski turkiy tildagi muqobil so‘z.

2. “Arava”, “aroba” muqobil so‘zlari ishtirokida SBlari hosil qiling: eski qo‘qon arava, jang aslahalari ortilgan to‘rt g‘ildirakli aroba. SBlaridan gaplar tuzing: 1. Og‘ir yuk ortilgan qo‘qon arava tuproqda chuqur iz qoldirib, asta ilgariylaydi. 2. Engilgan dushman lashkarining qurol-aslahalari ortilgan, to‘rt otli og‘ir aroba qal‘a darbozasi yonida to‘xtadi.

5–7-sinflar uchun ijodiy ish. Berilgan so‘zlardan foydalanib, SBlari va gaplar tuzing. Undagi so‘z va SBlarining qaysi nutq uslubiga xosligini aniqlang, ulardagi ma‘no o‘zgarishi hodisasini tushuntiring: *Ko‘ylak* – ko‘ynak, libos, sarmo; *tunukasoz* – tunukachi, *kashtado‘z* – kashtachi, *mug‘anniy* – musiqachi, sozanda, muzikant, kompozitor; dutorchi, doirachi, surnaychi, karnaychi; *yangidan* – qaytadan, *bir boshdan* – bir chekkadan, tartib bilan, navbati bilan, rasamadi bilan.

8–9-sinf o‘quvchilari MYKSH uchun ko‘proq bayon, insho, ijodiy matnlar, shuningdek, ariza, tarjimai hol, ishonchnoma, bayonnoma, shartnoma, kabi rasmiy hujjat matnlari yaratishlari lozim. Mazkur jarayonda ko‘p topshiriqli mashqlar tizimidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Quyida shunday mashq shartlaridan namunalar keltiriladi.

1-mashq. Matnni o‘qing. Unga 4-5 ta sarlavha toping. Sarlavhalarga uyadoshlar tanlab, daftaringizga yozing. 2-mashq. Matndan bog‘lamalar ishlatilgan gaplarni ajrating. Bog‘lamani muqobili bilan almashtirib, gapni kengaytirib daftaringizga ko‘chiring (2-ilova). 3-mashq. Matnning kirish, asosiy qism va xulosasini aniqlab, ko‘rsating. 4-mashq. Matndagi xatboshi va gaplarni, ularni o‘zaro bog‘lovchi so‘zlarni topib, izohlang. 5-mashq. Matndagi imloviy-uslubiy xatolarni bartaraf qiling. 6-mashq. Gaplarda so‘z tartibini o‘zgartirib boshqa ma‘nodosh gaplar tuzing, unda ega-kesim munosabatlariga ahamiyat bering (2-ilova). 7-mashq. Matn uslubini boshqa uslub bilan almashtiring (3-ilova). 8-mashq. Matnni o‘qing, unda yo‘l qo‘yilgan uslubiy xato – so‘z takrorini toping. 9-mashq. Matnda necha xil so‘z turkumlaridan foydalanilganligini aniqlang. Sifat+ot qolipida SBlari hosil qiling (7-8-ilovalar). 10-mashq. Matnga maqol yoki iqtibos kiritib, qayta

ishlang. 11-mashq. Sodda yoyiq gaplarni qo'shma gapga aylantirib, ixchamlang. 12-mashq. Qo'shma gaplar tarkibidagi bosh va ergash gaplarni ajrating. 13-mashq. Tinish belgilarini ishlatishda yo'l qo'yilgan xatolarni tuzating.

Agar o'quvchilar bir-birlarining yozma ishlarini nazorat qilishga o'rgatib borilsa, diktantni baholashga ko'p vaqt ketmaydi. Bunday mustaqil topshiriqlar o'qituvchi vaqtini tejash bilan birga, o'quvchida ijodiy izlanish, mustaqil faoliyat, o'zi ishi uchun mas'ullik kabi hislatlar shakllanishiga olib keladi. O'z nutqiy bilimini namoyish qilish istagi, qiyin so'zlar imlosi, tinish belgilari, so'zlarning kontekstdagi o'rini aniqlash majburiyati "tekshiruvchi o'quvchi" ni lug'at titkilashga, darslikni qayta varaqlashga majbur qiladi. Bu esa aynan shu o'quvchida nutqiy kompetentlik darajasining oshishiga xizmat qiladi. Yozma ishlarning o'quvchilar tomonidan tekshirilib, baholanishi quyidagi ijobiy natijalarga olib keladi:

1. O'rtoqlari yozgan matnlarni mustaqil tekshirish o'quvchining imlo savodxonligi, grammatik bilimlari, xususiy uslubini mustahkamlab, nutqiy kompetentlik darajasining ortishiga olib keladi.

2. Sinfdoshining yozma ishini tekshirish o'quvchida tanqidiy fikrlash, beriladigan bahoga mas'uliyatni orttiradi, unda kitob o'qish, lug'at bilan shug'ullanishga ehtiyoj hosil qiladi.

3. Berilgan matnni mustaqil tahrir qilish, o'zgartirish yoki ixchamlash zaruriyati o'quvchida to'g'ri, o'rinli, ravon gap tuzish, ijodiy fikrlash, gapda ega-kesim munosabati, tinish belgini o'rinli ishlatish kompetensiyasini mustahkamlaydi.

4. O'quvchidan yozma matn yaratib, o'z nutqiy salohiyati, so'z boyligi, gap va matn tuzish mahoratini boshqalarga namoyish qilishga imkon beruvchi psixolingvistik topshiriqlar, unda mustaqil izlanish, tezkor matn yaratish, tanqidiy fikrlash, matnni to'g'ri shakllantirish kompetensiyasini mustahkamlaydi.

§ 2.2. Ona tili ta'limida matn ustida ishlash amaliyoti

Matn ustida ishlash -- o'quvchini matn yaratishga tayyorlashning faol usuli. Mazkur faoliyat o'quvchining MYKSHda muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu sohani rivojlantirishda N. Mahmudov [83 - 90], A. Nurmonov [113, 114], H. Ne'matov [104-109], A.Q.

G'ulomov [192–198], I. Galperin [47, 48], T. Lado'jenskaya [76–78], L. Loseva [81], Ya. I. Velichko [45], N. D. Zarubina [56], V. Andriyanova [26–28.]larning ilmiy tadqiqotlari muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, mazkur yo'nalishda S. Adilova [22], R. Sayfullayeva [132], N. Sattorovalarning ilmiy tadqiqotlari [133], o'quv qo'llanma, darslik va o'quv dasturlari mavjud.

5–8-sinf o'quvchilarini matn ustida ishlash asosida matn yaratishga tayyorlashda maxsus *uslubiy va imloviy xatoli matnlar* ustida ishlash ham yaxshi natija beradi. Quyida o'quvchi tafakkuri, idrok va xotirasi, nutqiy salohiyatini o'stirishga yo'naltiruvchi psixolingvistik topshiriqlardan namunalar keltirildi:

1. Berilgan matndan so'z, SB va gaplarni ajratib, kengaytiring, so'ngra ixchamlang.
2. Matndan takror ishlatilgan so'z va SBlarini topib, to'g'rilang.
3. Mazmunga mos keladigan maqol, hikmatli so'z, iboralarni topib, matn tarkibiga kiriting.
4. Berilgan matn bilan qayta ishlangan matnni qiyoslang.
5. Matndagi olinma so'zlarni boshqa muqobillari bilan almashtirib, almashtirish sababini tushuntiring.
6. Siz kiritgan tuzatish matn uchun qanchalik zarurligini isbotlang.

O'quvchilarni matn yaratish faoliyatiga tayyorlashda *maxsus tayyorlangan matn ustida ishlash* topshiriqlari ham yaxshi samara beradi:

1. Matnni ifodali o'qing, uni qismlarga ajratib, nomlang.
2. Matn mazmunini o'rganib, unga reja tuzing.
3. Matnni gap, SB, so'zlar miqdori, turi, qaysi so'z turkumiga oidligi nuqtayi nazaridan lisoniy tahlil qiling, undagi o'zaro bog'lanish vositalarini aniqlang.
4. Matn mazmunini ochib beruvchi savol va testlar tuzing.
5. Matnni qayta hikoya qiling, matn tili, mazmuni va badiiy bo'yog'iga baho bering.
6. Matn tahriri, uni kengaytirish va ixchamlash, imloviy-uslubiy xatolarni bartaraf etish bilan shug'ullaning.
7. Uslubiy xatoli matnni tahrir qiling.
8. Matnning kirish, asosiy qism, xulosasini ko'rsating. Xulosani kengaytiring.
9. Matndagi sodda va qo'shma gaplar sonini aniqlang.
10. Sodda gaplarni badiiy bo'yoqdor, badiiy bo'yoqdor gaplarni she'rqaatorlarga aylantirib ko'ring. Mas: Hovlimizdagi atirgullar ochildi / Hovlimizda anvoyi atirgullar barq urib ochildi // Barq urib ochildi anvoyi gullar, ko'nglimda bahoriy tuyg'ular gullar.
11. She'rqaatorlardagi so'zning o'zini yoki o'rnini almashtirib ko'ring. // Mas: Barq urib ochildi nomozshomgullar,

ko'nglimda ko'z ochar inja tuyg'ular. /// Dilimni yashnatar anvoyi gullar, ummondek ko'pirib-toshar tuyg'ular kabi. 12. She'r-qatorlardan hikmatli so'z, ruboiy yoki to'rtlik chiqarishga urinib ko'ring.

Sen kelding. Chaqnadi nomozshomgullar

Bong urdi muhabbat, ko'nglim qasrida.

Nodira begimlar sening nasling - da,

Farishtamisan, yo malak, aslida?

Berilgan matn ustida ishlash topshiriqlari muntazam ravishda murakkablashtirib boriladi. Bu esa o'quvchini izchil fikrlash, to'g'ri mushohada yuritish, nutqiy hodisalarni o'zaro qiyoslash va mavzuga mos uslubni tanlashga o'rgatadi.

Ona tili darsliklariga kiritilgan matn turlarini o'rganish, ular ustida ishlash, yangi matn tuzish – o'quvchida nutqiy kompetentlik, o'ziga xos yozma uslubning shakllanishi va rivojlanib borishiga xizmat qiladi.

Matn va uning turlari. Umumiy o'rta ta'lim maktabi ona tili darsliklariga kiritilgan rasmlar rangli, alohida syujetli bo'lishi, mashq matnlari esa o'quvchida o'rganilgan mavzuni mustahkamlash, lug'at boyligini oshirish, nutq o'stirish, to'g'ri gap tuzish va yozma fikr ifodalash kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qilishi lozim. Ular:

1. Ilmiy matnlar. 2. Rasmiy matnlar. 3. Ma'rifiy matnlar. 4. Badiiy matnlar. 5. Publisistik matnlar. 6. Muhokama matnlari. 7. Ixtisosiy matnlar. 8. Rasm-tasvir matnlari. 9. Reklama matnlari. 10. Tasnifiy matnlardir.

1. **Ilmiy matn** – biror fanga taalluqli ilmiy mavzu, ilmiy g'oyani fakt va dalillar bilan isbotlashga qaratilgan bo'ladi. Bunday matn badiiy bo'yoqdorlik, jonlantirishlardan holi bo'lib, unda mazmuniy va mantiqiy izchillikka to'liq rioya qilinadi, faktlar, iqtiboslar manbalari aniq ko'rsatiladi, tushunarlilik, ixchamlik ta'minlanadi, oldingi fikr keyingi gap bilan izohlanib, mustahkamlab boriladi. Ilmiy matnda kirish so'zlar, qolipli nutqiy birikmalardan keng foydalaniladi. Masalan: Umuman, birinchidan, demak, chunonchi, xususan, shubhasiz, ma'lumki, olingan natijaga ko'ra, foydalilik koeffisiyenti, tahlil natijasi...

2. **Rasmiy matnlarga** ariza, e'lon, ma'lumotnoma, tilxat, bildirgi, tarjimai hol, majlis qarori, tushuntirish xati, ishonchnoma, loyiha, shartnoma kabi shaxsiy va idoraviy hujjatlar kiradi. Bu uslubdagi matnlarda fikr aniqligi ustuvor bo'lib, badiiy bo'yoqdor so'zlar ishlatilmaydi. Qo'shma, uyushiq bo'lakli gaplar, sifatdash va ravishdoshlar, qavs ichida beriladigan izoh (kiritma gap)lar qo'llaniladi. Kesim aniqlik va buyruq maylidagi fe'llar bilan ifodalanadi.

3. 5-9-sinf darsliklariga kiritiladigan **ma'rifiy matnlarda** mashhur shaxslar hayoti, ilmiy-ijodiy faoliyati yoritiladi (bunda videotasvir, videoklip, multfilmlardan foydalanish ham mumkin), taniqli ijodkor, pedagog, san'at namoyondalarining ilmiy asarlari, kashfiyotlari, qoldirgan madaniy merosi haqida ma'lumotlar beriladi. Matnlarda sharq allomalarining axloq va ma'naviyat haqidagi qarashlari, hadis, ibora, hikmatli so'z va maqollar aks etadi. Ma'rifiy matnlar milliy ma'naviyat, qadriyatlar, an'analar, axloq, ta'lim va tarbiya mavzularida bo'lishi mumkin.

4. **Badiiy matnlar** nasriy va nazmiy shakllarda beriladi. Nasrga hikoya, roman, qissa, doston, afsona, ertak kabilar kiritiladi. Ularda shaxslar ishtirokidagi voqea yoki xabar, tarixiy hodisalar erkin uslubda sharhlanadi, yaxlit bir mazmun ochib beriladi. She'riy matnlar – muayyan uslub, vazn, turoq, qofiyaga asoslangan, insonning ichki dunyosi, tasavvuri, his-tuyg'ularini she'riy uslubda, qofiyali tasvirlashga xizmat qiluvchi, tanlangan asarlar, baytlar, ruboiylar, lirik kechinmalar tizmasidan tashkil topadi.

5. **Publitsistik matnlar** jamiyatdagi ijtimoiy - siyosiy hayotning dolzarb masalalariga bag'ishlangan, muayyan maqsadga qaratilgan targ'ibot va tashviqot, ko'tarinki ruhdagi matnlardir. Ular mustaqillikning, kun sayin rivojlanib borayotgan ijtimoiy hayotning sport va ta'lim-tarbiya jarayoniga, barkamol avlod tarbiyasiga ijobiy ta'siri, iqtidorli shaxslar, millat va vatan ravnaqi, davlatimizda erishilgan yutuqlar, yaratilgan kashfiyotlar haqida bitilgan matnlardir.

6. **Muhokama matnda** ilmiy, badiiy asar yoki o'quvchi tomonidan yaratilgan matn tahlil qilinadi. O'quvchi o'z fikrini isbotlash uchun bahslashadi, fakt va dalillar ko'rsatadi, kuzatish natijalariga tayanib, ma'lum bir fikrni tasdiqlaydi yoki rad etadi.

Muhokama matnlari mehnat, vatanparvarlik, saxiylik, yaxshilik va yomonlik, botirlik va qo'rqoqlik kabi mavzularda bo'lishi mumkin. M: "Sog'lom tanda – sog' aql", "Ekkaningni o'rasan", "Kattaga hurmatda, kichikka izzatda bo'l", "Sayoq yurgan – tayoq er".

7. ***Ixtisosiy matnlar*** muayyan kasb-hunar, ilm-fan, texnikaga oid atamalar ishtirokida, ma'lum maqsad va aniq mutaxassislik yo'nalishida ma'lumot, axborot, ma'ruza, qo'llanma shaklida yaratiladi. Unda muayyan sohaga oid atamalar, qolipli SBlari, izohlar ishlatiladi (qarang, 3-ilova).

8. ***Rasm-tasvir*** matnlarida tabiat, daraxt, bino, gulzor, maktab bog'i, ilmiy mavzu, tasviriy san'at asarlari, narsa-buyumlar, shaxs yoki guruhdagi odamlarning ruhiy holati nazmiy yoki nasriy ko'rinishda tavsif etiladi. Unda shaxs obyekt sifatida ishtirok etmasligi ham mumkin. M.: "Lolazor", "Maktab bog'i", "Paxta dalasi", "Otlarning yasalishi", "Zomin tog'lari". "O'zbekiston" kabi.

9. ***Reklama matnlari*** yaratish va uni texnik namoyish qilishning interaktiv usullari respublikamizga mustaqillikdan keyin kirib keldi. Ular XXI asrdagi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning globallashuvi, fan-ta'lim-ishlab chiqarishning o'zaro uzviylikdagi taraqqiyoti mahsuli bo'lib, tadbirkor kishilar tomonidan o'z mahsulotlarini tez, yaxshi bahoda va yaxlit sotish maqsadida namoyish qilish vositasi – reklama matnlarini yuzaga keltirdi. Zamonaviy reklamalarning o'rni, hajmi, shakli turli-tuman: ular rasmi, yozma, media va rangli videotasvir ko'rinishida, harakatlanuvchi roliklar holatida beriladi.

10. ***Tasnifiy matnlar*** berilgan slayd, jadval, grafik chizmalar asosida shakllantiriladi. Slayd, jadval, grafik chizmalar asar mazmunini ixcham, tushunarli ifodalashga yordam beradi. Chizmalarga aylangan mazmun zaruriy qismlarga ajratilib, og'zaki yoki yozma holda, tartibli, ketma-ketlikda, raqamlar yordamida tasnif (klassifikasiya) qilinadi.

UO'TMda matn ustida ishlash amaliyoti asosan, ikki turda amalga oshiriladi: a) darslikdagi tayyor matnlar ustida ishlash; b) o'quvchi yaratgan matnlar ustida ishlash.

5–9-sinflar uchun beriladigan matnlar o'rganiladigan mavzu asosida tanlanadi. Mazkur matnlarning muallifi aniq ko'rsatilishi lozim. Ular badiiy asardan parcha, ma'rifiy matn, kichik hikoya,

rivoyat, qissa; rasmiy ish qog'ozlari: tilxat, tavsifnoma, ma'lumotnoma, o'quvchi yaratgan maktub, reklama, taklifnoma, tabrik matnlari bo'lishi mumkin.

5-sinf "Ona tili" darsligining sintaksis bo'limida tayyor matnlar ustida ishlash imkoniyati keng, foydalilik koeffitsiyenti yuqori. O'quvchilar matndagi sodda va qo'shma gaplarni aniqlash, guruhlarga ajratish, matnni ixchamlash, sodda yig'iq gaplarni uyushiq bo'lakli sodda va qo'shma gaplarga aylantirish bilan shug'ullanishlari, fakt va dalillar keltirib, matnni takomillashtirishlari mumkin. Mazkur jarayonda qiziqarlilik, badiiylikni ta'minlashga xizmat qiluvchi lirik chekinishlar, yumor, tasviriy ifoda va iboralar tanlash, ularni matn tarkibiga kiritish mumkin [89, 144; 23–27]. Shuningdek, berilgan matn turi, qaysi uslubga xosligi, qurilishi, tarkibiy qismlarini aniqlash; matndagi gaplarni qo'shma, sodda yoyiq va yig'iq gaplarga ajratish [145; 34–38]; sodda yoyiq gaplardan uyushiq bo'lakli gaplarni ajratish; matndagi yangi so'zlar, SBlarining lug'aviy ma'nolarni sharhlash [61; 62]; gapning markazi – kesimni topish [108; 34–38], kesimdan savol berish yo'li bilan ega, to'ldiruvchi, aniqlovchi, holni topish, ularning qaysi so'z turkumi bilan ifodalanganligini belgilash; so'zlarni uning uyadoshlari, ma'nodoshlari, muqobillari, zid ma'nolari bilan almashtirib, gaplarning shakli va mazmunini o'zgartirish; sodda yoyiq gaplarni yig'iq, yig'iq gaplarni yoyiq gapga aylantirish, matndagi sodda gaplarni o'zaro biriktirib, qo'shma gaplar hosil qilish; qo'shma gaplarni sodda gap juftlariga, bir necha ergash gapli qo'shma gaplarni uyushiq bo'lakli gaplarga aylantirish; gaplarda tinish belgilarning turi va o'rnini aniqlash bilan muntazam shug'ullanish o'quvchilarning MYKSHda muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

§ 2. 3. Matnning tarkibiy qismlarini shakllantirish usullari

Insonning bilishga bo'lgan ehtiyoji bosh miya, ong, sezgi, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur, ko'z, quloq, burun, til, barmoq tingari bir qator a'zolar yordamida qondiriladi. Bilishning miya bilan bog'liqligi shubhasiz, ammo miyaning o'zi olamni to'la bilish uchun zararli bo'lmaydi. Buning uchun miya yarimsharlarini harakatga keltirish, uni muammoli masalalar yechimini topishga yo'naltirish.

faktlarni qiyoslash, tanlash, analiz va sintez ishlarini amalga oshirish taqozo etiladi. Bunda avvalo, kishidan diqqat, idrok, kuzatish, ko'rish, his-tuyg'u, tasavvur, lisoniy-nutqiy kompetensiyalar ishtiroki talab qilinsa, ikkinchidan, fikrni to'laqonli gapga aylantiruvchi ravon nutq zarur bo'ladi. Yaratiladigan matn mazmuni, qurilishi, tarkibiy qismlarini to'g'ri va bexato shakllantirishda *matn yaratish topshiriqlaridan*, o'quvchi diqqatini asosiy fikrga qaratishda *so'roq va undovlar ritorik so'roq gaplardan* foydalanishning ahamiyati katta.

Ritorik so'roq gaplardan matndagi xatboshilarni bog'lash, matnda bahs yuritilayotgan muammo yechimini topishda, o'z fikrini fakt va dalillar bilan isbotlashda, matnning kirish qismidan asosiy qismga o'tish vositasi sifatida foydalanish mumkin:

1. Nima sababdan yoshlar orasida kitob o'qish kamaydi?!

2. "Bo'sh vaqt muammosi" ning yechimi nimada deb o'ylaysiz?

3. Sizningcha "Bo'sh vaqt muammosi"ning kelib chiqish sababi nimada?

Ritorik so'roq gaplar matn maqsadi, asosiy mazmunini yoritishga, yechimni oldingi qism bilan bog'lashga xizmat qiluvchi tugun vazifasini bajaradi. Ular "natija" yoki "sabab-oqibat" ma'nosida qo'llaniladi hamda ularning izchil davom ettirilishi, yangi mavzuga o'tish uchun zarur bo'lgan nutqiy vaziyatni, obrazli aytganda "ko'prik" ni vujudga keltiradi. O'qituvchi boshchiligida tuziladigan savollar ham matn uchun reja, shuningdek, matn tarkibini shakllantiruvchi qolip vazifasini o'taydi:

1. Kuz qanday fasl? (kirish, tasvir)

2. Kuzning boshlanganligini qanday bilish mumkin? (asosiy qism, zohiriy belgilarni sanash)

3. Kuzning boshqa fasllardan farqi nimada? (asosiy qism, to'rt fasl belgilarini o'zaro qiyoslash)

4. Hosil bayrami qaysi oyda o'tkaziladi? (umumlashtirish, xulosa)

Qisqasi, so'roq gaplar dialogik matnning asosini tashkil qiladi.

Dialogik matn savol-javoblar asosida matn qismlarini o'zaro bog'lash, asosiy mavzuni ochib berishga yo'llovchi lingvopsixologik vosita [49, 50, 144] vazifasini bajaradi. Kommunikativ aloqa

pozitsiyasidagi soʻroq va undov maʼnosidagi gaplar matnda oʻzidan oldingi yoki keyingi qism bilan oʻzaro munosabatga kirishadi. Gap va xatboshilarning maʼnaviy aloqasi taʼminlanib, keyingi fikrga yoʻl ochiladi.

Shuningdek, matnni shakllantirishda *kirish soʻz va kirish gaplardan* ham unumli foydalanish mumkin. Kirish soʻz yoki gap sodda va murakkab shakllarda boʻlib, soʻzlovchining aytilayotgan fikrga munosabatini bildiradi. Ulardan asosan matnning kirish qismi bilan asosiy qismini oʻzaro bogʻlashda foydalaniladi. Matnda aynan, kirish soʻzlar aytilayotgan fikrga, suhbatdoshga munosabat, murojaatni anglatib, asosan oʻquvchi tafakkuriga taʼsir oʻtkazuvchi psixolingvistik unsurlarni matnga kiritish vazifasini bajaradi:

1. Kirish soʻzlar ishonch yoki tasdiqni ifodalaydi: *shubhasiz, darhaqiqat, albatta, chindan ham, toʻgʻrisini aytganda, aniq qilib aytsak, oʻz-oʻzidan maʼlumki*. Masalan: Albatta, siz musobaqada gʻolib boʻlasiz.

2. Xavfsirash, gumon, noaniqlik mazmunini anglatadi: *aftidan, balki, ehtimol, shunaqa shekilli, bordi-yu..* Masalan: Ehtimol, siz uni tanirsiz?

3. Orzu, umid, istak, mamnunlikni ifodalaydi: *qani endi, zora, ishqilib, koshkiydi, yaxshiki, xayriyat...* M: Yaxshiki, siz kelib qoldingiz!

4. Hayrat, taajjub: *be, yoʻgʻ-e, ajabo, voajab, vodarigʻ, nahotki..* asosan soʻzlashuv, badiiy-publisistik uslublarda qoʻllaniladi. Masalan: Yoʻgʻ-e, nahotki shu soʻzlarni Nodira aytgan boʻlsa?!

5. Taʼkid: axir, -ku, xolos: Ancha vaqt, mablagʻ sarflandi-ku, axir.

6. Taxmin (gumon, taxmin, farazni ifodalashga xizmat qiladi, soʻzla-shuv uslubi): *chamasi, chamamda, oʻylashimcha, fikrimcha, fahmlashimcha, sezi-shimcha*. M: Fikrimcha, siz endi shaharga qaytmaysiz.

7. Aytilayotgan fikrning kimga qarashlilikini ifodalaydi: *menimcha, sizningcha, bizningcha, uningcha, sizning fikringizcha, aytishlaricha*. maʼlum boʻlishicha, Qonunning 2-,3- moddasida qayd etilinishiga koʻra.., Ular koʻproq soʻzlashuv nutqida, ilmiy, badiiy, publisistik uslubdagi matnlarda uchraydi. Kirishlar soʻzlovchiga gap

tarkibini shakllantirish, soʻzlarni guruhlash, munosabatni tiniqlashtirish, ohangga zaruriy boʻyoq berish, nutqiy intonasiyani belgilash, ovoz kuchiga qarab nafas olishni rejalashtirish uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari MYKSHda badiiy oʻxshatishlardan ham samarali foydalanish mumkin. Oʻxshatishlar tilning alohida tasvirlash vositasi boʻlib, soʻzlovchi nutqining oʻziga xosligi, badiiy boʻyoqdorligini taʼminlovchi muhim omil sanaladi. Badiiy adabiyotda ifodalalanayotgan fikrning taʼsirchanligini oshirish maqsadida mazkur lingvistik vositadan unumli foydalaniladi. Oʻxshatishlarni ifodalab kelgan maʼnosiga koʻra quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

1. Holatni ifodalovchi oʻxshatishlar: toshdek qattiq, oʻroqday egri, halimday yumshoq; 2. Inson xarakterini ifodalovchi oʻxshatishlar: chumoliday mehnatkash, qoʻyday yuvosh, musichaday beozor, mushukday chaqqon, ilondek sovuq; 3. Maza-taʼmni ifodalovchi oʻxshatishlar: bolday shirin, zaharday achchiq, qaymoqday totli; 4. Belgi-sifatni ifodalovchi oʻxshatishlar: anorday qizil, sutday oq, oydek goʻzal, qorday oppoq, koʻlankaday jim; 5. Mavhum tushunchalarni ifodalovchi oʻxshatishlar: ilk sevgidek begʻubor, moziydek sirli kabi.

Hayvon va parrandalar xususiyatlariga asoslanib, turfa qolipdagi **oʻxshatishlar** hosil qilish, ulardan gap qurilishida oʻrinli foydalanish, oʻquvchi yaratgan matn mazmuni, sifatini yaxshilash, fikrlar rang-barangligi, badiiy boʻyoqdorlikni taʼminlashga xizmat qiladi. Masalan: tulki, ayiq; – tulkiday (-dek) ayyor, mugʻombir, hiylagar, ayiqdek qoʻpol, fildek baquvvat kabi muayyan uyaga oid oʻxshatishlar roʻyxatini tuzish, oʻquvchi nutqini shunday birikmalar bilan boyitish, bilimlarni mustahkamlash nutqiy kommunikativ kompetentlikni egallashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Matnni takomillashtiruvchi asosiy til birliklari: soʻroq va undov gaplar, kirish soʻz va kirish gaplar, yuklama va bogʻlamalar oʻxshatishlardan oʻrinli foydalanish oʻquvchida matn yaratish kompetensiyasining mustahkamlanishiga olib keladi. **Individual uslubni shakllantirish muammosi** oʻquvchi ongida matn ustida ishlash, shaxs-son, ega-kesim munosabatlarini

me'yorlashtirish, matnni, gaplarni kengaytirish va ixchamlash, tinish belgilarini o'rinli qo'llash kompetensiyasini egallash jarayonida o'z yechimini topadi.

1. *Matnni kengaytirish usullari:*

1.1. Matnga sarlavha, epigraf tanlash, uni badiiy bo'yoqdor so'zlar, sana, fakt va dalillar, undalmalar, maqol, matal, hikmatli so'zlar, ibora, tasviriy ifodalar bilan boyitish;

1.2. Ega, to'ldiruvchi, hol vazifasida kelgan so'zlarni sharhlab, *kesimdan savol berib gapni kengaytirish*, qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni ajratish; sodda gap tarkibiga uyushiq bo'laklar, ajratilgan bo'laklar, undalmalar kiritish; gap va xatboshilardagi grammatik va sintaktik bog'lanishlarni aniqlash, belgilash, bosh-qasiga almashtirish;

1.3. Kirish so'z va xulosalarni takomillashtirish, ilmiy matnni badiiy, badiiy matnni ilmiy, publisistik matnga aylantirib ko'rish matn ustida ishlash jarayonida amalga oshiriladi.

1.4. Gapni takomillashtirishda aniqlovchi va to'ldiruvchi singari *so'z kengaytiruvchilari va hol bilan ifodalangan gap kengaytiruvchisidan unumli foydalanish* mumkin [181, 182, 185.]. M: Mansur qaytdi/ Mansur uyg qaytdi // Ikrom akasi Mansurning tezda uyg qaytishini aytdi. /// Orqamizdan xalloslab etib kelgan Ikromjon Mansurning uyg qaytgani, bizni kutayotganligini aytdi.

2. Matnni ixchamlash usullari.

2.1. Mazmunni saqlab, matnni ixchamlash; tarjimai hol, portret, manzara, narsa-buyum, jadval tasnifini ixchamlash. Lirik chekinish, rivoyat, tavsif, tahlilni qisqartirib, matnni ixchamlash;

2.2. Matnni takrordan, ortiqcha fikrdan tozalash, imloviy, mantiqiy, uslubiy xatoni topish, uni bartaraf etish; qo'shma gaplarni sodda, uyushiq bo'lakli yoyiq gaplarga aylantirish.

2.3. Badiiy tasvirning o'rinlilikini aniqlash, nozarur so'zlardan voz kechish (6-ilovaga qarang); xatboshilarni ixchamlash, MSBlarni qisqartirish; tarkibiy qismlari aralash matnlarni tartibga keltirish; gapda so'z tartibi, shaxs-son, zamon munosabatlariga ahamiyat berish; she'riy matnni nasriy matnga aylantirish, badiiy bo'yoqdor gaplarni qofiyalash;

2.4. Badiiy bo'yoqdor gaplarni she'riy misralarga (bundan keyin "she'rqator" deb ataladi) aylantirish; tanlangan she'rni sharhlab,

qofiyali gaplarga aylantirish: Qo'rg'oshin xayollar ezadi bag'rim, janda umidlarga solaman yamoq.. (Faxriyor) // Qo'rg'oshin xayollar qalbm ezadi, besamar umidlar kezadi sarson. // qalbmni qiymalar javobsiz savol, bemavrid ko'z ochgan boychechak misol.

Umumta'lim maktablari 5–9-sinf o'quvchilarining matn ustida ishlash kompetensiyasini shakllantirishda quyidagi tavsiyalarga amal qilish lozim:

o'quvchilarni "O'zbek adabiy tilining boy uslubiy zahiralari, funksional-ekspressiv imkoniyatlari" [90, 96; 11–22] bilan muntazam tanishtirib borish, ulardan unumli foydalanishga oid nazariy va amaliy kompetensiyalarni mustahkamlash;

o'quvchilarni gapning emotsional-ekspressiv bo'yog'i: tantanavorlik, lirik-intim holatlar, nazokatlilik, kinoyaviylik, shirinsuxanliq kabi ma'no nozikliklarini farqlashga, uni nutq sharoitiga mos ravishda to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatish, badiiy qiroat qonuniyatlari [132; 5–9-b. 133, 177] bilan tanishtirish (badiiy o'qish, suxandon nutqi, AKT, lingofon, diktofon, mikrofon vositasida);

o'quvchilarni shakl va mazmun yaxlitligi talabi asosida matnni tanqidiy baholashga odatlantirish, mantiqiy va uslubiy jihatdan mukammal bo'lgan ilmiy, badiiy (nasriy va nazmiy), badiiy-ramziy, rasmiy, monologik va dialogik matnlarni tahrir qilishga o'rgatish;

uyadosh so'zlar tanlash [5; 128; 139.] individual uslubni shakllantirish, matnda badiiy bo'yoqdorlikni ta'minlash – matn ustida ishlash mashqlari zaminida amalga oshirilishini o'quvchi ongiga singdirish, ijodiy tafakkur, nutqiy mahorat hamda adabiy me'yorning o'zaro uyg'unlikda shakllanishiga erishish;

o'quvchilarda bir mazmuni turli shakl va uslubda bayon etish kompetensiyasini shakllantirish; gazeta, jurnal, badiiy va ilmiy adabiyot manbalari, kompyuter axborot banki va internet tizimida saqlanayotgan turli axborot va ma'lumotlardan, slaydlardan foydalanib matn yaratish, *matnni leksik, imloviy-grammatik, uslubiy, tarkibiy, mantiqiy* jihatdan tahrir qilish usullarini o'rgatish.

2005-yil Xorazmda bo'lib o'tgan "O'zbek tili ta'limi jarayonida fanlararo bog'lanish masalalari"ga bag'ishlangan O'TDA ning VIII yig'ini uchun chop qilingan dars ishlanmalarida ona tilini adabiyot, tarix, geografiya, matematika, musiqa, biologiya va boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganish, o'qitishning Venn

diagrammasi, Klaster texnologiyasi, rasm asosida matn yaratish, "Aqliy hujum"ning turfa variantlari kabi interaktiv usullardan foydalanish namunalari berilgan. Afsuski, mazkur ishlanmalarda asosiy e'tibor nutq o'stirishga qaratilib, matn ustida ishlash, uslubiy tahrirning texnologik jihatlari yetarlicha oydinlashtirilmagan. 45 daqiqalik dars turli metodlarni birdaniga qo'llash hisobiga ortiqcha murakkablashtirib yuborilgan. Bu dars ishlanmalarida imlo, adabiy me'yor, nutqning mukammalligi, uslub qoidalari unutilganligi, nutqiy mahorat darajasini oshirish, tanqidiy fikrlash, xatolar ustida ishlash ko'nikmalarini shakllantirish masalasi e'tibordan chetda qolganligi kuzatildi. Holbuki, matn ustida ishlash mashqlarigina o'quvchini so'z ma'nosini farqlash, mavjud imloviy-uslubiy xatolarni aniqlash, tanlangan variantlarni o'zaro taqqoslash hamda kontekstga mosini ajratishga o'rgatadi. Bunday mashqlar nutqiy kompetentlikni mustahkamlovchi, o'quvchini tanqidiy fikrlash, to'g'ri hukm va xulosaga kelish, o'qilgan axborot yuzasidan o'rinli munosabat bildirishga o'rgatuvchi muhim didaktik vositadir.

O'quvchilarni muayyan fan sohasiga masalan, biologiyaga oid ixtisoslik matnlari yaratishga yo'naltirishda, qaysi ilmiy manbalardan foydalanish, qaysi masalaga munosabat bildirish, matn tarkibida qo'llanishi mumkin bo'lgan nutq birliklari haqida qisqacha ma'lumot berilishi maqsadga muvofiq. O'quvchi yaratadigan matn to'g'ri shakllantirilgan, mazmundor va qiziqarli bo'lishi uchun, u muayyan nutqiy bilimga ega bo'lishi, fikrni mavzuga mos ravishda, izchil ifodalash kompetensiyasini egallashi zarur bo'ladi. Yaratiladigan ixtisoslik matnining yoritilishi, qurilishi, fikrlar ketma-ketligi [179; 18-23-b.182.] quyidagicha bo'lishi maqsadga muvofiq:

1. Kirish. Bu qismda matnda tavsiflanayotgan tabiat, zamon, makon, o'simlik yoki hayvonning tarixi, kelib chiqishi, xususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi.

2. Asosiy qism. O'rganilayotgan obyektning yashash tarzi, oziqlanishi, hosildorligi, parvarishlash va ko'paytirish usullari, turi, insoniyatga keltiradigan foydasi bayon etiladi.

3. Xulosa. O'simlik yoki hayvonning ijtimoiy hayotdagi o'rni va ahamiyati, sayyoramizda mavjud ekologik muammolar, ularning oldini olish yo'llari tavsiya qilinadi.

Fikrimizning isboti uchun o'quvchilarni ixtisosiy matn ustida ishlash jarayonida badiiy matn yaratishga tayyorlash, matnni ixchamlash, mazmunni bo'rttirishga xizmat qiluvchi psixolingvistik topshiriqlar, so'zdan matnga borish, gapdan matn chiqarish, matndan matn chiqarish, imloviy uslubiy tahrir usullaridan namunalar berildi.

5–9-sinflar uchun yaratilgan amaldagi ona tili darsliklarida [88; 89] fonetika, imlo, leksikologiya, sintaksis va punktuatsiya mavzulari mukammal yoritilgani holda til sathlariaro va fanlararo aloqadorlik prinsipi, tizimli fikrlash, badiiy bo'yoqdor gaplar tuzish, nasriy va nazmiy matnlar yaratish ustida ishlash, o'rganilgan mavzuni sharhlab, og'zaki matn yaratish masalalari e'tibordan chetda qolgan. Vaholanki, yangi mavzuni o'rganish, takrorlash va mustahkamlash darslarida berilgan matnlar ustida ishlash, shu asosda yangi matnlar yaratish, tahrir va tahlil bilan shug'ullanish o'quvchi uchun juda foydali. Til va nutq birliklarini farqlamaslik, SB lari hosil qilish, gap tuzish, matn yaratish bilan muntazam shug'ullanmaslik esa, o'quvchida nutqiy komponentlarning yaxlitlashuvini, tizimli fikrlash sur'atini sekinlashtiradi, mustaqil fikr ifodalash, nutqiy kommunikativ kompetentlikni ta'minlashda muayyan uzilishlarni keltirib chiqaradi.

Quyida namuna sifatida berilayotgan, tushirib qoldirilgan so'z birikma va qo'shimchalarni to'ldirish mashqlari, o'quvchida xotira va tafakkurni qo'zg'atish, o'zaro uzviylik va uzluksizlik tamoyillari asosida fikrlash, til sezgirligini oshirish, yozma va og'zaki nutqda so'zni tanlab ishlatish, grammatik-sintaktik bog'lanishlarni idrok etish kompetensiyasini mustahkamlaydi hamda o'quvchida o'ziga xos individual uslubning shakllanishiga xizmat qiladi [177: 49–56].

5–9-sinflar ona tili darsliklari tilni tizimli o'rganishning innovatsion texnologiyasi – “MYBT-4” moduli dasturi bilan boyitilsa, unga asta-sekin murakkablashib boruvchi, o'quvchini izlanish va kashf qilishga yo'naltiruvchi psixolingvistik mashq-topshiriqlar tizimi kiritilsa, o'quvchilarda MYKSH jarayoni osonlashadi. Shuningdek, darsliklarda beriladigan mustaqil ishlar, izchillik, mantiqlilik, uzluksizlikni ta'minlovchi muammoli topshiriqlar [115: 35-39; 197: 49–56;] bilan boyitilsa, o'quvchi ongida ijodiy fikrlashga, fikrni yozma ifodalashga ichki ehtiyoj paydo bo'ladi.

Tadqiqot ishi davomida olib borilgan tajriba-sinov ishlari shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarda til sezgirligini oshishiga asosiy sabab, matn ustida ishlash va mustaqil matn yaratish: berilgan matnni kengaytirish va ixchamlash, matndagi xatolarni bartaraf etish, noo'rin atama va tinish belgilarini aniqlash, matnda ajratib ko'rsatilgan atamalarning lug'aviy ma'nosini sharhlash kabi ijodiy ishlarning muntazam ravishda bajarilishi bo'ldi.

Quyida maxsus tanlangan (tayyorlangan) *xatoli matnlar ustida ishlash* usuli orqali o'quvchilarda imlo savodxonligi, tanqidiy tafakkurni shakllantirish, til sezgirligini oshirishga qaratilgan topshiriqlardan namunalar berildi.

Mustaqil ish. (8–9-sinflar uchun). Gaplarni tanqidiy o'rganing, mantiqiy-uslubiy g'alizliklarni topib, tahrir qiling.

1. "Allaqaydan yelkasiga qimmatbaho ko'ylak kiygan, mo'ylovlari gajak yigit paydo bo'ldi" [66: 167–168]. Tahlil namunasi: Aynan yuqoridagi gapda "yelkasiga" so'zi noo'rin. Tahrirchi uni "ustiga" (so'zlashuv uslubi) yoki "egniga" (badiiy uslub) so'zi bilan almashtirgani ma'qul. Chunki ko'ylak kiyilganda yelkaga emas, tanaga kiyiladi, yelkasiga so'zini ishlatish uchun "tashlagan", yoki "ilgan" so'zini tanlash lozim. "Kiymoq" bilan "tashlamoq" fe'lining ma'nodosh qatorlari turlicha: kiymoq, kiyinmoq, yasanmoq, bezanmoq; tashlamoq, ilmoq, o'ramoq ("ilmoq"da salbiy bo'yoq quyuqroq: unda ish-harakatni bajarishga istak yo'qligi, manmanlik, kibr yoki kasallik, kamquvvatlik ma'nolari bo'rtiriladi, ba'zan kiyimning eskiligi, tanlash imkonining yo'qligini ta'kidlashda ham qo'llaniladi): "topganini ustiga ildi", "boshiga eski ro'molini tashladi" kabi. 2. "To'yga bilak shimarib xizmat qilayotganlar". Bu yerda kontekst "eng shimarib" SBni talab qilmoqda (bilakni yalang'ochlash mumkin, ammo shimarib bo'lmaydi). 3. "Naqadar baxtli bolalik men birla yashaganligini (?), uzoq-uzoqlardan uchib kelayotgan turnalar ovozi jo'r bo'lib tasdiqlayotganday edi.". Mantiqiy xato. Baxtli bolalik odam emaski, muallif bilan birga yashasa! 4. "O'qtin-o'qtin tun qushini (?) sayrog'i tog'u toshlarga urilib aks-sado berar, men esa quyosh botishi bilan muallaq qolgan xayollarimni (?) bir-bir terardim". Birinchidan, qushini emas, qushining, ikkinchidan, qaysi qush?, uchinchidan, xayollar quyosh botishi bilan muallaq bo'lib qolmaydi va uni bir-bir

terib olishning (qaerdan?) imkoni yo'q. 5. "Shasht o'rnimdan turdim", shasht emas shart, dast yoki shartta, shasht so'zi inson ruhiy holatini anglatib, salbiy ma'nolarda ishlatiluvchi holat, hodisa, atama (mas: shashti past). 7. "Rom derazalarini ochdim" emas, "deraza romlarini ochdim" kabi.

Yuqorida berilgan uslubiy-mantiqiy xatoli gaplar, ular ustida olib borilgan tanqidiy mulohazalar, mustaqil tahrir jarayoni o'quvchini ko'rilayotgan matn shaklini o'z tasavvurida qayta tiklashga, mantiq, adabiy me'yor asosida qayta qurishga yo'naltiradi. U o'zi topgan so'zlar kontekstga mos kelishi yoki kelmasligi, ularning birlamchi lug'aviy ma'nosini aniqlash uchun ham, albatta, izohli lug'atga murojaat qiladi.

7–9-sinflarda nazmiy matnlar ustida ishlash kompetensiyasini shakllantirishga "evristik yondashuv" – adabiy tahlil [63: 24–38-b; 64, 98: 12–24] usullaridan namunalar keltiramiz: nasriy va nazmiy matnlarni tanqidiy o'rganib chiqish – uslubiy xatolarni topish, so'zlarni boshqa, kontekstga mos ma'nodoshlariga almashtirish, muayyan uslub va yo'nalishga solish, matnga maqol, hikmatli so'z, tasviriy ifoda, iqtiboslar qo'shish orqali mazmunni kuchaytirish, boyitish, o'rinli hukm va xulosa chiqara bilishdir. Quyida 7–9-sinf ona tili darslarida nazmiy matnlar ustida ishlash mashg'ulotlarida (ijodiy to'garaklarda) "Eng yaxshi muharrir" tanlovini o'tkazish namunasi berildi.

Tanlov sharti: Ekranga chiqarilgan nazmiy matnni ifodali o'qib, mazmunini sharhlang. She'rdagi ishlatilgan so'zlarni boshqa ma'nodosh yoki uyadosh so'zlar bilan almashtirib ko'ring (tanlovda sinfdagi barcha o'quvchilar (to'garak a'zolari) o'z variantlarini taklif qiladilar).

M: Jahon chehra, rangi-ro'yi o'zingsan,

Aql – daryo, uning suvi o'zingsan.

Gulbargdagi shabnamdayin toza bo'l,

Bu bog'chaning rangi ro'yi o'zingsan. (Pahlavon Mahmud).

Nazmiy matn ustida ishlash topshiriqlari:

1. Matnni o'qing. She'rnin hikoyaga aylantirib, daftarga yozing.

2. Matndagi ot, sifat, olmosh turkumlariga oid so'zlarni ajratib, guruhlang, ularga ma'nodosh, uyadosh va zid ma'noli so'zlar tanlang.

3. She'rdagi mazmun, g'oya, bo'g'in va qofiyani saqlagan holda ot, sifat, olmosh va fe'lga oid so'zlarni boshqa ma'nodoshlari bilan almashtirib ko'ring, she'rni tahrir qiling.

4. Siz tahrir qilgan she'rning yangi varianti muallifnikiga solishtirganda o'ziga xos ekanini isbotlashga harakat qiling. "Eng yaxshi muharrir" ko'rik-tanlovi g'olibi quyidagi shartlar bo'yicha aniqlanadi:

1. Berilgan she'rni katta ekranga chiqarib, ifodali o'qing. 2. Qayta ishlangan to'rtlikni guruh muhokamasiga tavsiya qiling. 3. Tanqidchi o'quvchilarning takliflari tanlov hay'ati tomonidan ko'rib chiqilib, xulosa chiqariladi. 4. "Eng yaxshi tahrir qilingan to'rtlik" – deb e'tirof qilingan nazmiy matn muharriri rag'batlantiriladi. Quyida ko'rik-tanlov g'oliblarining ijodiy mashqlaridan namunalar va tahlil matni berildi.

E. Yodgorov. Buxoro shahridagi 9-umumiy o'rta ta'lim maktabi, 8-^A tajriba-sinov sinfi o'quvchisi:

Dunyo bo'y qiz, rang-u ro'yi o'zingsan,

Aql – ummon, dur-gavhari o'zingsan.

Umr – lahza, gulbargdagi shabnamdek,

Ilm – davlat, toj sarvari o'zingsan.

To'rtlikning aslida muallif jahonni chehraga o'xshatgan bo'lsa, o'quvchi "chehra"ni "bo'y qiz" bilan almashtirgan. To'rtlikning aslida "chehra" so'zi faqat jahonning "yuzi", "aksi", "ko'rinishi" ma'nosini anglatga, "bo'y qiz"da ma'no kengayishi hodisasi ko'rinadi [98; 21-34]: bu dunyo – voyaga etgan, balog'at yoshidagi qiz – bo'lg'usi kelinchak, asrash, sevish va qadrlash lozim bo'lgan yor, inson zurriyatini dunyoga keltiruvchi ona, ya'ni fikr ifodasida uslubiy darajalanish kuzatiladi. To'rtlikda *aql* oqayotgan daryoga qiyoslansa, tahrirda *aql* daryolar kelib quyiladigan, dur-u javohir yaraladigan dengizga, insonning o'zi esa dengizdagi gavharga mengzaladi. Uchinchi misra yanada teranroq mazmunga ega bo'lgan: asl nusxada shabnamdek pokiza bo'lish zaruriyatiga ishora qilinsa, tahrirda shabnamning yana bir xususiyati – *vaqtinchaligi* ham kashf qilinadiki, unda inson umri tonggi shabnamdek bir lahzalik ekani, ilm o'rganish – davlatmand bo'lishlik, bu davlatni boshqarish esa faqat insonning o'zigagina tegishliligi bashorat qilingan: *Umr – lahza, gulbargdagi shabnamdek, Ilm – davlat, toj sarvari o'zingsan!*

To'rtlikning badiiy tahlili: bu dunyo bo'yiga etgan, go'zal qiz, uning chiroyi, ko'rkamligi sening mehnating, unga bo'lgan mehru muhabbating aksidir. Aql esa tubi yo'q, buyuk dengiz, uning dur-gavhari, javohiri –sencan, inson! Inson umri gul bargida tovlangan shabnamdek bir lahzalik, uni yaxshilik va ilm uchun sarflash esa boqiylikdir. Ilm – davlat, hisobsiz boylikki, uning yagona yaratuvchisi ham sohibi ham, xizmatchisi ham o'zingsan, inson!

Gulistondagi 10-maktabning 9-A tajriba – sinov sinfi o'quvchisi B. Muboshirov she'rni quyidagicha tahrir qilgan:

Jahon – ko'ngil, ko'ngil toji o'zingsan,

Aql – boylik, boj-xiroji o'zingsan.

Daryo bo'lu hayot baxsh et sahroga,

Makkaga haj qilmay, hoji o'zingsan.

Yuqoridagi variantda bundan oldingi 1-, 2-variantga nisbatan o'zgarish katta. Unda 1-variantdan faqat g'oya, qofiya va 4 ta so'z saqlanib qolgan. 3-variantda asl nusxadagi mazmun 90% o'zgarishga uchragan bo'lib, unda jahon ko'ngilga qiyoslanadi, ko'ngil sarvari esa insondir. Inson aqli bitmas-tuganmas boylikka qiyoslangan bo'lsa, insonning o'zi ana shu boylikni o'zlashtiruvchisi, buyuk sahovat, go'zal ma'naviyat sohibi, daryo bo'lib, sahroga jon baxsh etuvchi fidoyiga (ilm tarqatuvchi), go'zal xulqi va mukammal amallari natijasida haj qilmay turib, hojiga aylanadigan komil inson timsoliga aylantirilgan.

Ona tili darslarida kichik nazmiy va nasriy matnlar ustida ishlash [43, 45, 46, 64], hikoya, she'r yoki nazira yozishga urinish o'quvchi uchun ancha murakkab ijodiy ishlar sirasiga kiradi. Bunday mashg'ulotlar o'quvchi lug'at xazinasining boy va salmoqdor bo'lishini, unda so'z yasash, ma'noni darajalantirish, qofiyadosh so'z va SBlari hosil qilish, she'r san'ati, bo'g'in, vazn, qofiya, radif singari tushunchalarning etarli darajada shakllangan bo'lishini taqozo etadi. Bu esa o'z-o'zidan til va adabiyot fanlarini o'zaro aloqadorlik, uzviylik va uzluksizlikda, o'zaro uyg'unlikda, barkamol avlodni nutqiy taraqqiyotga eltuvchi benazir hilqat sifatida o'rganishni talab qiladi. Zero, so'z va atamalarning lug'aviy ma'nolari, leksik-grammatik birikmalarning sintaktik-semantik xususiyatlarini farqlay bilish – o'quvchining nazmiy matndagi ma'noviy tovlanishlar, so'z o'yinlarini tushunib olishiga sabab bo'ladi.

O'quvchi tomonidan yaratilgan har qanday matn, undagi mustaqil tafakkur qamrovi, nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasini aniqlash mezonidir.

Badiiy matn – o'quvchining so'z boyligi, ijodiy tafakkur ko'lamini, ma'naviyati, tildan foydalanish mahorati, nutqiy kompetentlik ifodasidir.

Matnni bironing ko'magisiz yaratish, o'z kashfiyatini namoyish qilish o'quvchi uchun katta sinov. Matn yaratish faoliyati bilan muntazam shug'ullanish o'quvchiga erkin fikrlash, o'zidagi nutqiy kompetentlik darajasini aniqlash va baholash, o'zidagi nutqiy ma'naviyat haqida to'g'ri xulosa chiqarishga imkon beradi. Umuman ona tili amaliyotida *matn yaratishning bosqichli-tizimli texnologiyasi* asosida ishlash mustaqil ta'limga, dars jarayonida o'quvchi faoliyati ustuvorligiga [59, 60, 61, 62], ijodiy tafakkur va nutqiy kompetensiyaning o'zaro uyg'unlikdagi ravnaqiga olib keladi [152, 161; 49–56].

Pedagogik-psixologik tadqiqotlar, matn ustida ishlash bo'yicha o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, mustaqil ta'limga, ijodiy izlanishga asoslangan har qanday faoliyat sermahsuldir. O'quvchi darsda mustaqil izlanib, ijodiy ish yoki birorta muammoning yechimi bilan shug'ullansa, yangi bilimni o'zlashtirish samarali kechadi. Shu jihatdan qaralsa, muammoli ta'lim (MT), zamonaviy darsda qo'llaniladigan usullarning qulay va qiziqarli, kafolatli va sermahsulidir. MT negizida inson ruhiyatiga bevosita ta'sir o'tkazuvchi, eshituvchida intellektual zo'riqish hosil qiluvchi psixolingvistik unsurlar yotadi. Bular o'quvchida ichki nutq, idrok, xotira, tasavvur, tafakkur kabi neyropsixologik omillarning jadal ishlashiga ehtiyoj hosil qiladi [91, 96, 115, 184; 185; 197]. Egallangan nutqiy kompetensiyalar darajasining ortib borishi [152], fakt va dalillarning o'zaro qiyoslanishi, analiz va sintez, tahlilning to'g'ri yechimga olib kelishi muammoli ta'limning ijobiylik belgisidir. MTda o'quvchidagi kreativlik, evristik layoqat rivojlanadi, muammo yo'nalishida izlanish, yangi fikr aytishga, SBlari tuzish va undan tezkor foydalanishga, lug'at bilan ishlashga ehtiyoj kuchayadi, o'quvchida nutqiy-intellektual qobiliyat, o'ziga xos uslub shakllana boradi, yozma nutq taraqqiyoti kuzatiladi. Murakkabroq muammo yechimini qidirish yanada qiziqarli, chunki u tezkor fikrlash, eng

to'g'ri yechimni birinchi bo'lib topish, shu jarayonda muammo javobining yaratilishiga imkon beradi. Mazkur xususiyat ta'limga kompetensiyaviy yondashuv tamoyilida muammoli ta'limning boshqa ta'lim texnologiyalari ichida ustuvor mavqeni egallashiga yo'l ochadi.

Ma'lumki, MTning muammoli masala, muammoli vaziyat, muammoli savol, muammoli test, muammoli topshiriq kabi turlari mavjud [197: 40–56; 115]. “Ona tili” darsliklarini muammoli ta'lim topshiriqlari bilan boyitish, o'quvchilarda MYKSH mashg'ulotlarini shu asosda tashkil etish nihoyatda foydali. Muammoli ta'lim o'quvchining ongosti ijodiy faoliyatiga bevosita ta'sir o'tkazishi, mustaqil fikrlash, izlanish, qiyoslash, variantlar tanlash, to'g'ri yechimni topishga yo'naltirishi bilan ta'limning boshqa usullariga nisbatan mukammal va qiziqarlidir.

Ona tili darslarida “...muammoli vaziyat yaratishda o'qituvchi o'quvchilarni voqea va hodisalarni taqqoslash, umumlashtirish, faktlarni sintezlashga jalb qilishi maqsadga muvofiq. Bu jarayonda muammoli metod mantiqiy metodlar bilan uyg'unlashib ketadi” [197: 36–37] – deydi Q. Husanboeva. Muammoli vaziyat tarkibiga qo'shimcha psixolingvistik topshiriqlarni kiritish, yechimning topilishni engillashtiradi. Quyida o'quvchining fikr ifodalash dinamikasini faollashtiruvchi, muammoning yechimini topishga yo'naltiruvchi interaktiv usullardan namuna berildi.

Ilovaning oltinchi qatoridagi kengaytirilgan qo'shma gapni muammoli vaziyatning yechimi (mustaqil yaratilgan kichik matn) sifatida oqqa ko'chirish, matnni tugatish mumkin. Ushbu topshiriqni bajarishda o'quvchi “nima uchun?” savoli yordamida gapni kengaytirish va ixchamlash usulidan foydalangan. Bu usul ona tili ta'limining “izchillik va bosqichli ketma-ketlik tamoyili” [193: 37–47; 194: 5–9]ga asoslangan bo'lib, o'quvchi unda quyidagi nutqiy kompetensiyalarni egallaydi:

1. Muammoli vaziyatni to'g'ri baholay olish: Salimjon qanday qilib mushkul vaziyatdan chiqishi mumkin? Muammo manbalari: a) betob ona; b) vrachning kasalxonadaligi; v) ishlamayotgan telefon; g) “tez yordam” bilan aloqaning yo'qligi; d) maktabdan kech qolish; e) bog'chaga kech qolib borish; yo) vaqtning kamligi.

2. Muammoning ko'pqirraligini anglash, unga to'g'ri yechim qidirish, tanlangan yechimdan nutqiy vaziyatga mos holatlarni tanlay bilish; qisqa, izchil fikrlash, uni ravon, tushunarli bayon eta olish; kengaygan (sodda yoyiq, qo'shma) gapni ortiqcha so'zlardan tozalash, zarur detallarni qo'shish, so'z tartibini o'zgartirish; gap tuzishda me'yoriy qonuniyatlar, aniqlik, ixchamlilik, tushunarlikka, so'z tartibiga rioya qilish; gapni asosiy ma'no saqlangan holda ixchamlash, imloviy-punktuatsion xatolarni bartaraf etish.

Matn yaratish mashg'ulotlarini muammoli ta'lim asosida tashkil qilish maktab o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqning o'zaro uzviylikda rivojlanishiga, so'zlarni qiyoslash va tanlash, fikrni mustaqil ifodalash mahoratining oshib borishiga, madaniy muloqot, ijodiy matn yaratish kompetensiyasining mustahkamlanishiga xizmat qiladi [152]. 5-7- sinflarda muammoli ta'lim usulida ishlash namunasi sifatida shogirdning bilimi va zukkoligi sinaladigan "Qozining hukmi" ma'rifiy matni bo'yicha muammoli topshiriq shartlarini keltiramiz. Undan ko'zlanadigan asosiy maqsad o'quvchida mavjud ijodiy tafakkur kurtaklarini rivojlantirish, uni izlanish va kashfiyotga yo'naltirish, muammo yechimini topish uchun zarur gaplarni tuzish va guruhga taqdim etishga, shu jarayonda matn yaratish kompetensiyasini egallashga yo'l ochishdir.

Muammoli topshiriq (5–7-sinflar uchun). Proektor (monitor) ekraniga chiqarilgan notanish matnni 2-3 marta o'qing. Matnni davom ettirib, xizmatkorning nima uchun tayoqchani kesib tashlaganini tushuntiring, maqol yoki hikmatli so'z yordamida qisqa xulosa qiling.

Qozining hukmi

Bir boyning hamyonidagi tillosi yo'qolibdi. U qoziga borib, arz qilibdi. Qozi da'vogarning uyidagi hamma xizmatkorlarni to'plab, har biriga bittadan tayoqcha beribdi. Ularga: –Kimda-kim pulni olgan bo'lsa, ertaga o'shaning tayog'i bir enlik uzayib qoladi, – debdi. Hamma tarqalib, o'z ishi bilan mashg'ul bo'libdi. Lekin xizmatchilardan biri qattiq vahimaga tushib, tong yorishganda tayoqchasidan bir enlik qirqib tashlabdi...

Savol: Xizmatkor nima uchun bezovtalandi?

O'quvchilarni fikrlashga, izlanish va mulohaza qilishga, muammoning yechimini topib, xulosa chiqarishga yo'naltiradigan birinchi topshiriqni bajarish matnni tugallash o'quvchidan idrok, nutqiy-intellektual bilim, uslubiy mahoratni talab qiladi. U yangi gaplar tuzib, matnni davom ettiradi va o'zi mustaqil xulosa chiqaradi. Muammoning yechimi guruhda o'qilib, diqqat bilan tinglanadi, imloviy va uslubiy xatolar tuzatilib, baholanadi.

Berilgan matn ustida ijodiy ishlash, ayniqsa, muammoli masalaning yechimini topishga urinish o'quvchini chuqur mushohada yuritishga, o'z bilimi doirasida "hukm" chiqarishga, o'z "kashfiyoti" ni guruh oldida namoyish qilish, lozim bo'lsa, o'z fikrini himoya qilishga tayyorlaydi. Shuningdek, muammoli ta'limda nutqiy-uslubiy kompetentlikni takomillashtirish ustida ham ish olib borish mumkin:

M:

– *Matndagi to'rtinchi gapni yana qanday aytish mumkin? (Savolga yozma javob bering. Javobingizda ma'nodosh gaplar qatorini tuzib, ulardan eng yaxshisini tanlang).* Bunda har bir o'quvchi ma'nodosh gap variantlarini daftarga (monitorga) yozadi, uni katta ekranga chiqarib, o'qib beradi. O'quvchilar mazkur tuzatishning to'g'riligi, gapda yo'l qo'yilgan imloviy yoki uslubiy xatoning sabablari haqida fikr almashadilar, bahslashadilar.

Quyida 5-sinf o'quvchilari tomonidan tuzilib, ekranga chiqarilgan va guruh muhokamasiga tashlangan muqobil javob variantlaridan namunalar keltirildi:

1. "O'g'rining tayog'i ertalabga sarg'ayib qoladi", – debdi keksa qozi.

2. "Kim o'g'ri bo'lsa, uning tayoqchasi yo'g'onlashib qoladi", – debdi mug'ombir qozi.

3. "Aybdorning tayoqchasi o'sadi", – deb ta'kidlabdi ko'pni ko'rgan aqlli qozi.

4. "Tong otguncha qallobning tayoqchasi bosilsa sinadigan, mo'rt bo'lib qoladi", – deb uqtiribdi donishmand qozi.

Yuqorida keltirilgan ma'nodosh gaplardagi yashirin maqsad, sabab, oqibat, mantiq, yechim uchun muqobil gap variantlarini yaratishni talab qiluvchi topshiriqlar tizimi o'quvchida nutqiy kompetentlik, tafakkur va tasavvur, analiz va sintez, imloviy-uslubiy

savodxonlik, yozma nutq madaniyatini rivojlantiradi. O'quvchini gapdagi so'zlarni qiyoslash, gap mazmunidan to'g'ri hukm va xulosa chiqarishga o'rgatadi, matn yaratishga tayyorlaydi. Bu borada o'qituvchi maxsus psixolingvistik savol va topshiriqlardan ham samarali foydalanishi mumkin. Savollar ekranga chiqarilib, o'quvchilar muhokamasiga tashlansa, muammoning yechimini topishga bo'lgan qiziqish yanada kuchayadi. Ijodiy topshiriqlar o'quvchining ongosti nutqiy-intellektual tafakkurini aniq bir maqsadga qaratish, yangi qirralarni kashf etish, nutq birliklarini qiyoslash va tanlash, analiz va sintez, kontekstda so'zni o'rinli qo'llash imkoniyati, matn yaratish kompetensiyalarining to'g'ri shakllanishi, nutqiy kompetentlik darajasining ortishi va mustahkamlanib borishiga ijobiy ta'sir o'tkazadi.

M: 1. Yo'qolgan oltinni topishning yana boshqa usullari bormi?

2. Siz qozining o'rnida bo'lganingizda nima qilgan bo'lar edingiz?

Yuqorida berilgan har bir savol o'ziga xos neyropedagogik hamda neyropsixologik xususiyatlarga ega bo'lib, u nutqiy vaziyatni anglab etish, oydinlashtirish, o'quvchi tasavvuri, idrok va tafakkurini qo'zg'atish uchun mo'ljallangan. Ular o'quvchining mustaqil fikrlash, to'g'ri, o'rinli, mantiqli gap tuzish, gapda so'z tartibiga, adabiy me'yorga amal qilish kompetensiyasini shakllantiradi, mustahkamlaydi. Zero, o'qituvchining o'quvchiga beradigan har bir savoli puxta tayyorlangan bo'lishi, mustaqil fikrlashga, muammoning to'g'ri yechimini topishga, MYKSHga qaratilishi, ijodkorlikka ishtiyoq uyg'otishi lozim.

Quyida 6-sinf o'quvchilarining "Qozining hukmi" matni ustida ishlash bo'yicha tuzilgan 6-savolga bergan javoblaridan namunalar keltirildi.

1. Men har bir xizmatchiga bir piyoladan sho'r suv tarqatgan va o'g'ringing suvi ertalabga o'zgarib qolishi mumkinligini aytgan bo'lur edim.

2. Men hammaga bir stakandan shirin sut tarqatib, ertalab kimning suti shirin bo'lib qolsa, o'sha o'g'ri bo'lib chiqishini aytar edim.

3. Men xizmatchilarga qaynatilib, sutga chayilgan tuxum tarqatgan, qallobning tuxumi ertalab pishib qolishini aytgan bo'lardim.

O‘z javoblarini guruh muhokamasiga tashlagan o‘quvchilar “*nima uchun?*” degan so‘roqqa aniq javob berishlari, yechimning to‘g‘riligini isbot qilishlari, aytilgan gapning xizmatchilarga qanday ta‘sir qilishi, haqiqiy o‘g‘ri qanday qilib o‘zini o‘zi fosh qilib qo‘yishi haqidagi farazini boshqalar bilan o‘rtoqlashishlari shart. Javobni noto‘g‘ri deb hisoblagan o‘quvchilar ham o‘z fikrini guruh oldida asoslab berishlari lozim bo‘ladi. Bunday faoliyat o‘quvchidan shoshmay, qizishmay, ishonarli fakt va dalillar keltirish, madaniy muloqot me‘yorini saqlash, o‘z fikrini qat‘iy turib himoya qilish kompetensiyasini shakllantiradi.

“Qozining hukmi” kabi ta‘limiy rivoyatlar, muammoli vaziyat mazmunini og‘zaki va yozma sharhlash, muammoli savollarga to‘g‘ri javob topish, javobni matn holatiga keltirish, matnning ma‘naviy-tarbiyaviy jihatlarini tahlil qilish kabi topshiriqlar, shubhasiz, o‘quvchi fikrini tiniqlashtirib, nutqini ravonlashtiradi [197: 23-24].

8-9-sinflarda muammoli ta‘lim topshiriqlari ustida ishlash, o‘quvchi nutqiy-intellektual salohiyatini, yozma nutq malakasini to‘g‘ri baholashda muhim didaktik ahamiyatga ega [115: 23-24] Muammoli vaziyatlar ustida ishlash savollar tuzish va unga javob berishdan boshlanishi maqsadga muvofiq. Bunday faoliyat o‘quvchida tanqidiy tafakkur kurtaklarini rivojlantirib, nutqiy layoqatni mustahkamlaydi (2.2-jadvalga qarang).

Ko‘rinadiki, muammoli ta‘lim o‘quvchilarni “Evrika!”-izlanish, kashf qilish, kreativlik, yechim-matnlar yaratishga yo‘naltiruvchi, o‘z-o‘ziga ishonch uyg‘otuvchi ijobiy xususiyatga ega bo‘lib, u ijodiy tafakkur [161], og‘zaki va yozma nutq kompetensiyasini mustahkamlash va rivojlantirishning [202] ishonchli omilidir. MYKSHning kundalik, oddiy ehtiyojga aylanishi esa tilni tizimli o‘rganishning uzluksiz takomillashib boruvchi amaliy hosilasi sanalib, ta‘lim sifatining o‘rishiga, darsda o‘quvchi shaxsining ustuvor mavqega ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi. 5–9-sinf darsliklarida kiritiladigan matnlar nafaqat shakli, mazmuni, balki uslub jihatidan ham rang-barang bo‘lishi lozim. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida *matn asosan so‘zlashuv uslubi, publisistik uslub, badiiy uslub, rasmiy-idoraviy uslub va ilmiy uslubda* yaratiladi. Matn yaratishda o‘quvchi ulardan to‘g‘ri va o‘rinli foydalanishi lozim.

So‘zlashuv uslubidagi matnlarda adabiy til me‘yorlariga qat‘iy rioya qilinmaydi. Bunda gaplar asosan dialog shaklida bo‘ladi va sheva so‘zlari, bo‘yoqdor so‘zlar, ixtisosiy atamalardan tashkil topadi, tovush qisqarishi, tushishi va orttirilishi xato hisoblanmaydi. Mazkur uslubda so‘z tartibi erkin bo‘lib, undalmalardan keng foydalaniladi.

2.2-jadval

Muammoli ta‘lim asosida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish omillari

| O‘qituvchi faoliyati | O‘quvchi faoliyati |
|--|---|
| 1. O‘rganiladigan mavzuga oid muammo tanlash, muammo yechimini topish usullari bilan o‘quvchini yaqindan tanishtirish. | 1. Muammoni anglab etishga, mustaqil ravishda uning to‘g‘ri yechimini topishga urinish. Barcha farazlarni daftarga yozish. |
| 2. O‘quvchidan muammoning bir necha yechimini topishni, javob matnini, yozma holatda to‘g‘ri, ravon, aniq, izchil bayon qilishni talab qilish. | 2. Ijodiy fikrlash, oldinga surilgan g‘oyani analiz va sintez qilish, fikr mah-sulini og‘zaki va yozma holatda to‘g‘ri, ravon, ixcham, ifodalash. |
| 3. O‘quvchidan muammoning yuzaga kelish sababi, uning oldini olish yo‘llarini o‘ylab ko‘rishni, yechimda individual hukm va xulosalar chiqarishni talab qilish. | 3. Javob matnida berilgan yechim va xulosani guruh a‘zolari muhokamasiga tashlash, uni himoya qilish va matn yuzasidan tug‘ilgan savollarga javob berish. |
| 4. O‘quvchi egallagan og‘zaki va yozma matn yaratish malakasini amaliyotda sinash, ularga kichik muammoli savol, muammoli masala tuzishni, muammoli vaziyat yaratishni tavsiya qilish. | 4. Nutqiy-intellektual bilimlarni muammo javobiga tatbiq etish. mustaqil ravishda MV yaratishga, muammoli savol, muammoli topshiriqlar tuzishga urinish. |

| | |
|---|--|
| <p>5. MT asosida egallanadigan zukkolik, topqirlik, madaniy nutq ko'nikmalarini mustahkamlash uchun savol-javob o'tkazish, o'quvchi faoliyatini nazorat qilish va baholash.</p> | <p>5. Muammoli savolga to'g'ri javobni yozib, o'qib berish. Guruh tomonidan berilgan savollarga to'g'ri javob berish. Muammoli savolni tahlil qilish va yechimni topish.</p> |
|---|--|

Ma'nodosh gaplarga e'tibor qiling:

–*Shuni aytish shartmi. Komil?// –Komiljon, shu gapni aytish to'g'rimi? // –Shartmidi. Komiljon. shu gapni aytish, kabi.*

Badiiy uslub badiiy asar tilidir. Badiiy uslubda yozilgan matnlarning o'ziga xos xususiyatlari adabiy me'yor, ta'sirchanlik, badiiy tasvirning kuchliligi, maqol, matal, topishmoq, ibora, tasviriy ifoda kabi og'zaki ijod namunalaridan unumli foydalanilishi, matn tilining qiziqarli topishmoq va maqollar, rang-barang ibora va tasviriy ifodalarga boyligi bilan ajralib turadi: *Jamoli vasfini qildim chamanda, Qizordi gul uyottin anjumanda*. Badiiy uslub aralash uslub hisoblanadi.

Ilmiy uslub. Fan va texnikaning turli tarmoqlariga oid dastur, darslik, o'quv qo'llanmasi, referat, taqriz, annotatsiyalar ilmiy uslubdagi matnlardir. Ilmiy uslubda har bir fanning xos atamasidan foydalaniladi, so'zlar faqat o'z ma'nosida qo'llaniladi, badiiy bo'yoqdor so'zlar, o'xshatma, metaforalar ishlatilmaydi.

Rasmiy-idoraviy uslub Davlat va rasmiy idoralar tomonidan chiqariladigan qaror, qonun, nizom, konstitutsiya va boshqa hujjatlar rasmiy-idoraviy uslubda yoziladi. Tilxat, ariza, ma'lumotnoma, bayonnoma, tarjimai hol, tavsifnoma, shartnoma va e'lonlar ham shu uslubda yoziladi. Rasmiy-idoraviy uslubdagi hujjat qisqa, aniq, barcha uchun tushunarli bo'lishi, so'zlar faqat birlamchi, bosh ma'noda qo'llanilishi, qolipli SBlari keng ishlatilishi mumkin. Bu uslubda asosan darak va buyruq gaplar ishlatiladi. M.: *“Eng yaxshi muharrir” ko'rik-tanlovi g'oliblari Samarqandga sayohatga yuborilsin!*

Publisistik uslub. Bu uslubdagi matnlardan asosan targ'ibot-tashviqot ishlarini olib borishda, reklama, matbuot nashrlarida foydalaniladi. Unda ijtimoiy-siyosiy atamalar, ritorik so'roq gap.

kirish soʻzli, kirish gapli va undalmali gaplar, juft va takroriy soʻzlar koʻp ishlatiladi.

Umumtaʼlim maktablari ona tili darslarida eshitib yozish (diktant); koʻrilgan yoki oʻqilgan voqeani xotira, idrok, tafakkur yordamida yozish (bayon, insho); uyali aloqa uchun qisqa xatlar yozish, videofilmni koʻrib, eshitib, sharhlab yozish, rasm-tasvir, videofilm, videoklip, slaydlarni tasniflash, xalq maqollari va hikmatli soʻzlar mazmunini sharhlash usullaridan keng foydalanish mumkin. Matn tarkibida yangi oʻrganilgan mavzuga oid atama, soʻz va SBlarini nutqda ishlatish, ularni fonetik, morfologik tahlil qilish, matn mazmuniga mos reja tuzishni oʻrganish bilan uygʻun holda takomillashib boradi. Matn mavzularining turlicha boʻlishi, oʻquvchilarning matn sarlavhasi, mazmuni va uslubi orasidagi oʻzaro uygʻunlikni anglab etishga, matnlar shu jihatlari bilan ham bir-birlaridan farqlanishini anglashga olib keladi. Har bir gap hamda matndagi til birliklarini mazmun va uslub talabiga, matn tabiatiga moslab tanlash lozimligi, biror tushunchaning boshqa maʼnodoshi bilan nooʻrin almashtirilishi kontekst maʼnosining oʻzgarishiga sabab boʻlishi, bunday oʻzgarishlarning esa oʻz navbatida, sarlavhaga, mazmunga ham taʼsir qilishini 5–9-sinf oʻquvchilari bilib olishlari lozim. Zero, ilmiy adabiyotlarda “kontekst” atamasi nutqiy vaziyat, soʻzlar qoʻshilmasining semantik maʼnosi moddiylashadigan oʻziga xos maydonni anglatadi: “Ipak yoʻli” xaritasi, ipakdek mayin ovoz (tovush, patlar, sochlar...), shohona ipak kiyimlar..,

Matn yaratishga tayyorlanayotgan 5–7-sinf oʻquvchilari “Media-trening” oʻquv qoʻllanmasi yordamida uyushiq boʻlakli, kirish soʻzli, undalmali sodda va qoʻshma gaplar, koʻchirma gaplarda tinish belgilarining ishlatilishi yuzasidan test topshiriqlari tuzish va uni yechish bilan shugʻullanishlari, undov va soʻroq belgilari, nuqta, ikki nuqta, nuqtali vergul, qavs, tire, qoʻshtirnoq, defis kabi tinish belgilari tushirib qoldirilgan, imlo xatoli gaplar va matnlarni tahrir qilishni oʻrganib borishlari foydali [66: 152; 153; 154]. Quyida shunday oʻquv topshiriqlaridan namunalar berildi.

Mustaqil ish. Oʻqing. Imlo xatolarni tuzatib, tushirib qoldirilgan tinish belgilarni oʻrniga qoʻyib, mashqni koʻchiring. 1. *Elchibek doʻstini tiyrak koʻzlari yaltirashdan jiddiy gapga bel bogʻlaganini angladi* 2. *Oxiri uning ham koʻngli buzildi Ammo sir boy bermay*

meni yupatishga tushti 3. Betiga suv purkap kotta panis bilan elpip o'ziga keltirdilar / . / . 4. qo'li ishga o'rgangan odamni bo'sh qolishi katta fojiya S A 5. To'satdan Akromni xayoliga akasini bundan besh olti oy oldin yozgan xati shundan buyon undan dom-darak yo'q tushdi.

Bajarish namunasi: 1. Elchibek do'stining ko'zlari yaltirashidan, o'tkir nigohidan, jiddiy gapga bel bog'laganini angladi. 2. Oxiri uning ham ko'ngli buzildi, ammo sir boy bermay, meni yupatishga tushdi.

Mashqni bajarishda o'quvchidan gap qismlarini tinish belgilari (ohang) yordamida to'g'ri, o'rinli joylashtirish, fikrni qisqa, lo'nda ifodalash, kontekstdagi urg'uli so'z, kiritmalar mazmuni, gap ohangini ilg'ash (anglash), gapda tinish belgilarini jo'yali qo'llash orqali mazmunni tiniqlashtirish talab qilinadi. Shuningdek, MYKSHda matnga *sarlavha tanlash* ustida ishlash ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Sarlavha o'quvchida matn mazmuni, ijtimoiy sohasi, ma'lumot ko'lami haqida tasavvur hosil qiluvchi kichik axborot, nutq birligi sanalib, matn mazmuni, axborot doirasini aniqlash, kerakli matnni tanlash kompetensiyasini shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Matnga o'rinli nom qo'yish, uni qismlarga ajratib nomlash til ta'limida muhim badiiy-estetik vazifani bajaradi. Agar sarlavha matnning so'z yoki so'z birikmasiga aylangan mazmuni ekanini hisobga olsak, uning o'quvchi e'tiborini tortishdagi ahamiyatini ham tushunish qiyin emas. So'z-sarlavha uchun ko'proq matnda ishtirok etgan mustaqil so'z turkumiga oid so'zlar tanlanadi. Ular asosan bosh kelishikda, birlikda, yakka holda "E'zoz", "Kamolot", "Ustoz" ishlatiladi. Shuningdek, ot+ot, sifat+ot, son+ot yoki olmosh +ot qolipidagi ravish+ot so'z birikmalari "Qozining hukmi", "Mening vatanim", "Yangi maktab", "Aqli qiz", "Besh o'git" holatida qo'llaniladi. Sarlavha o'quvchiga matn mazmunini tasavvur qilish va o'ziga keraklisini tanlash imkonini beradi. Bu haqda stilist Yo.Tojiev va I.Toshalievlar shunday yozadilar: "Sarlavha matn uchun shunchaki ramz-belgi emas, matn mohiyati, mazmuni, maqsadi, vazifasi bilan uzviy aloqador bo'lgan muhim tarkibiy qismdir" [143; 32-38]. Taniqli tilshunos olimlar M.Mirtojiev va N.Mahmudov Xayriddin Sultonning "Umr esa o'tmoqda" hikoyasi sarlavhasi haqida shunday yozishadi: "... hikoya sarlavhasidagi esa yordamchi so'ziga diqqat qilinsa, bu so'zga yozuvchi juda katta poetik yuk

qo‘yganligini, hikoyadagi asosiy g‘oya ana shu so‘z bilan alohida ta’kidlanganligini sezish mumkin. Aslida esa har qanday sarlavha ham ana shunday o‘tkir bo‘lishi kerak” [85; 12–17]. Sarlavha – asarning asl mohiyatini ko‘rsatib turuvchi ko‘zgidir.

O‘quvchilarni matnga sarlavha tanlashga o‘rgatishda qator usullardan foydalanish mumkin: 1. Mavjud sarlavhani izohlash. 2. Sarlavhaga ma’nodosh, uyadosh so‘zlar topish. 3. O‘rganilgan asarning sarlavhasi, ma’no ko‘lami, to‘g‘ri yoki noto‘g‘ri tanlangani haqida munosabat bildirish. 4. O‘qilgan badiiy asarga, undagi bo‘limlarga yangi sarlavha tanlash. 5. O‘zi yoki sinfdoshi yaratgan matnga sarlavha topish kabi.

O‘zi yaratgan matnga sarlavha tanlash 5–9-sinf o‘quvchilari uchun juda muhim topshiriq. Bu ularda o‘z nutqiy-intellektual qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi. Shu topshiriqlar orqali o‘quvchiga matnni tanqidiy nuqtayi nazar bilan tahrir qilish, o‘zi va sinfdoshining nutqiy qobiliyatini baholash, matn mazmunidan kelib chiqib, sarlavha tanlash imkoniyati yaratiladi. O‘quvchi nomlash maqsadida o‘zi yaratgan matnni bir necha marta o‘qib chiqadi! Undan matn mazmuniga mos keladigan so‘z yoki so‘z birikmasini qidiradi va tanlaydi. So‘z tanlash **kompetensiyasining** o‘quvchi ongida mustahkamlanib, **nutqiy kompetentlik** darajasiga yetkazilishi pedagog mahoratiga bog‘liq. O‘quvchi tanlagan sarlavha, o‘qituvchiga uning so‘z tanlash mahorati, uslubiy savodxonlik, nutqiy kompetentlik darajasi haqida to‘g‘ri xulosa chiqarishga imkon beradi.

§ 2.4. Matn tahriri – yozma nutqni takomillashtirish usuli

Tilni tizimli o‘rganish amaliyoti o‘quvchi ongosti tafakkurini maqsadli boshqarish, tilning nutqiy imkoniyatlaridan erkin foydalanish, to‘g‘ri, ravon nutq so‘zlash, nasriy va nazmiy matnlar yaratish malakalarini shakllantirishga qaratilgan. Tizimli fikrlash topshiriqlari–imloviy, punktuatsion va grammatik xatolar ustida ishlash, matnda imloviy- uslubiy me‘yorga amal qilish shartlari, axborot texnologiyalaridan foydalanish, ijtimoiy hayotga, o‘z kelajagiga ishonchni tarbiyalashi bilan o‘quvchilarda **nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasini** orttirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonda fikrni yozma ifodalashda yo'l qo'yiladigan punktuatsion xatolar va ularning oldini olish borasida K. Nazarov, G'. Abdurahmonov va boshqalar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va ular o'zbek tili o'qitish metodikasida o'z o'rniga ega [103: 21–22; 19: 77–79; 26: 97]. Metodist olim N. Plenkinning [116: 27–33] ta'kidlashicha, o'quvchilar matnidagi nutqiy xatolarni tuzatishda o'qituvchi amal qilishi lozim bo'ladigan umumiy printsiplar quyidagilar:

1. Muallif (o'quvchi) fikrini hurmat qilish, xatoni tuzatishda mazmunga tegmaslik, fikr ifodalashning yanada ixcham imkoniyatlari borligiga o'quvchini ishonirish.

2. Matndagi uslubiy xatoni bartaraf etish nutqiy xatoni tuzatishning ikkinchi zaruriy tamoyili hisoblanadi [49: 12–14]. Yozma nutqning ravon va tushunarligi, uning adabiy til me'yorlariga mosligi MYKSHda muhim ahamiyat kasb etadi.

A.Qahhorning "Matnni ixchamlashga ham xuddi uni kengaytirishga qaraganday e'tibor bilan qarash lozim, zero, qisqartirish ishlari unda ortiqcha fikr, so'z va SBlari, takror mavjud bo'lsagina amalga oshiriladi" [16: 32–34] degan fikrlari hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

O'quvchini izchil, mantiqiy fikrlashga, o'zgaralar fikrini tinglash va anglashga, fikr mahsulini muayyan uslub va adabiy me'yorlar asosida, to'g'ri, ravon ifodalashga o'rgatishda, tilning imkoniyatlaridan foydalanish mahoratini shakllantirishda matn tahri-rining ahamiyati katta.

Adabiy til me'yorlari mutlaqo o'zgarimas hodisa emas. Rivojlanib borayotgan dunyo hodisalari in'ikosi bo'lgan til va nutqning muntazam yangilanib turishi milliy til leksik zahirasining kengayishiga, bu esa o'z navbatida, adabiy til lug'atlarining ham o'zgarib turishiga olib keladi.

Hozirgi kun o'zbek adabiy tili me'yorlari quyidagicha farqlanadi: leksik (so'z qo'llash) me'yorlar, talaffuz (orfoepik) me'yorlari, so'z yasaliş me'yorlari, grammatik me'yorlar, sintaktik me'yorlar, uslubiy me'yorlar, imlo va tinish belgilarini ishlatish me'yorlari [91: 13–18]. Bu me'yorlar tilshunos mutaxassis tomonidan aniq qoidalar shaklida tayyorlanadi, tasdiqlanadi va imlo lug'atlarida aks etadi.

O'quvchi tomonidan yaratilgan insho, bayon, she'r, hikoya, dialog, maktub, reklamalar ana shu me'yorlarga mos kelishi lozim. Tahrirni o'quvchi shu me'yorlarga tayanib, qoralama nusxada bajarishi maqsadga muvofiq. Unda quyidagi tavsiyalarga amal qilish zarur:

1. Matnning qoralamasini diqqat bilan, oxirigacha o'qib chiqish.
2. Matnni ikkinchi o'qishda aniqlangan uslubiy, imloviy xato va kamchiliklarni daftar chizig'idan tashqarida qayd etish.
3. Matnni uchinchi o'qishda mavjud nutqiy-uslubiy g'alizliklar, punktuatsion xatolarni tuzatish.
4. Imloviy-grammatik va uslubiy kamchiliklari bartaraf qilingan matn guruhda ovoz chiqarib o'qiladi, muallifning nutqiy kompetentlik darajasi aniqlanadi, zarur holda matnga o'zgartirishlar kiritiladi va baholanadi.

Hozirgi o'zbek adabiy tilida nutqiy madaniyat sifatleri quyidagicha farqlanadi: to'g'rilik, aniqlik, tugallik, boyluk, mantiqiylik kabi [90; 34-36]. Shunga ko'ra, 5-9-sinf o'quvchilari tomonidan yaratilgan matnlarning ham mazkur sifatlarga ega bo'lishi talab qilinadi:

to'g'rilik – so'zni to'g'ri tanlab ishlatish, gap tuzishda uslubiy, imloviy, grammatik, adabiy me'yorlarga amal qilish. So'z va gap urg'usi hamda mantiqiy urg'uga e'tibor qilish. Maktab ona tili ta'limining asosiy maqsadlaridan biri ham o'quvchilarda mustaqil fikrlash, fikrni to'g'ri, o'rinli ifodalash, erkin mantiqiy fikrlash kompetensiyasini shakllantirishdir; **aniqlik** – fikrni matn mazmuni, kontekstga mos bo'lgan til birliklari orqali aniq ifodalash, fakt va dalillarni to'g'ri tanlash, o'rinli ishlatish;

tugallik – matn tarkibini to'liq shakllantirish, mavzuni batafsil yoritish, lug'aviy manba va qo'shimcha materiallardan o'rinli foydalanish, izchil, mantiqli fikrlash, fikrni ixcham ifodalash;

mantiqiylik – nutq tarkibi va qurilishi, fikrlar rivojining to'g'riligi, axborotning izchilligi, mantiqiyliigi, keyingi fikr oldingisini inkor etmasligi;

til boyligi – muallifning til vositalaridan samarali foydalanishi, fikr ifodalashda o'zidagi lisoniy-nutqiy imkoniyatlarni to'liq ishga sola bilishi, matnda tugallik, me'yoriylik, badiiy bo'yoqdorlik, uslubiy ravonlikni ta'minlay bilishi [90: 34-36].

Ona tili o'qituvchisi yuqorida sanab o'tilgan nutqiy kompetentlik sifatlarining o'quvchi matnida mavjud bo'lishiga alohida ahamiyat berishi lozim. Zero, o'quvchilarning nutqiy xatolar ustida ishlashni o'rganishlari nutqiy salohiyatni shakllantirishda alohida ahamiyatga ega.

O'quvchini matndagi nutqiy xatolarni topishga o'rgatish birmuncha murakkab vazifa. Nutqiy xatoni topishning eng qulay yo'li – yaratilgan matnni guruh qarshisida ovoz chiqarib, qiroat bilan o'qish, gaplardagi so'z tartibi, kirish so'z va undalmalar, fikr izchilligi, ega-kesim munosabatlariga ahamiyat berish, ohang tovlanishlariga e'tibor qilishdir.

O'rganilgan metodik adabiyotlar, o'tkazilgan tajriba-sinov, anketa savol-javoblaridan ma'lum bo'lishicha, umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilari og'zaki va yozma fikr ifodalashda ayrim o'quv qiyinchiliklariga duch keladilar. Ular quyidagilar: 1. Gap tuzishda zarur so'zni tanlay olmaslik. 2. Gapni ortiqcha tafsilotlar bilan cho'zib yuborish. Fikrni qisqa, ravon ifodalashga qiynalish. 3. Bir fikr tugallanmasdan boshqasiga o'tib ketish. 4. Matnda ravonlik, fikr izchilligini yo'qotish, uslubni aralashtirish. 5. Tilning ifoda imkoniyatlaridan nutqiy vaziyat talabiga ko'ra foydalana olmaslik. 6. Matnni shakllantirishda takrorga yo'l qo'yish. 7. Matnni mustaqil tahrir va tahlil qila bilmaslik. 8. Matndagi asosiy fikrni aniqlashda, matnni qismlarga ajratishda, to'g'ri xulosani belgilashda ikkilanish kabi [195: 36–38].

“O'quvchi yo'l qo'ygan nutqiy xatoni o'qituvchi tuzatishi kerakmi yoki “xato bor!” degan belgi qo'yib, o'quvchining o'ziga tuzatirishi kerakmi?” degan didaktik muammo hanuz to'liq o'z yechimini topganicha yo'q. Albatta, o'qituvchi ko'rsatgan belgi asosida matndagi xatoni o'quvchining o'zi tuzatishi foydali. Bu holat o'quvchida til sezgirligi, mantiqiy tafakkur, imlo, uslubiy mahoratni o'stiradi. Ammo bu usulni tanlagan o'qituvchi o'quvchisiga matnni astoydil, tanqidiy nuqtayi nazar bilan tekshirish, xatoni bartaraf etishda imlo va izohli lug'atlar bilan ishlash, o'zbek tilining leksik-sintaktik imkoniyatlari, grammatik va adabiy me'yorlar bilan tanishtirish asnosida, uslubiy-punktuatsion xatolarni bartaraf etish yo'llarini ham o'rgatib borishi zarur. Ana shunday nutqiy mahoratga ega bo'lgan o'quvchigina to'g'ri, tezkor fikr

ifodalashni o'rganadi, o'zi va sinfdoshlari nutqini kuzatib boradi, xatolarni mustaqil bartaraf etadi.

O'quvchini matn yaratish faoliyatiga tayyorlash jarayoni o'qituvchidan o'quvchi nutqidagi xatolarni o'z vaqtida sezishni, ularni yo'qotish ustida alohida ish olib borishni talab qiladi. O'quvchi matnida asosan quyidagi mantiqiy xatolar uchraydi:

Bir fikrni boshqa so'z bilan takrorlash (tavtologiya): "gap gapirish", "qo'l bilan urish", "ko'z bilan ko'rish", "qo'lini yuqori ko'tarib", "saboq darsi" (rukn), "imzoga qo'l qo'yish", ma'nodosh so'zlar qo'llashning me'yordan o'tishi: katta, ulkan bino, oqish, oppoq kapalak; [90: 20–27] sheva ta'sirida kelishik qo'shimchalari (-ning o'rniga -ni, -da o'miga -ga ishlatish: bolani aqli, maktabga o'qiydi) ning noto'g'ri qo'llanilishi; ko'rsatish olmoshlari, tinish belgilarini o'rinsiz ishlatish, (masalan: chiziqcha o'rniga vergul, ikki nuqta o'rniga tire, nuqtali vergul, gap oxirida keladigan so'roq va undov belgilari o'rniga nuqta qo'yilishi) kabi [90: 27–29; 116].

Tajriba-sinov jarayonida qatnashgan 5–9-sinf o'quvchilarining yozma ishlarida nutqiy-uslubiy xatolar, o'quvchining til imkoniyatlaridan foydalana olmaslik, tavtologiya, gapda so'z tartibining buzilishi kabi holatlarga tez-tez duch kelindi. Ularning o'rtacha miqdori kutilganidan ancha ziyod ekanligi aniqlandi. Mazkur nazorat matnlarida so'zni noto'g'ri qo'llash, gap qismlari va gaplar orasidagi sintaktik aloqaning buzilishi, no'rin inversiya bilan bog'liq uslubiy xatolar ko'p uchraydi. Masalan: So'zni noto'g'ri qo'llash: *Do'l quydi. Chaqmoq chaldi*. Nutqda so'z tartibining buzilishi: *Keldi Akbar, ertalab* kabi.

Tajriba-sinov davrida matn yaratishda 5–9-sinf o'quvchilari yo'l qo'ygan uslubiy xatolar: badiiy bo'yoqli so'z, tasviriy ifodalar mavjud bo'la turib, gapda sodda so'zlar ishlatish, ko'chma va ko'p ma'noli so'zlar, iboralardan foydalanmaslik bilan bog'liq kamchiliklar; umumiste'molda uchramaydigan so'zlarni (ixtisosiy atamalar, arxaizm, neologizm) me'yoridan ortiq qo'llash; ilmiy matnda so'zlashuv nutqiga xos sheva so'zlari, jargon so'zlar, salbiy bo'yoqli so'zlardan foydalanish ("ja-a-a"– juda, "lag'mon"– yol' on gap); gap bo'laklari orasidagi sintaktik aloqaning buzilishi, gapda so'z tartibi, raqamlash, ma'noning darajalanishiga ahamiyat bermaslik, ma'nodosh so'zlardan foydalanmaslik matnda g'alizlik,

takror, uslubiy xatolarning kelib chiqishiga sharoit yaratadi [90; 180: 4–18].

Ma'lumki, ona tili ta'limi bo'yicha yaratilgan metodik adabiyotlarda xatolarni ko'rsatishning turli yo'llari keltirilgan [116, 72: 23–28; 73: 121–122]. O'qituvchi shunday usulni tanlashi lozimki, o'quvchi xatoni aniq ko'rib tursin. Bu borada metodist olim B. Kapinosning belgilar sistemasi o'quvchi va o'qituvchi uchun birday tushunarligi bilan diqqatga sazovor [72: 23–28]. Unda mazmuniy xato "M" bilan, nutqiy xato "N" bilan belgilanadi. Bu sistema o'qituvchi uchun nihoyatda qulay, lekin maktab o'quvchisi "M" va "N" ostida ko'zda tutilgan fikrni aniq tasavvur qila oladimi? Tahrir sifati talab darajasida bo'ladimi? Balki o'qituvchining qo'shimcha belgi-ogohlantirishlardan foydalanishi ma'quldir?

Ilmiy tadqiqot jarayonida olib borilgan tajriba-sinovlar natijasidan ayon bo'ldiki, shartli belgi va ogohlantirishlar, muqobil so'z tanlash, gap tuzish, ega-kesim munosabatlarini to'g'ri tashkil qilish matn yaratish kompetensiyasining mustahkamlanib borishi, o'quvchi nutqiy kompetensiyasining izchil shakllanishiga olib keladi. Quyida tavsiya qilinayotgan daftar chetiga qo'yiladigan shartli belgilar ana shu maqsadga xizmat qiladi.

D – daliliy xato yoki noaniqlik

[] – ortiqcha (ortiqcha so'z yoki belgi)

S – co'z qoldirilgan

X – xatboshidan boshlang!

N – nutqiy xato, so'z tanlash, nutqiy birliklarni o'zaro bog'lashda xatoga yo'l qo'yilgan.

M – mazmuniy xato, ya'ni o'quvchi fikr ifodalashda noaniqlikka yo'l qo'ygan, matnda ishlatilgan ibora (tasviriy vosita, maqol, hikmatli so'z, epigraf)lar mazmun bilan bog'liq emas, uslub, shakl va mazmun uyg'unligi ta'minlanmagan. Bundan tashqari, ona tili darslarida grammatik xatolar tahlili [72: 60–61.] o'quvchi tomonidan til bo'limlarining o'zlashtirish darajasini ko'rsatsa, imloviy va punktuatsion xatolar tahlili [38: 23–31] gapning o'qilishi, uslub, ohang, ifodali o'qish kompetensiyasi, MYKSH darajasini ko'rsatadi.

G. Blinovning "Punktuatsion xatolar tavsifi" maqolasida ham nutqiy xatolarni guruhlash va belgilash usullari ko'rsatib o'tilgan [38:

13–15]. Mazkur ilmiy-tadqiqotlardan ona tili o‘qitish metodikasi darslarini takomillashtirish, matn tahririni osonlashtirishda samarali foydalanish mumkin. Matn yaratishda, ayniqsa, badiiy matnda nutqiy bo‘yoqdorlik, ta’sirchanlikni yuzaga keltiradigan asosiy shartlardan biri so‘zni tejimli va o‘rinli ishlatish, o‘xshatish, jonlantirish, epitet, badiiy takror, kinoya, mubolag‘a va kichraytirishlardan unumli foydalanishdir. O‘zbek yozuvchilari orasida so‘zdan tejimli foydalanishda hikoyanavis Abdulla Qahhorga teng keladigani yo‘q edi. U asarlarining biriga yozgan so‘ngso‘zida shunday deydi: “...qat-qat jummalarni siqishtirdim, takroni qisqartirdim va o‘quvchini shubhaga soladigan joylarni olib tashladim” [16: 24–29]. Uning fikricha, hajmni ixchamlashtirish usuli kki turga bo‘linadi:

1. Tasvir tafsilotini kamaytirish hisobiga matnni ixchamlash.

2. Tasvir tafsilotlarini saqlagan holda mazmuni ixchamlash.

Tafsilotlarni kamaytirish hisobiga matnni ixchamlash ikkinchi darajali qisqartirish hisoblanib, mazmunga jiddiy ta’sir qilmaydigan voqea-hodisalar talqinining matndan chiqarib tashlanishidir. Ikkinchi tur ixchamlash anchagina murakkab bo‘lib, bunda matndagi gaplarda mavjud uyadosh, ma’nodosh so‘zlarni kamaytirish, dialoglarni ko‘chirma va o‘zlashtirma gaplarga aylantirish, uyushiq bo‘lakli va sodda yoyiq gaplarni qo‘shma gaplarga aylantirish zaminida amalga oshiriladi. Bunday qisqartishlar bilan shug‘ullanish o‘quvchining matn mazmunini ochishga xizmat qiladigan eng muhim obyektlarni ajratish va to‘g‘risini tanlash qobiliyatini shakllantiradi. Masalan, avvalgi nashr: 1. Anzirat xola bu uylardan birini o‘sha *kelgindi* juvonga bergan edi. Qayta ishlangan nashr: 2. Anzirat xola bu uylardan birini o‘sha *musofir* juvonga bergan edi. Bunda buyuk so‘z ustasi A.Qahhorning so‘zni tanib ishlatish mahorati [16; 14–19] aniq ko‘rinadi: Yozuvchi *kelgindi* so‘zi o‘rniga *musofir* so‘zini ishlatish orqali so‘zdagi salbiy ma’noni yuz foiz ijobiy tarafga o‘zgartira olgan.

Xulosa shuki, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarini matn ustida ishlashga o‘rgatishda matnni qayta-qayta o‘qish, tanqidiy fikrlash, har bir jumla, SBlari orasidagi sintaktik aloqani tekshirish, so‘z ma’nosini kuchaytirish, ortiqcha tafsilotlarni ixchamlash talab qilinishi zarur. Mazkur yondashuv o‘quvchilarni tanqidiy fikrlash, o‘zi va o‘rtoqlari nutqini kuzatish, o‘z inshosiga tanqidiy nazar bilan

N. Plenkin o'z izlanishlarida "...tahririy belgilar bilan o'quvchini yaqindan tanishtirib borish imloviy-uslubiy xatoli matn tahririni ancha yengillashtiradi, yo'l qo'yilgan xatoni tushunish, o'qituvchi tomonidan ko'rib chiqilgan matnni tuzatishni osonlashtiradi, uni qayta ko'chirishda yuzaga keladigan xatolarning oldi olinadi", - deb ta'kidlaydi [116; 27-33],

O'qituvchi o'quvchilarga tahrir usullarini o'rgatishda matnning kirish, asosiy qism va xulosa singari tarkibiy qismlarga ajratilishi; matnda imlo va tinish belgilarining o'rinliliigi; fikr izchilligi, mantiqiylik, uslubning me'yoriyligi; zarur hollarda matnni kengaytirish, ixchamlash mumkinligi; sana va raqamlarning to'g'riligi, ishonchliligi; sarlavhaning mazmunga mosligi; fakt va dalillarning etarliligi; referatda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati mavjudligiga e'tibor qilishni tushuntirishi lozim. Ko'rinadiki, matn tahriri bilan shug'ullanish, o'quvchida til hodisalarini anglash, ko'rish, til birliklarida moddiylashayotgan fikrni yaxlit idrok etishga yordam beradi, matnning imloviy, uslubiy-mantiqiy mukammalligi ta'minlanadi.

O'quvchi matn ustida ishlash jarayonida nasriy va nazmiy matnlar turi, tarkibi, hajmi, tili, sintaktik qurilishi, mazmun va shakl uyg'unligi, mazmuniy yaxlitligi, uslub haqida muayyan bilimlarga ega bo'ladi.

MYKSHni, imloni, nutq o'stirishni, matn ustida ishlash bilan o'zaro uzviylikda tashkil qilish bir qator didaktik talablarni bajarishni taqazo qiladi: o'quvchiga diktant va bayonlar yozdirish, matnni tashkil qiluvchi qismlarni ajratish; gaplarni o'zaro bog'lovchi vositalarni topish; ommaviy axborot vositalari, e'lon, reklama, intervyu uslubidagi matnga muqobil matnlar tuzish; o'quvchini til imkoniyatlaridan o'rinli foydalanishga odatlantirish; axborotni jadal shakllantirish, tezkor uzatish usullari bilan tanishtirish; nutqiy vaziyat asosida xat va SMSlar yozish va h.k.

Bob yuzasidan umumiy xulosalar:

1. Bir mavzuni turli uslubda yoritishni talab qiluvchi mashq-topshiriqlar ustida ishlash o'quvchida ma'naviy dunyoqarashni kengaytirish, nutqiy kompetentlik, uslubiy savodxonlikni ta'minlash. matn tilini boyitish, ish hajmini ixchamlashni o'rgatadi.

2. Gapdagi sintaktik va uslubiy xatolarni bartaraf qilish kompetensiyasini egallagan o'quvchi matn yaratishda kontekst va so'z mutanosibligi, adabiy til me'yorlari, bog'lama, ohang (tinish belgi), gapda so'z tartibi qonuniyatlariga amal qilishga odatlanadi.

3. Tayyor matnga sarlavha, epigraflar tanlash, unga qiziqarli lavhalar qo'sha olish, sodda gaplarni qo'shma gapga aylantirish, murakkab qo'shma gaplarni soddalashtirish va ixchamlash usullarini o'rganish o'quvchida nutqiy kompetentlik, ravon nutq, tanqidiy tafakkur, individual uslubning shakllanishiga sabab bo'ladi.

4. Nazmiy matnlar ustida ishlash o'quvchilarni she'r san'atlarini farqlashga, tahrir, tahlil, she'rdagi uslubiy g'alizliklarni bartaraf etishga o'rgatsa, she'rni ifodali o'qish, yoddan aytish, so'z ma'nosini sharhlash ularda suxandonlik, qiroat san'ati, notiqlik xususiyatlarining shakllanishiga xizmat qiladi.

5. Boshlanish, tugallanish yoki kulminatsion qismi berilgan *noto'liq* yoki *xatoli matnlar ustida ishlash usuli* o'quvchini matni to'g'ri boshlash, to'g'ri tugallash, uslubiy mutanosiblikni ta'minlash, matn so'ngida xulosa chiqarishga o'rgatadi, tahrir va tahlil kompetensiyasi shakllanadi.

6. Matn yaratish faoliyatiga tayyorlanish o'quvchining tanqidiy fikrlash, o'zi va o'zgalarni nutqini nazorat qilish, fikrni ravon ifodalash mas'uliyatining oshishiga olib keladi. O'quvchida matn yaratish kompetensiyasi shakllanib, malakaga aylanib boradi.

7. MTda o'quvchi iqtidori, ijtimoiy omilkorligi, nutqiy kompetentligi yuzaga chiqadi. Unda emotsionallik, muammoni yechishga ishtiyoq, ilmiy manba bilan ishlash ehtiyoji kuchayadi. Bu holat pedagogika fanida MTning kuchli ta'limiy, psixolingvistik ta'sirga egaligi, o'quvchi subyektiga ijobiy ta'sir o'tkazuvchi vosita sifatida baholanadi.

Ishning 2-bobida olib borilgan matn ustida ishlash jarayonida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha tajribalardan ko'zlangan asosiy maqsad – o'quvchida mavjud nutqiy BKMLar, xotira, idrok, ijodiy tafakkurni, ijobiy o'quv motivlarini harakatga keltirish, o'quvchini mustaqil matn yaratishga tayyorlashdan iborat bo'ldi.

III BOB. O'QUVCHILARDA MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI

§ 3.1. O'quvchi matni – nutqiy kommunikativ kompetensiyalar va ijodiy tafakkur integratsiyasi mahsuli

XXI asrdagi shiddatli taraqqiyot va globallashuv jarayoni, milliy til atamalari zahirasining uzluksiz yangilanib borishi, bugun tarqatilgan ma'lumotning ertaga eskirib qolayotgani, yosh avlodning misli ko'rilmagan raqobatlar, rivojlanish va yuksalish davrida yashayotganligi hech kimga sir emas. O'quvchi intellekti, e'tiborini ona tili ta'limida egallangan nazariy-grammatik bilimlarni qayta takrorlash, so'z va gaplar tahlili bilan shug'ullanishga sarflashdan ko'ra, uning shaxsiy lug'at zahirasini boyitishga, so'z ishlatish mahoratini shakllantirishga, mavzu qamrovida axborot tanlash, to'g'ri, ravon, ixcham matn yaratish, matnni tezkor uzatish kompetensiyasini egallashga qaratilishi muhim va kechiktirib bo'lmaz zaruriyatdir.

“Ona tilini butun-bo'lak munosabatlari asosida o'rganish muhim ta'limiy ahamiyatga ega [161: 3–6], - deb ta'kidlaydi prof. Sh. Yusupova. Ifodalanilayotgan fikrni so'z va SBlarisiz, ijodiy tafakkursiz tasavvur qilib bo'lmaganidek, matnni ham sodda va qo'shma gaplarsiz, murakkab sintaktik butunliklarsiz, hikmatli so'z va iboralarsiz, maqol va tasviriy vositalarsiz shakllantirish mumkin emas. Matn mazmunini tashkil qiluvchi nutq birliklari, iboralar muallif uslubi, nutqiy kompetentlik darajasini belgilovchi lisoniy-nutqiy malakalar integratsiyasi mahsulidir.

O'quvchida maqsadli nutqiy taraqqiyotni ta'minlash – fikrni og'zaki va yozma holda to'g'ri, o'rinli ifodalash komponentlarini rivojlantirish asosan maktab davridan boshlanadi. Umumiy o'rta ta'limda *ona tilini tizimli o'rganish texnologiyasi bir yo'la 4 maqsadga xizmat qiladi*: 1. O'quvchilarda so'z boyligini oshirish va nutq o'stirish; 2. SBlari hosil qilish jarayonida grammatik bilimlarni mustahkamlash; 3. Mavzuga oid gaplar tuzishda tilning adabiy me'yorlariga rioya qilish, o'ziga xos individual uslubga ega bo'lish;

4. Matn yaratishda shakl va mazmun, zamon va makon mutanosibligi, nutqiy-intellektual kompetentlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

MYKSHning uzluksiz tizimini yaratishda fikr izchilligi va uzluksizligi, til sathlariaro va fanlararo aloqadorlik tamoyillariga amal qilindi. Bunda matnni tashkil etuvchi nutqiy birliklarni jamlash, sharhlash, guruhlash, tanlash, SBlari va gaplar tuzish, nutq o'qitirish faoliyati bilan shug'ullaniladi. Mustaqil matn yaratishda nutqiy bilim, ko'nikma va malakalardan tashqari tasavvur, tafakkur, idrok va xotira kabi psixologik unsurlar ishtiroki ham talab qilinadi.

Ona tilidan egallangan nazariy bilimlarni matn yaratish amaliyotiga tatbiq etish o'quvchida til va tafakkurning uzviylik va uzluksizlikda rivojlanishi, matn yaratish kompetensiyasi, nutqiy kompetentlikning mustahkamlanishi va malakaga aylanishiga olib keladi. Matn yaratish dasturida ta'kidlanganidek, **o'quvchining nutqiy kompetentlik darajasi uning mustaqil yaratgan matnida ko'rinadi, aniqlanadi, baholanadi.**

Nutqiy kompetentlik – bu o'quvchi shaxsining og'zaki va yozma nutqqa oid bilimlarini amaliyotda qo'llash, madaniy muloqot, mustaqil va ijodiy ishlash qobiliyatlarini o'zida mujassamlashtiradi [93: 1-b].

Nutqiy kompetentlik – o'quvchining so'z boyligi, nutq madaniyati, ma'naviyati, tafakkur ko'lami, imloviy-uslubiy bilimlari integratsiyasining muayyan mavzuda moddiylashuvida aks etadi. Uning sifat ko'rsatkichlari og'zaki yoki yozma matnda ko'rinadi. O'quvchilarda mustaqil MYKSHni maqsad qilgan o'qituvchi, o'quvchi leksik zahirasini kengaytirish bilan shug'ullanishi, uni yangi ixtisosiy atamalar bilan boyitishi, SBlarining semantik xususiyatlari, bosh so'zning boshqa so'zlar bilan birikish va kengayish imkoniyatlari haqida amaliy tushunchalar berishi lozim. O'qituvchi gap va uning tarkibiy qismlari, badiiy bo'yoqdorlik, xalq og'zaki ijodi yaratiglarining matn tilini boyitishdagi ahamiyati, ohangning ma'no o'zgartirish (semantik) vazifasi haqida o'quvchilarga to'liq ma'lumot berishi, mazkur bilimlardan vaziyat taqozosiga ko'ra, to'g'ri va o'rinli foydalanishni o'rgatishi lozim bo'ladi.

Demak, DTS talabida ko'rsatilgan ma'naviy barkamol shaxs, ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash, o'quvchini izlanish va kashf qilishga yetaklash, ijodiy topshiriqlar ustida ishlash, o'zbek tilini

sathlararo va fanlararo aloqadorlikda o'rganish MYKSH jarayonida singdiriladi va mustahkamlanadi.

Tadqiqot davomida o'tkazilgan tajriba-sinov natijalari asosida MYKSHning ilmiy-amaliy mohiyati va ta'limiy ahamiyati ko'rsatildi. O'quvchi yaratgan matnga pedagogik nuqtayi nazardan quyidagicha ta'rif berildi: *O'quvchi matni nutqiy layoqatning matnda moddiylashuvi, individual uslub, xotira, idrok, tafakkur va tasavvur integratsiyasi mahsulidir.*

O'quvchilarni mustaqil matn yaratishga o'rgatishda so'z, so'z birikmasi, gap va matn kabi til hodisalaridan izchil va tizimli foydalanish, fikr mahsulini uzviylik va uzluksizlikda, bosqichli ketma-ketlikda, adabiy me'yor asosida ifodalash o'quvchilarning imloviy-uslubiy malakasini oshirish bilan bir qatorda yozma nutq salohiyatini rivojlantirishga ham xizmat qilishi aniqlandi.

Tadqiqot jarayonida H. Ne'matov va A.Q. G'ulomovlarning "Maktabda til sathlarini o'zaro bog'lab o'rganish" [191: 5-28] nomli metodik qo'llanmasi tavsiyalaridan ijodiy foydalanildi. Mazkur tavsiyalar tadqiqot tajriba-sinovlarini o'tkazishda metodik va texnologik jihatdan rivojlantirildi va takomillashtirildi. Bunda so'zga ehtiyoj hosil qiluvchi topshiriqlar vositasida, *leksikologiyani fonetika, so'z tarkibi, morfologiya va sintaksisning zaruriy qismiga aylantirish, ularni o'zaro bog'liqlikda o'rganish, berilgan so'zlarga bir vaqtda ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli so'zlar tanlash, gapda ishtirok etgan so'zlarga so'roq berib, qaysi turkumga qarashlilikini aniqlash, uning lug'aviy ma'nosini izohlash yaxshi natija berishi, o'quvchining nutqiy BKMLarini mustahkamlash, og'zaki va yozma nutq kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlandi. M: do'stim – o'rtog'im, oshnam, jo'ram – ot so'z turkumiga oid tushunchalar; bugun – bu kun, ushbu kun, tongdan-shomgacha – payt ravishi; xursand – shod, xushnud, kayfi chog', og'zi qulog'ida – holat ravishi; edi – yurardi, ko'rinardi – to'liqsiz fe'lga oid bo'lgan so'z shakllaridir. Ular bir gap ichida ishlatish mumkin bo'lgan turli turkumga xos uyadosh so'zlarning ma'nodoshlari hisoblanib, mazkur texnologiya o'quvchida shu so'zlarning kontekstga mos muqobillarini topish, undan foydalanishga qaratilgan ijobiy o'quv motivlarini uyg'otadi.*

O'qituvchining dars amaliyotida innovatsion texnologiyalarni qo'llashi, o'quvchi so'z boyligi, og'zaki va yozma nutqining to'g'ri shakllanishiga olib keladi, mustaqil fikrlash, yozma matn yaratish kompetensiyasining mustahkamlanishi va malakaga aylanishida alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchi izohli lug'atlardan so'z izlash, so'z tanlash va uni o'rinli qo'llash, ona tili ta'limida til sathlari orasidagi *to'g'ri va teskari aloqa* (berilgan so'z yordamida SBlari va gaplar tuzish: leksikologiya – morfologiya – sintaksis q xususiyydan – umumiyga q *to'g'ri aloqa*, sintaksis – leksikologiya – morfologiya – fonetika q umumiydan – xususiyyga q *teskari aloqa*) dan foydalana bilishi lozim.

O'qituvchi ma'nodosh va uyadosh so'zlar, ularning birikishi, darajalanishi, ijobiy va salbiy ma'no nozikliklarini obrazli tushuntirishda matematik tushuncha – koordinata chizig'idan, gapda so'zni o'rinli qo'llash tartibini musiqiy tushuncha – notalarda ovoz darajalanishi hodisasi obrazida ko'rsata bilishi lozim. Shuningdek, tajriba-sinov davomida so'zning dominanta – A₁ nuqtadan har ikki - musbat va manfiy tomonga qarab, darajalanib boruvchi ma'nolarini o'zaro qiyoslash, sharhlash o'quvchida og'zaki nutqni o'stirishi, nutqiy-grammatik bilimlarni mustahkamlashi, tez, to'g'ri, qisqa, o'rinli gap tuzish kompetensiyasini shakllantirishi, yozma fikr ifodalash kompetensiyasining rivojlanishiga xizmat qilishi bilan muhim ta'limiy ahamiyat kasb etadi.

Davlat va jamiyat ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy muammoni mustaqil hal qiladigan, sharoitga ko'ra ish yurituvchi, ijodkor, tadbirkor shaxsni tarbiyalash vazifasini qo'ygan. Buning uchun UO'TM da quyidagi talablar bajarilishi kerak:

- 5-9-sinf o'quvchilarini internet tizimidan erkin foydalanishga, muammo yechimi uchun zarur bo'lgan fakt va dalillarni yig'ish, umumlashtirish, ularni boshqa variantlar bilan qiyoslash, ulardan eng maqbulini tanlashga odatlantirish;

- umumiy o'rta ta'limda ona tili darslarini boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganish orqali o'quvchilarda ixtisosiy matn yaratish faoliyatini yo'lga qo'yish;

- o'quvchilarni videoaxborotlar tanlash, ularni sharhlash va qayta ishlashga odatlantirish, axborot asosida yangi matn yaratish,

uni taqdimot qilish uchun kerakli epizodlarni tanlash kabi tashkiliy-kommunikativ kompetensiyalar tizimini shakllantirish;

- she'riyat, suxandonlik, jurnalistlik ilmi bilan qiziquvchilarni matn (she'r) tahlili, qofiya, ohangdoshlik, qofiyadoshlik hodisalari, she'r san'atlari bilan yaqindan tanishtirish, taqriz, xulosa, annotatsiya matnlari tuzishga o'rgatish; notiqlik, reklama, tadbirkorlik loyihalarini tuzish bilan qiziquvchilarni esa rasmiy matnlar: shartnoma, asosnoma, bayonnoma, tavsianoma, referat yozishning sodda usullari bilan tanishtirib borish lozim.

O'quv yili davomida guruhlararo va sinflararo suxandonlik musobaqalari, turli badiiy kechalar, adabiy uchrashuvlar, "Eng yaxshi to'rtlik", "Aruz guldastasi", "Bahri bayt aytishuvlari", "Navro'z tashbehi", "Eng yaxshi suxandon", "Eng yaxshi tahlil", "Eng yaxshi boshlovchi," "Eng yaxshi notiq", "Eng yaxshi tanqidchi", "Eng yaxshi yumorist", "Nazm va qiroat" kabi ko'rik-tanlovlarni muntazam o'tkazib borish ham o'quvchilarda ijodkorlik, izlanish kabi ijobiy o'quv motivlarining tug'ilishi, o'quvchidagi yashirin iste'dodning yuzaga chiqishiga yo'l ochadi. 8-sinf ona tili darsligida "Mening sevimli mashg'ulotim" mavzusida matn yaratish topshirilgan deylik. Sarlavhada eng muhim narsani aniqlovchi, o'quvchi ongini boshqaruvchi bir so'z bor. Bu "sevimli" so'zi. U bo'lg'usi matndagi asosiy yo'nalishni ko'rsatib turibdi. Sarlavhadan ko'rinadiki, o'quvchi kundalik mashg'ulot haqida emas, balki o'zining sevimli mashg'uloti haqida yozishi zarur. Mazkur mavzuda rasm chizish, gullarni parvarishlash, gimnastika mashqlariga munosabat aks etgan badiiy-tasviriy, ixtisosiy matnlar tuzish nihoyatda foydali. Tasvirlanayotgan mashg'ulotning qiziqarliligi, qaysi tomoni inson uchun foydali ekaniga boshqalarni ishontirish uchun o'quvchi hodisalarni sharhlash, izohlashga, aniq fakt va dalillar keltirishga harakat qiladi.

Umumta'lim maktablari 5-9-sinf o'quvchilarini matn yaratishga o'rgatishda quyidagi metodik tavsiyalarga e'tibor qilish lozim:

MYKSHda o'quvchilarning yosh psixologiyasi, nutqiy qobiliyati hamda o'quv imkoniyatlarini hisobga olish; ixtisosiy matn yaratishda ona tilini boshqa fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganish tamoyiliga asoslanish; til hodisalarini qiyoslash, farqlash, tanlash, guruhlash, analiz va sintez qilish; MYKSHni "Sizning

fikringiz qanday?” tarzida erkin fikrlashga yo‘naltirish: “Tuzilgan gap to‘g‘rimi?”, “Xulosa o‘rinlimi?”, “Matn qaysi uslubda yaratilgan?”, Sarlavha va mazmun mutanosibmi?”, “Matn adabiy me‘yor talabiga javob beradimi?” shaklidagi til sezgirligini oshiruvchi savollar bilan takomillashtirish; yozma nutqni ilmiylik va tushunarlilik, uzviylik va uzluksizlik tamoyili asosida rivojlantirish; darslikka qo‘shimcha sifatida nutq o‘stirish mashqlari, muammoli o‘quv topshiriqlari, psixolingvistik testlar, mavzu asosida nazorat testlari tuzish mashqlarini kiritish va ularni uzluksiz takomillashtirib borishga harakat qilish lozim. Buning uchun o‘quvchilar yozma nutqning 10 turli komponentlarini o‘rganib borishlari, ularni yaxlit va yagona yo‘nalishdagi matn yaratish kompetensiyasiga aylantira bilishlari zarur. Mazkur ko‘nikmalar quyidagi ro‘yxatda keltirildi:

1. *Matn mavzusini belgilash ko‘nikmasini shakllantirishda* o‘quvchi istagining ustuvor bo‘lishi maqsadga muvofiq. U qaysi mavzuda matn yaratish o‘zi uchun qulayligini to‘g‘ri tasavvur qilishi, soha atamalari, maqol, olinma so‘zlar, iboralar zahirasi ni chamalashi, shu asosda yaratilajak matn mavzusini o‘zi mustaqil tanlashi lozim. Mavzu tanlash masalasining o‘quvchi ixtiyoriga qoldirilishi unda ijobiy o‘quv motivlarining tug‘ilishiga mustaqil fikr ifodalashda eng ma‘qul yo‘lni o‘zi topishiga turtki bo‘ladi.

2. *Mavzuga oid tayanch so‘zlar tanlash ko‘nikmasini* egallashda, avvalo, mavzuga oid uyadosh so‘zlar (ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe‘l, yordamchi so‘zlar) tanlash bilan shug‘ullaniladi, keyin ma‘nodosh va zid ma‘noli so‘zlar, shakldoshlar guruhlanadi, qiyoslanadi va keraklisi tanlanadi. Nutq o‘stirish maqsadida yangi, olinma va notanish so‘zlar ma‘nosi og‘zaki sharhlanadi. Tanlangan so‘z zahirasi dan yangi SBlari hosil qilish, fikr elementini aniqlashtirish, bo‘rttirishda foydalaniladi [85; 87; 90; 91; 92;]

3. *Matn mazmunini yoritish ko‘nikmasini egallashda* o‘quvchilar avvaldan ma‘lum, ko‘rilgan, o‘qilgan, ishlar haqida hikoya qilishlari lozim bo‘ladi. Ular matn mazmunini reja asosida to‘g‘ri yoritishlari uchun matn ifodali o‘qilib, tarkibiy qismlarga ajratiladi, matnga og‘zaki reja tuziladi. Matn shu reja asosida qayta hikoya qilinadi. Mustaqil matn yaratish uchun esa o‘rganilgan namunadan foydalanib reja tuziladi va mazkur reja asosida matn *mazmunini yoritish*ga kirishiladi.

4. Matnda *tugun hosil qilish ko'nikmasini* egallash o'quvchidan bilim, ko'nikma va tajriba talab qiladi. Bunda, avvalo, o'qituvchi yordamida mavzu uchun asos bo'ladigan g'oyani tanlash, axborot qamrovini aniqlash, voqeani zarur yo'nalishda rivojlantirish uchun "tugun" hosil qilish, tugunning yechimi matnning xulosasi bo'lishini o'quvchi anglab olishi kerak. M: ...*Yolg'iz o'g'il, ishlab pul topish uchun Rossiyaga ketgan Asqarjon ikki oydayoq o'z qishlog'iga qaytib keldi.* 1-tugun – "oydayoq" so'zidagi -yoq qo'shimchasi bilan hosil qilingan *qo'shimcha mazmun*, "nima uchun tez qaytdi?", "qaytishning asl sababi nimada?" so'roqlarining paydo bo'lishiga olib kelgan).

...Qo'shni qiz Mastura esa ikki kundan buyon o'zida yo'q xursand, hovliyu ko'chalarga suv sepgan, supurgan, keti uzilmay kelib turgan hamqishloqlarga dasturxon tuzagan, choy damlagan, non yopgan, qo'li-qo'luga tegmaydi. (2-tugun: qizning Asqarga munosabati haqida axborot). Ana, yangilikni eshitib, Asqarjon o'qigan maktabning o'qituvchilari ham kelib qolishdi (yechim: davra suhbat, axborot, munosabat, xulosa).

5. *Matndagi asosiy fikrni aniqlash ko'nikmasini egallashda* matn 2-3 marta diqqat bilan o'qilishi, tarkibiy qismlarga ajratib ko'rilishi, kirish, asosiy qism va xulosa chegarasi, mazmun, matnda olg'a surilayotgan g'oyani (axloq, do'stlik, mehnat, muhabbat, vafu va sadoqat, ota va onani hurmatlash, insoniylik, vatanparvarlik) aniqlashga odatlanishi zarur. O'quvchini analiz va sintezga, jumlani ixcham, to'g'ri qurishga o'rgatish mustaqil MYKSHning asosiy talablaridan biri hisoblanadi.

6. *Matnga reja tuzish, uni qismlarga ajratish ko'nikmasini egallash.* Bu faoliyat matnga turli sarlavhalar tanlash (mavzu asosida), ixcham va kengaytirilgan rejalar tuzish, matn qismlarini alohida nomlash, kirish, asosiy qism va xulosani to'g'ri shakllantirish, o'zni-o'rniga joylashtirish, matn qismlarini birlashtiruvchi kirish so'z va kirish gaplardan (*jumladan, ma'lumki, birinchidan, mazkur, yuqoridagi, quyidagi, vaholanki, xulosa shuki, aytish mumkinki, shubhasiz, albatta*) o'rinli foydalanish orqali mustahkamlanadi.

7. *Adabiy til me'yorlariga rioya qilish ko'nikmasini egallash* uchun badiiy matnlar, bayon va insho matnlarini guruhda tinglash

va tahrir qilish, matnning lugʻat boyligi, badiiy boʻyogʻi, ishlatilgan maqol va iboralar, hikmatlar ustida ishlash, imloviy va mantiqiy-uslubiy xatolarni bartaraf qilish, egalik, kelishik, shaxs-son, munosabatlarida yoʻl qoʻyilgan xatolarni topish, tuzatish, ajratilgan nutqiy birliklarga maʼnodosh, uyadosh variantlar topish, ulardan tanlangan mavzuga, undagi adabiy meʼyor va uslubga mosini tanlash faoliyati bilan shugʻullanish talab qilinadi.

8. *Matnga xulosa yozish koʻnikmasini* shakllantirish uchun oʻquvchi ona tili darslarida kichik badiiy-maʼrifiy matnlarni ovoz chiqarib ifodali oʻqishi, mazmunni anglashi, matnning xulosa qismini ajratib, sharhlashni oʻrganishi zarur. Matnga xulosa yozishda tayyor nutq birliklari: tasviriy ifoda, maqol, hikmatli soʻzlardan, iboralardan unumli foydalanish mumkin. Ana shu qiyinchiliklarni yengib chiqqan oʻquvchi xulosaning nima uchun zarurligini anglab etadi va oʻzi yaratgan matnga tegishli, foydali, toʻgʻri xulosa chiqarishga odatlanadi.

9. *Yaratilgan matni takomillashtirish koʻnikmasi* yozma ishga tanqidiy nazar bilan qarashni oʻrganish, oʻzaro tanqidga toʻgʻri munosabatda boʻlish zaminida shakllanadi. Oʻquvchilar matn uchun soʻzni tanlab ishlatish, mazmunni gʻalizlashtiradigan ortiqcha tavsiflardan voz kechish, iqtiboslar, maqol va hikmatli soʻzlarni oʻrinli joylashtirish, matn qurilishini takomillashtirishga asta-sekin oʻrgatib boriladi. Zero, mustaqil MYKSH faoliyati ijobiy oʻquv motivlarini, ijodiy tafakkurni harakatga keltirish, izlanish, kashf qilishga, oʻquvchi ongida yashirin ijobiy oʻquv motivlarini uygʻotishga, oʻz-oʻzga ishonch, nutqiy kommunikativ kompetentlikni egallashga xizmat qilishi lozim.

10. *Tinish belgilarini oʻrinli ishlatish koʻnikmasi* matnda kirish soʻzlar, ajratilgan boʻlaklar, uyushiq boʻlakli gap va MSBlardagi maʼnoviy ishoratni farqlash, matn uchun zarur ohangni taʼminlash jarayonida shakllantiriladi, nutqiy koloritni saqlash koʻrsatkichlari – tinish belgilarini toʻgʻri ishlatish MYKSHda muhim ahamiyatga ega. 5–9-sinf oʻquvchilari koʻproq ikki nuqta, nuqtali vergul, tire, chiziqcha kabi tinish belgilarini notoʻgʻri qoʻllaydilar. Bunday xatolarning oldini olish oʻqituvchidan darsda badiiy oʻqish bilan shugʻullanishni, tinish belgilari qoʻyilmagan maxsus matnlar ustida ishlashni (matn 3 minut davomida ekranga chiqarilib,

o'quvchilar bilimi baholanadi), so'z va gap urg'usini farqlash ko'nikmasini mustahkamlashni taqozo etadi.

Umumiy o'rta ta'lim o'quv muassasalarida olib borilgan ko'p yillik tajriba-sinov jarayonida matn yaratishning zamonaviy texnologiyasini ishlab chiqish va uni ona tili ta'limiga joriy etishdan tashqari, matn yaratish faoliyatini tezlashtirishning qulay usullarini topish ham ilmiy tadqiqotimiz maqsadiga aylandi. O'quvchini tezkor matn yaratish, o'z nutqiy imkoniyatlarini mustaqil aniqlash va rivojlantirishiga imkon beruvchi bosqichli - tizimli universal til o'rganish moduli shakllantirildi, matn yaratishni jadallashtirish, tasnifiy-grammatik matnlar tuzishga xizmat qiluvchi "Ona tili" rangli-proeक्सion slaydlar majmuasi yaratildi. Slaydlar umumiy o'rta ta'limning ona tili, rus guruhlarida o'zbek tili amaliyotiga tajriba-sinov asosida joriy qilindi. Shuningdek, UO'TMning 5-sinflarida nutq o'stirish, tasnifiy matnlar yaratish, mustaqil ish, savol va topshiriqlar, muammoli savollar va nazorat testlari tuzish, o'quvchini ijodiy izlanishga etaklovchi maxsus "Ona tilidan didaktik slaydlar to'plami" – ovozli elektron o'quv-metodik qo'llanmasi yaratildi. Qo'llanma o'quvchilarda psixolingvistik tafakkur operatsiyalarining jadallashuviga xizmat qildi. DTSning umumiy o'rta ta'lim tizimida ommalashtirilishi, oliy ta'lim tizimida o'qitiladigan "O'zbek tili o'qitish metodikasi" fani tarkibiga kiritilishi o'quvchilarda mustaqil MYKSH va nutqiy kompetentlikni rivojlantirishda muhim omil vazifasini bajardi.

UO'TM larining 5-9-sinflarida olib borilgan tajriba-sinovlar tahlili shuni ko'rsatdiki, *o'quvchi og'zaki nutqining sifat darajasi madaniy muloqotda, nutqiy kompetentlik darajasi esa mustaqil yaratilgan matnda o'z ifodasini topadi.*

Tizimli fikrlash, o'quvchini mustaqil matn yaratish faoliyatiga tayyorlash nafaqat ona tili, balki boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar amaliyoti uchun ham o'ta foydali. Zero, umumiy o'rta ta'limda ona tilining takomillashuvi boshqa fanlarni o'rganishning qulaylashuviga olib keladi. O'quvchilarda ixtisosiy matn yaratish kompetensiyasi-ning intensiv shakllanishiga, milliy tilda ragon va izchil fikrlashga, matnda ixtisosiy atamalardan keng foydalanishga o'rgatadi.

Dars jarayonini interaktiv metodlar: uyadosh so'zlar tanlash, muammoli vaziyat, muammoli masala, bahs-munozara, debatlar,

qiziqarli topishmoqlar, rebus, krossvord va skanvordlar tuzish mashqlari bilan boyitish nihoyatda zarur. Guruhda “Muammoli vaziyat muhokamasi” ni tashkil qilish, eng yaxshi deb topilgan javob matnlari mualliflarini rag‘batlantirish ham MYKSHning asosiy shartlaridan hisoblanadi. Bunday faoliyat o‘quvchi shaxsini mustaqil fikrlash, izlanuvchanlik, “tadqiqotchi”likka qiziqtirib, unda ijobiy o‘quv motivlarini hosil qiladi.

Umumta’limning 5–9-sinflari uchun yaratiladigan yangi avlod darsliklari nutqiy-tafakkuriy integratsiya (yaxlitlashuv) qonuniyatlariga, innovatsion texnologiyalarga asoslanilgan holda yaratilishi, o‘quvchilarda leksik zahirani boyitish, nutqiy mahoratni mustahkamlashga ehtiyoj hosil qiluvchi ijodiy o‘quv topshiriqlariga boy bo‘lishi lozim. Matn yaratish til o‘rganishning, nutqiy kompetentlikka erishishning tarkibiy qismi sanalishi, yangi mavzuni o‘zlashtirishning yakuniy natijasi sifatida baholanmog‘i zarur.

Ona tilidan o‘tkaziladigan **har bir mashg‘ulot-matn tahlili (umumiydan xususiyga) bilan boshlanib, yangi matn yaratish (xususiydan umumiyga) bilan tugallansa, o‘quvchida ijtimoiy-madaniy taraqqiyot –o‘z-o‘ziga ishonch, imlo savodxonligi, mustaqil qarorlar qabul qilish, nutqiy kommunikativ kompetentlik ta’minlanadi.** U ixcham, mazmunli va ravon fikrlashga, badiiy matnlarni mustaqil sharhlashga, uni ifodali o‘qishga urinadi. Mazkur subyektiv ehtiyoj esa o‘quvchini izohli lug‘atlar, badiiy adabiyot, kitob o‘qish bilan qiziqishga, so‘z san’ati ilmi bilan tanishishga undaydi. 5-9-sinflarda ona tili darslari mazkur texnologiyalar asosida tashkil qilinsa, o‘quvchilarda tasavvur va ijodiy tafakkur kengayadi, individual uslub, nutqiy kompetentlik shakllanadi, matn hajmi qisqarib, mazmun va mohiyat chuqurlashadi.

§ 3.2. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyasi

Ta’lim texnologiyalarining umumdidaktik, xususiy metodik va lokal singari uch darajasi mavjud bo‘lib, ulardan dars jarayonida yaratilgan ijodiy muhitni ta’minlash, qulay texnik sharoit va nutqiy vaziyatlar hosil qilib, ta’lim sifatini oshirishda foydalaniladi:

1. Umumdidaktik darajada ta'lim texnologiyasining umumiy qonuniyatlari, kontseptual asoslari, o'qituvchi va o'quvchining tanlash va bilish faoliyatini tashkil etish, ta'lim jarayonini boshqarishning o'ziga xos xususiyatlari ishlab chiqiladi.

2. Xususiy metodik darajada muayyan fanni o'qitishning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda, belgilangan ta'lim mazmunini o'quvchilar ongiga singdirishda foydalaniladigan yangi texnologiyalar, interaktiv o'qitish metodlari, vositalari va shakllari tushuniladi.

3. Lokal (modul) darajada ta'lim-tarbiya jarayonining ma'lum bir qismida mazkur qismning xususiy didaktik va tarbiyaviy maqsadini hal etishga qaratilgan texnologiya tushuniladi. Pedagogik texnologiyalarning yuqorida qayd etilgan uchta darajasi bir-birini to'ldiradi va taqozo etadi.

Pedagogik ta'limda modul tushunchasiga nafaqat ma'lumot va axborot birligi, balki o'quv faoliyatini bosqichli ketma-ketlikda tizimlashtirish birligi, ya'ni o'quvchi tomonidan egallangan BKMLar integratsiyasining doimiy harakatdagi mexanizmi sifatida qarash muhim didaktik ahamiyat kasb etadi. Modullashtirish texnologiyasi ona tili ta'limida ham yaxshi samara beradi, tilning kommunikativlik imkoniyatidan keng foydalanishga yo'l ochadi. Modulning har bir bosqichi muayyan o'quv topshiriqlari tizimidan iborat bo'ladi. Shuningdek, modul tizimida aratiladigan matn o'rganilayotgan mavzu bilan o'zaro bog'liq bo'lishi, shu mavzuga oid so'zlardan keng foydalanish asosiga qurilishi lozim.

Masalan, o'rganilayotgan dars mavzusi "Ma'nodosh so'zlar" bo'lsin. (5 - sinf, 167-dars, 177-b.) Dars yakunida yaratiladigan mavzuga oid matnda ma'nodosh so'zlar, ma'nodosh SBlari, hatto ma'nodosh gaplar tuzish, ularning ma'no farqlarini og'zaki sharhlash bilan shug'ullanish mumkin. Masalan, darslikdagi 506-mashq shartini quyidagicha o'zgartirish tilni tizimli o'rganish talabiga to'g'ri keladi. Berilgan shart: So'zlarning ma'nodoshlarini toping va ko'chirib yozing. O'zgartirilgan shart: So'zlarning ma'nodoshlarini toping, ulardan so'z birikmalari va gaplar hosil qilib, daftaringizga ko'chiring. Ma'nodagi o'zgarishni izohlang.

Matn uchun lug'aviy zahira hosil qilishda uyadosh so'zlardan qanchalik ko'p foydalanilsa, gapni kengaytirish, fikrni yangi

xatboshidan boshlash, uni to'g'ri, ravon, izchil, qiziqarli ifodalash yo'llari shuncha kengayadi, o'quvchida milliy til imkoniyatlaridan yozma nutqda o'rinli foydalanish kompetensiyasi shakllanadi, mustahkamlanadi. 5-6-sinflar ona tili darsliklarida gapni ma'nodosh so'zlar bilan boyitish, berilgan mashqdagi so'z va SBlarini ma'nosi o'xshash guruhlariga ajratish, so'ng so'zni kuchayib (pasayib) boruvchi ma'no darajalariga qarab, o'rinli joylashtirish (sinonimik qator) mashqlari bilan shug'ullanish, ulardan badiiy bo'yoqdor gaplar, xatboshi va MSBlar, turli she'r qatorlar tuzish kompetensiyasini mustahkamlaydi. Namuna:

1-topshiriq. Istamoq, kengashmoq, so'ramoq, salomlashmoq, xohlamoq, maslahatlashmoq, fikrlashmoq, orzu qilmoq, sog'inmoq, ko'rishmoq, omonlashmoq, ahdlashmoq, salom-alik qilmoq kabi harakat ifodalovchi so'zlarni ma'nosi o'xshash guruhlariga ajrating. 1-ish: istamoq, xohlamoq, sog'inmoq, orzu qilmoq; fikrlashmoq, maslahatlashmoq, kengashmoq, mashvarat qilmoq, ahdlashmoq; salomlashmoq, salom-alik qilmoq, ko'rishmoq.

2-ish: xohlamoq, orzu qilmoq, istamoq, sog'inmoq, salom-alik qilmoq, salomlashmoq, ko'rishmoq, so'rashmoq, omonlashmoq so'zlari fe'llarda ma'no darajalanishi; xohish, orzu - istak, sog'inchotlarda ma'no darajalanishi hodisasiga kiritiladi.

O'quvchilarning so'zning lug'aviy va lingvistik ma'nosini farqlashi, leksik-semantik maydon tushunchasini bilishi, ma'noviy darajalanish xususiyatlarini farqlashi, ma'nodoshlardan eng ma'qul variantni tanlashga urinishi, ularda til sezgirligini oshirib, kontekstda so'zning to'g'ri qo'llanilganligini aniqlashni osonlashtiradi. Shuningdek, badiiy o'qish bilan shug'ullanish, kichik matnlarni sahnalashtirish, kitobxonlik, o'quvchida nutqiy kompetentlikni, so'zdan, til imkoniyatlaridan foydalanish kompetensiyasini shakllantiradi.

Tadqiqot jarayonida nutqiy-kommunikativ kompetensiyalarni mustahkamlashga xizmat qiluvchi qator ijodiy o'quv topshiriqlari, grammatik mashqlar, mustaqil ishlar tizimi yaratildi va tajriba-sinov amaliyotiga joriy etildi. M: Matndan sizga notanish so'zni toping, lug'at asosida uning ma'nosini izohlang; matndagi ot, sifat olmosh, fe'l, ravishlarning uyadoshlarini toping, ular ishtirokida SBlari va gaplar tuzing, kichik matn yarating kabi. Bunday mashqlarni

bajarishda qo‘shimcha manba sifatida 5–9-sinflar uchun “Adabiyot” darsliklarida berilgan mumtoz adabiyot namunalari: nasriy va nazmiy matnlarga, shu sinf kesimidagi boshqa fanlarga (tarix, geografiya, zoologiya) oid ixtisosiy matnlarga murojaat qilish foydali bo‘ladi.

MYKSHda suhbat, badiiy o‘qish, video, teleko‘rsatuvlar, ertak va rivoyat janrida yaratilgan matnlar muhokamasi bilan shug‘ullanish, o‘quvchi shaxsi, ruhiyati, ma’naviy barkamollik darajasini ko‘rsatuvchi testlar ustida ishlash, muammoli topshiriqlar yechimini qidirish mumkin. Bunda og‘zaki yoki yozma matn yaratishni talab qiluvchi, ijodiy tafakkurni uyg‘otuvchi “Rasm - tasvir sharhi”, “Maqol sharhi”, “Hikmatli so‘z sharhi” kabi o‘yin-topshiriqlardan foydalanish ma’qul. Quyida 5–9-sinf o‘quvchilari uchun berilgan mavzu asosida matn yaratishga yo‘naltiruvchi ijodiy topshiriqlar, matnni kengaytirish va ixchamlashga oid mashqlar berildi. Ular o‘quvchida tezkor fikrlash, fikr elementini bo‘rttirish, matn qurilishi, mazmunni ixchamlash kompetensiyasini shakllantiradi.

1-topshiriq. “*Matnni davom ettiring*” o‘yini. 5-sinf. morfologiya bo‘limida “Ot” mavzusini o‘rganish (3.1-jadvalga qarang).

3.1-jadval

Boshlovchi: *Mening bobom otlarni juda yaxshi ko‘radilar...*

| | 1- guruh matni | 2-guruh matni | 3-guruh matni |
|----------------------------|--|---|--|
| k i r i s h | Ular yoshliklarida uloq chopganlar, maktab qoshida to‘garak ochib, ot sporti bilan shug‘ullanganlar. | Bobomning Zomin tog‘larida davlat buyurtmasi bilan boqilayotgan katta yilqi uyurlari bor. | Bobom nemis fashistlariga qarshi 2-jahon urushida 1-otliq armiyada xizmat qilganlar. |
| | Bobomning shogirdlari ko‘p. Ularning ko‘pchiligi sport ustalari, mohir chavandozlar bo‘lib yetishishgan. | Men har yili yozgi ta’tilda bobomning yonlariga yilqi boqishga boraman. Bizning otlarimiz | Bobom “Yulduz” laqabli chopqir otida dushman bilan jang qilgan, uning peshonasida yulduzga o‘x-shash |

| | | | |
|---|--|--|---|
| A | | sog'lom, baquvvat, zotdor. | oq qashqasi bo'lgan. |
| S | Dadam ham bobomning ishlarini davom ettirib, maktabda o'qib yurgan chog'laridanoq ot sporti bilan astoydil shug'ullanganlar. | Bobom uyurni hech kimga ishonmaydilar: "Tog'da to'rt oyoqlidan tashqari, ikki oyoq li bo'rilar ham bor, shundan saqlanish kerak", – deydilar. | Bu jangovor ot bobomga nemislar bilan bo'lgan qattiq jangda ko'rsatgan jasorati uchun hadya qilingan ekan. |
| O | | | |
| S | | | |
| I | | | |
| Y | Dadamga mohir chavandozlar, xalqaro miqyosdagi trenerlar saboq berishgan. Ular ot sporti bo'yicha jahon chempionatlarida ko'p marta g'olib bo'lganlar. | Oyoqlari ingichka, zotdor qorabayir, uchqur tulpor, oq arabiy ot, ziyrak saman otlar tog'yonbag'irlarida yayrab o'tlashadi, ularni 4 ta bo'ribosar itimiz tun-u kun qo'riqlashadi. | Bobomning aytishlaricha, Yulduz vafodor do'st bo'lgan. Bobomni bir necha marta dushman qurshovidan olib chiqqan, bostirib kelayotgan tanklarga chap bergan. |
| Q | | | |
| I | | | |
| S | | | |
| M | Hozir dadam 45 yoshdalar. Shogirdlari ham ko'p. Dadamning xalqaro musobaqalarda qo'lga kiritgan orden va medallari 25 dan ortiq. | Bizning ajdodlarimiz azaldan yilqichilik bilan shug'ullanib kelishgan. Bobom bir ko'rishdayoq, otlarning nasli, yoshi, kasalini aniqlay oladilar. | Bir kuni Yulduz, jangda qattiq yarador bo'lib, hushidan ketgan bobomni avaylab, yiqitmay, o'zimiznikilar tomonga etkazib kelgan. |
| | Dadamning shogirdlari Boysun tog'laridan 2 ta zotdor qorabayir biyalar keltirishdi. | Tog'liklarning oti yoki mollari kasal bo'lib qolsa, darhol bobomni so'roqlab kelishadi. | Bobom urushdan qaytishda bir qulog'i yo'q, oqsoq otni uyga olib kelganlar. |

| | | | |
|----------------------------|--|--|---|
| | Biyalarimiz bahorda qulunladi. Hozir toychoqlar menga juda o'rganib qolishgan. | Qishlog'imizda bobomni qattiq hurmat qilishadi: "Qo'chqor sinchi keldi",- deb uy to'riga o'tqazishadi. | Qishloqdagi otlar uyuri – o'sha jangovor do'st, vafodor Yulduzning avlodlari. |
| X U L O S A | Men ham katta bo'lsam, ot sporti bilan astoydil shug'ullanaman, bobomdek, dadamdek mashhur chavandoz bo'laman. | Men qorabayir, tulpor kabi nasldor, chopqir otlarimiz bilan faxrlanaman. Mening orzuim – o'zbek otlarini dunyoga mashhur qilish. | Men o'qishni bitirsam, albatta, harbiy komandir bo'laman, otliq qo'shinda O'zbekiston chegaralarini qo'riqlayman. |

O'yin-topshiriqdan ko'zlangan maqsad imlo savodxonligini egallash, o'quvchini tez, to'g'ri va ravon fikr ifodalashga, matnda ot so'z turkumiga oid so'zlardan unumli foydalanishga o'rgatish bo'lib, unda kirish qismi berilgan matn davom ettiriladi. Sinf ikki yoki uch guruhga bo'linadi. Yaratiladigan matnning kirish qismida umumiy yo'nalish bor, ammo asosiy qismi va xulosasi noma'lum bo'ladi. Har bir guruh yaratgan badiiy matn kompyuterga kiritilib, monitorga yoki katta ekranga chiqariladi, imlo savodxonligi, uslubiy mahorat, badiiy bo'yoqdorlik nuqtayi nazaridan qiyoslanadi va baholanadi. Topshiriqni birinchi bo'lib tugatgan, matnga eng to'g'ri sarlavha topgan, uslubiy ravon, mantiqiy mukammal matn yaratgan guruh o'yin g'olibi deb topiladi. Boshlovchi matnning kirish qismiga oid birinchi gapni taxtaga yozadi, uch guruhga bo'lingan musobaqa ishtirokchilari: a) matnni mustaqil davom ettiradilar; b) hukm va xulosa chiqarib, yakunlaydilar; d) yaratilgan matn mazmuniga mos sarlavha tanlaydilar.

Matn yaratish uchun belgilangan vaqt tugashi bilan boshlovchi birinchi bo'lib ishni tugatgan guruh vakiliga matnni o'qishni buyuradi. Qolgan ikki guruh a'zolari muxolifat (opozitsiya) vazifasini bajarishadi. Ular o'qilayotgan matnni diqqat bilan tinglab, matn turi, uslubi, badiiy bo'yoqdorligi, matn qismlarining to'liqligi, imloviy-uslubiy xatolar, tinish belgilarining ishlatilishidagi xatolar,

maqol va hikmatli soʻzlar, iboralarning oʻrinliliigi, sarlavhaning matn mazmuniga mosligi kabi jihatlarni oʻrganib, matnga baho beradilar. Hakamlar oʻquvchilardan saylanadi, *musobaqa gʻoliblari ragʻbatlantirilib, nomlari maktab radiotelemarkazi axborotida eʻlon qilinadi.*

“Matnni davom ettiring” oʻyinidan 5-6-sinflarda soʻz turkumlari mavzusini oʻrganishda ijodiy fikrlash, ogʻzaki va yozma nutq oʻstirish, gap tuzish, matn yaratish va uni uslubiy jihatdan takomillashtirish kabi ijodiy ishlarni bajarishda samarali foydalanish mumkin.

Guruhlarga boʻlinib, matn yaratish usuli asosan 5–7-sinf oʻquvchilari uchun moʻljallangan boʻlib, u oʻquvchilarni oʻzaro hamkorlikda fikrlash, jadal gap tuzish, imlo, uslub, ega-kesim munosabatlarini kuzatish, oʻquvchi matnida yoʻl qoʻyilgan uslubiy-grammatik xatolarni topish va bartaraf etish kabi imloviy-grammatik bilimlarni shakllantiradi. Yuqoridagi mustaqil ishga qoʻshimchalar oʻrnida keltirilgan oʻyin-topshiriqlar oʻquvchilarda matn tuzish, analiz va sintez bilan shugʻullanish, tanqidiy fikrlash kompetensiyasining shakllanishiga xizmat qiladi. Matn yaratish jarayonini jadallashtiruvchi yarim tayyor nutq birliklari: SBlari, ibora va maqollardan samarali foydalanish, gaplarni kesimdan savol berish orqali kengaytirib, uyushiq boʻlakli sodda va qoʻshma gaplar hosil qilish ona tili taʼlimida sermahsul nutqiy faoliyat hisoblanadi. Quyida 5–7-sinf oʻquvchilari uchun tuzilgan ijodiy topshiriqlardan namunalar berildi:

1-topshiriq. Berilgan gap tarkibidagi ajratilgan soʻzlarga maʼnodoshlar, muqobillar va uyadoshlar toping. Maʼnodosh SBlaridagi maʼno darajalanishi hodisasini kuzating va sharhlang: *Erta tongda toʻsatdan* Salimjonning onasi *ogʻrib qoldi*. Namuna: *tongda* – tong yorishganda, saharda, azonda, erta bilan, xoʻrozlar qichqirganda; *toʻsatdan* – qoʻqqisdan, tuyqusdan, dabdurustdan, birdaniga, kutilmaganda, “ha yoʻq, be yoʻq”; *ogʻrib qoldi* – tobi qochdi, mazasi qochdi, kasal boʻlib qoldi, qon bosimi koʻtarildi, oʻzini noxush sezdi, shamollab qoldi, isitmasi chiqdi, oyoqdan qoldi, yotib qoldi, hushidan ketdi va hk.

Hosil qilingan maʼnodoshlik qatorini ekranda kuzatish, ulardagi maʼno oʻzgarishlarini sharhlash oʻquvchiga yangi-yangi soʻz

ishlatish imkoniyatlarini ochadi, matnda takrordan qochish, soʻzni toʻgʻri va oʻrinli ishlatish kompetensiyasini shakllantiradi. Oʻquvchi har bir soʻzning lugʻaviy maʼnosi, almashtirilayotgan soʻzdan farqi, fikr ifodalash imkoniyatini oʻylab koʻradi, uning kontekstga mosligi, mavjud soʻzlar bilan birikish xususiyatini aniqlaydi, kerak soʻzni ajratib, gap tuzadi.

2 - topshiriq (7-,8-sinflar uchun). Hosil qilingan SBlaridan foydalanib, gaplarning sinonimik qatorini hosil qiling. Ulardagi oʻxshashlik va farqni izohlang. SBlaridagi maʼno darajalanishining gap mazmuniga, uslubga taʼsirini tushuntiring.

3-topshiriq. Kirish qismi berilgan badiiy matnni davom ettirib, tugallang. Unga sarlavha tanlang. Matnni tarkibiy qismlarga ajrating.

Salohiddin qoʻshnimiz Mamlakat opaning kenja oʻgʻli. U 1-sinfda oʻqiydi. Onasi uni er-u koʻkka ishonmaydi. Har kuni oʻgʻlining sumkasini somsa-yu patir, shokoladlar bilan toʻldirib, qoʻlidan etaklab maktabga olib chiqadi. Bir kuni..

Ijodiy topshiriq. (5-sinf. “Maʼnodosh soʻzlar” mavzusini oʻrganish). Berilgan “Doʻstim bugun xursand edi” gapidagi har bir soʻzga maʼnodosh, muqobil soʻzlar tanlab, ustuncha shaklida yozing. Soʻzlarni maʼno darajalanishiga qarab, ketma-ket joylashtiring. Muqobil soʻzlardagi farqni izohlang. Namuna:

3.2-jadval

| Doʻstim | bugun | xursand edi. |
|---|---|--|
| joʻram, oshnam, oʻrtogʻim, ogʻaynim, dugonam, sinf doshim, kurs doshim, ham yurtim, biro darim, qadr donim.. | shu kun, bu kun, ushbu kun, uzzukun, kun boʻyi, mana shu kun, ertadan kechgacha, azondan shomgacha, tong otgandan kun botguncha.. | xushhol, xushnud, shod, baxtiyor, vaqti chogʻ, dimogʻi chogʻ, kayfiyati yaxshi, bosar- tutarini bilmas, ogʻzining tanobi qochgan, boshi osmonda, ogʻzi qulogʻida, ettinchi osmonda, osmonu falakda, joni taniga sigʻmas, uchib-qoʻnib turardi. |

2-topshiriq. (5–6-sinflar uchun) Topilgan ma’nodosh soʻzlar, ibora va tasviriy ifodalar orasidan bir-biriga mantiqiy, uslubiy va grammatik jihatdan mos tushunchalarni jamlab, gapni kengaytiring. Oʻzaro oʻxshash gaplarning sinonimik qatorini (177: 17–23) hosil qiling. Jumlada birlamchi ma’no saqlansin.

Berilgan gap: *Doʻstim bugun xursand edi*. Yangi hosil qilingan ma’nodosh gaplar: 1. Bugun negadir dugonamning dimogʻi chogʻ, ogʻzining tanobi qochgan, xursandligidan bosar-tusarini bilmas, bir gapirib, oʻn kular edi (18). Yozgi taʼtilda toqqa otlanayotgan joʻramning bugun juda vaqti chogʻ, joni taniga sigʻmas, togʻdagi bobosi-yu, uyurdagi zotdor otlarini maqtab odogʻiga etolmasdi (19 soʻz). Bugun akasining harbiy xizmatni tugatib, uyga qaytganidan xursand boʻlgan dugonam onasi, qoʻshni qizlar bilan chaq-chaqlashib, kun boʻyi qatlamayu somsalar, patirlar pishirdi (20 soʻz).

3-topshiriq. Ma’nodoshlik qatoridagi 3-gapni uslubiy tahrir qiling, ixchamlang.

3.1. Akasi harbiy xizmatdan qaytgan Zeboning xursandlikdan boshi koʻkka etgan, kun boʻyi onasi, yangalari bilan qatlamayu somsalar, jizzali patirlar pishirdi (19 soʻz, 1-darajali ixchamlash). 3.2. Akasi bugun harbiy xizmatdan qaytgan Zebo dugonamning xursandchiligi eru koʻkka sigʻmas, bir gapirib, oʻn kulardi (15 soʻz, 2-darajali ixchamlash). 3.3. Akasi harbiydan qaytgan dugonamning, bugun dimogʻi chogʻ, ogʻzi qulogʻida, gapi hech tugamasdi (12 soʻz, 3-darajali ixchamlash).

Mazkur tizimli topshiriqlar bajarilgach, “berilgan gap” bilan “hosil qilingan gap”ning badiiy boʻyoqlarga boyligi oʻzaro muqoyasa qilib koʻrilsa, yuqoridagi ijodiy topshiriqlarni bajarish jarayonida oʻquvchining til imkoniyatlaridan foydalanish qamrovi kengaygani, qayta ixchamlangan gaplarda mazmun saqlanib, hajm qisqargani, soʻz tartibining oʻzgarishi, gapda mazmun qamrovi yuqoriligi aniq koʻrinadi.

4-topshiriq (8-,9-sinflar, sintaksis boʻlimini oʻrganish). Fikrni davom ettiring. Qiziqarli lavha, maqol yoki hikmatli soʻzlar qoʻshib, kichik matn yarating.

...Men dugonamning akasi uyga qaytganligini allaqachon eshitgandim.

– Qalaysiz, dugonajon? – dedim o‘zimni hech narsani bilmaganga olib.

Shu tariqa dialogik matn davom ettiriladi. Asosiy qism tugallangach, matnga xulosa yoziladi, tahrirdan so‘ng ish oqqa ko‘chiriladi.

Amaliyot darslarida tilni tizimli o‘rganish, mustaqil matn yaratish ustida muntazam ish olib borilsa, o‘quvchi o‘zi tuzgan uyadosh va ma‘nodosh so‘zlar, dialogik gaplarni tanqidiy kuzatadi, so‘zlardagi ma‘no darajalanishi, ularning o‘xshash va farqli tomonlarini aniqlaydi, zarur o‘rinlarda tuziladigan jumla uchun mos so‘zni topib, almashtiradi. O‘quvchilarda yozma nutqni shakllantirish o‘ta zaruriy didaktik faoliyat bo‘lib, u ona tili ta‘limini modernizatsiyalash [134: 27–29], tilni tizimli o‘rganish, darsga innovatsion texnologiyalarni joriy qilish, og‘zaki va yozma matn tuzish jarayonini jadallashtirish, ilmiy-ijodiy, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish natijasida amalga oshadi.

Ona tilida MYKSH o‘quvchilarda nutqiy layoqatning dinamik rivojlanishi, egallangan bilimlarning bir mavzu doirasida yaxlitlashuvi (integratsiyasi) jarayonida amalga oshadi. Demak, **o‘quvchi matni – ona tili ta‘limida egallangan nutqiy mahoratning muayyan mavzu, maqsad, uslub, shakl, zamon va makonda voqelanishidir.**

– Ko‘p asrlik nutqiy taraqqiyot mahsuli bo‘lgan milliy tilning o‘zaro birikuvchanlik imkoniyatlarini o‘rganish, guruhlash, o‘quvchini tilning semantik xususiyatlarini, yozma nutqdagi imkoniyatlarini anglab etishga, ulardan matn yaratish jarayonida unumli foydalanishga olib keladi. So‘z va tushunchalarning alohida leksik-semantik maydonlarga birlashishi, tuzilgan SBlarning gap mazmuni, yo‘nalishini belgilashga, axborotni tiniqlashtirishga xizmat qilishi – o‘quvchining nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasini belgilaydi. So‘zlardagi ma‘noviy-mantiqiy munosabatlarining buzilishi so‘z birikmalari hosil qilish faoliyatida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Firibgar buzoq, nozikta‘b begemot, maftunkor toshbaqa, mehmondo‘st bo‘ri, qora qor, tog‘lik suv SBleri g‘ayri tabiiydir. Chunki zo‘raki biriktirilgan bunday so‘zlar obyektiv borliq va undagi aloqa-munosabat turlarining voqelanishini to‘g‘ri aks ettira olmaydi. Boshqacha qilib aytganda, mazkur holatda leksik-grammatik me‘yor

buziladi: qoraygan qor bo'lishi mumkin, "qora qor" emas, aqli toshbaqa bo'lishi mumkin, "maftunkor" emas, zotdor buzoq bo'lishi mumkin "firibgar" emas, tog' suvi bo'lishi mumkin, "tog'lik suv" emas [90; 177: 123–125]. Ammo badiiy asarlarda shoir yoki yozuvchilarning shunday so'zlarni xabarning mantiqsizligini isbotlash yoki tasvirni kuchaytirish uchun ko'chma ma'noda qo'llashi (Masalan: tog'da qora qor yog'ibdi, desalar, ishonaman, ammo bu gapga ishonmayman kabi), hazil va yumor maqsadida ishlatishi, leksik-grammatik me'yordan chekinishlari bot-bot uchraydi.

Grammatik birikuvchanlik sintaktik konstruksiya tarkibidagi hokim so'zning o'z semantik belgi-xususiyatlariga mos keladigan muayyan sintaktik pozitsiyadagi tobe so'zlarni talab qilishidir. Grammatik birikuvchanlik qonuniyatlari, hokim so'zning miqdoriy valentligini (necha so'z bilan birika olishi) bilish, grammatik jihatdan tobe so'zning esa qanday shaklda kelishligi, ularning leksik-semantik qurilishi, anglatgan ma'nosini farqlashni talab qiladi [177: 123–125].

So'zlarning leksik-grammatik birikuvchanlik me'yoring buzilishiga olib keluvchi sabablarga misol tariqasida so'zning ma'no darajalarini (graduonomiya) farqlamaslik [105: 18–25], umuman so'z ma'nosini noto'g'ri tushunish, so'zni noo'rin qo'llash kabilarni ko'rsatish mumkin. Leksik-grammatik me'yorning buzilishi oqibatida mantiqan noto'g'ri SBlari yoki uslubiy g'aliz jumlar tuzilishi, matnning mukammalligiga putur etishi mumkin. Ammo ana shu xato, g'alizlik, nomukammallikdan ham suxandonlar o'z o'rnida, mohirona foydalanadilar. Hazil payroviga ahamiyat qiling: *Tarvuzning qoqisi, poydevorning toqisi, chumolining to'yi, bo'rining qo'yi, shoirning boyi, nortuyaning toyi bo'lmas*. O'quvchilarda MYKSH jarayoni yuqorida sanab o'tilgan leksik-grammatik me'yorlarga rioya qilish, nutqiy-lisoniy bilimlardan o'rinli foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Tilni tizimli o'rganishga, to'g'ri gap tuzish layoqatini shakllantirishga qaratilgan mashqlarda asosiy e'tibor adabiy tilning kuchsiz me'yorlariga qaratilishi maqsadga muvofiq, chunki nutq amaliyotida kuchli me'yorlar deyarli buzilmaydi, kuchsiz me'yorlar esa so'zlovchining ikkilanishi va nutqning buzilishiga yo'l ochadi. Masalan, ega va kesimning shaxs va sonda moslashuvi kuchli

sintaktik me'yor bo'lib, u bolalikdanoq kishi ongidan mustahkam o'rin olgan. Shuning uchun hech kim adashib, "Siz... keldim" shaklida jumla tuzmaydi. Qaratqich va tushum kelishiklarining qo'llanishi bilan bog'liq sintaktik me'yorlar esa kuchsiz me'yorlarga misol bo'ladi. Shuning uchun bu me'yorlar chuqur o'rgatilmasa, o'quvchi adashishi, *-ning qo'shimchasi o'rniga -ni, -da o'rniga -ga* qo'shimchasini ishlatishi: *Meni do'stim, maktabga o'qiyman, Samarqandga yashayman (Buxoro, Samarqand shevasi)* tarzida noto'g'ri birikmalar tuzishi mumkin [90: 45-46].

Matnni ifodali o'qish, xikmatli so'z yoki maqolning tarbiyaviy ma'nosi, undagi so'z va SBlarining lug'aviy ma'nosini og'zaki sharhlash mashqlari o'quvchi nutqini ravon qiluvchi, madaniy nutqni shakllantiruvchi qadimiy didaktik vositalardan sanaladi [128; 130: 12-15]. U o'quvchini mustaqil fikrlash, fikr ifodalashda so'zni tanlab ishlatish, to'g'ri hukm va xulosa chiqarishga yetaklaydi. O'quvchi sharhi (nutqi) o'qituvchi va boshqa o'quvchilar tomonidan diqqat bilan tinglanib, unga zarur tuzatishlar kiritiladi. Quyida 7-9-sinf o'quvchilarining so'z boyligi, mustaqil fikrlash, ravon so'zlash, egallangan nutqiy kompetentlikni mustahkamlashga mo'ljallangan o'quv-topshiriqlardan namunalar berildi.

1-topshiriq. Berilgan hikmatlarni monitorga tering. Ifodali o'qing va ajratilgan so'zlarning lug'aviy ma'nolarini sharhlang. Lison ilmidin ogoh bo'lmoqlik – tafakkur javharig'a sayqal bermaklikdir. Poklik, sadoqatning ramzi ayoldir. Ayolga eng nafis bezak hayodir. Ustoz ziyosidan bahramand bo'lgan shogird, quyosh nuridan yashnagan maysadek, yorug'likka, ilmga, mangulikka intiladi.

2-topshiriq. Ajratilgan so'zlarga ma'nodosh (uyadosh, paronimlar, zid ma'noli) so'zlar tanlab, guruhlang, ular ma'nosini sharhlang.

| | | | | |
|------|---------------|--------------|--------------|--------------|
| 2.1. | <i>poklik</i> | <i>ustoz</i> | <i>iffat</i> | <i>lison</i> |
| | tozalik | murabbiy | nomus | til |
| | halollik | tarbiyachi | or, uyat | lahja |
| | to'g'rilik | o'qituvchi | hayo | sheva |
| | sadoqat | pedagog | andisha | dialekt |

2.2. Ma'nodoshlarga zid ma'noli so'zlar toping. Poklik–nopoklik, gunoh, harom, zino; to'g'rilik – o'g'rilik, egrilik, ayyorlik, shumlik, qitmirlilik, muttahamlik, firibgarlik; nomusli – benomus, beor, orsiz, ibosiz; hayoli – hayosiz, behayo, beibo, beandisha, tarbiyasiz.

2.3. Ma'nodoshlarning darajalanishi, o'zaro farqlarini izohlab, tahlil qiling: tozalik - poklik; lison - tasavvur; egrilik - o'g'rilik, to'g'rilik - halollik, sadoqat - vafo, uyat - hayo.

2.4. SBlari hosil qilish mashqlari. Bu mashg'ulot gapning tarkibiy qismlarini tashkil qiluvchi so'z birikmasi (SB) hosil qilish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan: *Ustozning bashorati, hayoli, iboli qiz, o'g'rilikning jazosi, tasavvuf ilmi javohirlari, ijodiy tafakkur mahsuli ilmga intilish mashaqqati va quvonchlari* kabi.

Yuqoridagi tahliliy mashqlar 5–9-sinf o'quvchilarining imloviy-grammatik kompetensiyasini mustahkamlab, og'zaki va yozma nutqini o'stiradi. Mazkur jarayonni matn yaratish, ijodiy fikrlash, so'z tanlash, nutqda so'zni to'g'ri va o'rinli ishlatish, ma'nodosh so'zlar lug'atidan foydalanish, so'z ma'nolarini sharhlash, SBlari hosil qilish, ularni kengaytirish va ixchamlash, xatolar ustida ishlash topshiriqlari bilan boyitish ona tili ta'limi sifatini oshirishda yaxshi natija beradi.

O'qilgan matn asosida bayon yozish. Matn diktofonda o'qiladi. O'quvchi eshitganlarini imlo qoidalariga rioya qilgan holda daftarga (monitorga) yozishi lozim. Har bir o'quvchi o'z xotirasida qolgan voqealar, faktlarni yozma bayon qiladi, yozgan matnini o'qiydi, boshqalari tinglaydi, zarur hollarda tanqidiy fikrlar, takliflar bildiriladi. Til sezgirligini oshiruvchi ushbu topshiriqlarni bajarish o'quvchida so'zni to'g'ri talaffuz qilish, imloviy-nutqiy xatolardan saqlanish, kitobni ifodali o'qish ko'nikmasini shakllantiradi, nutqiy kompetentlikni oshiradi. Matn tarkibiga ibora, maqol, hikmatli so'zlarni kiritish, ular mazmunini og'zaki yoki yozma sharhlash o'quvchida ma'naviy barkamollik, so'z ishlatishga mas'uliyat, o'z fikri, ijodiy tafakkuri mahsulini himoyalash, o'zining haqligini isbotlash layoqatini mustahkamlaydi.

Yuqorida berilgan ijodiy topshiriqlarni muntazam bajarish o'quvchilarni to'g'ri va ta'sirli fikr ifodalashga, adabiy me'yor, mantiq va uslubiyat me'yorlariga amal qilishga o'rgatadi.

O'quvchilar matn yaratish jarayonida xatboshi, MSBlarni o'rinli ishlatish, fikrni batartib, izchil va tushunarli ifodalash kompetensiyasini egallaydilar.

5–6-sinflarda tajriba-sinov uchun maxsus tuzilgan “Matn yaratish topshiriqlari to‘plami” dan foydalanish, o‘quvchini reyting asosida baholash mumkin:

Og‘zaki so‘rov. O‘quvchining *mavzu doirasida so‘z boyligini aniqlash*: Mavzuga oid so‘zlarni guruhlang; mavzuga oid uyadosh so‘zlarni yozing; mavzuga oid ot sifat, son, ravish, fe’llarni ajratib, guruhlang.

SBlari hosil qilish kompetensiyasini aniqlash: Ot + ot, sifat + ot, son + ot, olmosh + ot, ot + harakat nomi, ravish + fe’l qoliplaridan foydalanib, mavzu doirasida SB lari hosil qiling; Berilgan qoliplar yordamida ko‘proq SB lari hosil qiling.

Gap tuzish kompetensiyasini aniqlash: Mavzuga oid sodda va qo‘shma gaplar tuzing; kirish so‘zli dialoglar (sahna asari) tuzing; tuzilgan gaplarni kengaytiring va ixchamlang; uyushiq va ajratilgan bo‘lakli gaplar tuzing; badiiy bo‘yoqdor gaplar tuzing; ulardan she’rqatorlar hosil qiling.

Joriy nazorat. *Matn yaratish kompetensiyasini aniqlash.* O‘rganilgan mavzu doirasida matn tuzing; matnga sarlavha, epigraf tanlang; matnni tarkibiy qismlari kirish, asosiy qism, xulosani ajrating; har uchala qismni kengaytiring.

Yakuniy nazorat. *O‘quvchining nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasini aniqlash topshiriqlari*: mustaqil nasriy yoki nazmiy matn yarating; maqol va hikmatli so‘zlardan foydalanib, matn yarating; matn yaratishda foydalanilgan nutqiy birliklarni nomlab, lug‘aviy tahlil qiling; matnda xalq og‘zaki ijodi, mumtoz adabiyot durdonalaridan foydalaning; matnda ishlatilgan notanish so‘z va atamalar ma’nosini og‘zaki sharhlang (lug‘at asosida); reklama uchun she’riy matnlar, to‘rtliklar yaratish bilan shug‘ullaning. Mazkur topshiriqlar o‘quvchi nutqiy kommunikativ kompetensiyasining uzluksiz takomillashib borishida muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri shuki, unda hikmatli so‘zlar, maqol, matal, topishmoq, so‘z o‘yinlari, istiora, o‘xshatishlar, tasviriy ifodalar benihoya ko‘p. O‘quvchi matn

yaratish jarayonida o'zbek tiliga xos bo'lgan rang-baranglik, jozibadorlik, uslubiy jilolanish, kechirim, kesatiq, hazil, kinoya kabi gapning tubiga yashiringan qo'shimcha ma'nolarni payqashni o'rganishi lozim. Matnni shakllantirishda shunday so'zlarga murojaat qilish muallif fikrini go'zal badiiy tasvirlarda, ixcham va qiziqarli ifodalashga xizmat qiladi. Bunga erishishda bir so'zni ikki ma'noda ishlatishga imkon beruvchi olinma so'zlardan foydalanish, matnni badiiy va lisoniy tahlil qilish texnologiyasi bilan tanishish maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan: *Rosti so'z, bulbul na hojat, garchi qalb xonish qilur*. Mazkur misrada ajratib ko'rsatilayotgan "qalb" so'zini ikki xil ma'noda tushunish mumkin. Birinchi holatda qalb so'zi o'zbekcha "ko'ngil" ma'nosida ishlatilib, *agar ko'ngil kaylayotgan bo'lsa, bulbulga ne hojatigi* ta'kidlansa, ikkinchi holatda "qalb" so'zining forsiyda "qalbaki" "soxta", "yolg'on" tushunchasini ham anglatishi sabab, misradagi "qalb" so'zi yangi mazmun kashf etadi: *Yolg'on xonish qiluvchi bulbulga hojat bormi?* O'zbek she'riyatida shu kabi "so'z o'yinlari" ko'p uchraydi. Nazmiy matnlar ustida ishlashda o'quvchilarni so'z o'yinlari bilan tanishtirib borish, ularda til sezgirligi, zukkolik, so'zga mas'ullik kabi nutqiy layoqat unsurlarining rivojlanishiga sabab bo'ladi. Muqobil lisoniy hodisalarni o'zaro qiyoslash, farqlash, o'z fikrini dalillash 8-9-sinf o'quvchilarida og'zaki nutqni, nutqiy kompetentlikni rivojlantiruvchi, jadal fikrlashga o'rgatuvchi lingvopsixologik topshiriqlar sirasiga kiritiladi. Masalan:

1-topshiriq. Berilgan muqobil topishmoqlarning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rsating. Topishmoqdagi o'xshatish, atama, sheva so'zlarga qarab, ularning taxminan qaysi viloyatlarda ko'proq ishlatilishini ayting. Fikringizni dalillar asosida isbotlang. "*Yer tagida ho'l gavron*", "*Yer tagida yog'li qazi*", "*Yer tagida naqshin arqon*". Bajarish namunasi: Berilgan muqobil topishmoqlardagi asosiy o'xshashlik "yer tagida" birikmasining takrorlanishidir. Ajdodlarimiz ilonning yer tagida yashashiga ishora qilish, uni turli narsalarga o'xshatish orqali topishmoq yechimini murakkablashtirishga, o'smirni o'ylashga, qiyoslash va tanlashga yo'naltirganlar. Qiyoslang: *Yer tagida ho'l gavron, yer tagida yog'li qazi, yer tagida naqshin arqon*. Ilonni gavronga o'xshatish qayishga o'xshatishdan ko'ra aniqroq, chunki gavron (kesilgan, salqinda

soʻltilgan daraxt shoxi, chiviq)ning bosh qismi yoʻgʻon, uchi esa ilonning dumidek ingichkalashib boradi. Shuningdek, ilonning muʼdek tanasi “hoʻl gavron”ga qiyoslanadi. Ilonni qayishga oʻxshatishning mukammalligi shundaki, unda ilon tanasining silliqligi, mustahkamligi, pishiqligiga ishora qilinmoqda. Xalq tilida ilonning “qamchi”ga oʻxshatilishi bilan “argʻamchi” (arqon)ga oʻxshatilishi koʻproq xalqning kasb-koriga bogʻliq boʻladi. Masalan, ot minadigan, uloq chopadigan, chorvadorlar ilonning chayirligi, yaltiroqligini qamchiga, hayvonlarni uyda koʻpaytiradigan hunarmand va kosiblar uni naqshinkor arqonga oʻxshatishi aniq.

Topishmoqdagi oʻxshatishlar ichida “*Yer tagida yogʻli qazi*” oʻzining haqiqatga yaqinligi bilan alohida ajralib turadi. Ilonning goʻshti yogʻli boʻlishi, ularning xalq tabobatida (baʼzi xalqlarda ilon goʻshti toʻyimli, parhez taom hisoblanadi) ishlatilishi va, albatta, er tagida yashashiga ishora qilinganligi topishmoqning mukammalligini taʼminlashga xizmat qilgan.

Quyida 5–9-sinf oʻquvchilari nutqini taʼriflash, sharhlash, izohlash, tasniflash kabi ifoda usullari bilan boyitish, oʻsmirda milliy maʼnaviyat, insoniy qadriyatlarni shakllantirishga xizmat qiluvchi xalq ogʻzaki ijodi, hikmatli soʻzlardan foydalanish namunalari berildi.

1-topshiriq. Maqol va hikmatli soʻzlarni oʻqing. Ular maʼnosini sharhlab, matn yarating.

1. Qoʻyni oshpaz soʻymasin, qassob kapgir tutmasin (Izoh: Har kim oʻz ishini qilsin). 2. Nonvoyga non aziz, tegirmonchiga un (Izoh: Oʻz mehnatingning mahsuli koʻproq qadrlanadi). 3. Shodligimda shunda boʻl, shodlanganing koʻrayin, qaygʻumda qoshimda boʻl, qaygʻurganing bilayin. (Izoh: Haqiqiy doʻst har qanday holatda ham doimo yoningda boʻladi). 4. Qaddu qomat, husnu malohat, ravon nutq zohiriy goʻzallik boʻlsa, sadoqat, vafo, muruvvat, sahovat, kechirimlilik botiniy goʻzallikdir. (Izoh: Insonning goʻzalligi uning tashqi koʻrinishi, ravon nutqidan tashqari, ichki dunyosi, maʼnaviyati, qilyotgan ishlari bilan belgilanadi). 5. Goʻzal nutq sohibi boʻlmoqlik, birni yuz turda anglamogʻu yuzni birga jamlay olmoqlikdir.

Iqtidorli oʻquvchilar uchun ijodiy topshiriq (5–9-sinflar).
Berilgan sheʼriy matnni oʻqing, mazmunini sharhlang. Matnni morfologik tahlil qiling. (Tahlilda 6 oʻquvchi ishtirok etib, har biri

bitta misraning mazmunini sharhlashi, undagi soʻzlarni turkumlarga ajratishi, qofiyadosh soʻzlar tanlashi, ulardan foydalanib, SBlari va yangi sheʼrqatorlar hosil qilish ustida ishlashlari mumkin).

Til va matn

Tasavvurning tavalludi til, matn – izhori tafakkur, bilgil,
Yuz asrlik eman ersa til, matn unda yaralgan hosil.
Til sabab deb olinsa, albat matn turur najot, oqibat,
Hodisa deb qaralsa lison, matn – hukm, xulosa, inon.
Til manbadir, matn – taʼlimot, til boylikdir, matn– taqdimot,
til–targʻibot, matn – tafsilot, til tilsimdir, matn – kashfiyot,
onadir til, matn – zurriyot, til oniydir, matn –barhayot!

UOʻTMning 5–9-sinf oʻquvchilarida nutqiy kommunikativ kompetentlikni shakllantirish – ogʻzaki va yozma nutqda soʻzga masʼullik hissini tarbiyalash, sinfdosh oʻquvchi yaratgan matn yoki sheʼrni diqqat bilan eshitish, uqish, tanqidiy fikrlash, matn mazmuni, qurilishini aniqlashtiruvchi savollar tuzish bilan takomillashib boradi. Chunki toʻgʻri savol, oʻrinli eʼtiroz matnda anglashilmay qolayotgan fakt va dalillarning ochilishi izohlanishiga turtki boʻladi, oʻquvchining mantiqan toʻgʻri xulosalar chiqarishiga yordam beradi.

§ 3.3. Matn yaratishning toʻrt bosqichli moduli – oʻquvchilarda nutqiy kommunikativ kompetentlikni shakllantirish vositasi

Oʻquvchi nutqi – murakkab psixolingvistik jarayonlar mahsuli. U soʻz tanlash, uni analiz va sintez qilish, imlo qoidalarini bilish va qoʻllash, soʻzga, soʻz tanlashga ehtiyoj hosil qiluvchi psixolingvistik topshiriqlar, bevosita va bilvosita nutqiy muloqot asosida harakatga keltiriladi.

Tadqiqotda *tilni tizimli oʻrganish texnologiyasining harakatlantiruvchi mexanizmi* sifatida tavsiya qilinayotgan matn yaratishning 4 bosqichli tizimi “MYBT–4” moduli taʼlimga kompetensiyaviy yondashuv talabiga xos texnologiya sanalib, oʻquvchilarda nutqiy-kommunikativ kompetentlik sifatlarini shakllantirishda muhim

ahamiyat kasb etadi. (Modul – fanning tarkibiy qismlari, ta’lim shakli, ish usuli haqidagi umumiy tushuncha bo’lib, u axborotning nisbiy yakunlangan, mustaqil til birliklaridan tashkil topgan jamlanmasini anglatadi [63: 19–21]).

Tavsiya qilinayotgan “MYBT-4” modulidan matn uchun zarur nutqiy-lisoniy birliklar zahirasini yaratish, undan matn tilini boyitish, mazmuni takomillashtirish, matn sifatini kafolatlashda foydalanish mumkin. U o’quvchining ongosti tafakkurini boshqarishga, uzluksiz izlanish, qiyoslash va tanlashga, mustaqil matn yaratishga yetaklovchi ijodiy topshiriqlardan tarkib topgan neyrodidaktik texnologiyalar tizimidir.

2000/2016-yillar davomida olib borilgan tajriba-sinov ishlari, ilmiy tadqiqot ishining asosiy natijasi, matn yaratishning innovatsion texnologiyasi sifatida tavsiya qilinayotgan matn yaratishning to’rt bosqichli tizimi “MYBT-4” moduli – inson bosh miyasida fikrning paydo bo’lishi, tafakkur va tasavvur integratsiyasi, individual nutqning maqsadli kognitiv-progmatik boshqaruv asosida matnda moddiylashuviga asoslangan. “MYBT-4” moduli zamonaviy didaktikada ustuvor mavqeni egallab turgan ta’limga kompetensiyaviy yondashuv, mustaqil ta’lim, o’quvchi shaxsiga psixolingvistik yondashuv, darsda o’quvchi subyekti ustuvorligi, ijodkorlik, izlanuvchanlik motivatsiyalarini kuchaytirish zaminiga qurildi. U o’quvchi so’z boyligi, imlo savodxonligi, grammatik-sintaktik bilimlari, mustaqil fikr ifodalash mahsulini 4 bosqichli tizimda, o’zaro uzviylik va uzluksizlikda izchil rivojlantirishga qaratildi. Modul mexanizmi tanlangan so’z va tushunchalarning lug’aviy ma’nolarini sharhlash asosida nutq o’stirish, so’zlarni to’g’ri yozish zaminida imlo savodxonligini mustahkamlash, o’quvchilarda og’zaki va yozma fikr ifodalash ko’nikmasini rivojlantirish, mustaqil matn yaratish kompetensiyasini rivojlantirish va malakaga aylantirish vazifasini bajaradi.

“MYBT-4” moduli o’quvchilarda tilni tizimli o’rganish, MYKSH, nutqiy kompetentlikni shakllantirish, aniqlash va rivojlantirishda til imkoniyatlaridan foydalanishga qulay sharoit yaratuvchi neyrodidaktik texnologiya vositasidir.

“MYBT-4” moduli (qarang, 3.1-rasm) pastdan yuqoriga qarab harakatlanuvchi 4 ta alohida til sathlari-nutqiy komponentlar

jamlanmasidan iborat bo'lib, ular o'quvchi subyektining muayyan til bo'limidagi kompetentlik (o'z bilimlarini zarur vaziyatlarda qo'llay olish layoqati) darajasini aniqlovchi ko'p topshiriqli test vazifasini bajaradi.



| | | |
|--|--|---|
| 1-bosqich (ST) | | So'z tanlash kompetensiyasini shakllantirish. |
| 2-bosqich (SB) | | So'z birikmasi hosil qilish kompetensiyasini shakllantirish. |
| 3-bosqich (GT) | | Gap tuzish kompetensiyasini shakllantirish. |
| 4-bosqich (MYa) Nutqiy- tafakkuriy Integra-tsiya Jarayoni | | Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish. MYKSII jarayonida o'quvchining nutqiy kompe-tentlilik darajasini aniqlash |

3.1-rasm. Matn yaratish kompetensiyasining "MYBT – 4" moduli sathlarida moddiylashuvi jarayoni.

Modulning uzluksiz harakatdagi mexanizmi psixolingvistik topshiriqlar vositasida o'quvchini so'z tanlash, so'zlarni to'g'ri yozish, ularning lug'aviy ma'nolari, farqli va o'xshash xususiyatlarini sharhlash (nutq o'stirish), ulardan SBlari hosil qilish, gap yoki she'rqatorlar tuzishga yo'naltiradi, matn yaratishda tilning nutqiy imkoniyatlaridan foydalanishga qulay sharoit yaratadi.

"MYBT-4" modulining asosiy didaktik vazifasi – o'quvchining xotira, idrok, tafakkur va tasavvur kuchidan foydalanib, nutqiy integratsiyani amalga oshirish, tilning nutqda moddiylashuv jarayonini tizimlashtirish, o'quvchi lug'at doirasi, og'zaki muloqotni kengaytirish, imlo savodxonligi, gap tuzish va matn yaratishda uzluksizlikka amal qilish, adabiy me'yor doirasida jadal, to'g'ri, ixcham, ravon matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. "MYBT-4" tizimida ishlash o'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasining bosqichli ketma-ketlikda, jadal va tizimli rivojlanishi, haqiqiy malakaga aylanishiga qulay shart-sharoit yaratadi.

Modulning 1-bosqichida mavzuga mos tayanch so'zlar tanlash (matn uchun lug'aviy manba zahirasini yaratish), so'zlarning fonetik, leksik-grammatik, lug'aviy ma'nolarini sharhlash bilan shug'ullanilsa, 2-bosqichda tanlangan so'zlar ishtirokida SBlari tuzish, ularni kengaytirish va ixchamlash, mavzuga mos ibora va tasviriy ifodalar tanlash [17], 3-bosqichda esa mavjud SBlari ishtirok etgan sodda va qo'shma gaplar tuzish, gapni kengaytirish va ixchamlash, badiiy bo'yoqdor gaplar, she'rqatorlar tuzish bilan shug'ullaniladi. So'nggi 4-bosqichda 1-3-bosqichlarda jamlangan manbalar asosida matn yaratiladi. "MYBT-4" modulini mustaqil fikrlash, fikrni og'zaki yoki yozma ifodalash kompetensiyasini til sathlari aro aloqadorlikda shakllantirishga xizmat qiluvchi, *to'rt bosqichli til o'rganish mexanizmi* deb ham atash mumkin. Modul topshiriqlari o'quvchida xususiyan umumiyga qarab borish: so'z tarkibi (tovush, bo'g'in, asos, qo'shimcha), so'z birikmasi tarkibi (tobe so'zlarning kengayishi), gap tarkibi (so'z, atama, so'z birikmasi, ibora va tasviriy ifodalar); gap bo'laklari (ega, kesim, aniqlovchi, to'ldiruvchi hol); matn tarkibi – gap, xatboshi, MSB, matnning shakllanganlik, mazmuniy tugallik belgilari (kirish, asosiy qism, xulosa) haqida amaliy bilimlar hosil qilish, ularni yozma nutqda qo'llash

kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiluvchi texnologik usullar to'plamidir.

O'quvchi tomonidan egallangan nutqiy kompetentlik, til va nutq imkoniyatlarining "MYBT-4" moduli sathlarida moddiylashuvi jarayoni ko'rsatilgan chizma 2 qismdan iborat: 1-qismda tilni tizimli o'rganish, nutqiy kompetentlik unsurlarini bosqichli egallash va rivojlantirish, matn yaratish kompetensiyasini egallashning 4 bosqichli moduli chizmasi berilgan. Chizmaning 2-qismi modul komponentlarinin bosqichli ketma-ketligi, o'zaro farqini ifodalash uchun ishlatilgan ramz-belgilar izohiga bag'ishlangan.

Modulning birinchi bosqichidagi oq, ko'k, qizil, sariq, yashil rangli kichik doirachalar mavzuga oid tayanch leksemalar bo'lib, ular turkumlarga bo'linishi, nom, belgi, miqdor, harakat va holat ma'nolarini anglatishi bilan o'zaro farqlanadi. Ularning qo'llanish doirasi keng, tayanch so'z miqdori qancha ko'p bo'lsa, o'quvchida so'z tanlash imkoniyati shuncha kengayadi. Modulning ikkinchi bosqichidagi uchburchak va ko'pburchak belgilar so'z birikmasi (SB) ramzini anglatadi. Unda birinchi bosqichda jamlangan tayanch uyadosh so'zlardan foydalanib 2-5 so'zdan iborat sodda yoki murakkab SBlari hosil qilinadi. Modulning yashil rangdagi uchinchi bosqichi esa o'quvchilarda gap tuzish kompetensiyasini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Doira ichiga joylashtirilgan naqshli to'rtburchak belgilar ohang va fikr tugalligi, shaxs-son va zamon ma'nosiga ega mustaqil gaplar ramzidir.

Modulning to'rtinchi bosqichi yashil va sariq fondan iborat bo'lib, yashil fonga tartib bilan joylashtirilgan naqshli to'rtburchaklar qatori izchillik, o'zaro uzviylik va uzluksizlikda ifodalanayotgan gaplar tizmasi, tugallangan mazmun, uslub, shakl, zamon va ma'kon xususiyatiga ega axborot – MATNni ifodalashga xizmat qiladi. Modulning to'rtinchi bosqichida yaratilgan matn – o'quvchining so'z boyligi, imlo savodxonligi, mustaqil fikrlash va matn yaratish mahorati, nutqiy kompetentlik darajasini belgilovchi mezondir.

Rasmning ikkinchi qismi 1-4-bosqichlarda bajariladigan mustaqil ishlar, matnni shakllantirish jarayonida amalga oshadigan psixologiyistik jarayonlar izohidan tashkil topgan.

"MYBT-4" moduli o'quvchi ongida nutqiy kompetentlikning shakllanish dinamikasi hamda ijodiy tafakkur integratsiyasini

tartibga solish, egallangan nutqiy kompetentlik darajasi va sifatini mustaqil aniqlash, nazariya va amaliyotni, tasavvur va tafakkurni uyg'unlikda rivojlantirish mexanizmi sifatida respublikamizda ilk bora ona tili ta'limi amaliyoti uchun tavsiya qilinmoqda.

Mazkur modul o'quvchini matn yaratish faoliyatiga bosqichma-bosqich tayyorlash, uni zaruriy tayanch bilimlar bilan qurollantirish (yaratilajak matn uchun zarur xom ashyo – so'z va atamalar, SBlari, ibora va tasviriy ifodalar, gaplar tuzish) – til imkoniyatlaridan foydalanishga keng yo'l ochishi bilan muhim ta'limiy ahamiyat kasb etadi.

“MYBT–4” moduli uzluksiz tarmoqlanuvchi va yaxlitlanuvchi integrativ ta'lim tizimiga, 4 bosqichli innovatsion ta'lim texnologiyasiga asoslangan bo'lib, o'quvchining bog'lanishli nutqi va matn yaratish kompetensiyasini uzluksiz shakllantirish va rivojlantirish imkoniyatiga ega. U o'quvchini mustaqil izlanishga, jadal va tizimli fikrlashga, fikrni qisqa, to'g'ri, ravon ifodalash, individual uslubning shakllanishi, tanqidiy tafakkur rivojini ta'minlaydi, o'quvchining matn yaratish faoliyatiga tayyorlaydi va unda nutqiy kommunikativ kompetentlik maqomini mustahkamlaydi.

Quyida modul bosqichlarida bajariladigan leksik-grammatik topshiriqlar tizimi berildi (3.3- jadvalga qarang). Unda til bo'limlarini o'rganishda “MYBT–4” modulidan foydalanish dasturi, tartibi, modulni ona tili ta'limiga tatbiq etishning tizimli texnologiyasi, bajariladigan ijodiy va mustaqil ishlar ro'yxati berildi. Unda modulning to'rtta alohida bosqichi, har bir bosqich uchun alohida ishlab chiqilgan o'quv-topshiriqlar tizimi mavjud. Mazkur topshiriqlar ko'proq avval o'rganilgan mavzuga oid tayanch so'zlar tanlash faoliyati bilan boshlanadi.

Ma'lumki, umumiy o'rta ta'limning 5-sinflarida fonetika bo'limi chuqur o'rganiladi. Bunda o'qituvchi o'rganilayotgan mavzuga mos o'quv topshiriqlarini tanlaydi va shu mavzuga mos so'zlar topish, undagi tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishni taklif qiladi. Tilni tizimli o'rganish texnologiyasida esa berilgan nutq tovushlari yordamida turli so'zlar hosil qilish, ularning lug'aviy ma'nosini sharhlash, ulardan SBlari va gaplar tuzish, ya'ni til sathlari aro aloqadorlik tamoyili vositasida o'quvchi nutqini o'stirish, ravonlashtirish, imlo savodxonligini ta'minlash mumkin (qarang, 7-

ilova). Shu jarayonda soʻzning lugʻaviy maʼnosi, etimologiyasi, qaysi soʻz turkumiga qarashlilikini sharhlash, tanlangan soʻzlardagi unli va undosh tovushlar, ochiq va yopiq boʻgʻinlar sonini aniqlash bilan shugʻullaniladi. Modul texnologiyasi oʻrganilgan mavzuni amaliyotga tatbiq etish, fonetikaga oid bilimlarni mustahkamlashdan tashqari, oʻquvchi soʻz boyligining oshishi, bogʻlanishli nutqning toʻgʻri shakllanishiga yordam beradi. Modulning I-bosqichida bir qator toʻgʻri talaffuz, lugʻat boyligini oshirish, nutq oʻstirishga qaratilgan topshiriqlar tizimi, fonetikani oʻrganishda leksikologiya va morfologiyaga oid topshiriqlardan unumli foydalanish (sathlararo aloqa), tovushlardan soʻzlar yasash, soʻzlardagi unli va undosh tovushlar, boʻgʻinlar soni, ochiq yoki yopiq boʻgʻinni aniqlash, soʻzlarning xususiy turlarini topish. Masalan: sholi – guruch, guruchning turlari: alanga, kenja, devzira, assorti, mustaqillik, gʻalaba, lazer. Turning xususiyatlarini qiyosiy sharhlash, ular ishtirokida SBlari hosil qilish bilan shugʻullaniladi.

Leksikologiyani oʻrganishda esa morfologiya va sintaksisga oid topshiriqlardan erkin foydalanish, berilgan soʻzga uyadosh va maʼnodoshlar topish, ulardagi maʼno darajalanishi hodisasini sharhlash; berilgan soʻzga zid maʼnoli soʻzlar topish va ularning lugʻaviy maʼnolarini sharhlash, shuningdek, berilgan shakldosh soʻzga maʼnodoshlar tanlash (oʻt – maysa; oʻt – olov; oʻt – harakat: sakrash, aylanib oʻtish; “oʻt–oʻt” – koʻchma maʼnoli, jargon soʻz: gapirma, ket, nari tur, koʻzimga koʻrinma kabi nafrat, koyish, tergash, buyurish semalariga ega) va ularni qiyosiy tahlil qilish mumkin. Modulning I-bosqichi tilning uch sathiga fonetika, leksika va morfologiyaga oid nazariy bilimlarni toʻgʻri talaffuz, imlo, lugʻat boyligini oshirish kabi nutqiy bilimlar bilan oʻzaro uygʻunlikda oʻrganishga, mustaqil fikrlashga, nutq oʻstirishga – nutqiy kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga xizmat qiladi. Masalan:

1. Berilgan unli va undosh harflar yordamida koʻproq soʻz yasang, shakldosh soʻzlarda maʼno oʻzgarishini sharhlang. *i, o, s, t, u, r*;

Namuna: is, it, ur, os, ot, or, ori, oti, osti, sot, sut, sur, rus, sor, tus, tur, tir, rost, ost, tort, turt; Sharh: Is₁–biror narsa, buyum, oʻsimlik, jonli mavjudotdan taralayotgan boʻy, hid: atirning, taomning, yaxshilikning, toʻyning (koʻchma maʼno isi (hidi).

5-9-SINF O'QUVCHILARI UCHUN MYBT-4 MODULI TOPSHIRIQLARI TIZIMI

| Tayanch so'zlar tanlash | So'z birikmasi hosil qilish | Gaplar tuzish | Matn yaratish |
|---|--|--|---|
| 1-bosqich | 2-bosqich | 3-bosqich | 4-bosqich |
| <p>Berilgan so'zga: uyadoshlar: daraxt–tol, terak, limon; ma'nodoshlar: odam– inson, shaxs, kishi; zid ma'noli so'zlar: bor- yo 'q, qur-buz, tor-keng; shakldosh so'z- ga ma'nodosh- lar: o't-maysa, ko'kat, pichan, xashak; o't – olov, otash, alanga; o't – ichki a'zo; o't – sakra, hatla, kel (uyga o't). "o't- o't" – sal biy ma'no), yaqinlas hma; paronimlar afzal – abzal; ma'nodosh iboralar:</p> | <p>Berilgan so'z bilan: «ot+ot» (<i>tosh</i> <i>uy</i>, shahar bog'i); olmosh+ot» (shu ish, o'z uyim); «sifat+ot» (oq kema, tiniq suv); «ot+ fe'l» (ko'z ochmoq); «son+ot» (<i>besht o'g'il</i>, <i>uchinchi</i> <i>uy</i>); «ot+sifat -dosh» (<i>ot</i> <i>mingan</i>, <i>tosh</i> <i>kesgan</i>); «ot+ fe'l+ ar» <i>quloq</i> <i>tishlata</i>r va hk. qolipli SB lari tuzing. Egalik, shaxs- son, kelishik</p> | <p>Tuzilgan so'z birik - malaridan: sodda yoyiq va sodda yig'iq, kirish so'z va kirish gapli, sodda va qo'shma gaplar hosil qiling; ko'chirma va o'zlashtirma gaplar tuzing; monolog yoki dialog yozing; she'r-qatorlar tuzing; bir gapni turli ohangda (<i>xabar</i>, <i>so'roq</i>, <i>buyruq</i>, <i>undov</i>) talaffuz qiling; ixcham gapni kengaytiring; qo'shma gap- ni ixchamlang; uyushiq bo'lakli gaplar, she'r-qatorlarni bo'yoqdor,</p> | <p>Tuzilgan gaplar (she'rqator) dan foydalanib mo-nologik matnlar (kichik matn, ixtisosiy, ijodiy, publitsistik, rasmiy, badiiy- ramziy matnlar, hikoya, testlar) tuzing, erkin insho yozing, maqol, topishmoq, hikmatli so'zdan foydalaning; dialogik matn- lar: suhbat, sahna asari, intervyu tuzing(iqtido</p> |

| | | | |
|--|--|---|--|
| <p>qo‘rqdi –<i>kayfi uchdi, rangi o‘chdi, lom-mim demadi;</i> tasviriy ifodalar: <i>paxta – oq oltin, neft – qora oltin;</i> o‘zakdoshlar: <i><u>bil</u> – <u>bilim</u>, <u>bilimli</u>, <u>bilimdon</u>, <u>bilimdon-lik</u>;</i> qo‘shimchadoshlar: <i>qishlik, tushlik, qumlik, ochlik, tezlik, shodlik;</i> qofiyadoshlar: <i>oladi-soladi, toladi, tiladi, biladi, kuladi;</i> ters so‘zlar: <i>mosh-shom, zum-muz, mot-tom</i> kabi so‘z-lar topish, guruhlash, tanlash va lug‘aviy ma’nosini sharhlash asosida so‘z boyligini oshirish, nutqiy kompetentlikni ta’minlashga erishiladi.</p> | <p>qo‘shimchalari bilan SBlari hosil qiling: <i>bizning eski ko‘cha-miz, oy ertagi;</i> 2.2. SBlarini kengaytiring: <i>bolaligimiz o‘tgan, shottutlari g‘arq pishgan, qadrdon...</i> So‘zni iboralar bilan almashtiring: <i>sodiq – bir mayizni teng bo‘lib eydi; indamadi – og‘-ziga suv solib oldi; epchil-yulduzni benarvon uradi, firibgar –suvdan quruq chiqadi</i> kabi ijodiy topshiriqlar yordamida nutqiy kompetentlik mustahkamlanadi.</p> | <p>sodda, ixcham gaplarga aylantirib ko‘ring; gaplar va she‘riy misradagi so‘zlarning o‘rnini almashtiring (inver-siya); gapni maqol, hikmatli so‘z bilan boyiting; kirish so‘zli, undalmali, uyus hiq bo‘lakli, ajratilgan bo‘lakli gaplar tuzing; boshlanish yoki so‘nggi qismi berilgan gapni davom ettiring; gapni avval kengaytirib, keyin ixchamlang kabi uslubiy topshiriqlar vositasida o‘quvchida gap tuzish kompetensiyasi shakllanadi, taraqqiy etadi.</p> | <p>rli o‘quvchilar ertak hikoya, she‘riy to‘rtlik va sakkiz-liklar yozishi mumkin. Matn qurilishi (MSB xatboshi), uslub: ilmiy, badiiy, rasmiy, so‘zlashuv, publitsistik, mukammalligi: kirish, asosiy qism va xulosaning mavjudligi; ijodiy tafakkur: matn uchun epigraf, sarlavha, iqtibos tanlash; imlo, uslub: matnni tahrir va tahlil qilish orqali MYKSH amalga oshadi</p> |
|--|--|---|--|

Is₂ – uy (molxona, erto‘la) shipidagi o‘rgimchak to‘riga qo‘ngan chang, bug‘, namlik, chang- g‘ubordan og‘irlashib, osilib qolgan, ipsimon hosilalar. *Leksikologiya*: Berilgan so‘zga uyadoshlar (ma‘nodosh, zid ma‘no, shakldosh, paronim) tanlang, ularni so‘z turkumlari bo‘yicha guruhlang, grammatik belgi xususiyatlari: turlanish, tuslanish, shaxs-soni, zamon va makoni, gapda ishlatilish vazifasini aniqlang: “*Kul*”.

“MYBT-4” modulining 2-bosqichi o‘quvchining so‘z birikmasiga oid sintaktik bilimlarini shakllantirishga qaratilgan. U tayanch so‘zlarni o‘zaro birlashtirish, oddiy so‘z va SBlarni tasviriy ifodalar bilan almashtirish (mas: epcil – “yulduzni benarvon uradi”, qo‘rqoq- “chumchuq pir etsa..”) o‘quvchi tafakkuri, nutqini ravonlashtiradi, lisoniy-nutqiy integratsiyani jadallashtiradi, egallangan nutqiy kompetentlik darajasini uzluksiz rivojlantirishga imkon yaratadi. SB-lari tuzishga oid topshiriqlar, mustaqil ishlarni bajarish, tayyor nutqiy hosilalarga ega bo‘lish imkoniyatini beradi. SB-larini kontekst talabiga ko‘ra, o‘rinli ishlatish kompetensiyasining barqarorlashuvi jumlani tez va to‘g‘ri tuzishga yordam beradi. Rang-barang shakl va mazmundagi SB-lari tuzishni bilgan o‘quvchining qiyinchiliksiz gap tuza olishi, tezkor matn yaratishi 9-, 17-, 13-, 84-, 10-, 16- umumta‘lim maktablarida o‘tkazilgan tajriba-sinovlar jarayonida ma‘lum bo‘ldi.

Modulning 2-bosqichi mavzuga mos uyadosh va ma‘nodosh SB-lari hosil qilish, kengaytirish, ixchamlash, grammatik, sintaktik bilimlarni mustahkamlash, nutq o‘stirishga qaratilgan. M: 1. Berilgan so‘z ishtirokida uyadosh SB-lari hosil qiling. *Uy*. 2. SB-larning lug‘aviy ma‘nosi, grammatik qurilishini sharhlang, ularning o‘zaro bog‘lanishi, o‘xshash va farqli tomonlarini ayting 3. Mavzu talabiga ko‘ra SB-larini kengaytiring va ixchamlang, zaruriy fikr elementini bo‘rttirish, mazmunni tiniqlashtirishga harakat qiling. 4. Ma‘nodosh tasviriy ifoda va iboralar tanlang. Uyadosh va ma‘nodosh SB-lar qatorini tiklang, o‘zaro qiyoslang va sharhlang. Mavzuga mosini ajrating.

“MYBT-4” modulining 3-bosqichi o‘quvchilarning mustaqil fikrlash, gap tuzish faoliyatini takomillashtirish, gap mazmunini bo‘yoqdor so‘zlar, tasviriy ifodalar, sana, fakt va dalillar bilan boyitish, takror so‘zlardan tozalash, fikrni izchil, aniq va tushunarli

ifodalash kabi nutqiy-me'yoriy kompetensiyalarning uzluksiz shakllanishi va takomillashib borishiga xizmat qiladi. O'quvchida qisqa, to'g'ri, ravon gap tuzish kompetensiyasining shakllanishi nutqiy kompetentlikning rivojlanishi, mustahkamlanishi, nutqiy mahorat ko'rsatkichlarining o'sib borishiga sabab bo'ladi. O'quvchida suxandonlik kompetensiyasi shakllana boshlaydi, unda o'z nutqiy qobiliyatini namoyish qilish ishtiyoqi uyg'onadi. Bu esa o'qituvchining kasbiy mahoratidan, hamkorlik pedagogikasi natijalaridan, o'quvchi ongidagi ijobiy o'quv motivlarining ustuvorligidan dalolatdir.

Shuningdek, modulning 3-bosqichida quyidagi uslubiy-sintaktik kompetensiyalar egallanadi: mavzuga oid sodda, qo'shma, darak, so'roq, undov, gaplar, dialoglar tuzish bilan shug'ullaniladi, leksikologiya, sintaksis, uslubiy imkoniyatlaridan foydalanib, o'quvchining og'zaki yoki yozma nutqi takomillashtiriladi. Modulning 1-2-bosqichlarida shakllangan nutqiy birliklar: so'z, atama, SBlaridan *kontekstga mosini tanlash asosida* gap tuzish, gaplarni (maqol, matal, hikmatli so'z, ibora va tasviriy ifodalar yordamida) takomillashtirish ustida ishlash mumkin.

Quyida 5–9-sinflar uchun modulning 3-bosqichida bajariladigan topshiriqlarga qo'shimcha variantlar tavsiya qilindi: 1. Jamlangan SBlari ishtirokida sodda yoyiq gaplar tuzing. 2. Uyushiq bo'lakli, kirish so'zli, undalmali gaplar tuzing. 3. Badiiy bo'yoqdor gaplardan she'rqatorlar hosil qiling yoki aksincha, she'rni nasrga aylantiring. 4. Mavzuga oid hikmatli so'zlar, maqol va matallar, turli topishmoqlar toping. 5. Badiiy bo'yoqdor gaplar, qofiyadosh so'zlar, o'zaro o'xshash SBlaridan foydalanib, she'rqatorlar tuzing. 6. Bir gapni turli ma'noda (xabar, so'roq, buyruq, undov) talaffuz qiling va uni yozma ifodalang. 7. Sodda gaplarni kengaytirib, qo'shma gaplarga aylantiring va aksincha, qo'shma gaplarni sodda, uyushiq bo'lakli gaplarga aylantiring. 8. Ko'chirma gaplar tuzing va ularni o'zlashtirma gaplarga aylantiring. 9. Ixcham gaplarni kengaytiring, qo'shma gaplarni ixchamlang. 10. Gap yoki she'riy misradagi so'zlarning o'rmini va o'zini almashtirib ko'ring. 11. Gaplarga tasdiq, xafalik, xursandlik, inkor, zidlanish, hayrat, taajjub, shubha, gumon ma'nosini yuklovchi modal so'zlarni kiriting. 12. Gapni morfologik tahrir qiling.

Modulning 3-bosqichi mavjud SBlari, tilning nutqiy imkoniyatlaridan foydalanib, turli mazmundagi sodda va qo'shma gaplar, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar, she'rqatorlar tuzish uchun mo'ljallangan. O'quvchilar bu bosqichda badiiy bo'yoqli, kirish so'zli, ajratilgan uyushiq bo'lakli, adabiy me'yor qonuniyatlariga asoslangan sodda va qo'shma gaplar tuzish kompetensiyasini egallaydilar va shu bilan modul tizimida matn yaratishga tayyorlanish faoliyati o'z nihoyasiga etadi.

“MYBT-4” modulining 4-bosqichi o'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishga yo'naltirilgan. Modulning bu bosqichida “MYBT-4” ning universal mexanizmi to'liq ishga tushadi, 1-3-bosqichlarda jamlangan nutq birliklari: so'z, SB, tasviriy ifoda, ibora, gaplar qayta o'qilib, matnga reja tuziladi. Matn adabiy me'yor asosida shakllantirilib, kichik matn yaratiladi. O'quvchi 3-bosqichda tuzilgan sodda va qo'shma gaplar, she'rqatorlarni tanqidiy nuqtai nazar bilan kuzatish, ular ma'nosini anglash, matn qismlari (kirish, asosiy qism, xulosa)ga mos keladigan gaplarni tanlash, guruhlash, ulardan foydalanib, monologik matnlar (xabar, maktub, tasvir, kichik insho, kichik matnlar, rasm-tasvir matnlari, ixtisosiy, rasmiy matnlar tuzish, slaydlar, grammatik jadval va chizmalar tasnifi bilan shug'ullanish, badiiy-ramziy matnlar, she'riy to'rtliklar) yozish, dialogik matnlar (kichik sahna asari, publitsistik chiqishlar, turli bayram va tadbirlar, sahna ko'rinishi uchun duet, dialoglar) yaratish, ularni o'qituvchi yordamida tahrir va tahlil qilish bilan shug'ullanadilar. Shuningdek, iqtidorli o'quvchilar o'zlari yaratgan gap va she'rqatorlar, so'z birikmalari, ibora va tasviriy ifodalardan foydalanib, kichik sahna asari, test topshiriqlari, hikoya, ma'rifiy, ilmiy-ixtisosiy matnlar yaratishlari, bolalar uchun she'riy to'rtlik va sakkizliklar yozishni mashq qilishlari mumkin. Tayyor matnning qoralamasi imloviy-uslubiy tahrirdan so'ng oqqa ko'chiriladi. Shu tariqa, “MYBT-4” modulining to'rtinchi bosqichi o'quvchini ijodiy izlanish, kashf qilish, badiiy bo'yoqdor gaplar tuzish, matn uchun sarlavha va epigraflar tanlashiga imkon beradi, o'quvchi ongida o'z bilimiga bo'lgan ishonchning ortishi, ijobiy o'quv motivlarining tug'ilishi va takomillashib borishiga sabab bo'ladi. Bu esa egallangan nutqiy kompetentlik darajasining modul tizimida aks etishi, moddiylashuvi va yaxlitlashuvi natijasidir.

Ona tili darslarida modul tizimida ishlash o'quvchini mavzu doirasida erkin, izchil va keng qamrovli fikrlashga o'rgatib, til birliklaridan samarali foydalanishga yo'l ochadi, o'quvchida nutqiy barkamollik, tezkor fikrlash, madaniy muloqot, qiziqarli matn yaratishga intilish kabi ijobiy o'quv motivlarining barqarorlashuvi – nutqiy kommunikativ kompetentlikning shakllanishiga sabab bo'ladi.

"MYBT-4" moduli – mustaqil ta'limni amaliyotga tatbiq etish, tilni tizimli o'rganish texnologiyasi. U o'quvchi ongosti tafakkurini sistemali boshqarish, nutqiy kommunikativ kompetentlikni mustahkamlashga imkon beruvchi universal tizimdir. O'quvchi modul topshiriqlari yordamida ona tili darslarida egallagan BKMLaridan unumli foydalanish, tanqidiy fikrlash, o'zi yaratgan matndagi kamchiliklarni vaqtida sezish va mustaqil bartaraf qilishni o'rganadi, o'z fikrini guruh oldida turib himoya qilishga odatlanadi.

Tajriba-sinov jarayonida modul topshiriqlari bilan ishlagan o'quvchilarda o'z ishiga tanqidiy nazar bilan qarash, o'z fikrining isbotini topish uchun darslik va izohli lug'atlarga murojaat qilishning odatga aylanishi kuzatildi. Modul tizimida fikrlash o'quvchi ruhiyatiga, uning yozma fikr ifodalashiga ijobiy ta'sir o'tkazib, ishning natijasini kafolatlaydi, o'z-o'ziga ishonchni mustahkamlaydi (*Men matn yaratishim kerak. Men matn yarata olaman. Men albatta matn yarataman! Men hammadan yaxshi, qiziqarli matn yarata olaman! Matnimda kam so'z ishlatib, keng mazmun ifodalashga erishaman, uni sinfdoshlarimga o'qib beraman! va hk.*). O'quvchi o'z nutqiy mahorati, egallagan grammatik kompetensiyasini modul topshiriqlari vositasida o'zi sinab ko'radi, o'z-o'zini baholaydi, o'z xotirasi, idroki va tafakkuri doirasida aniq bir maqsadga – nutq madaniyatini egallash, mukammal matn yaratish, o'z nutqiy salohiyatini boshqalarga namoyish qilishga intiladi.

MYKSH texnologiyasini harakatga keltiruvchi mexanizm – "MYBT-4" modulining *individuallik* xususiyati shundaki, o'quvchi undan tom ma'noda mustaqil foydalanishi, darsdan tashqari paytda bironing yordamisiz, o'zi istagan mavzuda nasriy yoki nazmiy matn yaratish ustida ishlashi mumkin. Modul mexanizmi shunday qurilganki, unda jahondagi barcha mil vakillari o'z ona tili va boshqa tillarni o'rganishi, nutq o'stirishi, matn yaratishning turfa usullarini

egallashi, o'zi egallagan nutqiy kompetentlik darajasini o'zi aniqlashi va baholashi mumkin.

Modulning *qamrovliligi* shundaki, u o'quvchiga ham, o'qituvchiga ham bir xilda zarur. O'qituvchi uning yordamida o'quvchi bilimini nazorat qilish, bajarilgan ishni aniq parametrlar asosida baholash, o'quvchining so'z boyligi, nutqiy kompetentlik darajasini aniqlash va rivojlantirish imkoniga ega bo'lsa, o'quvchi modul topshiriqlari vositasida tilni tizimli o'rganish, mustaqil va ijodiy fikrlash, nasriy yoki nazmiy matn yaratishning innovatsion texnologiyasidan mustaqil foydalanish o'z nutqiy mahoratini takomillashtirish imkoniyatiga ega bo'ladi. Matn uchun yordamchi zahira: so'z, atama, so'z birikmasi, ibora, tasviriy ifodalarni o'zi tanlaydi, SBning mohiyati, hosil qilinishi, sintaktik-semantik imkoniyatlari, gapdagi o'rni va ahamiyatini anglaydi, so'zdan kontekst talabiga, nutqiy vaziyatga qarab foydalanish kompetensiyasini egallaydi. "MYBT-4" moduli tizimida ishlash tartibini (nutqiy birliklarni guruhlash, qiyoslash, farqlash va tanlash, gapda qo'llash mexanizmini) to'liq o'rganib olgan o'quvchi, nutqiy kompetentlikni mustaqil shakllantirish, fikrni badiiy ifodalash imkoniyatini ham qo'lga kiritadi-ki, bu o'quvchiga nasriy va nazmiy matnlar yaratishda juda asqotadi.

O'quvchining she'riy matn yaratishga urinishi modulning birinchi bosqichidan, "qofiyadosh" so'zlar tanlashni o'rganishdan boshlangani ma'qul.

Tavsiya qilingan modulning tajriba-sinov jarayonida aniqlangan yana bir ta'limiy-rivojlantiruvchi xususiyati shundaki, uning har bir bosqichi mustaqil me'yoriy ko'rsatkichga ega bo'lib, o'qituvchi ulardan dars maqsadiga ko'ra yaxlit yoki alohida holda foydalanishi, yozma nazorat ishlari o'tkazishi mumkin. Aslida ham o'qituvchi "MYBT-4" ning ta'limiy imkoniyatlaridan mavzu talabi, o'quvchi bilimi, nutqiy qobiliyatiga qarab foydalanishi maqsadga muvofiq. Masalan, o'quvchi so'z boyligini oshirish va boyitish maqsadida, nutq o'stirishda, yangi mavzuni mustahkamlashda, o'tilganlarni takrorlashda, berilgan mavzu doirasida matn yaratishda, o'quvchining ona tilidan egallagan nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasini aniqlash va baholashda foydalanishi mumkin.

“MYBT–4” universal matn yaratish modulidan umumiy o‘rta ta’lim maktabining rus tili, chet tili fanlarida, ijtimoiy-gumanitar va nofilologik yo‘nalishdagi fanlar (tarix, geografiya, biologiya, astronomiya) bo‘yicha ixtisosiy matnlar, muammoli masalalar tuzishda ham unumli foydalanish mumkin.

Ko‘p yillik ilmiy izlanish natijalari shuni ko‘rsatdiki, yaratiladigan matn tilining rang-barangligi, mazmundorligi, uslubiy ravonligi, mukammalligi o‘quvchilarda so‘z boyligini oshirish, nutq o‘stirish, **uyadosh so‘zlar tanlash kompetensiyasini** to‘g‘ri shakllantirishga bog‘liq. Lisoniy-nutqiy imkoniyatlar sirasida uyadoshlik hodisasining keng qamrovliligi, turli so‘z turkumlari hamda ixtisosiy atamalarni o‘zida birlashtira olish xususiyati - tildagi sathlararo va fanlararo aloqadorlik, matn mazmuni, yo‘nalishini belgilovchi atama-so‘zlar tanlashga yo‘l ochadi. Tanlangan uyadosh so‘zlar, gap va matn tarkibini shakllantirish, yangi xatboshini yozish uchun tayyor manba o‘rnini bosishi bilan “tayanch nuqta” vazifasini bajaradi. Mavzuga oid uyadosh so‘zlar tanlash nafaqat o‘rganilgan mavzuga oid, balki badiiy, nazmiy, ixtisosiy matnlar, balki rasmiy, ilmiy, publitsistik matnlarni yaratish uchun ham mos va qulay ekanligi eksperimentator o‘qituvchilar tomonidan e‘tirof etildi. Erishilgan natijalar asosida matn yaratishda uyadosh (qo‘fiyadosh) so‘zlardan foydalanish tizimi ishlab chiqildi va tajriba-sinov uchun ajratilgan umumta’lim maktablarida ona tili ta’limi amaliyotiga muvaffaqiyatli joriy etildi.

Quyida “MYBT–4” texnologiyasidan UO‘TMda foydalanishning me‘yoriy dasturi tavsiya qilindi. Dasturda ona tili darslarida o‘quvchini matn yaratishga tayyorlash, so‘z tanlash, SBlari hosil qilish, sodda va qo‘shma gaplar tuzish namunalari berildi.

Umumiy o‘rta ta’lim ta’lim tizimi 5-9-sinf o‘quvchilarida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish dasturi

Mustaqil matn yaratishning 4 bosqichli tizimi “MYBT–4” moduli til o‘qitish metodikasini yangi bosqichga ko‘targan *ta’limga kompetensiyaviy yondashuv* yo‘nalishida yaratilgan bo‘lib, uning kompetensiyalar tizimini rivojlantirish mexanizmi ongllilik, ilmiylik va tushunarlilik, izchillik, uzviylik va uzluksizlik, bosqichli ketma-

ketlik, xususiyydan umumiyga va umumiydan xususiyyga kabi ta'lim tamoyillariga asoslanadi. "MYBT-4" topshiriqlari ham mazkur tamoyillarga asoslangan bo'lib, uning me'yoriy talablari yilma-yil murakkablashib, takomillashib boradi. O'qituvchi modul topshiriqlari yordamida o'quvchi so'z boyligi, og'zaki nutqi, imlo savodxonligi darajasini aniqlash, nutqiy kompetentlik darajasini nazorat qilish, rivojlantirish, baholash imkoniyatiga ega bo'ladi.

Modul tizimida ishlash o'quvchida matn yaratish layoqatining shakllanishi, nutqiy kompetentlik darajasining ortishi, aniqlanishi va to'g'ri baholanishiga xizmat qiladi, og'zaki yoki yozma muloqot usullari, nutq madaniyatini egallashda muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

5-9-sinf o'quvchilarining nutqiy kompetentlik darajasi va uni "MYBT-4" moduli tizimida baholash mezonlari.

Tadqiqotda olib borilgan tajriba-sinovlar natijasida sifatida 5-sinf o'quvchilari uchun MYBT-4ning 1-bosqichida mavzuga oid tayanch so'zlar tanlashning me'yoriy-miqdoriy ko'rsatkichlari va uni baholash mezonlari quyidagicha belgilandi:

"A'lo" daraja: mavzuga oid har bir so'zga ma'nodoshlar tanlash 1-2 ta va undan ortiq; uyadosh so'zlar 10-15 ta va undan ortiq; zid ma'noli so'zlar 1-2 ta va undan ortiq; shakldosh so'zlar 1 ta; tarixiy so'zlar 1-2 ta; yangi, olinma so'zlar 1 ta, tasviriy ifoda 1 ta.

"Yaxshi" daraja: mavzuga oid har bir so'zga ma'nodoshlar tanlash 1-2 ta; uyadosh so'zlar 10-12 ta va undan ortiq; zid ma'noli so'zlar ikkita va undan ortiq; shakldosh so'zlar bitta; yangi, tarixiy so'zlar bitta; olinma so'zlar bitta.

"O'rta" daraja: mavzuga oid har bir so'zga ma'nodoshlar tanlash bitta va undan ortiq; uyadosh so'zlar 8-10 ta va undan ortiq; zid ma'noli so'zlar bitta va undan ortiq; shakldosh so'zlar bitta; yangi, tarixiy so'zlar bitta; olinma so'zlar bitta.

Nutq o'stirish: tanlangan tayanch so'zlar ma'nosini sharhlash, umumiste'molda uchramaydigan notanish so'zlarni (ularga ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli, yangi, olinma, tarixiy, shakldosh so'zlar tanlash asosida) izohlash, mazkur jarayonda izohli, tarjima lug'atlardan foydalanish.

“Modulning 2-bosqichida mavzuga oid SBlari hosil qilish kompetensiyasining me’yoriy-miqdoriy ko’rsatkichlari va uni baholash mezonlari quyidagicha belgilandi.

“A’lo” daraja:

“ot+ot” qolipli SBlari hosil qilish 7–8 ta va undan ortiq;

“sifat+ot” qolipli SBlari hosil qilish 8–10 ta va undan ortiq;

“son+ot” qolipli SBlari hosil qilish 1–2 ta va undan ortiq;

“ravish+ot” qolipli SBlari hosil qilish 3–4 ta va undan ortiq;

“ot+harakat nomi” qolipli SB hosil qilish 2–3 ta va undan

ortiq;

“sifatdosh+fe’l” qolipli SBlari hosil qilish 3–5 ta; Qo’shimcha ball uchun 1–2 dona tasviriy ifoda va iboralar tanlash mumkin.

“Yaxshi” daraja:

“ot+ot” qolipli SBlari hosil qilish 6–7 ta va undan ortiq;

“sifat+ot” qolipli SBlari hosil qilish 7–9 ta va undan ortiq;

“son+ot” qolipli SBlari hosil qilish 1–2 ta va undan ortiq;

“ravish+fe’l” qolipli SBlari hosil qilish 2–3 ta va undan ortiq;

“ot + harakat nomi” qolipli SBlari hosil qilish 1–3 ta va undan

ortiq;

1–2 dona yangi va olinma so’zlar tanlash mumkin.

“O’rta” daraja:

“ot+ot” qolipli SBlari hosil qilish – 4–6 ta va undan ortiq;

“sifat+ot” qolipli SBlari hosil qilish– 6–8 ta va undan ortiq;

“son+ot” qolipli SBlari hosil qilish – 1–2 ta va undan ortiq;

“ravish+fe’l” qolipli SBlari hosil qilish– 1–2 ta va undan ortiq;

“ot + harakat nomi” qolipli SBlari hosil qilish – 1 ta va undan

ortiq;

“MYBT–4”ning 3-bosqichi matn yaratishga tayyorlanish faoliyatining yakuniy qismi bo’lib, unda 1–2-bosqichlarda hosil qilingan so’z va SBlari ishtirokida gaplar tuzish, ularda so’zlarning o’zaro bog’lanishiga e’tibor qilish lozim. Mazkur bosqichda: a) kesimdan savol berib gapni kengaytirish; b) gapda so’z tartibi, adabiy me’yorga rioya qilish; v) gapda ega-kesim munosabatlarining to’g’ri tashkil qilinishiga erishish; g) gapni mantiqiy va uslubiy jihatdan to’g’ri shakllantirish kompetensiyasini egallash ustuvor mavqeda bo’ladi.

Modulning 3-bosqichida mavzuga oid gap tuzish kompetensiyasining me'yoriy-miqdoriy ko'rsatkichlari va uni baholash mezonlari quyidagicha belgilandi:

“A'lo” daraja:

Mavzuga oid sodda yig'iq va yoyiq gaplar tuzish 5–6 ta va undan ortiq;

uyushiq bo'lakli gaplar tuzish 1–2 ta va undan ortiq;

qo'shma gaplar 1–2 ta va undan ortiq;

so'roq yoki undov gap esa bitta tuzilishi mumkin.

“Yaxshi” daraja:

Mavzuga oid sodda yig'iq va yoyiq gaplar tuzish 4–5 ta va undan ortiq;

uyushiq bo'lakli gaplar tuzish 1–2 ta va undan ortiq;

qo'shma gaplar 1–2 ta; so'roq gap esa bitta tuzilishi mumkin.

“O'rta” daraja:

Mavzuga oid sodda yig'iq va yoyiq gaplar tuzish 3–4 ta va undan ortiq;

uyushiq bo'lakli gaplar tuzish 1 ta va undan ortiq;

bitta undov gap, bitta qo'shma gap tuzish mumkin.

5-sinf o'quvchilari modulning 4-bosqichida matnga reja tuzish, kichik matn yaratish, tarkibiy qismlarni to'g'ri shakllantirish, matnni imloviy-punktuatsion va uslubiy tahrir qilish bilan shug'ullanadilar. Bu bosqichda matn yaratish kompetensiyasini egallash uchun quyidagi mustaqil ishlar bajariladi:

1. **Matn yaratish.** 1–3-bosqichlarda hosil qilingan manbalardan foydalanib, miqdoriy ko'rsatkichi 6–8 gapdan iborat matn yaratiladi. Bunda 5-sinf o'quvchilari mantiqiy izchil, o'zaro uzviy bog'langan, tuzilishiga ko'ra: sodda yig'iq, sodda yoyiq, uyushiq bo'lakli, qo'shma, ko'chirma; mazmuniga ko'ra: darak, so'roq va undov gaplar; tarkibiga ko'ra: kirish, asosiy qism va xulosadan iborat bo'lgan kichik matnlar yaratish kompetensiyasini egallaydilar.

4-bosqichda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning me'yoriy-miqdoriy ko'rsatkichlari va uni baholash mezonlari quyidagicha belgilandi:

“A'lo” daraja: matn uchun tanlangan gaplarning miqdoriy ko'rsatkichi 6–8 ta va undan ortiq bo'lishi MYKSH dasturi talabiga to'g'ri keladi. Matn yaratish uchun 5-sinfda o'rtacha 35–45 ta va

undan ortiq soʻz sarflanishi mumkin. Jumladan, mavzuga oid sodda yigʻiq va yoyiq gaplar 5–6 ta va undan ortiq; uyushiq boʻlakli gaplar tuzish 1–2 ta va undan ortiq; qoʻshma gaplar 1–2 ta boʻlishi mumkin.

“**Yaxshi**” daraja: matn yaratish uchun oʻrtacha 30–35 ta soʻz sarflanishi mumkin. Jumladan, mavzuga oid sodda yigʻiq va yoyiq gaplar tuzish 4–5 ta va undan ortiq; uyushiq boʻlakli gaplar tuzish 1–2 ta va undan ortiq; qoʻshma gap 1 ta ; soʻroq gap 1 ta boʻlishi mumkin.

“**Oʻrta**” darajada matn yaratish uchun oʻquvchi oʻrtacha 25–35 ta soʻz sarflashi mumkin. Jumladan, mavzuga oid sodda yigʻiq va yoyiq gaplar tuzish 3–4 ta va undan ortiq; uyushiq boʻlakli gaplar tuzish 1–2 ta va undan ortiq; bitta qoʻshma gap tuzish mumkin.

2. *Yaratilgan matn ustida ishlash*: matnni tahrir qilish; matnni ifodali oʻqish; matnning leksik zahirasini aniqlash; matnni tarkibiy qismlarga ajratish; undagi sodda va qoʻshma gaplarni ajratish, matnni kengaytirish va ixchamlash; gapda soʻzlarni bogʻlovchi, matn mazmunini shakllantiruvchi grammatik vositalarni (bogʻlovchi, koʻmakchi, yuklama, koʻrsatish olmoshlari) ajratish; ularning lugʻaviy maʼnosini sharhlash, nutq birliklari hosil qilish mashqlari bilan shugʻullaniladi.

Tajriba-sinov jarayonida oʻquvchilarning nutqiy kompetentlik darajasini MYKSH tizimida aniqlashda uzluksiz takomillashib boruvchi til va nutq integratsiyasiga, “5-sinf oʻquvchilari tomonidan egallanadigan nutqiy kompetentlik darajasini modul sistemasida baholash mezonlari” ga asoslanildi. Mazkur jarayonda sinflar kesimi yuqorilashgan sayin oʻquvchilarda uyadosh soʻzlar tanlash, SBlari hosil qilish, gap tuzish va matn yaratish koʻrsatkichlarining oʻsishi, nutqiy kompetentlikning muayyan tartibda darajalanib, takomillashib borishi kuzatildi.

(Keyingi 6–9-sinflar kesimida *matn yaratish boʻyicha nutqiy kompetentlik darajasini* baho lash dasturida keltirilgan “Aʻlo” daraja uchun belgilangan miqdoriy - meʼyoriy koʻrsatkichlar tizimi toʻliq berildi, qolgan “Yaxshi”, “Oʻrta” daraja oʻqituvchi tomonidan oʻquvchilar egallagan nutqiy kompetensiyalar asosida belgilanishi, “Aʻlo” daraja uchun belgilangan koʻrsatkichlardan 1-2 baravar kamaytirib olishi mumkin).

6-sinf o'quvchilarining nutqiy kompetentlik darajasini modul tizimida baholash mezonlari.

Bu sinfdan morfologiya va so'z turkumlarining keng o'rganilishi sababli "MYBT-4" moduli topshiriqlari kengaytiriladi, tildagi sathlararo va fanlararo aloqani yo'lga qo'yish ustuvor mavqeda bo'ladi. Asosiy e'tibor o'quvchining MYKSH faoliyatini jadallashtirishga, so'z turkumlarini farqlash, imlo savodxonligini mustahkamlashga qaratiladi. 6-sinfdan o'rganilgan mavzu yuzasidan egallangan nutqiy kompetentlik darajasini aniqlash, rivojlantirish, so'z boyligini oshirish va boyitish, matn yaratish uchun zarur lug'aviy manbalar, so'z va SBlari, sodda yoyiq va uyushiq bo'lakli gaplarni tuzish maqsad qilinadi. Tayanch so'zlarning uyadoshlari, ma'nodoshlari, muqobillari, olinma, tarixiy so'zlarning xususiy ko'rinishlari ustida ishlash, o'rganilgan mavzu (masalan, ot so'z turkumi) bo'yicha egallangan nutqiy kompetensiyalarni aniqlash, ularni MYKSH amaliyotiga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

6-sinfdan mavzu doirasida tayanch so'zlar tanlash ko'rsatkichlari va uni baholash mezonlari quyidagicha belgilandi:

"A'lo" daraja: mavzu asosida tanlangan har bir tayanch so'zga: ma'nodosh so'zlar tanlash 2-3 ta va undan ortiq; uyadosh so'zlar 12-18 ta; zid ma'noli so'zlar 1-2 ta; yangi so'zlar 1-2 ta va undan ortiq; turg'un iboralar, tarixiy va olinma so'zlar 1-2 ta va undan ortiq bo'lishi mumkin.

Modulning 2-bosqichida odatdagidek avval jamlangan tayanch so'zlardan foydalanib, SBlari hosil qilish bilan shug'ullaniladi. SBlarining ma'nodosh, uyadosh, zid ma'nolilarini topish, matn mavzusiga oid SBlarini tanlash va guruhlash, o'zaro qiyoslash, ma'nodagi farqlarni sharhlash mashqlari bajariladi.

"A'lo" daraja: mavzuga oid "ot+ot" qolipli SBlar hosil qilish 12-15 ta; "sifat+ot" qolipli SBlari hosil qilish 15-20 ta va undan ortiq; "son+ot" qolipli SBlari hosil qilish 3-4 ta va undan ortiq; "ravish+fe'l" qolipli, "ot+harakat nomi" qolipli, "sifatosh+ot" qolipli SBlari hosil qilish 4-10 ta va undan ortiq. Shuningdek, iste'dodli o'quvchilarga mavzu doirasida 1-2 ta turg'un ibora, maqol, tasviriy ifodalar topishni tavsiya qilish mumkin.

Modulning 3-bosqichida birinchi va ikkinchi bosqichda tanlangan so'zlar, SBlari, tasviriy ifoda va iboralardan erkin

foydalanib, darak, so'roq, undov gaplar, uyushiq bo'lakli sodda yoyiq gaplar, qo'shma gaplar tuzish, gaplardagi kelishik qo'shimchalarini(-ga//uchun) ko'makchilar bilan almashtira olish [17; 18: 7-37], ko'chirma gapni o'zlashtirma gapga va aksincha, o'zlashtirma gapni ko'chirma gapga aylantirish bilan shug'ullanish, kesimdan savol berish usuli bilan gapni kengaytirish, ixchamlash, so'zning gapdagi o'rnini almashtirish (inversiya), so'zlarga muqobil, ma'nodoshlar topish, uslubiy ravonlik, ohang (tinish belgilarining to'g'ri ishlatilishi)ga alohida e'tibor qilish lozim. 6-sinflarda "MYBT-4"ning 3-bosqichi grammatik-sintaktik bilimlarni mustahkamlash, ixcham, to'g'ri, ravon gap tuzish kompetensiyasining shakllanishiga erishishdir.

6-sinfda gap tuzish bo'yicha me'yoriy - miqdoriy ko'rsatkichlar va nutqiy kompetentlik darajasini baholash mezonlari:

6-sinfda "A'lo" darajaga erishish uchun mavzuga oid sodda gaplar 7-8 ta; sodda yig'iq va yoyiq gaplar tuzish 5-6 ta va undan ortiq; uyushiq bo'lakli gaplar tuzish 1-2 ta va undan ortiq; qo'shma gaplar 1-2 ta va undan ortiq; so'roq yoki undov gaplardan bittasi tuzilishi mumkin.

Modulning 4-bosqichida o'quvchining **MYKSH bo'yicha me'yoriy - miqdoriy ko'rsatkichlari va nutqiy kompetentlik darajasini baholash mezonlari quyidagicha belgilandi:**

"A'lo" daraja: yaratilgan tayanch manbalardan foydalanib, miqdoriy ko'rsatkichi 8-10 gapdan iborat kichik matnlar yaratish; matnni talaffuz qoidalariga rioya qilgan holda ifodali o'qish; unga ixcham reja tuza olish; o'qituvchi yordamida sharh, bayon, tarjimai hol, tasvir, tasnif, mavzuga oid testlar va muammoli savollarga javob matnlari tuzish kompetensiyasi shakllantiriladi. Matn hajmi o'rtacha 40-50 so'zdan iborat bo'lishi mumkin.

6-sinfda "MYBT-4" moduli asosida yaratilgan matnning **sifat ko'rsatkichlari** quyidagicha belgilandi: a) o'rganilgan mavzuga oid uyadosh so'zlar ishlatilganligi; b) fikrning to'g'ri, o'rinli, ravon ifodalanganligi; v) fikrning aniqligi va izchilligiga rioya qilinganligi; g) matndagi xatboshilarning to'g'ri ajratilganligi. Bundan tashqari, 6-sinfda yaratilgan matn muhokamasi (tanqidiy fikrlash, yo'l qo'yilgan xatolarga munosabat bildirish) yo'lga qo'yilsa, u ham og'zaki va

yozma MYKSHga, matn qurilishi va mazmunining takomillashuviga xizmat qiladi.

7-sinf o'quvchilarining MYKSH va nutqiy kompetentlik darajasini modul tizimida baholash mezonlari

7-sinfda modulning 1-bosqichi berilgan mavzuga mos tayanch uyadosh so'zlar tanlash, ularni o'zaro qiyoslash, so'z va atamalarning grammatik xususiyatlari, belgisi, holati, soni, harakati, ishlatilish sohasiga oid bilimlarni egallash mashqlari amalga oshiriladi.

7-sinfda tayanch uyadosh so'zlar tanlash kompetensiyasining miqdoriy-me'yoriy ko'rsatkichlari va uning baholash mezonlari quyidagicha belgilandi. "A'lo" daraja:

Mavzuga oid tayanch so'zlarga ma'nodoshlar tanlash 3–4 ta; uyadosh so'zlar tanlash 15–20 ta va undan ortiq; zid ma'noli so'zlar tanlash 1–3 ta va undan ortiq; shakldosh so'zlar 1–2 ta, tarixiy so'zlar 1–2 ta, yangi so'zlar 1–2 ta va turg'un ibora, tasviriy ifodalar tanlash 1–2 ta ni tashkil qiladi.

Nutq o'stirish. Tanlangan uyadosh so'zlarning lug'aviy va grammatik ma'nosini sharhlash, so'z tarkibi: asos, so'z yasovchi va so'z o'zgartiruvchi qo'shimchalar, atama va uning kelib chiqishi, olinma, tarixiy, yangi so'zlarni farqlash kabi qo'shimcha nutq o'stirish mashqlari bilan shug'ullanish: unda ma'nodosh so'zlarning o'xshash va farqli tomonlarini aniqlash, guruhlash, o'zaro qiyoslash, mavzuga moslarini tanlash, lug'at bilan ishlashda so'zlarni tarkibiy qismlarga ajratish, tub va yasama so'zlar, tasviriy ifoda, iboralar ma'nosini sharhlash (nutq o'stirish mashqlari) kabi mustaqil ishlar amalga oshiriladi.

Modulning 2-bosqichida 7-sinf o'quvchilarining SBlari hosil qilish, ibora, tasviriy ifodalar tanlash faoliyati izchil rivojlantiriladi, egallangan nutqiy kompetentlik darajasini aniqlash ishlari amalga oshiriladi. 7-sinfda so'z birikmalari hosil qilishning me'yoriy-miqdoriy ko'rsatkichlari va baholash mezonlari quyidagicha belgilandi:

"A'lo" daraja: "ot+ot" qolipli SBlari hosil qilish 10–15 ta va undan ortiq; "sifat+ot" qolipli SBlari hosil qilish 15–25 ta; "son+ot" qolipli SBlari hosil qilish 4-5 ta; "ravish+harakat nomi" qolipli SB hosil qilish 3- 4 ta; "sifatdosh+ot" qolipli SB hosil qilish 2- 4 ta va undan ortiq bo'lishi lozim. Shuningdek, 7-sinf o'quvchilari mavzu

yoʻnalishida 2–3 ta ixtisosiy atama, 1 ta tasviriy ifoda, iboralar tanlashni, ulardan matnda erkin foydalanishni bilishi zarur.

7-sinfda “MYBT–4” modulining 3-bosqichi uyushiq boʻlakli sodda gap, bogʻlangan qoʻshma gaplar tuzish, ularni kengaytirish, ixchamlash badiiy boʻyoqdor gaplarga, sheʼrqatorlarga aylantirish kompetensiyasini mustahkamlashga qaratilgan boʻlib, ikkinchi bosqichda hosil qilingan SBlaridan foydalanib, mavzuga oid gaplar tuzish, ularni uyushiq boʻlaklar, undalma, ravishdosh, sifatdosh, harakat nomi, kiritmalar bilan boyitish talab qilinadi. Soʻz - gaplar imlosi, talaffuzi, ularni sodda va qoʻshma gaplar tarkibida qoʻllash, kengaytirish va ixchamlash, soʻzlarning gapdagi oʻrnini (inversiya) va oʻzini maʼnodoshlariga almashtirish, uslubiy ravonlik, tinish belgilarining toʻgʻri ishlatilishiga alohida eʼtibor talab etiladi. Aloqa-munosabat shakllari, ot-kesim va feʼl-kesimlarni farqlash, ularni gap tarkibida oʻrinli qoʻllash kompetensiyasi rivojlantiriladi.

7-sinfda modulning 3-bosqichida gap tuzishning meʼyoriy-miqdoriy koʻrsatkichlari va nutqiy kompetentlikni baholash mezonlari quyidagicha belgilandi:

“Aʼlo” daraja: mavzuga oid sodda gaplar tuzish 10–12 ta, shundan soʻz-gaplar bitta, uyushiq boʻlakli sodda gaplar tuzish 2–3 ta, ot-kesimli gaplar tuzish 1–2 ta, feʼl-kesimli gaplar 6–10 ta, qoʻshma gaplar tuzish 2–3 ta va undan ortiq.

Qoʻshimcha talablar: gaplarni ixcham, loʻnda, aniq va mantiqiy izchillikda yorita bilish; gap boʻlaklarini oʻzaro bogʻlashda ohang, leksik-grammatik vositalar bogʻlovchi, koʻmakchi va yuklamalardan unumli foydalanish; gapda nutqiy-uslubiy meʼyorlarga amal qilish.

7-sinfda MYKSHning meʼyoriy-miqdoriy koʻrsatkichlari va nutqiy kompetentlikni baholash mezonlari quyidagicha belgilandi:

“Aʼlo” daraja: 1. Miqdoriy koʻrsatkichi 10–12 gapdan iborat matnlar yaratish. 2. Berilgan mavzu yoʻnalishida sodda gaplarni kengaytirish, inversiya asosida gapdagi soʻz tartibini oʻzgartirish, fikrni ixchamlash. 3. 2-3-bosqich zahiralardan foydalanib, sodda yigʻiq va yoyiq, uyushiq boʻlakli va qoʻshma gaplar tuzish. 4. Matnga ixcham reja tuza olish. 5. Kichik hikoya, bayon, tasnifiy matnlar, ish qogʻozlari: tarjimai hol, tilxat, tushuntirish xatlari yozish. 6. 7-sinfda matn 50–60 soʻz doirasida shakllantirilishi maqsadga muvofiq.

Matnning sifat ko'rsatkichlari bo'yicha DTS talabi 7-sinflarda quyidagicha: mavzu doirasida, ixcham, aniq fikr ifodalash; so'zlar va gaplararo mazmuniy-grammatik bog'lanishni ta'minlash, xatboshilarni ajratish; matnda uzviylik va uzluksizlik, fikr izchilligiga rioya qilish; tilning nutqiy imkoniyatlardan unumli foydalanish. Shuningdek, o'quvchilarda matn turi, uslubini farqlash, matnni tahrir qilish, tanqidiy fikrlash, yaratilgan matnga munosabat bildirish kabi uslubiy kompetensiyalarni shakllantirish ustuvor mavqega o'tadi.

8-sinf o'quvchilarining nutqiy kompetentlik darajasini modul tizimida baholash mezonlari:

8-sinf "Ona tili" darsliklarida ijodiy matn ustida ishlash, insho va uning turlarini o'rganishga 8 soat, so'z birikmasiga esa 18 soat vaqt ajratilgan. Bu esa o'quvchi ijodiy tafakkuri, nutqiy kompetensiyasini DTS talablari darajasida shakllantirish, og'zaki va yozma matn yaratish layoqatini mustahkamlash uchun kamlik qilishi aniq. 8-sinflarda matn yaratish mashqlari bilan har bir yangi mavzu yakunida yoki takrorlash darslarida muntazam shug'ullanish talab etiladi.

8-sinf uchun modulning 1-bosqichida bajariladigan ishlar berilgan mavzu doirasida ishlatiladigan tayanch uyadosh so'zlar, ma'nodosh atamalar tanlash, ularning birlamchi leksik va grammatik ma'nolarini lug'at bo'yicha izohlash, shakldoshlik, ma'nodoshlik va zid ma'nolilar haqida axborot berishdan iborat. Bu sinfda mavzuga oid tayanch so'zlar tanlashning me'yoriy-miqdoriy ko'rsatkichlari va so'z boyligini baholash darajalari quyidagicha belgilandi.

"A'lo" daraja: har bir tayanch so'zga ma'nodosh so'zlar topish 3-4 ta; uyadosh so'zlar topish 20-25 ta; zid ma'noli so'zlar topish 2-3 ta; qofiyadosh so'zlar topish 6-10 ta; shakldosh so'zlar topish 1-2 ta; tarixiy so'zlar topish 2-3 ta; yangi va olinma so'zlar 2-5 ta va undan ortiq.

Nutq o'stirish mashqlari: og'zaki va yozma nutqda so'zni o'rinli ishlatish; izohli lug'atlar, ma'nodosh, uyadosh, zid ma'noli so'zlar, shakldosh so'zlar lug'ati [142:12-16]dan matn yaratish jarayonida unumli foydalanish; o'quvchi lug'atlari tuzish [97:10-17] ustida ishlash, shakldosh so'zlarning ma'nodoshlari [142:12-16], paronimlar, tasviriy ifoda va iboralarning mavzu doirasidagi leksik-semantik qurshovini aniqlash, yangi (notanish) so'zlar ma'nosini

sharhlash, insho, yozma nutq kompetensiyasini mustahkamlash bilan shug'ullanish ko'zda tutiladi.

8-sinfda SBlari hosil qilish mashg'ulotlari yanada murakkablashadi: SBlari tarkibidagi so'zlar soni orta boradi, sodda so'z birikmalari murakkab so'z birikmalariga aylantiriladi endi 2 ta emas, o'rtacha 2 – 5 ta so'z qatnashadi: *a'lochi o'quvchi // sinfimizdagi a'lochi o'quvchi // fanlarni "a'lo" bahoga o'zlashtirayotgan o'quvchi*. SB tarkibidagi so'zlarning miqdoriy ko'rsatkichlari oshgan sayin, axborot aniqlashadi, tasavvur tiniqlashadi, fikr konkretlashadi, ba'zan birgina fe'lining ishtiroki bilan SB gap maqomiga o'tadi. Masalan: *ko'cha / maktab qurilgan ko'cha// yangi maktab qurilgan ko'cha// ikki qavatli yangi maktab qurilgan ko'cha //// Yangi maktab qurilgan ko'chada yashaymiz – gap.*) 8-sinfda so'z birikmalari hosil qilishning me'yoriy-miqdoriy ko'rsatkichlari va egallangan nutqiy kompetensiyani baholash o'lchamlari quyidagicha belgilandi:

“A'lo” daraja:

1. Sodda SBlari hosil qilish miqdori 8–10 ta va undan ortiq. 2. “olmosh + ot + ravishdosh + son + ot” qolipli murakkab SBlari hosil qilish 6–8 ta va undan ortiq. 3. “ravish+ot+son+harakat nomi” +olipli (*ertalab soat oltida turish*) SBlari hosil qilish 5–6 ta va undan ortiq. 4. “ravish+sifatdosh+ot+ot+harakat nomi” (*olisdan eshitilayotgan nay navosidan uyg'onish*) kabi SBlari hosil qilish 8–10 ta va undan ortiq. Shuningdek, SBlarini kelishikli birikma, ko'makchili birikmalarga ajratish, mavzuga mos 1–2 ta turg'un ibora, tasviriy ifoda keltira olish.

Modulning 3-bosqichi mavzuga mos gaplar va she'rqatorlar tuzish kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan bo'lib, bunga ikkinchi bosqichda hosil qilingan murakkab tarkibli SBlarini, tasviriy ifoda va turg'un birikmalardan foydalanib, fe'llar yordamida badiiy bo'yoqdor gaplarga aylantirish orqali erishiladi. Bu jarayonda ularda uslubiy me'yor, so'z tartibini o'zgartirish, tinish belgilarga rioya qilish kompetensiyasi mustahkamlanadi. Kesimdan savol berish orqali gaplarni kengaytirishga alohida e'tibor qaratiladi. Sodda va qo'shma gaplar tasnifi keltirilib, gapning sodda yoki qo'shmaligini aniqlashning yangi asoslari ochib beriladi. Gapda birdan ortiq kesimning mavjudligi, gapning qo'shma gap ekanligidan dalolat

berishi ta'kidlanadi. Atov gaplar, so'z-gaplar, ixcham gaplar tuzilib, ular so'z, SB, iboralar bilan qiyoslanadi, gapning markazi kesimni [109:17–19] belgilash mashqlari bilan shug'ullaniladi. Gapni shakllantiruvchi hokim bo'lak *ega* esa kesim tarkibidagi shaxs-son ma'nosini aniqlashtiruvchi bo'lak sifatida talqin qilinadi [109: 7–19]). Nazmiy matn yaratishni istagan o'quvchilar esa she'rqatorlar hosil qilish usullari, gapda inversiya hodisasi yordamida badiiy bo'yoqdor gaplardan she'rqatorlar hosil qilish (*Bahor kelib, tog'lar yam-yashil libosga burkandi, binafsha, momaqaymoqlar gulladi // Yashil barqutlarga burkandi tog'lar, ko'ksida ko'z ochdi momaqaymoqlar*), ularga badiiy sayqal berish, fikr izchilligi, vazn, qofiya, bo'g'in mutanosibligini tiklash, 8–10 ta o'zaro bog'lanmagan, erkin vazndagi she'rqatorlarni barmoq vaznidagi she'riy to'rtlik yoki sakkizlikka aylantirish, she'rqatordagi so'zlarni boshqa ma'nodoshlariga, oddiy so'zni badiiy so'zga almashtirish mashqlari bilan shug'ullanadilar.

8-sinfda gap tuzish bo'yicha me'yoriy-miqdoriy ko'rsatkichlar va nutqiy kompetentlik darajasini baholash quyidagicha belgilandi:

“A'lo” daraja: Mavzuga oid sodda gaplar tuzish 10–12 ta; ajratilgan bo'lakli gaplar tuzish 1–2 ta; qo'shma gaplar tuzish 2–3 ta; oddiy gaplarni badiiy bo'yoqdor gaplarga aylantirish 1–2 ta; badiiy bo'yoqdor gaplardan she'rqatorlar hosil qilish 4–6 ta; ko'chirma yoki o'zlashtirma gaplar, maqol yoki hikmatli so'zlar qo'llash 1–2 ta. Asosiy e'tibor gap tarkibini to'g'ri shakllantirish, yaratiladigan matn mavzusiga oid maqol, hikmatli so'z, epigraf, iqtiboslar tanlash, ulardan matnning xulosasida foydalanish kompetensiyasini egallashga qaratiladi.

8-sinf o'quvchisining MYKSHga qaratilgan 4-bosqichida sintaktik va uslubiy kompetensiyalarni mustahkamlash, yaratilgan matn ustida ishlash, matnning qurilishi, uslubini aniqlash, xatboshi va MSBlarning o'zaro bog'lanishi, matn tarkibida maqol, hikmatli so'z, o'xshatish, iqtibosning mavjudligi, ularning matn mazmuniga mosligini aniqlash ishlari bajarilib, amaliy tatbiq asosida mustahkamlanadi.

8-sinfda MYKSH bo'yicha miqdoriy-me'yoriy ko'rsatkichlar, nutqiy kompetentlik darajasini aniqlash va baholash mezonini quyidagicha belgilandi:

“A’lo” daraja: matnga ixcham reja tuzish, umumiy soni 10–14 tagacha bo‘lgan sodda yoyiq, qo‘shma (ko‘chirma) gap, dialoglardan iborat bo‘lgan matn yaratish; matn tarkibiga mazmunga mos maqol, hikmatli so‘z, tasviriy ifoda yoki turg‘un iboralardan birini kiritish; matnni shakllantirishda MSB va xatboshilardan o‘rinli foydalanish; matn qismlarini to‘liq (kirish, asosiy qism, xulosa) shakllantirish, unga mos sarlavha, epigraf tanlash; matnni mustaqil tahrir qilish va oqqa ko‘chirish talab qilinadi. Matn 55-80 ta so‘zdan tashkil topishi DTS talablariga mos keladi.

9-sinf o‘quvchilarining MYKSH va nutqiy kompetentlik darajasini modul tizimida baholash mezonlari:

9-sinfda tanlangan mavzu asosida turli so‘z turkumlariga oid tayanch so‘z va atamalar tanlash, ularni guruhlash, qiyoslash, har bir atamaga uyadosh, ma’nodosh, shakldosh, qofiyadosh, tovushdosh (paronim) so‘zlar tanlash, ularning leksik-semantik maydonlarini aniqlash, tanlangan so‘zning lug‘aviy-grammatik ma’nosini farqlash, izohlash, kengaytirilgan SBlari va gaplar tuzish, gaplarni takomillashtirish mustaqil matn yaratish faoliyati yo‘lga qo‘yiladi.

9-sinf o‘quvchisining MYKSH bo‘yicha nutqiy kompetentlik darajasini aniqlashning me‘yoriy ko‘rsatkichlari, baholash mezonlari, sifat darajasi quyidagicha belgilandi:

“A’lo” daraja: 25–35 ta va undan ortiq uyadosh so‘zlar topish; 4–6 va undan ortiq tayanch so‘zlarga ma’nodoshlar topish; 1–3 ta zid ma’noli so‘zlar topish; 1–2 ta paronim so‘zlar topish; 8–12 ta va undan ortiq qofiyadosh so‘zlar topish; 1–3 ta shakldoshlar topish; 1–2ta turg‘un iboralar topish; 1–2 ta muqobil so‘zlar topish; 4–5 ta murakkab so‘zning lug‘aviy ma’nosi va etimologiyasi, tub yoki yasamaligi, qaysi til oilasiga mansubligi, grammatik vazifasini izohlashdan iborat og‘zaki sharh.

Umumiy o‘rta ta’limning 9-sinflarida “MYBT–4”ning 2-bosqichi – SBlari hosil qilish mashqlari yanada murakkablashadi. SBlari tarkibining ortishi bilan uzviylikda mazmun qamrovi ham kengaya boradi. Bunday murakkab SBlarida 3–6 tagacha mustaqil so‘z, ixtisosiy atama, tasviriy ifoda va iboralar qatnashadi, savol berish orqali kengaytiriladigan aniqlovchi, to‘ldiruvchi va holli birikmalar hosil qilinadi: a’lochi o‘quvchilar/ maktabimizning a’lochi

o'quvchilari // 9^A-sinfdagi a'lochi va iqtidorli o'quvchilar//olimpiadalarda g'oliblikni qo'ldan bermay kelayotgan 9^A-sinfning iqtidorli o'quvchilari. Burday murakkab SBlari gap tarkibida alohida leksik qurshov, zanjir hosil qiladi, ulardagi leksik vositalarni boshqa ma'nodoshiga almashtirib ko'rish, yangilash mumkin. Tayyor SBlaridan gap tuzish juda qulay, u birikma tarkibiga kesimni qo'shish bilan amalga oshiriladi: Olimpiada musobaqalarida g'oliblikni qo'ldan bermay kelayotgan 9^A-sinfning iqtidorli o'quvchilari mukofatlandilar.

9-sinfda SBlari hosil qilishning me'yoriy-miqdoriy ko'rsatkichlari va o'quvchining nutqiy kompetentlik darajasini baholash mezonlari quyidagicha belgilandi:

“A'lo” daraja: “ot + ot + sifatdosh + ot” qolipli (“EL” firmasi joylashgan hudud) murakkab SBlari hosil qilish: 8–12 ta; “olmosh + ot + ot + ko'makchi”, “ravishdosh + ot + ot” qolipli (Mening akam karate bilan shug'ullanadigan “Jar” sport saroyi) aralash-murakkab SBlari hosil qilish: 6–8 ta; “ravish+ot+son+harakat nomi” qolipli (ertalab, soat sakkizda etib kelish) murakkab SBlari hosil qilish: 6–8 ta; “ravish+ sifatdosh+ot+ot+harakat nomi” (olis-olislardan taralayotgan nay ovozidan rohatlanish) kabi aralash qolipli murakkab SBlari hosil qilish. SBlarida inversiya hodisasi amalga oshirilib, so'z o'rinlari va so'zning o'zini almashtirish bilan shug'ullaniladi: olisdan taralayotgan to'y darakchisi – qo'shnay navosidan uyg'onish // to'yxonadan eshitilgan karnay ovozidan sergaklanish, // tanburning dilni titratuvchi, sehrli navosidan huzurlanish...) 5–8 ta va undan ortiq; shuningdek, murakkab SBlarini kelishikli birikma, ko'makchili birikma, qo'shimchasiz birikmalarga ajratish, ularni tobe va hokim qismlarga ajratish, fe'l, ot, sifat, olmosh, ravishlar ishtirokida qofiyadosh so'z birikmalari (izzatli sulton, sarkarda sarbon, oy yuzli mehmon, kamtarin mezbon) hosil qilish, SBlarining ma'nodosh qatorlarini hosil qilish(oy yuzli mehmon, shirinso'z mehmon, izzatli mehmon), 1–2 ta turg'un ibora, tasviriy ifodalarni tanlay olish. O'quvchilar shu jarayonda ibora, erkin birikma, tasviriy ifodalarning lug'aviy ma'nosini sharhlash, izohlash, qiyoslash bilan shug'ullanib, og'zaki nutqni takomillashtirish kompetensiyasini egallaydilar.

9-sinf o'quvchisining 3-bosqichdagi faoliyati o'zi mustaqil yaratgan leksik-sintaktik manbalardan unumli foydalanishga,

berilgan mavzuni ochishga xizmat qiluvchi turli shakl va mazmundagi sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplar, qo'shma, ko'chirma va o'zlashtirma gaplar tuzish kompetensiyasini rivojlantirishga qaratiladi. O'quvchilarda adabiy til me'yorlari, tinish belgilari, gap urg'usiga rioya qilish, qiroat, nutqiy madaniyat shakllanadi. Gap kesimiga savol berish orqali gapni kengaytirish mashqlari bilan shug'ullanish, oddiy so'zlarni badiiy bo'yoqdor so'zlar bilan va aksincha, buyoqdor so'zlarni kundalik muloqot so'zlari bilan almashtirib ko'rish, gaplardan she'rqatorlar hosil qilishda qofiyadoshlik, inversiya hodisasidan keng foydalaniladi. M: Yurtimizga yana bahor kirib keldi, anhorlar yomg'ir suvlariga to'lib toshdi, qiru adirlar qip-qizil lolalar, qizg'aldoqlar bilan qoplandi (gap). / Kirib keldi yurtimga bahor, soylar toshqin, ko'pirar anhor, qir-adirga gul – gilam to'shab, yosh-yalangni chorlar lolazor...,kabi ijodiy tafakkur mashqlarini bajarish talab qilinadi.

She'r mashq qilishni istagan iqtidorli o'quvchilarni badiiy bo'yoqdor gaplardan foydalanib, she'rqatorlar hosil qilishga yo'naltirish, kichik to'rtliklar tuzishni talab qiluvchi ijodiy topshiriqlarni bajartirish, ma'nodash SBlari va gaplarni jamlab, ulardan ma'nodosh she'rqatorlar hosil qilish bilan shug'ullantirish zarur. M.: Hushmuomalalik, orastalik, nozik did bilan kiyinish zohiriy go'zallik bo'lsa, ma'naviy barkamollik, idrok va tafakkur etukligi botiniy go'zallikdir (gap). Go'zal xulq, shirin so'z zohiriy go'zallik bo'lsa, ezgulik va sadoqat botiniy go'zallikdir (hikmatli so'z). Kishi bordir, ham zohiriy, ham botiniy go'zaldir, Kishi bordir, har bir so'zi yuz ochmagan g'azaldir (bayt) kabi uzluksiz takomillashib boruvchi graduonomik xarakterdagi ijodiy ishlar bilan shug'ullanish o'quvchini matn yaratish faoliyatiga tayyorlaydi, nutqiy kompetentlik darajasini yuksaltirishga xizmat qiladi.

9-sinfda uchinchi bosqich – gap tuzish kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha miqdoriy-me'yoriy ko'rsatkichlar va uni baholash mezonlari quyidagicha belgilandi:

“A'lo” daraja: 10–12 ta sodda yig'iq va yoyiq gaplar tuzish; 3–4 ta ajratilgan bo'lakli gaplar tuzish; 2–3 ta qo'shma gaplar tuzish; 2 ta ko'chirma yoki o'zlashtirma gaplar tuzish; 2–3 ta dialoglar tuzish; 1–2 ta yaratiladigan matn mavzusiga oid maqol, hikmatli so'z, epigraf, sarlavha va iqtiboslar tanlash.

1 - 2 - bosqichlarda tanlangan nutqiy birliklarni gap va MSBlar tarkibida ishlatish kompetensiyasini egallash, uni guruh oldida namoyish qilish o'quvchida matn yaratish kompetensiyasini mustahkamlaydi.

“MYBT-4” modulining 3-bosqichida 9-sinf o'quvchilarining gap tuzish, gapning sintaktik-grammatik qurilishini takomillashtirish, gap tarkibi, ega-kesim munosabatlari, xatboshi, MSBlar va ularning matndagi o'rni, ahamiyati, tuzilishi haqidagi me'yoriy tushunchalar, so'z va SBlarining alohida va gap tarkibida (kontekstda) anglatadigan mazmunini o'zaro qiyoslash, analiz va sintez qilish ko'nikmasini shakllantirish va rivojlantirish ko'zda tutiladi. Gapni ichki ohang (tinish belgilari)ga rioya qilib ifodali o'qish, taktlar, mantiqiy urg'uni farqlash bilan bir qatorda, gapni ta'kid, so'roq, buyruq, nasihat, iltifot, his-hayajon, izhor, iltimos, xursandlik ohangida o'qiy olish, kirishlar vositasida munosabat ma'nosini anglatish, mumtoz she'riyat namunalarini ifodali o'qish, sharqona qiroat qoidalariga amal qilishni o'rganish talab qilinadi.

“MYBT-4” modulining 4-bosqichi o'quvchining MYKSHga qaratilgan bo'lib, unda berilgan va yaratilgan matnlar ustida ishlash, ma'rifiy, badiiy, rasmiy, ilmiy, publitsistik, reklama matnlari, tasnifiy-grammatik matnlar tuzish, matn tili, qurilishi, uslubini farqlash, xatboshi va MSBlarning o'rni va matnda o'zaro bog'lanishi, matn tarkibidagi so'z va gaplar soni, ma'noviy va grammatik turlari, ohangi, maqol, hikmatli so'z, iqtiboslarning mavjudligi, ularning matn mazmuniga mosligi aniqlanadi. 9-sinfda modul asosida matn yaratish jarayonida o'quvchining nutqiy kompetentlik darajasini aniqlash va baholash bo'yicha me'yoriy ko'rsatkichlar quyidagicha belgilandi:

Matnning sifat ko'rsatkichlari matndagi gaplar va xatboshilarning o'zaro bog'liqligi, bir mavzu doirasida, bir nutqiy qurshovda yaxlitlashuvi; tinish belgilarining mazmunni ochishga, qiroatga, mantiqiy urg'uni aks ettirishga xizmat qilishi; xatboshi va MSBlarda fikr ifodasining yaxlitlanishi, ixchamlanishi; so'z, SB va gaplarning o'zaro uyg'unligi; grammatik-sintaktik kompetensiyalar integratsiyasidan foydalanish; matnda fikr izchilligi, uzviylik va uzluksizlikni ta'minlash, leksik vositalarni kontekstga mos va o'rinli qo'llay bilish darajasi orqali aniqlanadi.

9–sinf o‘quvchilari modulning 4-bosqichida og‘zaki va yozma nutq bo‘yicha quyidagi nutqiy kompetentlik darajasini egallashlari lozim.

“A’lo” daraja: matn yaratish uchun sodda va murakkab rejalar tuzish; umumiy soni 14–16 ta va undan ortiq bo‘lgan sodda yoyiq, ajratilgan va uyushiq bo‘lakli, sodda, qo‘shma va ko‘chirma gaplar, monolog va dialoglardan iborat badiiy matn yaratish; fikrni mantiqiy izchillikda, adabiy til me‘yorlariga mos, to‘g‘ri, ravon, ixcham ifodalash; yaratilayotgan matn mazmuni va talabiga mos keladigan 1–2 ta va undan ortiq she‘riy parcha, maqol, hikmatli so‘z, tasviriy ifoda yoki turg‘un iboralar topish, ulardan 1–2 tasini matn tarkibiga kiritish; matnni mustaqil tahrir va tahlil qilishni bilish; tilning uslubiy imkoniyatlaridan foydalanish: ariza, bayonnoma, ma‘lumotnoma, ishonchnoma, vakolatnoma, majlis qarori, shartnoma singari rasmiy hujjat matnlari tuzish; sinfdosh o‘quvchining gazetaga yozgan maqolasi, referati, ijodiy va mustaqil ishlariga taqriz yozish; tasnifiy, grammatik, ixtisosiy, badiiy, reklama matnlarini yaratish. Matn hajmi DTS talabi, matn tuzishga ajratilgan vaqt va o‘qituvchi qo‘ygan talab asosida belgilanadi. Ona tilida yaratiladigan matn hajmi uning mazmundorligi, sifati, mukammalligini belgilash uchun asos hisoblanmaydi. Chunki 10 ta gap ishtirokida matn yaratgan o‘quvchining ishi aynan shu mavzuni ochish uchun 20 ta gap sarflagan o‘quvchining ishidan kuchli, mazmundor va mukammal bo‘lishi mumkin. **Matnning qiymati unda ishlatilgan gaplar sonining ko‘pligi bilan emas, matnning mazmundor, ixcham va tushunarlilik, so‘z ishlatish mahorati, til birliklarining kontekstda to‘g‘ri, mantiqli va o‘rinli joylashtirilganligiga qarab belgilanadi.**

Bu bosqichda 9-sinf o‘quvchisining matn (insho) mazmuniga mos 4–5 ta sarlavha, epigraf tanlash, nasriy yoki nazmiy matnlardan muallifni ko‘rsatgan holda iqtiboslar keltira bilish, matnni imloviy-uslubiy tahrir qilish kompetensiyasi mustahkamlanib, modulning 4-bosqichi – *matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish faoliyati* takomiliga etkaziladi.

Ilmiy-tadqiqotning asosiy natijasi – tilni tizimli o‘rganishning “MYBT–4” moduli asosida matn yaratish uchun mo‘ljallangan yuqori-

dagi ijodiy topshiriqlar tizimi umumiy oʻrta taʼlimning 5–9-sinf oʻquvchilarida nutq madaniyati haqidagi tasavvurni kengaytirish, mustaqil matn yaratish, kommunikativ kompetentlikni taʼminlashga xizmat qiluvchi innovatsion texnologiya hisoblanadi. U oʻquvchi nutqini oʻstirib, bir tizimga soladi, soʻz boyligini oshiradi, kreativlik, ongosti ijodiy-intellektual tafakkurni boshqaradi, tilning nutqiy imkoniyatlaridan foydalanish jarayonida madaniy muloqot, ogʻzaki va yozma matn yaratish kompetensiyasini mustahkamlaydi, oʻquvchining nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasini orttiradi (16-ilovaga qarang).

UOʻTMning 5–9-sinflarida “MYBT–4” moduli asosida bajariladigan amaliy mashgʻulotlar. Matn yaratish modulining 1-bosqichida tilning fonetika, leksikologiya, morfologiya boʻlimlarida egallangan bilimlar mustahkamlanadi. Oʻquvchining mavzu doirasidagi tayanch soʻzlari – uyadosh soʻzlar miqdori, imlosi aniqlanadi, toʻgʻri talaffuz, soʻz tarkibi, soʻz maʼnolarini sharhlash asosida ogʻzaki nutq oʻstiriladi. Bunda nutq tovushlarini farqlashga oid kompetensiyalarni shakllantiruvchi oʻyin-topshiriqlardan foydalanish tavsiya etiladi.

1- bosqich: **Fonetika.**

1. Berilgan soʻzdan bir tovushni kamaytiring, oʻzgartiring, hosil boʻlgan soʻzlarning lugʻaviy maʼnosini sharhlang: *Lison-limon-imon-imo.*

2. Soʻzdagi *birinchi undoshni* turli tovushlar qoʻyib oʻzgartiring, hosil boʻlgan yangi soʻzlarning turkumini aniqlang, ularning lugʻaviy maʼnolarini sharhlang: *bir, sir, qir, jir, gir, zir, pir, mir.*

3. Berilgan “i” tovushiga *bir tovush qoʻshib* soʻz yasang, tovush sonini bittaga orttiring, oʻzgartiring, kamaytiring, soʻzning turkumini aniqlab, lugʻaviy maʼnosini sharhlang: i – it, kit, kut, ket, kat, kam, kar, kas, Kay, kuy, kuz, kul, kun, kuch, koʻch, kech, ech, e; // e – er, eri, erim, terim, terdim, berdim, burdim, bordim, boqdim // boqim, bosim, boshim, boshi, bosh, bob, bot, bogʻ, togʻ, sogʻ, chogʻ, zogʻ, zor, bor, qor, sor, tor, dor, kor, nor, gʻor.

4. Soʻz oxiri yoki boshidagi faqat bitta tovushni almashtiring, hosil boʻlgan soʻzlarni turkumlariga ajrating va lugʻaviy maʼnosini sharhlang: ter, toʻr toʻy, boʻy, qoʻy, moʻy, moy, soy, suy. sut, tut, tot, tor, toy, tos, tom, toq, top, togʻ. Namuna: *feʼllar* – ter, soʻy, suy, tot.

tut, to'y, tuy., *Otlar* – tur, to'r, to'y, qo'y, mo'y, sut, tut, toy, tos, tom, tog'. *Sifatlar* – tor, toq.

1-bosqich, Leksikologiya. 5–7-sinfda lug'at bilan ishlash mashqlari.

Ijodiy ish. Qo'sh undoshli, qofiyadosh, tarixiy, *olinma* so'zlar toping, ularga ma'nodoshlar tanlib, ma'no o'zgarishini sharhlang, so'zning qaysi xalq tiliga mansubligini aniqlang, muqobil so'zdagi lug'aviy ma'no o'zgarishlarini izohlang. Bajarish namunasi: *Tafakkur* (arab-fors. ma'nodoshlari: fikr, o'y, mushohada, muhokama, analiz, sintez, xayol), *tashakkur* (rahmat, minnatdorchilik), *tasavvur* (faraz, ko'z oldiga keltirmoq, xayolida gavalantirmoq), *takabbur* (manman, kibrli, kibor, "takobur" (sheva); *tasarruf* (qo'l ostidagi, qarashli, boshqaruvidagi), *takalluf* (yaxshi so'z bilan izzat-ikrom qilmoq, hurmat ko'rsatmoq, shirin so'zlammoq); *tarannum* (kuylamoq, madh etmoq), *taraddud₁* – tayyorlanish, hozirlanish; *taraddud₂* – ikkilanish); tavallud (tug'ilmoq, dunyoga kelmoq), *tasadduq* (erkalash, murojaat so'zi)..,

Leksikologiya bo'limini o'rganishda uyadosh so'zlar, ma'nodoshlar, shakldosh va zid ma'noli so'zlar, olinma so'zlar, tarixiy va arxaik, yangi va eskirgan, ixtisosiy atamalar, paronimlar, shevaga oid so'zlar aniqlanadi; so'z yasalishida asos, qo'shimcha, old qo'shimchali so'zlarning ma'nodosh va uyadoshlari topiladi; *morfologiyada* so'zlarning grammatik ma'nosi, so'z turkumlari (mustaqil so'zlar: ot, sifat, son, olmosh, ravish, fe'l; yordamchi so'zlar: bog'lovchi, ko'makchi, yuklama; alohida guruhga kiruvchi undov, modal, taqlid so'zlar) yuzasidan egallangan leksik-grammatik bilimlar boyitiladi, nutqda namoyish qilinadi. Shu asosda o'quvchilarning so'z yasalishi, leksikologiya, morfologiya, so'z turkumlari mavzusini to'liq o'zlashtirishi ta'minlanadi, nutq birliklari, tushuncha va atamalarni izchil sharhlash kompetensiyasi mustahkamlanadi.

Modulning 2-bosqichida avval tanlangan tayanch so'zlardan gap (matn) qurilishiga xizmat qiluvchi, mazmun va yo'nalishni aniqlash-tiruvchi nutqiy birliklar, so'z qo'shilmalari, erkin SBni hosil qilish, tasviriy ifodalar tanlash, SBSining lug'aviy ma'nolarini sharhlash ishlari yo'lga qo'yiladi. O'quvchi ongida so'zlarni o'zaro birlashtirishni qulaylashtiradigan "hokim so'z + tobe so'z" SBsi qoliplaridan unumli

foydalanish [181; 24–30], hosil qilingan SBlarini qiyoslash, gap uchun keraklilarini tanlash kompetensiyasi shakllantiriladi.

Ona tili mashg'ulotlarida ma'nodosh, uyadosh, qofiyadosh so'zlar, SBlarini hosil qilishni o'rgatish, o'quvchiga gap yoki she'rqatorlar tuzishda nutqiy birliklarni guruhlash va tanlash imkoniyatini beradi. Bunday imkoniyat esa ijodiy fikrlash, izlanish, nasriy va nazmiy matnlar yaratish uchun nihoyatda zarur.

An'anaviy til o'qitish metodikasida, ona tili fani o'quv dastur va darsliklarida CBlari hosil qilish mashqlariga kam ahamiyat berilgan. Vaholanki, SBning fikr elementi bo'lgan tushunchani aniqlashtirish, bo'rttirish, uni xilma-xil va qiziqarli shaklda ifodalash, mazmuni boyitish, fikrni tiniqlashtirish, ta'sirchanlikni oshirishdagi o'rni beqiyosdir. Masalan, inson – umumiy tushuncha; mehnatkash, halol inson – xususiy, bo'yoqdor tushuncha ekanligini farqlash o'quvchida nutq madaniyatini shakllantirishning [90; 202: 52-66] ishonchli omilidir.

Ma'lumki, tilshunoslikning so'z haqidagi bo'limi – *leksikologiya* va so'z birikmasi va gap to'g'risidagi bo'limi – *sintaksis* sathlari farqlanadi. Ularning o'zaro aloqadorlik va uyg'unlikda namoyon bo'lishi bog'lanishli nutq, ya'ni matnni hosil qiladi. Shunga ko'ra **til o'qitish metodikasida uyadosh SBlari hosil qilish hodisasiga leksik-morfologik sathdan sintaktik sathga o'tish halqasi sifatida qarash lozim.**

SB sintaktik birlik sanalsa-da, tugal fikr ifodalamaydi, asosan fikr elementi tushunchani aniqlash, ta'kidlash, bo'rttirish uchun xizmat qiladi va shu jihati bilan gapdan farqlanadi. Ona tili darslarida SB hosil qilish mashqlari bilan shug'ullanish, so'z va atamalarni to'g'ri, grammatik - sintaktik me'yorlar asosida birlashtirish kompetensiyasini shakllantirishga xizmat qiladi. "MYBT-4" ning 2-bosqichida SBlari hosil qilishda quyidagi topshiriqlardan foydalanish yaxshi samara beradi:

1-topshiriq. Berilgan SBga so'roq berish orqali hokim va tobe so'zlar, ularning bog'lanish usulini aniqlang.

2-topshiriq. "Ot+ot" SB qolipi asosida nutqiy birliklar hosil qiling. Namuna: Otamurodning orzusi, otasining bolasi, ustozning yubileyi, navkarning ota yurti, xarsangtoshdagi mixxat, videoklip muxlisi; "sifat+ot" qolipli SBlari: nurafshon orzular, baxtli bolalik;

“son + sifat + ot”, “son + ot + sifat + ot” qolipli SBlari: besh qavatli bino, o‘n kishilik to‘kin dasturxon”.

5–9-sinf o‘quvchilarini SB qoliplaridan unumli foydalanish, ulardan turli tarkibdagi sintaktik birikmalar hosil qilishga o‘rgatish foydali (8-ilovaga qarang).

1. “ot+ot” qolipli SBlari: yoshlik orzusi, orzular tantanasi, shaharning ko‘chasi, dadamning ko‘zoynagi, tog‘ rayhoni, tog‘ lolasi, bahor nafasi.

2. “sifat+ot” qolipli SBlari: kichik hikoya, qiziqarli teleko‘rsatuv, ilmiy kitob, sovuq havo, jasur yigit.

3. “son+ot” qolipli SBlari: beshta qo‘y, bir yuz beshinchi xona, uchdan bir qism, bir ming besh yuz so‘m (dirham, dollar, evro, frank) o‘n ikki dinor.

4. “olmosh+ot” qolipli SBlari: mening orzuim, allakimning gapi, o‘zimizning odam, o‘sha kecha,

5. “ot+fe‘l” qolipli SBlari: uyga kirmoq, olov yoqmoq, suv sepmoq, kunning o‘tishi, mehnatni sevmok. SBlarining ma‘nodoshligi, o‘xshatish va ibora holatidagi muqobillarini topish, ulardan gap mazmuniga mosini tanlash, o‘quvchida mazmundor gaplar tuzish, nutqiy mahorat, individual uslubning shakllanishiga qulay imkoniyat yaratadi (3,4-jadval).

3.4-jadval

“Bir zumda” SBning nutqiy variantlari

| ma‘nodoshlar | o‘xshatishlar | iboralar |
|---|--|---|
| bir zumda, bir onda, bir damda, bir nafasda, bir lahzada, bir soniyada, bir sekundda, bir daqiqada... | qushdek uchib, shamoldek elib, eldek uchib, quyundek elib, o‘qday uchib, | ko‘z ochib-yumguncha, oyog‘i erga tegmay, oyog‘ini qo‘liga olib, o‘pkasini qo‘ltiqlab, nafasi og‘zi (bo‘g‘zi)ga tiqilib |

So‘z (quruvchi) umumiy tushunchani anglatsa, SB aniq (mashhur quruvchi) tushunchani anglatadi. So‘z bir tushunchani ifodalasa, SBda birdan ortiq tushunchalar o‘zaro munosabatga kirishadi. So‘zning ishlatilish doirasi keng, shu sabab, yo‘nalish

mavhum. SBda esa bu doira torayadi, mavhumlik yo‘qolib, fikr tiniqlashadi, yo‘nalish ko‘rinadi. Masalan, “a’lochi o‘quvchi” birikmasida o‘quvchining asosiy bir belgisi namoyon bo‘lgan va shu bilan u muayyanlik kasb etgan. Yuqoridagi misollardan shu narsa aniq ko‘rinadiki, *SBning kengayishi undagi xususiylik belgisini oshiradi va mazmunning tiniqlashuviga olib keladi.*

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan SB qoliplari va ularda so‘zlarning bog‘lanish usullari, hokim va tobe so‘zlarning gapda bajaradigan vazifasini bilish o‘quvchi uchun foydali, ammo pirovard maqsadi nutqiy kompetentlikka erishish bo‘lgan o‘smir intellekti hokim va tobe so‘zlarning farqi va ilmiy talqinlariga emas, bir mavzuga oid turli shakl va mazmundagi SBlarini ko‘proq hosil qilishga qaratilishi foydali. Zero, ona tili ta’limining maqsadi o‘quvchining mustaqil fikrlash, fikr mahsulini to‘g‘ri, ravon ifodalash, gap tuzishda eng zarur so‘zlarni ishlatish, ixcham, madaniy nutq kompetensiyasini shakllantirishdan iborat. Modulning 2-bosqichida o‘quvchi nutqiy zahirasini boyituvchi, ijodiy tafakkurni harakatga keltiruvchi LSQlar turi va shakli ko‘paytirilishi, egallangan nutqiy kompetensiyalarni malakaga aylantirishning yangi-yangi usullari joriy etilishi lozim.

Quyida 5–sinf o‘quvchilari uchun “ot+ot” va “sifat+ot” tarkibli qoliplar asosida SB hosil qilish usullaridan namuna berildi.

| “Ot+ot” qolipli SB | | “Sifat+ot” qolipli SB | |
|---------------------------|------------|------------------------------|-----------------|
| Kimning | nimasi? | Qanday | kim? |
| | qalbi | bilimli | |
| | tartibi | zukko | |
| | orzusi | ziyrak | |
| o‘quvchining | quvonchi | mehribon | o‘quvchi |
| | idroki | iste’dodli | |
| | xotirasi | a’lochi | |
| | qobiliyati | g‘ayratli | |

“MYBT–4” modulining gap tuzish kompetensiyasini rivojlantirish va mustahkamlashga qaratilgan 3-bosqichi ham sintaksis bo‘limiga oid faoliyat bo‘lib, u o‘quvchi uchun nihoyatda qiziqarli, izlanishga, kashf qilishga etaklovchi o‘quv topshiriqlari.

fikrni turli shakl va mazmunda yozma ifodalash hosilalaridan tarkib topadi. 3-bosqichda bir yoki bir necha SBlaridan foydalangan holda uslubiy ravon gaplar tuzish, mazkur jarayonda soʻz kengaytiruvchi (aniqlovchi, toʻldiruvchi) va gap kengaytiruvchi (hol) boʻlaklardan unumli foydalanish, sodda yigʻiq gaplarni sodda yoyiq gaplarga aylantirish, sodda gaplarni undalma, kiritma, ajratilgan boʻlaklar bilan murakkablashtirish, gaplarni kengaytirish yoki ixchamlash, boshlanish yoki tugallanish qismi berilgan gaplarni toʻldirish, axborotni takomillashtirish bilan shugʻullanish yaxshi natija beradi. Masalan:

1. Aloviddin qarasa... 1.1 Aloviddin qarasa, dev uning barcha xohishini bajaradigan. 1.2. Aloviddin qarasa, “doʻsting uchun zahar yut” deganlaridek, dev uning barcha xohishini bajaradiganga oʻxshaydi. 2. ... bor sirini unga toʻkib soldi.// 2.1. Shu kunlarda boshini qayga urishni bilmay yurgan Aloviddin devga bor sirini toʻkib soldi., kabi ijodiy topshiriqlarni bajarish oʻquvchi uchun nihoyatda qiziqarli. Shuningdek, bu bosqichda oʻquvchi shaxsi, uning ichki dunyosi, maʼnaviyatini shakllantiruvchi psixolingvistik topshiriqlar (qarang, 18-ilova) ustida ishlash ham oʻquvchiga oʻz nutqiy qobiliyati, maʼnaviyati, dunyoqarashi, isteʼdodi, qolaversa, intellektual darajasini namoyish qilishga imkon beradi. Shuningdek, “Gaplarni sheʼrqatorlarga aylantiring”, “Misradagi soʻzlarning oʻrnini va oʻzini almashtirib koʻring” kabi ijodiy oʻquv topshiriqlari: *Bahor kelishi bilan qorlar erib, bogʻu rogʻlar, dalalar yam-yashil maysalar, naʼfis qizgʻaldoqlar bilan qoplandi* (gap). *Keldi bahor, eridi qorlar, yashillikka burkandi bogʻlar. Koʻkragida koʻz ochgan lola visolidan sarxush koʻk togʻlar* (sheʼrqator) ustida ishlash oʻquvchi nutqining boyishi, tafakkurining kengayishi, nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasining oʻsishi va mustahkamlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn mavzusiga oid sodda yigʻiq, sodda yoyiq, uyushiq boʻlakli, kirish soʻzli, undalmali qoʻshma, koʻchirma va oʻzlashtirma gaplar hosil qilish, ulardagi tinish belgilari, grammatik-sintaktik mashqlar ustida mustaqil ishlash, ijodiy oʻquv topshiriqlarini bajarish, gaplardagi imloviy-uslubiy xatolarni aniqlash va bartaraf etish faoliyati “MYBT-4” modulining 3-bosqichiga tegishli. Shundan soʻng tuzilgan gaplardan matn uchun kirish, asosiy qism,

xulosa sifatida zarur bo'ladiganlarini ajratish kabi tahririy-uslubiy ishlar bajariladi. Shu bilan modulning 1-, 2-, 3- bosqichidagi ishlar o'z nihoyasiga yetkaziladi.

Matn yaratish modulining 4-bosqichi o'quvchini ona tili ta'limining yakuniy natijasi bo'lmish matn, uning tarkibiy qismlari (xatboshi va MSBlar, kirish, asosiy qism, xulosa) bilan yaqindan tanishtiradi, xususiyan umumiyga qarab boruvchi matn yaratishning innovatsion texnologiyalaridan foydalanish usullarini o'rgatadi.

Modulning 4-bosqichida 1-,2-,3-bosqichlarda jamlangan nutqiy birliklar zahirasidan foydalanib, ilmiy, badiiy, publitsistik, rasmiy, so'zlashuv, monologik va dialogik, nasriy va nazmiy matnlar yaratish, ularni takomillashtirish, matnning umumiy tahriri ustida ishlash, shuningdek, o'quvchida matn yaratish kompetensiyasining shakllanganlik darajasini aniqlash, baholash va mustahkamlash ishlari bajariladi.

Ta'lim muassasalarida olib borilgan ko'p yillik ilmiy-tadqiqot, tajriba-sinov ishlari, tilni tizimli, sathlararo va fanlararo aloqadorlikda o'rganish, o'quvchi nutqiy malakasini ijodiy tafakkur bilan o'zaro uyg'unlikda rivojlantirish, til imkoniyatlaridan foydalanish darajasini aniqlash va baholashga qaratildi. Slaydlar asosida tasnifiy-grammatik matnlar yaratish, o'quvchi bilimni tizimli rivojlantirish jarayoni, nutqiy kommunikativ kompetentlikni ta'minlashning neyrodidaktik mexanizmi hisoblangan "MYBT-4" modulining ishlab chiqilishi va ona tili ta'limi amaliyotiga izchil joriy etilishi bilan yakunlandi. O'zbek tili o'qitish metodikasi fani ta'limga kompetensiyaviy yondashuvga, tilni tizimli o'rganish texnologiyasiga asoslangan navbatdagi taraqqiyot davriga o'tdi.

Tilni tizimli o'rganish va mustaqil matn yaratishning innovatsion texnologiyasi "MYBT-4" moduli umumiy o'rta ta'lim muassasalarida sinovdan o'tkazildi, olingan natijalar pedagog xodimlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti ona tili kursi qatnashchilari muhokamasiga taqdim etilib, ijobiy baholandi. "MYBT-4"ning 2002 yilda nashrdan chiqqan "O'qituvchi kitobi" tarkibiga kiritilganligi, UO'TM tajriba-sinov maktablarida ona tili ta'limini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil etilishiga zamin bo'ldi. Olingan natijalarga ko'ra modul topshiriqlari o'quvchining til imkoniyatlaridan foydalanish kompetensiyasini 4 bosqichli

tizimda uzluksiz shakllantiradi, rivojlantiradi va mustahkamlaydi. O'quvchining nutqiy kompetentlik darajasi, nutqiy mahorati ham mazkur tizimda matn yaratish jarayonida xolisona aniqlanadi va baholanadi. Quyida "MYBT-4" asosida 5-9-sinf o'quvchilarining ***nutqiy kompetentlik darajasini aniqlash va baholash uchun*** o'tkazilgan nazorat ishining namunasi berildi:

Topshiriq. O'quvchi tomonidan "MYBT-4" moduli tizimida yaratilgan matnni ***bosqichlar kesimida baholash mezonlari*** asosida tekshirib, o'quvchi nutqiy kompetentlik darajasini aniqlang.

Baholash mezonlari 1-bosqich: ***a'lo*** –25 ta so'z, ***yaxshi*** – 15 ta so'z, ***o'rta*** – 5–10 ta so'z; 2-bosqich: ***a'lo*** – 35 ta SB, ***yaxshi*** – 25 ta SB, ***o'rta*** – 10–15 ta SB; 3-bosqich: ***a'lo*** – 10 ta sodda va qo'shma gaplar, dialog tuzish, ***yaxshi*** – 8 ta sodda va qo'shma gap tuzish, ***o'rta*** – 3–5 ta sodda yoyiq gap tuzish; 4-bosqich: ***a'lo*** – matn tarkibi to'g'ri shakllantirilgan, uslubiy va imlo xatosi yo'q, ixcham, sarlavha mazmunga mos, fakt va dalillar to'g'ri, dialog, iqtibos, maqol yoki hikmatli so'zlardan o'rinli foydalanilgan; ***yaxshi*** – matn tarkibi to'g'ri shakllantirilgan, 1-3 ta imlo xato mavjud, fikr doirasi keng, sarlavha mazmunga mos, fakt va dalillar o'rinli, iqtibos yoki maqoldan foydalanmagan; ***o'rta*** – matn tarkibi to'liq shakllantirilmagan, 4-8 ta imlo xato mavjud, fikrlash doirasi tor, matn sodda gaplardan iborat, sarlavha mazmunga mos, fakt va dalillar mavhum, dialog yoki maqoldan foydalanilmagan holatlarda qo'yiladi.

Bajarish tartibi:

1-bosqich. ***So'z tanlash faoliyati***: yozuv, kitob, darslik, o'quvchi, ilm...

2-bosqich. ***SBlari hosil qilish faoliyati***: foydali kitob, yangi ona tili darsligi, 7-sinf o'quvchisi, to'rt qavatli yangi maktab...

3-bosqich. ***Gap tuzish faoliyati***: 1. Inson uchun eng zarur, dunyoning ishlaridan voqif qiluvchi narsa – kitob. 2. Darsliklar esa bizlarning ijtimoiy-siyosiy bilimlarimizni oshirib, ma'naviy dunyoqarashimizni kengaytiradi. 3. Bu yil nashrdan chiqqan, yangi "Ona tili" darsligi sinfdagi a'lochi o'quvchilarga tarqatildi. 3. 7-sinfning a'lochi o'quvchisi Omon Farhodov tanlov asosida yangi maktabning iqtidorlilar sinfiga o'qishga qabul qilindi...

4-bosqich. ***Matn yaratish faoliyati***. Bashariyat o'zining ijtimoiy taraqqiyoti davomida yaratgan eng buyuk kashfiyotlardan biri –

yozuv va kitobdir. O'rxun-Enasoy toshbitiklari ham, mol terisiga bitilgan buyuk "Avesto" ham bizgacha belgi va yozuvlar vositasida etib kelgan...

Modulning 1-4-bosqich topshiriqlarini o'quvchi o'z nutqiy kommunikativ kompetensiyasiga tayanib davom ettiradi. Bajirilgan nazorat ishi belgilangan mezonlar asosida tekshirilib, baholanadi.

Umumta'lim maktablarining 5-9-sinflarida "MYBT-4" modulidan foydalanishning imkoniyatlari keng va xilma-xil. Modulning har bir bosqichi o'quvchi bilimi va o'qituvchi ixtiyoriga qarab alohida yoki birgalikda ishlatilishi, mavzuga mos so'zlar tanlash, SBlari va gaplar tuzish bilan cheklanilishi yoki, aksincha, modulning 4 bosqichli mexanizmi to'liq ishga solinib, matn yaratilishi mumkin.

O'qituvchi o'quvchilarga modul tizimida turli topshiriqlar berishi mumkin. Masalan, "MYBT-1,2" asosida mavzuga oid so'zlar tanlab, ulardan SBlari hosil qiling; "MYBT-2,3" asosida mavzuga oid SBlari hosil qiling, ulardan badiiy bo'yodqor gaplar tuzing yoxud "MYBT-4" modul topshiriqlari asosida kichik matn yarating.

Mazkur ijodiy faoliyat o'quvchida mustaqil fikrlash, aniq maqsadga intilish-matn yaratish kompetensiyasini shakllantiradi, malakaga aylantiradi. "MYBT-4" moduli tizimida ishlash test topshiriqlaridan farqli o'laroq o'quvchidagi nutqiy layoqatning to'rt komponenti sanalmish qobiliyat, idrok, tafakkur va xotiraning "...o'zaro uyg'unlik va uzluksizlikda harakatlanishi" [50; 184; 185], MYKSHning dinamik rivojlanishi va takomillashib borishini ta'minlaydi. Ona tili ta'limida tilni tizimli o'rganish, mustaqil matn yaratish mavzusini takomillashtirishga xizmat qiluvchi "MYBT-4" moduli topshiriqlari o'quvchining nutqiy kommunikativ kompetentlikka erishishida muhim rivojlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi.

Nutqiy kompetensiyalar integratsiyasi va uning "MYBT-4" tizimida moddiylishuvi. Ma'lumki, ona tili o'qitish metodikasining asosiy vazifasi ta'limga kompetensiyaviy yondashuv texnologiyasiga o'tish, tilni yaxlit bir sistema sifatida o'rganadigan ta'limni ona tili amaliyotiga joriy etishdan iborat. Zero, inson ongi, xotirasi va shaxsiy tasavvurida mavjud bo'lgan til hodisalarini anglash va ularni individual nutqda qo'llash murakkab psixolingvistik jarayon

sanaladi. U modul tizimida mavzuga oid soʻz va atamalar tanlash, ularning lugʻaviy maʼnosini sharhlash (1-bosqich) faoliyati, soʻzlardan mavzu doirasida SBlari hosil qilish faoliyati (2-bosqich), soʻz va soʻzshakllardan, SBlaridan, ot kesim va feʼl kesimlardan foydalanib, gaplar tuzish, fikrni nutqiy vaziyatga mos ohangda toʻgʻri talaffuz qilish, gap tuzishda tilning leksik-grammatik imkoniyatlaridan oʻrinli foydalanish (3-bosqich), oʻquvchi tomonidan mustaqil yaratilgan nutqiy birliklardan foydalangan holda reja asosida matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi (4-bosqich). Matn yaratish modulining bosqichli tizimi oʻquvchini toʻgʻri soʻzlash, toʻgʻri oʻqish, toʻgʻri yozish, toʻgʻri gap tuzishga yoʻnaltiruvchi nutqiy kommunikativ kompetensiyalarning tizimli shakllanishini kafolatlovchi mustaqil taʼlim texnologiyalaridan tarkib topgan.

“MYBT–4” yoʻnalishida tuziladigan matnlar uch guruhga boʻlinadi:

1-tur matnlarga oʻrganilayotgan til mavzusiga oid soʻz va atamalar asosida yaratiladigan ilmiy-ixtisosiy matnlar kiritiladi. Bunday matnlar oʻrganilgan nazariy va amaliy bilimlarni mustahkamlash, psixologik omillar: mustaqil fikrlash, idrok, xotira, tafakkur egallangan nutqiy kompetensiyaning yaxlitlashuvi jarayonida dunyoga keladi.

Modul asosida yaratiladigan **2-tur matnlar** tayyor manbalar – rasm yoki grafik chizmalardan foydalanish mumkinligi bilan 1-tur matnlardan farqlanadi. Matn uchun tanlanadigan tayanch soʻzlar rasm yoki avval oʻrganilgan soʻz turkumlari, shu turkumga xos SBlari, hikmatli soʻz, iboralardan tuziladi (Masalan, berilgan topshiriq “Olmosh soʻz turkumi” nomli tasnifiy matn yaratish boʻlsa, tayanch soʻzlar tanlash qamrovi olmosh mavzusiga oid atama va tushunchalar, belgi, miqdor, harakat nomlari, ularga maʼnodosh va uyadosh soʻzlar, olmosh ishtirok etgan maqol va iboralar bilan boyitiladi).

3-turdagi matnlar esa qisman ijodiy ishlar guruhiga kiritilib, ular oʻquvchida ijodiy tafakkur, xususiy uslubning shakllanishiga xizmat qiladi. Oʻquvchi boʻlgʻusi matn uchun tayanch soʻzlar tanlashi, matn uchun lugʻaviy manba sifatida adabiyot darsligi, videotasvir, multfilmlardan foydalanishiga toʻgʻri keladi. Monografiya ilovasida oʻquvchilarni “MYBT–4” moduli asosida

ijodiy matn yaratishga tayyorlash uchun mo'ljallangan mustaqil ishlardan namunalar keltirildi (qarang, 9-ilova).

O'quvchi modul talablarini bajarish jarayonida ijodiy izlanishi, so'zlarning lug'aviy ma'nolari ustida atroflicha mushohada yuritishi, ulardan foydalanib, yangi birikmalar hosil qilishi, ularni guruhlashi, o'zaro qiyoslashi, yaratilajak gap yoki matn uchun eng maqbulini tanlashi mumkin. Bundan tashqari, ijodiy-nutqiy kompetentlikning rivojlantirilishi kutilmagan ijobiy natijalarga olib kelishi (she'riy matn yaratish imkoniyati) umumta'limning 5-9 -sinf o'quvchilarida o'tkazilgan tajriba-sinovlarda kuzatildi.

O'qituvchi modul tizimida nazorat ishi o'tkazishda qaysi bosqichlar qamrab olinishini ramz-raqamlar vositasida ko'rsatishi mumkin. Masalan, "MYBT-4" belgisida modulning har bir bosqichi birma-bir ishga tushirilib, 4-bosqichda matn yaratilsa, "MYBT-1" belgisi (1-bosqich) o'quvchida imlo, talaffuz, so'z boyligini oshirish, nutq o'stirish kompetensiyasini shakllantirish va mustahkamlashni anglatadi, ya'ni unda mavzuga oid tayanch so'zlar tanlanib, imlo qoidalari asosida yoziladi, turkumlarga ajratilib, guruhlanadi, so'z va atamalarning leksik ma'nolari sharhlanadi. "MYBT -1,2" belgisi ostida esa mavzu doirasida tayanch so'zlar tanlash, ularga ma'nodosh va uyadosh so'zlar topish, so'ng ular ishtirokida uyadosh SBlari hosil qilish, ularni kengaytirish va ixchamlash, nutqiy birikmalar mazmuni, o'zaro farqini sharhlash mashqlari bilan shug'ullaniladi. MYBT -1,2,3 ramzi ostida esa birin-ketin uch bosqichda ishlab, nutqiy birikmalar (so'z va atamalar, so'z birikmalari, gaplar) hosil qilish, tuzilgan gaplarni ixchamlash, kengaytirish, gapda ishlatilgan nutq birliklarini o'zgartirish, o'zgarish sababini izohlash (nutq o'stirish) jarayonida o'quvchini matn yaratishga tayyorlash tushuniladi. Agar topshiriqda matnga oid tayanch so'zlar berilsa, matn yaratish faoliyati modulning 2-bosqichidan, ya'ni SBlari hosil qilishdan boshlanadi, agar topshiriqda tayyor SBlari berilgan bo'lsa, mustaqil ish 3-bosqichdan – gap tuzish faoliyatidan boshlanadi ("MYBT-3,4"). Quyida MYKSH uchun maxsus tayyorlangan "MYBT-4" moduli topshiriqlari tizimi o'quvchilar so'z boyligini oshirish, og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish, nutqiy kompetentlik darajasini aniqlash, mustahkamlash va yuksaltirishga qaratilgan.

1. "MYBT-2,3,4". Berilgan soʻzlar bilan matn yarating. *Ilm, kitob maktab*. 2. "MYBT-4". Oʻrganilgan mavzu boʻyicha tasnifiy matn yarating. "Ot soʻz turkumi". 3. "MYBT-4". Sayohat taassurotlari boʻyicha matn yarating. 4. "MYBT-2,3,4". Berilgan SB asosida matn yarating: *maktabning hovlisi*. 5. "MYBT-4". Rasmga qarab matn yarating, matnga sarlavha tanlang. 6. "MYBT-4". Berilgan sarlavha asosida matn yarating: "*Qish*". 7. "MYBT-4". Oʻz maktabingiz va oʻqituvchilaringiz haqida matn yarating, matnga sarlavha tanlang. 8. Muammoli topshiriqqa yechim matni yarating. "Sizda bitta ortiqcha daftar bor. Sizdan ikki oʻrtogʻingiz daftar soʻrashdi. Siz nima qilgan boʻlardingiz?" 9. Oʻrganilgan badiiy asar yuzasidan kichik referat yozing. 10. Oʻrganilgan rivoyat mazmunini yozma sharhlang. 11. Berilgan hikmatli soʻzning milliy axloq doirasi, sharqona maʼnaviyatni targʻib qiluvchi, tarbiyaviy ahamiyatini sharhlang. *Mehr va sadoqat ramzi ayoldir, ayolga eng nafis bezak hayodir*. 12. "MYBT-4". Berilgan turgʻun iborani bir soʻz bilan ifodalang. Kichik matn yaratib, unga sarlavha tanlang. "*Yulduzni benarvon uradi*". 13. "MYBT-4". Qofiyadosh soʻzlar tanlang, ulardan SB va sheʼrqatorlar hosil qilib, kichik nazmiy matn yarating: *keladur*. 14. "MYBT-4". Hajviy rasmlardan foydalanib, modul asosida matn yarating. 15. MYBT-4". Slaydlar asosida tasnifiy matn yarating. 16. "MYBT-4". Slaydlar asosida qiyosiy-tasnifiy matn yarating. 17. "MYBT-3,4". Slaydlar asosida savol va topshiriqlar tuzing. 18. "MYBT-2,3,4". Slayd asosida test topshiriqlari matni tuzing. 19. "MYBT-3". Oʻrganilgan mavzu yuzasidan nazorat testlari tuzing. 20. "MYBT-4". Nasriy va nazmiy janrda reklama matnlari yarating. 21. "MYBT-4". Bolalar uchun kichik sheʼrlar yozing. (MYKSH mashqlari uyga vazifa qilib berilishi ham mumkin) 22. "MYBT-4". Yozgi taʼtil haqida oʻrtogʻingizga kichik maktub yozing. 23. "MYBT-3,4". Nafaqadagi oʻqituvchilar, fermerlardan intervyu oling. 24. "MYBT-4". Ishlab chiqarilgan mahsulotlarni sotish uchun reklama matnlari tayyorlang (oʻyin-musobaqa). 25. "MYBT-4". "Tabiatni asrang" mavzusida dialogik matn yarating. 26. "MYBT-4". Ota-onangiz, doʻstlaringizni bayram, tugʻilgan kuni bilan yozma tabriklang.

Bundan tashqari, 5-9-sinf oʻquvchilarini matn tuzishga yoʻnaltiruvchi *topshiriqlar* bilan mustaqil ishlash nutqiy

kompetentlikni darajasini oshiradi: 1. "MYBT-4". Taklifnoma, tabriknoma, e'lon matnlari tuzing. 2. "MYBT-4". Nutqiy vaziyatli dialog, monologlar yozing. 3. "MYBT-4". Tarbiyaviy soat uchun kichik ma'rifiy matn yarating: "Tozalik go'zallikdir". 4. "Jismoniy tarbiya – sog'liqni mustahkamlash garovi" sarlavhali matn rejasini tuzing. 5. "MYBT-4" moduli haqida "Tilimiz imkoniyatlari" nomli ma'rifiy matn yarating. 6. "MYBT-4". "Oilaviy bayram" mavzusida kichik hikoya yozing. 7. "MYBT-4". Maktab gazetasiga sport mavzusida maqola yozing. 8. "MYBT-3,4". Mashhur shaxslardan intervyu oling. 9. "MYBT-4". Berilgan hikmatli so'z, iboralar asosida matn yarating. 10. "MYBT-4". Sinfdosh o'quvchining maqolasiga taqriz yozing. 11. "MYBT-4". Muayyan bir mavzuda ("Suv", "Er") kichik ma'ruza matni tayyorlang. 12. "MYBT-4". Berilgan tasviriy ifodalar ishtirokida matn yarating. 13. "MYBT-4". Peyzajga (natyurmort, shahar, kutubxona, savdo rastasi, havo layneri, transport vositalari, osmon jismlari, ta'lim maskani, sport musobaqalari rasmi) qarab, tasviriy matn tuzing. 14. "MYBT-4". Videoklip, uyali aloqa vositasi, flesh haqida matn yarating. 15. "MYBT-4". O'zingiz yashaydigan shahar va uning tarixiy inshootlarini tasvirlovchi ma'rifiy matn yarating. 16. "MYBT-4". Sport mashinalarini o'zaro qiyoslab, matn yarating. 17. "MYBT-4" Ona tili darsini tasvirlovchi matn yarating. 18. "MYBT-4". O'rtog'ingizning yaxshi fazilatlari haqida matn yarating. 19. "MYBT-4". Yaxshi ko'rgan o'qituvchingiz haqida matn yarating. 20. "MYBT-4". "Bobomning o'gitlari" nomli matn yarating. 21. "MYBT-4". Berilgan muammoning to'g'ri yechimini toping. "Ruchkam uyda qolibdi...". 22. Berilgan matndan sifatlarni ajrating, "MYBT-2,3,4" bosqichli kichik matn yarating. 23. "MYBT-4". "Kitob – bilimlar xazinasi" mavzusida kichik matn yarating. 24. "MYBT-4". "Til bilmoq – el bilmoq" mavzusida matn yarating. Matn doirasida muammoli savollar tuzing. 25. Berilgan matn personajlari nutqini sheva so'zlari, yumor bilan boyiting, xulosani takomillashtiring. 26. "MYBT-4". Elektron pochta uchun qisqa xabar (tabrik, axborot, taklif) matni yarating. 27. Yaratilgan matnni tahrir qiling (bunda imloviy-uslubiy xatolarni topish va bartaraf etish, matnni ixchamlash, kengaytirish yangi ma'lumot qo'shish, yangi sarlavha tanlash ishlari bajariladi. Matnning xulosasi maqol, matal,

hikmatli soʻzlarning biri bilan boyitiladi). 28. “MYBT-4”. Maktab gazetasiga “Quvnoqlar va zukkolar” bellashuvi, “Yozgi taʼtil”, “Maktabimiz hayoti” mavzularidan birini tanlab maqola yozing. 29. “MYBT-4”. Slayd asosida tasnifiy matn yarating. 30. “MYBT-4”. Badiiy film, videoklipni sharhlovchi matn yarating. 31. “MYBT-4”. Ota-onangizning mehnat faoliyatini sharhlang. 32. “MYBT-4”. Oʻrtoqlaringiz yaratgan kichik loyiha matniga munosabat bildiring (taqriz yozing). 33. “MYBT-4”. Kichik yumor yoki hazil sheʼrlar yozing. 34. “Eng yaxshi hikoya (sheʼr)” koʻrik-tanlovida qatnashib, ijodiy matn yarating. 35. “Eng yaxshi muharrir” koʻrik-tanlovida qatnashib, matnni tahrir qiling. 36. “Eng yaxshi yumorist” koʻrik-tanlovi uchun kichik sahna asari yarating, uni oʻrtoqlaringiz bilan sahnalashtiring.

“MYBT-4” moduli bosqichlarida oʻquvchi ongida shakllanadigan mustaqil fikrlash, maʼnaviyat, individual uslub, madaniy muloqot va ijodiy-tanqidiy tafakkur unsurlari takomillashib, tayanch kompetensiyalar elementlari shakllanadi, oʻquvchida nutqiy kompetentlik taʼminlanadi.

Ona tili oʻqitish metodikasida MYKSHning yangi texnologiyasi sifatida taqdim etilgan tilni tizimli oʻrganish moduli umumtaʼlim maktablari ona tili amaliyotiga tajriba-sinov sifatida tatbiq etish jarayonida oʻzining ijobiy natijalarini berdi. Toʻrt bosqichli matn yaratish texnologiyasi oʻqituvchiga: 1) mavzuga oid uyadosh soʻzlar tanlash jarayonida oʻquvchi lugʻatini uzluksiz boyitib borish va nutq oʻstirishga;

2) SB hosil qilish topshiriqlari zaminida soʻzlarni oʻzaro biriktirish, tobe va hokim soʻzlarni farqlashda, leksik-semantik, grammatik-sintaktik bilimlarini mustahkamlashga; 3) SBlardan gap tuzish, soʻzni tanlab ishlatish, gapni kengaytirish va ixchamlash, fikrni yozma holda aniq, izchil, toʻgʻri, ravon ifodalash kompetensiyasini egallashga; 4) Kichik nasriy, nazmiy matnlarni yaratish, oʻquvchi ongosti tafakkur yoʻnalishlarini psixolingvistik topshiriqlar vositasida maqsadli boshqarish, amaliyot darslarida oʻquvchi intellektini ustuvor mavqega koʻtarish asosida, oʻquvchining erkin, mustaqil va ijodiy fikrlash layoqatini rivojlantirishga; oʻquvchining nutqiy kompetentlik darajasini oshirish va ijobiy oʻquv motivlarini hosil qilishga imkoniyatlar

yaratib beradi. Uning yordamida o'quvchi nutqiy kommunikativ komretentsiyasini izchil rivojlantirish mumkin.

Ilmiy tadqiqotda tavsiya qilingan tilni tizimli o'rganishning innovatsion texnologiyasi natijalari "MYBT-4" moduli topshiriqlarida o'z aksini topdi. Modulli ta'lim texnologiyasi ko'psonli tajriba-sinovlardan muvaffaqiyatli o'tib, maktab ma'muriyati va eksperimentator o'qituvchilarning e'tirofiga sazovor bo'ldi. Quyida 7-8-o'quvchilarini badiiy matn yaratishga o'rgatuvchi "MYBT-4" topshiriqlaridan namunalar tavsiya etildi.

Mustaqil ish. "MYBT-2,3,4". Berilgan atamalar ishtirokida avval SBlari, so'ngra gaplar hosil qiling: *Yo'l, ko'l, kafe, to'sin, bog', tog', vatan, xiyobon, kapalak, gulzor.*

2-bosqich. Tayanch so'zlardan SBlari hosil qiling: *suv sepilgan, toza, salqin yo'l, suviga bolalar to'r tashlagan ko'l, yangi kafe, katta milliy bog', yo'g'on, baquvvat to'sinlar, kafening tomi, eski archazor xiyobon, atirgullar bazmiga mahliyo kapalaklar, bahor tashrifidan yashnagan gulzor, ko'nglimdagi ehromimsan, Vatanim.*

3-bosqich. SBlar ishtirokida gaplar tuzing: 1. *Toshkentdagi Milliy bog'ga olib boradigan salqin yo'lak bugun odamlar bilan gavjum.* 2. *Bog'ning kiraverishiga qurilgan yangi kafe dam oluvchilar xizmatiga tayyor.* 3. *Kafening yo'g'on, baquvvat to'sinlariga o'rnatilgan bahaybat, qizil tomi ertakdagi qo'ziqoringa o'xshaydi.* 4. *Salqin suv bag'riga yonboshlagan yo'l, suviga Alpomish to'r tashlagan ko'l, ona Er ne'mati tog'u o'rmon, cho'l, qalb to'rida ehromimsan, Vatanim.* 5. *Orqa tarafdagi eski, archazor xiyobonda oq, qizil, sariq atirgullar barq urib ochilgan.* 5. *Atirgullarning turfa ifori, kamalak ranglariga mahliyo kapalaklar guldan gulga qo'nib yayraydilar.* 6. *Bahor tashrifidan yashnagan rayhonu jambillar yoqimli hidlar taratib, asta tebranadi.*

4-bosqich. Tuzilgan alohida gaplardan foydalanib, kichik matn yarating. Matnga sarlavha tanlang.

Bahor.. Milliy bog'ga olib boradigan salqin yo'lak odamlar bilan gavjum. Bog'ning kiraverishiga qurilgan yangi kafe dam oluvchilar xizmatiga shay. Yo'g'on, baquvvat to'sinlarga o'rnatilgan kafening tomi ertakdagi qo'ziqoringa o'xshaydi. Kafe orqasidagi archazor xiyobonda oq, qizil, sariq atirgullar barq urib ochilgan. Atirgul iforidan sarhush kapalaklar guldan gulga qo'nib,

yayraydilar. Bahorning iliq yomg'iridan so'ng yashnab ketgan rayhonu jambillar mayin hidlar taratib, asta tebranadi. Ona yurtim, bag'rikeng Toshkentim, senga bo'lgan farzandlik muhabbatim, sening poyingga bosh urgan Tyan-Shan tog'laridan ham yuksakroq, musafforoq...

...Qadim Sirdaryoga yonboshlagan yo'l,
 Suviga Cho'lponlar to'r tashlagan ko'l.
 Ko'zimga to'tiyo suvsiz sahro, cho'l!
 Qalb to'rida ehromimsan, Vatanim!

2. Mustaqil ish. "MYBT-2,3,4" Orzular so'zi bilan SBlari hosil qiling, gaplar tuzing:

| | | | | |
|----------------|---|--------------|------------|------------|
| orzular | } | 2.1- ish. | "ot+ot" | qolipli SB |
| | | sababchisi | maftuni | yog'dusi |
| | | beshigi | osmoni | ko'ki |
| | | sarchashmasi | zarvarag'i | to'lqini |
| | | manzili | to'foni | jilosi |
| | | makoni | tug'yoni | ifori |
| | | intihosi | gulshani | malikasi |
| | | samarasi | qasri | sasi |
| | | chamani | natijasi | sabosi... |

| | | |
|-----------|---------------|-------------|
| 2.2-ish. | "sifat+ot" | qolipli SB. |
| yangi | gard yuqmagan | nafis |
| oppoq | musaffo | so'ngsiz |
| muqaddas | foydasiz | besamar |
| mas'um | nihoyasiz | bebosh |
| shirin | bitmas - | jilovsiz |
| pok | tuganmas | lahzalik |
| nurafshon | cheksiz | o'tkinchi |
| nurli | munavvar | aldoqchi |
| yuksak | qanotli | beqaror |
| samoviy | jilvakor | nozik |
| maftunkor | g'amgin | fusunkor |



orzular

2.3-ish. Hosil qilingan SBlari ishtirokida gaplar tuzing.
Namuna:

1. Zulxumor ma'sum yoshlikning qanotli orzulariga mahliyo, shirin xayollar og'ushida o'tirardi. 2. Dugonamning orzulari egnidagi libosidek oppoq, musaffo edi. 3. Asror beqaror, o'tkinchi orzularga aldanib, o'qishni tashladi, bekorchilikdan zerikib, chet elga borib ishlab kelishni rejalashtira boshladi.

2.4-ish. O'zingiz tuzgan gaplardan foydalanib dialogik matn yarating.

Yaqinda akademik litseyini tugatib, universitetga o'qishga kirish uchun tayyorgarlik ko'rayotgan qo'shni qiz Zulxumor shirin xayollar girdobiga g'arq bo'lgan, qo'lidagi kitobga termulib o'tirardi. Qizginaning ko'zi kitob sahifalarida bo'lsa-da, xayoli uzoqlarda, beg'ubor yoshlikning qanotli orzulariga mahliyo, qadrdon dugonasi Gulchehrani ham payqamas, ko'rmas edi.

–Ha, dugonajon, orzular dengiziga g'arq bo'li-i-b o'tiribsizmi? – tegishdi Gulchehra.

4.1-ish. Matnni davom ettiring. Matn so'ngida xulosa bering.

4.2-ish. Yaratgan matningizga bir necha sarlavha tanlang. Undagi SBlarini, sodda va qo'shma gaplar, uyushik bo'lakli gaplarni ajratib sanang.

Bog'lanishli matn yaratish bo'yicha *musobaqa darslarini* o'tkazib turish ham ona tili ta'limi samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri. Musobaqa darslarida o'quvchining og'zaki va yozma nutqi, muloqot uslubi ravonlashadi. Bunday darslar ona tili faniga qiziqishni kuchaytirib, nutqiy-individual uslubning faollashuviga olib keladi. Matn yaratish musobaqalarini tashkil qilishdan ko'zlanadigan maqsad ham o'quvchilarni suxandonlikka, ijodiy-mantiqiy, tanqidiy fikrlashga qiziqtirish, nutqiy kompetensiya unsurlarini matn yaratish amaliyotida qo'llashga imkoniyat yaratishdir. O'yin-musobaqa darslari ishtirokchilar o'rtasida haqiqiy intellektual tanlanishni yuzaga keltiradi. Bu esa o'quv guruhlari orasida sog'lom ilmiy-ijodiy hamkorlik muhitini hosil qiladi.

Ona tili amaliyotida 5–6-sinf o'quvchilarini *dialogik matnlar yaratishga o'rgatish* ham MYKSHda alohida ahamiyat kasb etadi. O'quvchining dialogik matnlar yaratish jarayonida madaniy muloqot (etiket), yaxshi munosabat, hurmat ma'nolarini anglatuvchi

soʻzlardan foydalanishi matn tilini mazmundor qilib, badiiy boʻyoqdorligini oshiradi (qarang, 11-ilova).

Dialogik matnlar yaratish oʻquvchining maʼnaviy dunyoqarashini kengaytirish, uni muloqot madaniyati, sharqona mulozamat va takalluf qoidalari bilan tanishtirish, suhbatda oʻzini erkin tutishga, nutqiy madaniyatga oʻrgatadi [153; 202: 52-66].

Matn yaratishda “MYBT-4”ning izlanish, topish, guruhlash, qiyoslash, tanlash, analiz va sintez, izchil va uzluksiz ijodiy faoliyat yuritish kabi topshiriqlaridan foydalanish bilan anʼanaviy, reja tuzish asosida fikrlash oʻrtasida anchagina farq bor. Chunki oddiy reja bilan ishlanganda “MYBT-4” modulidagiday ijodiy izlanishlar, badiiy boʻyoqdor gaplar tuzish, maqol, hikmatli soʻz, ibora va tasviriy ifodalardan maqsadli foydalanish koʻzda tutilmaydi. Anʼanaviy reja asosida matn yaratishda oʻquvchi asosan xotirasiga kelgan soʻzlar yordamida oddiy gaplar tuzadi, soʻz tanlab qiynalmaydi, xotiraga kelgan javobni yozish bilan qanoatlanadi. Bunda oʻquvchi soʻz zahirasi oshmaydi, SBlarining ibora va tasviriy ifodalar bilan oʻrin almashinuvi taʼminlanmaydi, badiiy boʻyoqdor gaplarga ehtiyoj boʻlmaydi. “MYBT-4” modulida esa aksincha, bu jarayonlar uzluksiz, tizimli, bosqichma-bosqich amalga oshirilib, oʻquvchida mukammal nutq, nutqiy kommunikativ kompetentlik taʼminlanadi.

Insho amaliyoti qanchalik koʻhna va ishonchli mavqega ega boʻlmasin, taraqqiyotning hozirgi talablariga toʻliq javob bera olmay qoldi. XXI asr taraqqiyoti, masofadan oʻqitish, onlayn oʻqitish, axborot qabul qilish va uzatishning tezkor usullarini topish, uni taʼlim amaliyotiga oʻz vaqtida tatbiq etishni taqozo etmoqda. Qisqasi, insho yozishning anʼanaviy usuli “MYBT-4” moduli kabi oʻquvchi oldiga aniq, rivojlantiruvchi talab va topshiriqlar qoʻya olmaydi, matn uchun qoʻshimcha zahira hosil qilishga, ijodiy izlanish, tanqidiy fikrlash, mustaqil taʼlimga imkoniyat yaratib berolmaydi. Agar ona tili taʼlimi modul asosida matn yaratish amaliyoti bilan boyitilsa, nutqiy qobiliyati oʻrtacha boʻlgan oʻquvchi ham risoladagidek matn yarata olishi tajriba-sinovlarda oʻz isbotini topdi. Quyida “Bahor tasviri” sarlavhali kichik (2-4 gapli) matn namunasi keltirildi.

Ijodiy topshiriq. Modul asosida kichik badiiy matn yarating.

1-bosqich. Berilgan so'zga uyadoshlar tanlang. Bahor, lolaqizg'aldoq, qiz, o'rik, libos, baxmal, suv, qum, tog', yomg'ir, yoshlik, yigit, pushti, oq...

2-bosqich. SBlari hosil qiling. Bahor nafasi (nashidasi, ifori, shabadasi, quvonchlari, bayrami, epkini...); lolaqizg'aldoqlar saltanati (ummoni, mamlakati, dengizi, sehri, musiqasi, ko'rki, oroli, o'lkasi), yomg'irning suvi (yog'ishi, quyishi, hidi, jilg'asi, oqimi, loyqa suvi, mo''jizasi, shivirlashi...), hayotbaxsh (sharros, mayda, iliq, muzdek) yomg'ir suvi, baxmal qirlar, so'lim bog'lar, ko'rkam tog'lar, bahor madhiyasi, qushlar navosi, muhabbat nashidasi, sehri, ilk sevgi, o'n etti bahor arzandasi, Navro'z navolari, sumalak hidi, mayda o'rilgan soch, mayin tabassum, uzun kipriklar, oq bodroqday qiyg'os gullagan o'riklar, marvarid donalaridek yerga sochilgan gulbarglar.

3-ish. Hosil qilingan SBlaridan badiiy bo'yoqdor gaplar tuzing.

1. Bahorning bir lahzalik yomg'iri hovlida kichik ko'lmakchalar hosil qilgan. 2. Shamol, chang-to'zon aralash derazamga urilayotgan yomg'ir tomchilari o'zi bilan bahor iforini olib kelgandek. 3. Hayotbaxsh yomg'ir suviga cho'milgan daraxtlar, o't-o'lanlar oftobda yaltirab, ko'zni qamashtiradi. 4. Yashil bog'lar, baxmal qirlar, uylarning keng ayvonlari qaldirg'ochlarning so'ngsiz qo'shig'i bilan to'lgan, uyg'unlashgan, g o'yoki afsonaviy jannatning o'zi er yuziga tashrif buyurgandek. 5. O'n etti bahor arzandasi – muhabbat tashrifidan sarxush ko'klamning sho'xliklari tugamaydi. 6. Bahor – bu gullar saltanati, gul esa ezgulik, muhabbat, sevgi va sadoqat ramzi. 7. Chaman-chaman o'rik gullari orasidan go'zal Navro'z mo'ralaydi, go'yo jamalaksoch qizlar, sho'x o'spirinlar bazmiga aylangan sumalak hidini tuyganday. 8. Bahor – ko'ngil qasrining arzanda me'mori, uning tashrifidan har qanday insonning dili yorishadi, ko'zlari ravshan tortadi, unda tabiatga, hayotga, borliqqa, ona-Vatanga mehru muhabbat uyg'onadi (jami 8 ta gap).

Matn yaratish modulining 4-bosqichida yarim tayyor matn DTS talablari darajasida, tarkibiy qismlarni to'g'ri, izchil shakllantirish ustida ishlash, yaratiladigan matnning ixcham rejasini ham tuzish mumkin. Bu reja o'quvchiga matn qismlarini ajratish, tartibga solish, mavjud manbalardan unumli foydalanishga imkon beradi, matn to'g'ri, tezkor shakllantirish uchun

yordamchi manba vazifasini o'taydi. Ular o'quvchiga keng qamrovli, dalillarga asoslangan, qiziqarli matn yaratish, tezkor fikr ifodalashga yordam beradi. Demak, o'quvchilarda matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish reja tuzishdan emas, matn yaratish faoliyatiga tayyorlanish (1-,2-,3-bosqichlarda ishlash)dan boshlanishi maqsadga muvofiq. Modul tizimida ishlashni o'rgangan o'quvchi erkin mavzudagi inshoga reja tuzishda ham ortiqcha qiyinchilik sezmaydi.

4-ish (8-9-sinflar). Yuqorida tuzilgan gaplardan foydalanib, badiiy-ramziy matn yarating. Matnga sarlavha tanlang.

Hayotbaxsh, iliq yomg'irdan so'ng charaqlab ketgan bobo-quyosh, yorug' dunyodagi barcha mavjudotlarga qaytadan quvonch baxsh etmoqchidek, yorqin nur sochadi. O'riklarning novdalarida bu yorug' dunyo ajoyibotlarini ko'rishga, hayot go'zalligini tuyishga orzumand kurtaklarning yoqut marjonlari tizilgan. Afsonaviy ko'klam ifori-yu go'zal Navro'z tashrifiga, antiqa gullarning husnu tarovatiga intizor ular. Qir-u adirlar ko'ksini barqut maysalarga to'ldiruvchi, inson zotiga yashash va yaratish ishqini tuhfa etuvchi fasllar malikasi u. O'rik gulining pushtirang tabassumidan sehrlangan otash muhabbat yana rom etmoqchi ma'sum dillarni. Bahor – bu gullar saltanati, gul esa ezgulik, muhabbat, sevgi va sadoqat ramzidir.

Sarlavhalar: Bahor ifori, O'rik guli, Navro'z tashrifi, Ona er mo'jizasi, Fasllar kelinchagi, Fasllar malikasi, Bahor - gullar saltanati...

Yuqorida birin-ketin berilayotgan 4 bosqichli modul topshiriqlarini bajarish jarayonida o'quvchidagi tafakkur bulog'i ko'z ochadi, nutqiy kompetensiyalar rivoji ta'minlanadi. "MYBT-4" moduli tizimida o'quvchining quyidagi nutqiy kompetentlik darajalari aniqlanadi, baholanadi va rivojlantiriladi:

1. Mavzu doirasidagi so'z boyligi: so'z tanlash, qiyoslash, farqlash, sharhlash, tahlil qilish darajasi.
2. SBlari va qo'shilmalari hosil qilish darajasi.
3. SBni kengaytirish va ixchamlash darajasi.
4. To'g'ri, o'rinli ixcham va mazmundor gap tuzish darajasi. Matnda olmosh, tasviriy ifodalar, iboralardan foydalanish darajasi.
5. So'zlarni kontekst talabiga mos ishlatish darajasi.
7. Badiiy matnlar yaratish darajasi.
8. O'z fikrini nazmda (she'r) ifodalash darajasi.
- 9.

She'rdagi qofiyadosh so'z va SBlarining o'rmini va o'zini almashtira olish darajasi. 10. Qofiyadoshga ma'nodosh, uyadosh va zid ma'noli so'zlar tanlay olish darajasi. 11. She'rni lisoniy, badiiy tahlil qilish kompetensiyasi. 12. Matnni tahrir qilish kompetensiyasi. 13. Nazmiy matnni nasrga aylantirish darajasi; nasriy matndan foydalanib, kichik nazmiy matnlar yaratish (she'riy to'rtlik, bayt, muhammas) darajasi aniqlanadi va rivojlantiriladi.

MYKSHda uzviylik va uzluksizlik tamoyillarida tashkil qilinsa, o'quvchida to'g'ri, ravon, madaniy nutq ko'nikmalari shakllanadi, og'zaki va yozma fikrlash kompetensiyasi rivojlanadi, darsdan darsga, matndan matnga, bosqichma-bosqich taraqqiy eta boradi.

Rasm-tasvir asosida matn yaratish an'anaviy ta'limda keng tarqalgan ijodiy ish usullaridan sanaladi [76: 12–37; 58: 23–68]. Bu usul tizimli va bosqichli fikrlash vositasi – “MYBT–4” moduli topshiriqlari bilan boyitilsa, erishiladigan natijalar yanada samarali bo'ladi. Mazkur didaktik vositalar umumiy o'rta ta'lim maktabi o'quvchilarning mustaqil, ijodiy faoliyati, nutqiy layoqatni baholash va matn tuzish malakasini aniqlashda alohida o'ringa ega. Rasmlı tarqatma materiallardan o'quvchilarning so'z boyligini oshirish va boyitishda, berilgan so'zga ma'nodosh, uyadosh va qarama-qarshi ma'noli so'zlar tanlashda, ijodiy fikrlash musobaqasini tashkil etishda (bitta rasimga 6–10 dan ortiq sarlavha topish mumkin) sarlavha talabidan kelib chiqib, reja tuzish va tasviriy matn yaratishda foydalanish mumkin.

UO'TMning ona tili darsliklarida, xususan, 7-sinfning oxiri va 8-sinfning boshlarida “Ijodiy yozma matn ustida ish” mavzusini o'rganish, 8-sinfda “Matn”, “Ijodiy matn”, “Sarlavha”, “Muallif huquqlari va mas'uliyati”, “Matnning ixcham va mufassal rejaları”, “Xatboshi”, “Matn tahriri” tushunchalarini anglash va farqlash, ulardan amaliy foydalanish ko'zda tutilgan. O'quvchilar matn tuzishda tilni tizimli o'rganish vositasi “MYBT–4” modulidan foydalansalar, ayni bir voqea-hodisa, rasm-tasvir asosida xilma-xil mavzularda matn yaratish imkoniyatini qo'lga kiritishlarini mumkin. Masalan, berilgan rasmda uy, ayvon, hovli, gulzor, uy hayvonlari, mevali daraxtlar tasvirlangan bo'lsa, uni kuzatgan o'quvchilardan biri bu xonadon kimga qarashli ekanligi, qishloqning (shaharning) nomi,

o'z oilasi, ota-bobolari, ajdodi to'g'risida fikr yuritsa, boshqasi uy hayvonlari, ularning xalq xo'jaligiga keltiradigan foydasi, ularning xulq-atvorlari, insonning eng qadimiy do'sti (it, ot) ekanligi, boshqa bir o'quvchi esa mahalliy xalq turmushi, qishloqda uy-joy qurilishi, hovliga ekiladigan madaniy va mevali daraxtlar, ularni ko'paytirish, parvarishlash, bog' dorchilik bilan shug'ullanuvchi bog'bonlar haqida yozadilar.

O'quvchilarning nutqiy kompetensiyasini rivojlantirishni maqsad qilgan o'qituvchi o'z o'quvchilariga aynan bir rasm uchun turli mavzuda sarlavhalar topishni buyurishi mumkin. Zero, har bir o'quvchi o'zi o'ylab topgan va tanlagan sarlavha ostida matn yaratishi qiziqarli bo'ladi. O'quvchi sarlavha topish maqsadida rasmni astoydil, qattiq e'tibor bilan kuzatadi va o'zi uchun muhim narsa-buyum, voqea-hodisani ajratadi, o'ziga tanish mavzuni tanlaydi. Ana shunda unga matn yaratish uchun qulay muhit, tanish sharoit va keng imkoniyat ta'minlangan bo'ladi.

O'quvchi berilgan rasimga o'ziga xos hech kimning xayoliga kelmaydigan bir necha sarlavha topishi, ulardan birini tanlab, qiziqarli matn yaratishi mumkin. Quyida bitta rasimga 6-^A tajriba-sinov sinfi o'quvchilari tomoni-dan topilgan sarlavhalar keltirildi: "Men tug'ilgan uy", "Ota yurt", "Ot – yigitning qanoti", "Tarzan" (kuchukning laqabi), "Men bog'bon bo'laman", "Anor–shifobaxsh meva", "Hovli", "Gul–insonga baxt keltiradi", "Otam ekan tut". "Qishloqdagi bog'cha", "Hayot sarchashmasi", "Bobom ertaklari".

Quyida Sirdaryo viloyati Guliston tumanidagi 17-umumiy o'rta ta'lim maktabi 6-^A tajriba-sinov sinfidagi o'tkazilgan ko'rik-tanlov g'oliblaridan birining ishi namuna sifatida berildi.

Mustaqil ish. "Kuz" nomli rasmdan foydalanib, modul tizimida kichik badiiy matn yarating.

1-bosqich. Mavzuga mos tayanch so'zlar tanlang: Oqtosh, bobom, bog', tog', kuz, mevazor, olma, daraxt, barglar, oq, qora, hushbo'y, sinfdosh, Nortoy, Zafar, Sattor, shox, hosil, havo, bulutlar, yordam, hashar, kelmoq, termoq, taxlamoq, bermoq va hk.

2-bosqich. Ulardan SB-lari hosil qiling, fikr ko'lamini kengaytiring.

Oqtoshdagi bog'lar / Oqtoshdagi mevazor bog'lar // Oqtoshdagi bobomning hosildor bog'lari /// mevasi og'irligidan egilgan daraxt

Bulutlar / bulutlar karvoni // bulutlarning og‘ir karvoni /// qora bulutlarning og‘ir karvoni //// kuchli sel xabarchisi – qora bulutlarning bostirib kelishi; **dunyo** / bu yorug‘ dunyo // bu yorug‘ dunyoning ajoyibotlari /// bu yorug‘ dunyoning biz bilmagan ajoyibotlari //// bu sirli dunyoning ko‘z ko‘rmagan, quloq eshitmagan g‘aroyibotlari; **tabiat** / tabiat mo‘jizalari // tabiat mo‘jizalaridan hayratlanish /// tabiatning g‘aroyib mo‘jizalarini ko‘rish, 18 ming olamning cheksizligini tuyish va hayratlanish; **qaldirg‘ochlar** / o‘z uyalariga qaytayotgan qaldirg‘ochlar // erta bahor o‘z uyalariga qaytayotgan bahor xabarchilari; **kabutar** / kabutarlar galasi // osmonda charx urayotgan kabutarlar galasi /// osmonu falakda charx urayotgan oppoq kabutarlar galasi; **fermer** / dalaga yo‘l olgan fermer // qadrdon dalasiga yo‘l olgan yosh fermer /// o‘z traktorida qadrdon dalasiga yo‘l olgan fermerning quvonchi; **quyosh** / quyosh nurlari // quyoshning iliq nurlari /// ko‘klam quyoshining roxatbaxsh, iliq nurlari //// ko‘klam quyoshida erkalanib, “yalt” etib tovlangan omonat shudring; **qor** / ko‘zni qamashtiradigan oppoq qor // tabiatga cheksizlik, ulug‘vorlik, sokinlik baxsh etuvchi qor, qorning yumshoq, oppoq gilami /// bahorning iliq shamoliyu, erning taftiga tob berolmay, asta eriyotgan kumushrang, yaltiroq qor //// ko‘klamning hayotbaxsh nafasidan erib, sumalaklardan chak-chak tomayotgan, tomdan behos sirg‘alib tushayotgan og‘ir qor parchalari //// Oqtosh tog‘larining ko‘z ilg‘amas qudrati – eriyotgan muz va qordan hosil bo‘lgan minglab jilg‘alarning vodiya, sayhonlikka intilishi, hayotbaxsh, o‘ynoqi soyga aylanishi, bog‘u chorbog‘lar, dashtu dalalarga hayot baxsh etishi.

“MYBT-4” modulining 3-bosqichi o‘quvchilar uchun haqiqiy ijodga, o‘z iste‘dodni namoyish qilish musobaqasiga aylandi. Ular modul topshiriqlarini bajarish jarayonida badiiy bo‘yoqdor gaplar qurish orqali o‘zlari egallagan nutqiy kommunikativ kompetensiyalarni namoyish qilishga intildilar.

1-o‘quvchi: – Bahor! Bu tabiatning uyg‘onishi, eriyotgan qor, jilg‘a suvlarining shildirashi, olamning yashil barqutga burkanishi.

2-o‘quvchi: – Bahor! Bu quyoshga intilgan nafis maysalar, go‘zallik va baxt haqida tinmay bahslashayotgan qizg‘aldoqlar, qoqio‘tlar, ravochu jag‘-jag‘larga to‘la baxmal qirlar jozibasi.

3-o'quvchi: – Bahor! Bu karvon-karvon bo'lib pastgina suzayotgan momiq bulutlar, quyoshning iliq nurlarida yayrab, charx urayotgan kabutarlar galasi.

4-o'quvchi: – Bahor! Bu yomg'ir tomchilaridan ho'l bo'lib, patila-patila bo'lib yotgan tim qora, qo'ng'iroq sochlaring, mening zimdan qarashlarimdan uyalib, deraza ortiga termulgan charos ko'zlaring.

5-o'quvchi: – Bahor! Bu o'zlari yasagan, qadrdon uylariga qaytayotgan bahor elchilari – suyuqli va ardoqli qaldirg'ochlar galasi.

6-o'quvchi: – Bahor! Bu go'zallikni anglash va asrash, poklanish, yangilanish, bu yorug' dunyo ajoyibotlaridan hayratlanish.

7-o'quvchi: – Bahor! Bu yaraqlatib charxlangan ketmonini elkasiga tashlab, o'z dalasiga yo'l olgan tadbirkor fermerning ulkan rejalari.

8-o'quvchi: – Bahor! Bu ko'm-ko'k, beg'ubor osmon, ona zamanga hayotbaxsh nurlarini sohib, qiru adirlarni barqut liboslarga burkagan boboquyosh tashrifi, ko'klamoyning g'aroyib tuyg'ulardan etkiktiruvchi mayin ifori...

Shu tariqa 45 minutlik darsda ishtirok etayotgan 35 nafar o'quvchi o'z nutqiy intellektual kompetensiyasi doirasida 35 yo'nalish, 35 xil uslubda, 35 xil darajada mustaqil va ijodiy fikrlaydi, so'zlarni qiyoslaydi va tanlaydi, so'z birikmalari va gaplar tuzib, gapni o'rnida, to'g'ri ishlatib matn yaratadi. O'quvchilarda o'z iste'dodini namoyish qilish, so'z ishlatish salohiyati, notiqlik mahoratini ko'rsatishga ishtiyoq va imkoniyat tug'iladi. Ana shu ishtiyoqning kashfiyotga aylanishi – matnda moddiylashuvini ta'minlovchi asosiy omil, subyekt-subyekt munosabatiga asoslangan kompetensiyaviy ta'lim tizimi bo'lsa, ikkinchisi o'quvchini izlanish va kashf qilishga yo'naltiruvchi innovatsion texnologiya – “MYBT-4” moduli va uning o'quvchi ongosti tafakkuriga psixolingvistik ta'sir o'tkazuvchi topshiriqlaridir.

Quyida tajriba-sinov sinflarida bajarilgan rasm asosida ishlash-so'z boyligini oshirish, muammoli savol va topshiriqlar tuzish, mustaqil izlanish, muammolar yechimini topish, mantiqiy fikrlash, analiz va sintez, umumlashtirish, tanlash va mustaqil qaror qabul qilish kompetensiyasini shakllantiruvchi ijodiy topshiriqlardan namuna keltirildi.

Ijodiy topshiriq. Ekranga chiqarilgan rasmni diqqat va sinchkovlik bilan kuzating. Unga nom qo'ying. Savollarga tezkor javob bering. O'quvchini MYKSHga tayyorlovchi psixolingvistik savol va topshiriqlar tizimi quyidagicha berilishi (tuzilishi, shakllantirilishi) mumkin:

1. Rasmda tasvirlangan fasl, tabiat hodisalarini nomlang.
2. Rasmdagi manzarani qaerlarda uchratish mumkin?
3. O'simliklar turi, nomi va rangini qo'shib ayting.



4. O'simliklar ko'pligining sababi nimada deb o'ylaysiz?
5. Bu erga odam qadami etganmi? Odam bo'lganligini dalillar bilan isbotlang.
6. Nima uchun xarsanglar rangi sarg'ish yashil? Tosh bilan xarsangning farqi nimada?
7. Sharshara suvida qanday jonzotlar yashaydi? Dengiz va okean suvlarida-chi?
8. Sharshara nima sababdan toshlar bilan to'silgan?
9. Rassom hazili: Rasmdagi toshlarni nimalarga o'xshatish mumkin? (o'quvchining individual tasavvur va tafakkur integratsiyasi, evristik mahorati darajasi aniqlanadi).

10. Rasmdan foydalanib "MYBT-4" tizimida mustaqil matn yarating.

1. Rasmni nomlang. Tayanch so'zlar tanlang.
 2. So'z birikmalari hosil qiling.
 3. Gaplar tuzing.
 4. Matn yarating.
2. Yaratilgan matnni tahrir qilib, oqqa ko'chiring.

O'quvchining modul tizimida nasriy matnlar yaratish bilan bir qatorda kichik she'rlar yozish bilan shug'ullanishi ham unda matn yaratish kompetensiyasining keng diapazonda shakllanishiga olib keladi, o'quvchining so'z san'atiga ishtiyoqini oshiradi, she'riy san'at turlarini tushunishga, she'rlar mashq qilishga yo'naltiruvchi ijobiy o'quv motivlarini hosil qiladi.

Quyida tajriba-sinov jarayoniga tatbiq etilgan, qofiyadosh so'zlar tanlash, erkin she'r qatorlar tuzish topshirig'i asosida nazmiy matn yaratish usullari tavsiya qilindi.

Mustaqil ish. "MYBT-2,3,4" (7-9-sinflar uchun). "Orzular" so'ziga ma'nodosh va uyadosh SBlari hosil qiling.

1-bosqich. Pinhoni orzular, nurafshon orzular, fusunkor orzular, parvoz orzusi, orzular tug'yoni, munavvar orzular, charog'on orzular...

2-bosqich. SBlari ishtirokida she'r qatorlar hosil qiling.

Orzular tug'yoni begona emas, sahroda sarg'aygan saksovluga ham.

Pinhoni orzular jilosi, sehri o'tkinchi bulutni bag'riga chorlar.

Sahroni gulshanga aylantiruvchi munavvar orzular billurdek porlar.

3.1-topshiriq. She'r qatordagi SBlarini qofiyadoshlari bilan almashtirib ko'ring. **Orzular tug'yoni** begona emas, **sahroda sarg'aygan** saksovluga ham. "Orzular tug'yoni" birikmasiga orzular isyoni, orzular sarchashmasi, orzular girdobi, orzular ummoni, orzular sarobi, orzu chechaklari, orzu saltanati; ikkinchi SBga esa sahroda qaqqaygan, sahroda munkaygan, sahroda mung'aygan, bo'ronda ingragan, sahroda tosh qotgan, sahro sarkardasi, sahrolar sultoni kabi qofiyadosh birikmalar tanlash mumkin.

3.2-topshiriq. Berilgan she'r qatordagi SBlarining o'zini va o'rnini mazmun, qofiya, ohang va bo'g'in miqdorini saqlagan holda

o'zgartiring. O'zgargan SBlari ishtirokida yangi she'rqatorlar hosil qiling:

Sahroda sarg'aygar saksovolga ham orzular tug'yoni begona emas.

Begona emasdir orzular, hatto sahroda mung'aygan saksovolga ham.

"Suv parisi" deya, daydi bulutni qoshiga chorlagan, yolg'iz saksovol.

Orzu ummonlari tebratar, hayhot, sahroda qaqqaygan saksovolni ham.

Orzular o'tinchi yig'latar goho, sahrolar sultoni saksovolni ham.

Sahro suvoriysi saksovolni ham zabt etar orzular karvoni bexos.

Sahro ko'ksidagi orzular aksi – qadim saksovullar so'zlaydi unsiz.

Ushalmas orzular mashaqqatidan toliqqan "navkarlar" qurolsiz, tilsiz.

3.3 - topshiriq. Fikrni rivojlantiring, obrazni jonlantiring:

Sahro ko'ksidagi qadim orzular, moziylar sadosin bag'riga tukkan, qariya saksovol qisirlar, titrar, yovuz barxanlarning shum niyatidan topgandek xabar, seskanar, qattiqroq tirmashar ona zaminga.

Ijodiy topshiriq. 1. «Orzular tug'yoni» so'z birikmasidagi tobe so'zni boshqalari bilan almashtiring. Orzular tug'yoni – orzular ko'shki, isyoni, nidosi, go'shasi, sadosi, oshiyoni, yulduzi, manzili, epkini, nafasi, faryodi, siyrati va hk.

2. «Orzu» so'zi bilan birika oladigan boshqa turkumlarga oid so'zlar (sifat, son, olmosh, ravish) yordamida SBlari hosil qiling, ularni kengaytirib ko'ring. Masalan:

Zuhro yulduzidek munavvar orzu, orzular girdobin tilsiz asiri, armonlar ko'shkining mag'rur bekasi, orzular sehridan sarhush kelinchak, fusunkor orzular sarobi, sehri; orzular siyrati, nidosi, ohi, shudring tomchisidek shaffof orzular,

3. SBlaridan foydalanib, alohida she'rqatorlar hosil qiling.

1. *Zuhro yulduzidek yolg'iz va shaffof.* 2. *Orzu ijodkorga ilhom, hamnafas.* 3. *Shudring tomchisida yiltirar orzu.* 4. *Shirin xayollarning so'ngi ko'rinmas.* 5. *Go'dak beshigida tebrantar orzu.* 6. *Qizlar*

kulgasida tovlanar orzu. 7. Yoshlikka arjumand orzular rozi. 8. Orzular umrga, ko'ngilga ko'zgu. 9. Alla ohangidan sarhush kelinchak. 10. Orzular fusunkor, orzular ezgu 11. Orzular maqsadga, umrga ko'zgu... va hk.

4. Mustaqil ish. (8–9-sinflar). She'rqatorlardan foydalanib, adabiy me'yor talabi, she'riyat qoidalari (qofiya, bo'g'in, turoq) ga rioya qilib, she'riy to'rtliklar tuzing. Muallif M.Sultonova (17-maktabning 9- tajriba-sinov sinfi o'quvchisi).

*Allaning sehridan sarxush kelinchak,
Kipriklar visoldan... mudranar orzu,
Bexos tebranadi parquv belanchak,
Belanchak bag'rida guvranar... orzu !
Subhidam sehridan ko'z ochgan shaffof,
Shudring tomchisida miltirar orzu,
Zuhro yulduzi-la sirlashgan sayyoh
Ko'ziga nur bo'lib, yiltirar orzu.
Orzular fusunkor, orzular ezgu
Orzular maqsadga, umrga ko'zgu...*

O'quvchining so'z boyligini oshirmay, til imkoniyatlaridan foydalanish usullarini o'rgatmay turib, badiiy matn yaratishni talab qilish didaktik nuqtai nazardan samarasizdir. Zero, "...o'quvchining nutqiy imkoniyatlari, uning ijodiy matn yaratish qobiliyati ko'zlari yumuq buloqni, yoqilmagan mash'alni eslatadi. O'qituvchining tarixiy vazifasi mash'alni yoqib yuborish, shu buloq ko'zini ochish, unga hayot baxsh etishdan iborat. [132: 12–19]. O'quvchining nutqiy mahorati, kommunikativ kompetensiyasi esa ifodali o'qish, ta'rif, tavsif, izoh, sharh, axborot, hikoya, suhbat, reklama, she'r, hikoya yozish, sinfda taqdimot qilish kabi ijodiy-amaliy ishlar zaminida takomillashadi.

Umumiy o'rta ta'limning 8–9-sinf o'quvchilarini ijodiy izlanishga, badiiy matn yaratishga yo'naltirish, o'quvchi yaratgan matnni guruh muhokamasiga tashlash, til sezgirligining oshishi, nutqiy kommunikativ kompetentlikning shakllanishida muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

§ 3.4. Ish qog'ozlari matnlarini tuzish

Ijtimoiy taraqqiyot, shaxslararo munosabat va til o'zaro dialektik bog'liq hodisalardir. Zero, ona tilida og'zaki va yozma muloqotdan, elektron pochta, uyali aloqa, internetdan erkin foydalanish, turli shakl va mazmunda rasmiy hujjat matnlari tuzish kompetensiyasiga ega bo'lish maktab bitiruvchilarini ijtimoiy taraqqiyotning faol ishtirokchilariga aylantiradi.

Umumiy o'rta ta'lim maktabining ona tili mashg'ulotlarida rasmiy ish qog'ozlarining quyidagi turlari o'rganiladi: ariza, e'lon, tilxat, tushuntirish xati, tarjimai hol, ma'lumotnoma shartnoma, taqriz, referat (2017. DTS. 5-9 sinflar).

Rasmiy matnlarda badiiy bo'yoqdor so'zlar, ibora va tasviriy ifodalar ishlatilmaydi. Unda tushunarlilik, ixchamlik, uzluksizlik, mantiqiy va mazmuniy yaxlitlik tamoyillariga amal qilinishi maqsadga muvofiq.

Rasmiy matnlarda ko'proq darak va buyruq-istak gaplar ishlatiladi. Ular asosan birinchi yoki uchinchi shaxs tilidan yoziladi, birinchi shaxs ko'plik yoxud uchinchi shaxs birlikda rasmiylashtiriladi: "...ga ruxsat berishingizni so'raymiz", "... deb hisoblaymiz", "ta'minlashni so'raymiz", "...majlis (sinf majlisi) qaror qiladi" kabi [122; 125; 71].

Rasmiy matnlar yaratishda nutqiy kompetentlikni shakllantiruvchi quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin:

1. Rasmiy matnni o'qing. Uning nomlanishini, kimning nomidan yozilganligini ayting.
3. Tushuntirish xati, tilxat, ishonchnomani ariza matniga aylantirib ko'chiring.
4. Nuqtalar o'rniga tegishli qo'shimchalarni qo'yib matnni o'qing va ko'chiring.
5. Nuqtalar o'rniga tegishli so'zlarni qo'yib, shartnoma matnini o'qing.
6. Berilgan buyruq gap asosida rasmiy matnlar tuzing.
7. Matnga etishmayotgan tashkiliy qism (fakt, dalil, xulosa)ni qo'shing.
8. Yozilgan rasmiy matnni tahrir qiling.
9. Boshlanish qismi berilgan matnni davom ettiring.
10. Ariza, ishonchnoma, bildirish, tilxat kabi ish qog'ozlari matnlaridan birini yozing.

Quyida xat-hujjat matnlari yaratishga yo'naltiruvchi o'quv topshiriqlaridan namunalari keltirildi:

1. Berilgan soʻz va SBlarining qaysi hujjat turiga mansubligini aniqlang. Ular ishtirokida rasmiy matn yarating. 2. Qolipli SBlari tanlang. Ulardan foydalanib, rasmiy matn yarating. 3. “MYBT-4” moduli tizimida ishlab, ariza matni yozing. 4. Berilgan rasmiy matndan foydalanib, unga oʻxshash yangi hujjat tayyorlang (bunda berilgan matn yaratiladigan matn uchun tayanch manba vazifasini oʻtaydi). 5. Taklifnoma, tabriknoma, ishonchnoma, reklama matnlaridan birini tuzing va uni guruh oldida ekranda namoyish qiling.

Keyingi yillarda shartnoma matnlari tuzish ijtimoiy taraqqiyotning zarur shartiga aylandi. Shu sababli 10 - 11-sinf ona tili darsliklarida asosiy eʼtibor biznes loyihalar, turli mazmundagi shartnomalar, nasriy va nazmiy usuldagi turfa reklama va eʼlonlar tuzishni oʻrganishga qaratilishi lozim. Shartnoma matnida fikrni aniq va tushunarli bayon qilish, kirish, xatboshi, MSBlar, qolipli birikmalarga alohida eʼtibor qilish lozim. Shartnoma ishtirokchilarining ismi, familiyasi, yashash manzili, ish joyi, telefon va pasport raqamlari aniq, raqam va harflarda yozilishi, qavs ichida yozma qayd qilinishi, talab va shartlar arab raqamida tartiblanishi, tushunarli va ravon tilda, alohida qatordan berilishi zarur [122: 7-10]. Oʻquvchilar tomonidan yaratiladigan rasmiy matnlarda sodda va qoʻshma gaplar soni 6–8 tadan oshmasligi maqsadga muvofiq.

“MYBT-4” modulidan rasmiy matnlar yaratishda ham foydalanish mumkin. Bunda ishni modulning ikkinchi bosqichidan boshlash lozim. Chunki bunday matnlarni yaratishda koʻproq qoliplashgan SBlaridan foydalanish odat tusiga kirgan.

Mustaqil ish. “MYBT-2,3,4” moduli tizimida ariza matni tuzing. 2-bosqich. Mening oilam, boshqa manzil, mening shaxsiy hujjatlarim, boshqa maktabga oʻtish, oʻqiyotgan maktabim, oʻqishga qabul qilmoq, qaytarib bermoq, koʻchib oʻtmoq.

3-bosqich. Biz oilamiz bilan boshqa manzilga koʻchib oʻtdik. Yangi uyimiz Bektemir tumanida joylashgan. Mahallada 2 ta maktab bor. U erdan hozir oʻqiyotgan maktabimga qatnashning imkoni yoʻq. Meni 28-maktabning 6-sinfiga qabul qilishdi. Shu sababli menga shaxsiy hujjatlarimni qaytarib berishingizni soʻrayman.

4-bosqich. Ariza matni yozing. Tinish belgilariga eʼtibor qiling.

Yakkasaroy tumanidagi
14 - maktab direktori G'iyosov
Mahmud To'raevichga shu
maktabning 7-sinf o'quvchisi
Ibrohimov Sherzoddan

Ariza

Oilamiz boshqa manzilga ko'chib o'tganligi, mening Bektemir tumanidagi 28-maktabning 7-sinfiga o'qishga qabul qilinganligimni hisobga olib, menga tegishli shaxsiy hujjatlar papkasini qaytarib berishingizni so'rayman.

Arizaga mening 28-maktabda o'qiyotganligim to'g'risidagi ma'lumot-noma ilova qilindi.

Imzo. Ibrohimov Sherzod
23-noyabr 2016-yil.

7–9-sinflarda *referatlar* yozish bilan shug'ullanish o'quvchilar nutqiy kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda maktab tizimida o'rganilgan asar yuzasidan egallangan bilimlarni aniqlashning ishonchli usuli – *seminar-referatlar* yozish odat tusiga kirdi.

Referat (lot. *referre* – xabar bermoq, ma'ruza qilmoq) 1) ochiq ma'ruza; 2) biror masala yoki muammoning bosh mohiyatini bayon qilishdan iborat [135]. Referatdan ko'zlanadigan asosiy maqsad asar mazmunini sharhlab, matn yaratishdan iborat. Referatni o'qishda birlamchi manbani qidirishga ehtiyoj bo'lmasligi lozim. Referat o'qilgan asar mazmuni, mohiyatini ochib berishdir. Har qanday ilmiy-amaliy faoliyat singari referat yozish ham yozma fikr ifodalash kompetensiyasini rivojlantiradi. Bu faoliyat matnni tushunib o'qish, o'rganilgan matn yuzasidan muayyan hukm va xulosaga kelishni talab qiladi. Referatlar monografik, tahliliy, referat-umumlashma, referat-konspekt, referat-rezyume kabi turlarga ajratiladi. *Referat-konspekt* keng mazmunga ega bo'lib, unda o'rganilgan mavzuning barcha qismlari aks etadi. *Referat-rezyume* qisqa, siqiq shaklda bo'lib, ko'proq annotatsiya mavqeida bo'ladi.

O'quvchi referatiga qo'yiladigan talablar: aniqlik, qisqalik, xulosa va axborotning ixcham va mazmundorligidir. Referat – o'z foda uslubi va axborot-tahlil mazmuniga ega bo'lgan mustaqil yaratilgan matn. Referat yozish algoritmi quyidagicha belgilangan:

1. Referatga mavzu tanlash.
2. Asosiy adabiyotlarni o'rganish.
3. Referat rejasi va foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxatini tuzish.

4. Ma'lumotlarni tizimlashtirish. Bunda to'plangan manbalar 3 tarkibiy qism: kirish, asosiy qism va xulosaga ajratiladi.

O'quv referatining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

Titul varag'i. Ishning titul varag'ida o'quv muassasasi nomi, bajaruvchining ismi familiyasi, referat mavzusi, ilmiy rahbarning ismi va familiyasi, lavozimi, referat yozilgan yil aks etadi.

1. *Mundarijada* bob va paragraflar izchil, tartibli, sahifalar aniq ko'rsatilgan holda beriladi. Referat 2–3 bo'limdan iborat bo'ladi. Ish so'ngida xulosa, adabiyotlar ro'yxati va ilovalar (rasm, jadval) beriladi.

2. *Kirish.* Bu qismda mavzuning dolzarbligi, ko'tarilgan muammoning ahamiyati sharhlanadi, maqsad va vazifalar ko'rsatiladi.

3. *Asosiy qism.* Bunda har bir bob, undagi paragraflarda qo'yilgan muammolar ochib beriladi, ishning keyingi qismi oldingi qismning mantiqiy davomi sifatida, o'zaro uzviylik va uzluksizlikda yoritiladi.

4. *Xulosa.* Referat mazmuni yuzasidan mustaqil xulosa chiqariladi.

5. *Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati* beriladi (O'quvchi referat yozishda 2–3ta ilmiy manbalardan foydalangan bo'lishi shart).

O'qituvchi modul tizimida bajariladigan mustaqil ishlar, referatlar yozish jarayonida o'quvchi faoliyatini nazoratda tutadi, adabiyotlarni topish, referatni shakllantirishga yordamlashadi. Referatga rahbar o'qituvchi tomonidan taqriz yoziladi. Opponentlar (2 kishi) o'quvchilar orasidan tanlanadi. Ular referatni o'rganib chiqadilar, ish yuzasidan o'z fikr-mulohazalarini jamlab, ma'ruzaga tayyorlanadilar.

Shunday qilib, 7-9-sinf o'quvchilarida MYKSHning muhim elementlaridan biri bo'lgan referat yozishni o'rganish jarayoni o'z takomiliga etadi. U o'quvchida mustaqil fikrlash, o'z fikrini (ilmiy manbalar, dalil va faktlarga tayangan holda) to'g'ri, me'yoriy ifodalash, unda o'ziga xos ilmiy uslubning shakllanishi va malakaga aylanishiga yordam qiladi.

Bundan tashqari, ona tili ta'limida MYKSHning boshqa ko'rinishlari ham mavjud. Ulardan biri o'quvchining matn yaratish kompetensiyasini musobaqa darslari asosida shakllantirishdir. Bu borada matn yaratish bo'yicha tajriba-sinov amaliyotida samarali qo'llanilgan "Zakovat" musobaqa darslari tavsiya qilindi. Mazkur dars-musobaqaning o'ziga xos qoidalari mavjud, va ular quyidagilardan iborat (12-ilovaga qarang).

Shuningdek, MYKSHda gapni *ixchamlash va kengaytirish* usullaridan samarali foydalanish mumkin. Buning uchun o'quvchilar nazariy ma'lumotlarni nutq amaliyotida, matnda qo'llash bo'yicha quyidagi nutqiy bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim:

1. Gaplarning ifoda maqsadiga ko'ra turlarini aniqlash va ulardagi tinish belgilarini izohlash.
2. Sodda yig'iq va sodda yoyiq gaplarni o'rganishda matn yaratish.
3. Qo'shma gaplar va ularning turlarini o'rganishda matn yaratish.
4. To'liqsiz gaplar, so'z-gaplar ishtirok etgan matnlar yaratish.
5. Murakkab sintaktik butunlikni matnga aylantirish.
6. Bog'lovchisiz qo'shma gaplar ishtirokida matn yaratish.
7. Ko'chirma va o'zlashtirma gaplardan foydalanib matn yaratish.

Tadqiqot ishida tavsiya etilgan tilni tizimli o'rganish jarayonida o'quvchilarda mustaqil matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishda UO'TMning 5–9-sinflari uchun nashr etilgan N. Mahmudov, A. Nurmonov va boshqalarning yangi yo'nalishdagi "Ona tili" darsliklari, B. Menglievning "O'zbek tilidan universal qo'llanma" kitobida berilgan tafakkurni rivojlantiruvchi mashq va topshiriqlar, muallifning 5-sinflar uchun "Ona tilidan didaktik slaydlar to'plami" va "Ona tili" proektsion o'quv qo'llanmalaridagi slaydlar, "MYBT-4" moduli yordamida bajariladigan, turli mavzu va murakkablikdagi mustaqil ishlar, ijodiy va muammoli topshiriqlardan samarali foydalanish mumkin.

O'quvchilarda individual uslubni shakllantirishda 3-4 ta sodda gap orqali ifodalangan fikrni bitta uyushiq bo'lakli sodda gap yoki qo'shma gap orqali ifodalashni, 3–4 ta sodda gapli xatboshini bitta qo'shma gap orqali ifodalab, ixcham va mazmundor ko'rinishda bera olishni o'rganish o'quvchi uchun katta yutuq. Qiyoslang:

Sodda gaplar: 1. Bugun havo ochiq. 2. Osmonda bulutlar siyrak. 3. Quyosh charaqlab turibdi. 4. Ammo nima uchundir harorat sezilmaydi.

Shu mazmundagi qo‘shma gaplarning ma‘nodoshlik qatori: 1. *Osmonda bulut kam, quyosh charaqlagan, ammo harorat yo‘q.* / 2. *Havo ochildi, ammo harorat sezilmadi.* // 3. *Havo ochiq bo‘lsa-da, muzdek shamol ko‘zni yoshlantirib, burunni chimchilaydi.* /// 4. *Osmonda quyosh charaqlaydi, ammo izg‘irin to‘xtamagan.*//// 5. *Havo ochiq, ammo muzdek izg‘irin suyaklarni qaqshatadi.* Bu erda birinchi berilgan to‘rt sodda gapning uchtasi, keyingi ma‘nodosh qo‘shma gaplarning birinchi qismi *osmon bulutsiz, havo ochiqning* mazmunini beradi, ya‘ni bulut siyrakligida havo ochiq bo‘ladi, quyosh charaqlaydi. To‘rtinchi – fikrni yakunlovchi va yangi fikr boshlashga izn beruvchi “*Ammo nima uchundir quyoshning harorati sezilmaydi*” gapi namunada keltirilgan ma‘nodosh qo‘shma gaplarning ikkinchi qismida: *harorat kam // harorat sezilmadi // lekin izg‘irin to‘xtamagan // izg‘irin suyaklarni qaqshatadi* ko‘rinishlarida ixchamlashgan.

O‘quvchilarni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo‘naltiruvchi bunday uslubiy mashqlardan “MYBT-4” modulining 3-bosqichida qo‘shma gaplar mavzusini o‘rganish, uni matnda qo‘llash jarayonida foydalanish mumkin.

O‘quvchi, avvalo, kuzatish, tinglash, anglash mas‘uliyatini his qilishi, so‘z ma‘nolarini qiyoslab, eng to‘g‘risini tanlashi, fikrni qiziqarli, badiiy ifodalash uslubini egallashi lozim. Ko‘zimizga oddiy va odatiy ko‘rinadigan oy, osmon, yulduz, quyosh ijodkorga butunlay boshqa jihatlari bilan ko‘rinishi, ya‘ni quyosh uning uchun “Oltin barkash”, “Zar kokilli malika”, “Yorug‘ olam sarvari” bo‘lib ko‘rinishi, osmondagi oddiy bulut esa “uch o‘rkachli nortuyalar karvoni”, “osmondagi oq kemalar” sifatida tasavvur qilinishi, quyayotgan yomg‘ir esa ijodkor nazarida “borliqning tozarishi va yasharishi...”, nog‘oraning “taka-tum”iga o‘xshatilishi, do‘l yog‘ishi esa “marvarid donasining uzilishiyu yerga sochilib ketishi” bo‘lib ko‘rinishi ayni haqiqatdir.

Tadqiqotning uchinchi bobida o‘quvchilarda MYKSH jarayonini “MYBT-4” moduli yordamida jadallashtirish, o‘quvchi izlanishlarini izchillik, o‘zaro uzviylik va uzluksizlikda, til sathlari aro va fanlararo aloqadorlikda tashkil qilish, modul texnologiyasi asosida badiiy, ilmiy, ixtisosiy, rasmiy, tasnifiy, tasviriy, reklama, sms, nazorat testi matnlari yaratish jarayonida nutqiy kompetentlikni

ta'minlash, faol o'quvchilarni rag'batlantirish usullari ishlab chiqildi va ona tili ta'limi amaliyotiga joriy etildi.

Uchinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish bo'yicha nutqiy kompetentlikning: izchil, tizimli, uzluksiz fikrlash; fikrni og'zaki va yozma holatda ixcham, to'g'ri, o'rinli ifodalash; og'zaki va yozma nutqdan erkin foydalanish; analiz va sintez; mustaqil matn yaratish va uni tahrir qilish; o'z bilimi, hatti-harakatini baholash va mustaqil qaror qabul qila olish; madaniy muloqot va taqdimot [144; 202; 21–33] madaniyati kabi yetti turini mukammal egallagan o'quvchigina o'z ijtimoiy-nutqiy faoliyatida til imkoniyatlaridan keng foydalanishi mumkin.

2. Ona tili darslari ta'limga kompetensiyaviy yondashuv asosida tuzilgan DTS talablariga binoan tashkil etilishi lozim. Ana shunda "o'quvchiQo'qituvchi" hamkorligi hosilasi – nutqiy faollik, ta'limda o'quvchi subyekti ustuvorligi ta'minlanadi, ona tili darslarida yaratuvchanlik, mustaqil va ijodiy tafakkur hukmronlik qiladi, tilni tizim sifatida o'rganish, og'zaki va yozma matnlarni tezkor yaratish yo'lga qo'yiladi.

3. "MYBT–4" moduli o'quvchi lug'at boyligini oshirish, nutq o'stirish, fikrni og'zaki va yozma tarzda aniq va izchil ifodalash, gap tuzish va matn yaratish kompetensiyasini yaxlit tizimda, o'zaro uyg'unlik va uzluksizlikda shakllantirishga xizmat qiladi.

4. Modulning foydalilik koeffitsiyenti o'quvchi nutqiy kommunikativ kompetensiyasining dinamik rivojlanishida ko'rinadi, nutqiy salohiyat-til imkoniyatidan foydalanish, mustaqil tuzilgan matnda o'z ifodasini topadi.

5. "MYBT–4" o'quvchidagi nutqiy qobiliyat qirralarining to'liq ochilishiga yordam beradi, uni madaniy muloqot, ijodkorlik, izlanuvchanlik faoliyatiga yetaklaydi, mustaqil matnlar, rasmiy hujjat matnlari, reklama matnlari yaratish kompetensiyasining rivojlanishiga imkoniyat yaratadi.

6. "MYBT–4" sistem tilshunoslikning tizimli taraqqiyot qonuniyatlari va undan nutqiy amaliyotda foydalanish o'rtasidagi zaruriy ijtimoiy aloqani tiklaydi. O'quvchidagi matn yaratish bo'yicha nutqiy kompetentlik darajasini baholovchi *ta'limiy test* vazifasini o'taydi.

IV BOB. MATN YARATISH JARAYONINI JADALLASHTIRUVCHI INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR

§ 4.1. Matn yaratishda elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanish

XX asr oxiri va XXI asr boshlarida ta'lim atamaları lug'atiga kirib kelgan "pedagogik texnologiya" tushunchasi, YUNESKO tomonidan berilgan ta'rifga ko'ra, ...o'qitish va bilimlarni o'zlashtirish jarayonida o'qitish shakllarini optimallashtirish maqsadida inson salohiyati, didaktik ta'minot va texnik resurslarni qo'llash, ularning o'zaro integratsiyasidan ta'lim sifatini oshirishda foydalaniladigan tizimli metodlar majmuasidir. Hozirgi ijtimoiy taraqqiyotda keng ko'llanilayotgan innovatsion texnologiya ta'lim samaradorligini oshirish maqsadida o'qituvchining pedagogik mahorati va o'quvchi faoliyatini o'zaro uyg'unlik va uzluksizlikda tashkil etish, mazkur jarayonni hamkorlikda faollashtirish, integrativ ta'lim metodlari, vositalari va shakllarini samarali qo'llashga imkon beradigan didaktik tizimdir.

Yangi innovatsion g'oya ta'limotga aylanishi uchun u tajribasino, tanqid, muhokama bosqichlaridan o'tgan, amaliyotda o'zini oqlagan muhim yangilik bo'lishi, turli mezonlarda o'lchab ko'rilishi shart. Innovatsion texnologiyalarni ona tili ta'limi tizimiga tatbiq etish o'quvchiga tezkorlik, ta'lim samaradorligini oshirish, mahsuldorlik va tejamkorlik imkoniyatini beradi. Ona tilimizning uzluksiz boyib borishi, o'quvchilarning nutqiy-intellektual rivojlanishini, kommunikativ kompetentlik darajasini orttirishni, yangicha ta'lim usullarini izchil egallashlarini talab qilmoqda. MYKSHda innovatsion texnologiyalardan foydalanish "MYBT-4" moduli asosida, slaydlar vositasida nutq o'stirish, mustaqil izlanish, turli sohalarga oid ixtisosiy matnlar yaratish o'quvchilarda intellektual salohiyat va nutqiy kompetentlikning uyg'unlikda shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladi. Tadqiqot jarayonida ona tili ta'limini innovatsion texnologiyalar asosida tashkil qilish vositalari sirasiga o'quv adabiyotlarining yangi avlodi: didaktik

slyaydlar to'plami, media-trening mashg'ulotlari, darsni mustahkamlashda tasnifiy matnlar, nazorat testlari tuzish shartlari kiritildi va innovatsion texnologiya sifatida umumta'lim tizimida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish amaliyotiga joriy etildi.

Tinimsiz takomillashib borayotgan axborot texnologiyalaridan foydalanish, ma'lumotlarini jamlash, qiyoslash, tanlash va ularni tezkor qayta ishlashda internet va Ziyonet tarmog'idan foydalanish ona tili darslarining zaruriy tarkibiy qismiga aylanishi lozim. Ayni paytda o'qituvchilar malakasini oshirish va qayta tayyorlash markazlari o'z navbatida, ona tili o'qituvchilarini elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanishga o'rgatish bilan izchil shug'ullanishlari shart bo'lib qoldi. O'quvchilarda nutqiy salohiyatni rivojlantirishni maqsad qilgan o'qituvchining o'zi kompyuterdan foydalanish texnikasini to'liq egallashi lozim. Ona tilidan DTS talablarida o'quvchida nutqiy kommunikativ kompetentlikni ta'minlash bosh maqsad qilib belgilangan ekan, ona tilini o'qitish va o'rganishni yakuniy qismi sanaladigan MYKSHni axborot texnologiyalarisiz, veb-sahifalarsiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'quvchini ijodiy izlanish, Internet, Ziyonet saytlaridan zarur axborotni qidirish, kerakli fakt va dalillarni topish, undan tezkor foydalanishga o'rgatish hozirgi kunning dolzarb vazifalaridan biri bo'lib turibdi.

Zamonaviy dizayndagi media dasturlarning ona tili o'qitish amaliyotiga joriy etilishi yuqoridagi muammoning yechimidir. O'quvchilarga o'quv materialini rangli slyaydlar vositasida taqdim etish jarayonida idrok, xotira va tafakkur qo'zg'atilib, avval egallangan nutqiy kompetensiyalar xotirada qayta tiklanadi. Slyaydlar asosida dars o'tish o'quvchiga yangi mavzuni o'rganish, mustahkamlash, egallangan nutqiy bilimlarni bevosita matn yaratish jarayonida sinab ko'rish imkonini beradi. Ona tilidan nutqiy kompetentlikni ta'minlashda matn yaratish moduliga asoslanish, "Media-trening" slyaydlar jamlanmasidan foydalanib, yangi darsni tushuntirish, mavzuni o'quvchilar ishtirokida og'zaki tasniflash, mavzuga mos savol va topshiriqlar, o'quv testlari tuzish, mavzularni tasniflab matn yaratish bo'yicha musobaqa darslari o'tkazish, amaliyot darslarida AKTdan keng foydalanish muhim didaktik ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqotning didaktik ta'minoti sifatida tavsiya qilinayotgan "Media-trening" slaydlar to'plamining afzalliklari: zarur axborotni tezkor tanlash; nazariya va amaliyotni o'zaro yaxlitlikda o'rganish, yaratilgan tasnifni o'quvchilar ishtirokida shu zahoti tekshirib chiqish imkoniyatining mavjudligi, slayd asosida ishlash, mustaqil fikrlash, fikrni og'zaki yoki yozma tasniflash, guruh muhokamasiga tavsiya qilish imkoniyatiga ega bo'lishlikdir.

Hozirgi kunda keng tarqalgan nazorat testlari ustida ishlashda o'quvchi asosan fikrlash va tanlash imkoniyatlaridan foydalanadi xolos. Mavzuga oid slaydlardan esa nafaqat fikrlash va tanlash, balki tasnifiy matn yaratish uchun zaruriy lug'aviy manbaga ega bo'lish, muammoli savol va topshiriqlar, nazorat testlari tuzish, fikrni to'g'ri, ixcham, ravon ifodalashda ham samarali foydalanish mumkin.

O'quvchilarda MYKSH jarayonida kompyuterdan foydalanishning ijobiy tomonlari ko'p. Kompyuter xotirasi o'quvchini bevosita zaruriy lug'at manbalari, axborotlar zahirasi bilan ta'minlaydi. Ma'lumotlarni matn ko'rinishida emas, balki obrazlar ko'rinishida taqdim etish o'quvchining anglash, fikrlash va fikr ifodalash qobiliyatiga ijobiy ta'sir o'tkazadi. Obrazlar ko'rinishidagi ma'lumotlar matn ko'rinishidagi ma'lumotlarga nisbatan qiziqarliligi, o'quvchi diqqatini jamlash, mavzuni oson qabul qilinishiga yordam berishi bilan o'qituvchi ishini yengillashtiradi. Axborot kommunikativ texnologiyalaridan foydalanish quyidagi afzalliklarga ham ega:

1. Elektron o'quv adabiyotlari bilan ishlash, o'quvchini o'z-o'zidan ta'lim jarayonining subyektiga aylantiradi. Dastur uni faol ishlashga, tez fikrlashga, fikrni aniq va qisqa ifodalashga majbur qiladi.

2. Slaydlar, psixologiyistik topshiriqlardan matn yaratish jarayonida unumli foydalanish, o'quvchida mantiqiy mushohada yuritish, so'z tanlash, uni yozma nutqda o'rinli qo'llash kompetensiyasini shakllantiradi.

3. Dars jarayonida elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanish, matn tuzish amaliyotini sathlararo va fanlararo aloqadorlikda shakllantirishga imkoniyat yaratadi.

4. Slaydlar bilan ishlashda o'quvchilar to'g'ri talaffuz, nutq o'stirish, tasnifiy matn yaratish, nazorat testlari yechish va shunday test savollari tuzish, muammoli vaziyatlar yaratish, yechimlar topib,

javob matnlari yozish kabi 15 turdagi mustaqil ta'lim usullaridan foydalanish imkoniyatlariga ega bo'ladilar.

5. Internet bilan erkin muloqot: kerakli axborotni tezda topa olish, javob matni yaratish, matnni audio-video axborot manbalari bilan boyitish va elektron doskada taqdimot qilishga qulay imkoniyat yaratadi.

6. Kompyuter bilan muloqotning o'yin tarzida kechishi, qiziqarliligi o'quvchida izlanuvchanlik, ijodkorlik kompetensiyasini shakllantiradi. Unda mustaqil fikrlash, nutqiy kompetensiyani egallashga zarurat, badiiy fikr ifodasiga ishtiyoq, o'z bilimiga ishonch ortadi.

Masalan, 9-sinfda "Qo'shma gaplar" mavzusini o'rganishda "Qo'shma gap" slaydi ustida ishlanadi, o'quvchilar yaratilgan matn tarkibidagi gaplarni sodda va qo'shma gapga ajratish, 2 yoki 3 ta sodda gapni bitta qo'shma gapga aylantirib, fikrni ixcham ifodalash, so'ng o'rganilgan mavzu doirasida savollar, mustaqil ishlar, test topshiriqlari tuzib, ularni guruh oldida himoya qilish bilan shug'ullanishadi.

MYKSHda mavzuni slayd ko'rinishida taqdim etish texnologiyasi o'quvchi ongosti tafakkurini samarali boshqarishga imkon berishi, o'quv materialini jadal o'zlashtirish, slayd tizimida tasnifiy matnlar yaratishga imkon yaratishi bilan ko'pqirrali innovatsion texnologiyalar sirasiga kiradi.

Ona tili ta'limiga kompetensiyaviy yondashuv asosida nutqiy kommunikativ kompetentlikni ta'minlash ona tili darslarida "MYBT-4" moduli, mustaqil ta'lim va AKTdan unumli foydalanish, o'quvchini videotasvir, ijodiy topshiriqlar yordamida kichik matnlar, reklama va nazorat testlari tuzishga o'rgatish, natijalarni guruhda taqdimot qilish kompetensiyasini egallash orqali amalga oshadi.

UO'TM uchun "O'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish kontsepsiyasi"da 2006–2012-yillar davomida ta'lim muassasalarini kompyuter va multimedia jihozlari bilan to'liq ta'minlash hamda elektron o'quv adabiyotlaridan keng foydalanish bosqichiga o'tish ko'zda tutilgan. UO'TM 5–9-sinf ona tili darslarida quyidagi 10 turdagi AKTdan unumli foydalanish mumkin:

Taqdimot texnologiyasi darsni optimallashtirishning eng qulay usulidir. Buning uchun o'qituvchiga bitta protsessor, katta ekran va videoproektor kerak bo'ladi. O'qituvchi MS Power Point kompyuter dasturida iqtidorli o'quvchilar yordamida slaydlar yaratish, slaydni to'g'ri, ravon sharhlash, muammoli topshiriqlar, nazorat testlari, so'z birikmalari va gaplar tuzish, matn yaratish bilan shug'ullanadi.

Elektron nusxa – bu ona tili fani bo'yicha mavjud darslik, o'quv qo'llanma, videofilmning elektron varianti (nusxasi) bo'lib, unda multimedia vositalaridan faqat ovoz va rangli matn qatnashadi. O'quvchilar nazmiy va nasriy matnlar ustida ishlab, o'zlari mustaqil variantlar yaratadilar.

Elektron multimedia dasturi – ona tili o'quv kursini aynan kompyuter vositasida, o'qituvchi yordamida yoki mustaqil o'zlashtirishni ta'minlovchi didaktik ishlanmalar kompleksi. Undan "MYBT-4" moduli asosida so'z tanlash, SBlari hosil qilish, sodda va qo'shma gaplar tuzish, matn yaratish, rasmlı - izohli reklamalar yaratishda foydalaniladi.

Elektron ensiklopediya – muayyan qidiruv tizimiga ega bo'lgan, ma'lum yo'nalishdagi videotasvirlar, giperhavolalar, audio va video lug'atlar, xronologik ro'yxat, foydalanilgan va tavsiya etiladigan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lgan katta hajmdagi elektron dastur.

Elektron lug'at – lug'atning multimedia vositalari bilan boyitilgan elektron nusxasi.

Til o'rgatuvchi audio-video dasturlar nafaqat ona tili, balki o'zbek tilini ikkinchi til sifatida o'rganuvchilar uchun ham samarali didaktik texnologiyadir. Masalan, to'g'ri talaffuzni o'rgatuvchi kompyuter dasturlarida etalon nutq eshittiriladi, o'quvchining o'z talaffuzi yozib kiritiladi, so'ngra u adabiy til me'yori bilan taqqoslanadi.

Universal test dasturi – o'zbek tili darslarining biror yirik bo'limi bo'yicha test topshiriqlari va reyting tizimidan iborat bo'lgan kompyuter dasturidir. Uning qulayligi shundaki, birgina dasturiy ta'minot asosida turli xil test sinovlarini o'tkazish, ya'ni faqat matnni yangilab, savol yoki topshiriqni o'zgartirib, turli mavzularda qo'llash mumkin.

Elektron virtual kutubxona – multimedaning imkoniyatlaridan yana biri elektron nusxa yoki elektron multimedia darsliklari

jamlangan, ichki tarmoqqa ulangan kutubxona. Undan o'quvchi nutqiy layoqatini takomillashtirish, milliy madaniy meros va traditsiyalarimizni o'rganishda foydalanadi.

Tilni tizimli o'rganishda internet tarmog'idan foydalanish nafaqat umumiy o'rta ta'lim maktablarining 5-9-sinf o'quvchilari, balki til o'rganuvchi, mustaqil izlanuvchi talabalar, boshqa millat vakillari uchun ham foydali. Bunda mustaqil ta'lim texnologiyalari, ma'lumotlar ustida ishlash, til mavzularini o'zlashtirish, berilgan videotasvirni sharhlash, monitorda referat, hikoya, insho yozish bilan shug'ullanish mumkin. Shuningdek, elektron pochta, telegramm, SMS orqali o'qituvchi yoki sinfdoshlar bilan o'zaro yozma muloqotni yo'lga qo'yish mumkin.

Videomateriallar bilan ishlash ham MYKSHda alohida ahamiyat kasb etadi. Axborot texnologiyalarining bu usuli o'quvchi lug'atini boyitish, bog'lanishli nutq, nutqiy kommunikativ kompetentlikni ta'minlash, ravon og'zaki va yozma nutqni shakllantirishda [144: 2-3] samarali qo'llanilishi mumkin.

Yuqoridagi keltirilgan misollardan ko'rinadiki, ona tili darslarida kompyuter dasturlari vositasida matn yaratishning turli usullari mavjud. Tajriba-sinov jarayonida muallif tomonidan yaratilgan "Ona tilidan didaktik slaydlar to'plami" elektron o'quv dasturi, 5-9-sinflar uchun yaratilgan "Ona tili", "Media-trening" slaydlar to'plami materiallari ham shular jumlasidandir. Slaydni o'qish asosida tasnifiy matn yaratish, darsni mustahkamlash, tafakkurni rivojlantirish, mavzu yuzasidan savol va topshiriqlar, nazorat testlari tuzishda foydalanish mumkin. Slaydlar to'plami nutq o'stirish va mustaqil matn yaratish uchun mo'ljallangan ijodiy topshiriqlar, muammoli vaziyatlar tasvirlangan maxsus suratlar to'plami, til mavzulari yoritilgan slaydlar, qiziqarli videotasvirlar, elektron lug'at, turli ensiklopedik ma'lumotlar, media-trening, trenajyor-repetitor shakllarida bo'lishi mumkin. To'plamni arxivlash orqali kompyuterga joylash, undan MYKSHda foydalanish, *o'qituvchi + o'quvchi, o'quvchi + o'quvchi, o'quvchi + o'qituvchi* tizimida ijodiy-ta'limiy hamkorlik munosabatlarini rivojlantirish mumkin.

O'quvchi diqqatini yangi mavzuni o'rganish, o'tilgan mavzularni takrorlash, egallangan nutqiy BKMni matn yaratish

kompetensiyasini shakllantirishda samarali qo'llashga yo'naltirish, o'quvchida nutqiy kommunikativ kompetentlikni ta'minlashda slaydlardan keng foydalanish, tilni tizimli o'rganish darslarining asosiy rivojlantiruvchi maqsadi bo'lishi lozim.


Ona tili mashg'ulotlarida til o'rgatuvchi dasturlar ikki turga ajratiladi. Empirik va nazariy-amaliy dasturlar. Tavsiya qilinayotgan "Media-trening" didaktik slaydlar to'plami ta'limga kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan bo'lib, u ijodiy fikrlashga, mustaqil ta'limga keng yo'l ochadi. O'quvchi ongida ko'rish, eshitish, anglash, fikr ifodalash, so'zlarni guruhlash qiyoslash, saralash, mavzu asosida SBlari, gaplar, testlar tuzish, og'zaki yoki yozma tasnifiy MYKSH, slaydni guruh oldida sharhlash barchasi bir maqsadga – o'quvchilarda nutqiy kompetentlik layoqatini shakllantirishga yo'naltiriladi. Matn yaratish faoliyatini topshiriqlar asosida tizimlashtirish esa o'quvchiga fikrlash jarayonini mustaqil boshqarishga, o'z-o'zini ma'naviy, ruhiy, intellektual va kreativ rivojlantirishga sharoit va imkoniyat yaratadi.

Quyida "Media-trening" didaktik slaydlar to'plamidan yangi mavzuni o'rganishda foydalanish namunasi keltirildi. Dars "So'zlarning tuzilish jihatidan turlari" mavzusiga oid slayd asosida tashkil qilindi (5-sinf "Ona tili" darsligi, 109-bet). Slayd ekran (monitor)ga chiqarilib, o'quvchilarga suxandon tomonidan o'qilgan slayd tasnifini diqqat bilan tinglash va mustaqil takrorlash tavsiya qilinadi (4.1-jadvalga qarang).

Ijodiy topshiriq. Slaydni diqqat bilan kuzating. Suxandon tasnifini tinglang va takrorlang. Suxandon ovozi: So'zlarning tuzilish jihatidan turlari. O'zbek tilida so'zlar tuzilish jihatidan 4 turga bo'linadi: sodda, qo'shma, qisqartma, juft so'zlar. Sodda so'zlar birgina asosdan tashkil topadi: *uy, mehnat, oila, Vatan*. Qo'shma so'zlar esa ikki va undan ortiq so'zlarning qo'shiluvidan hosil bo'ladi: *oshqozon, toshko'mir, gultojixo'roz, atirgul, qirqquloq*. O'zbek tilida qisqartma so'zlarning uch xili uchraydi:

a) so'zning bosh harfidan tuzilgan qisqartmalar: *BMT, AQSh, XTV*; b) birinchi bo'g'ini saqlanib, qolgan qismi bosh harflardan iborat bo'lgan qisqartmalar: *O'zMU, GulDU*; birinchi bo'g'ini qisqarib, qolgan qismi to'liq saqlangan qisqartmalar: *zoopark, texnopark, inturist*.

SO'ZLARNING TUZILISH JIHATIDAN TURLARI



Juft va takroriy so'zlar ikki asosdan iborat bo'lib, ular chiziqcha bilan ajratiladi: *ota-ona, uy-joy, do'st-yor, bola-chaqa*; juft so'zlarda ikki xil asos, takroriy so'zda bir xil asos takrorlanadi: *chopachopa, kula-kula, Slayd ustida mustaqil ishlash uchun savol va topshiriqlar*: "So'zlarning tuzilish jihatidan turlari" slyadini suxandon ovoziga taqlid qilib, og'zaki tasnif qiling. Tasnif o'quvchilar tomonidan 5–6 marta og'zaki takrorlanib, mavzu mustahkamlangach, matn yaratish mumkin. Slayd ustida quyidagi ijodiy ishlar bajariladi:

1. O'rganilgan slayd bo'yicha savol - javoblar o'tkazing. Namuna:

1. So'zlar tuzilishiga ko'ra necha turli bo'ladi? 2. Sodda so'zlar qo'shma so'zlardan nimasi bilan farqlanadi? 3. Qo'shma so'zlar doimo qo'shib yoziladimi? 4. Qo'shma so'zlarning juft so'zlardan farqli tomonini ayting. 5. Juft so'zlar bilan takroriy so'zlarning farqli tomonini ko'rsating. 6. Qisqartma so'zlarni kengaytiring: BMT, AQSh, GulDU, Namuna: BMT – Birlashgan Millatlar Tashkiloti, AQSh – Amerika Qo'shma Shtatlari...

Mustaqil ish. slyd tarkibidagi “Zoopark” soʻzidan foydalanib, “MYBT – 2-3-4” tizimida kichik matn yarating.

2-bosqich. “ot+ot” qolipli SB: zoopark hududi yovvoyi hayvonlar, yoʻlbars, ayiq va sherlar qarorgohi, daryo va okean baliqlari, Afrika tuyaqushi, kengurular mamlakati, zooparkning har kungi mehmonlari, jayranning quroli, jirafaning uzun boʻyni, burgut qanotining kengligi, guldor, yogʻoch skameyka, suv toʻldirilgan hovuz, Arktikaning oq ayiqlari.

“Sifat+ot” qolipli SB: tuya oʻrkachiga mahkamlangan yumshoq oʻrindiqlar, katta, keng zoopark, quyoshda toblanayotgan yovvoyi hayvonlar, baquvvat, magʻrur jirafa, chaqqon togʻ echkilari.

3-bosqich. Hosil qilingan SBlaridan sodda, uyushiq boʻlakli gaplar tuzing.

Zoopark hududida keng va tekis yoʻlaklar, ochiq maydonlar koʻp. Biz dam olish kuni dadamlar bilan shahar zooparkiga bordik. Zoopark mehmonlari, bolalar va ota-onalar uchun skameyklar qoʻyilgan. Dadam bizni tuyada sayr qildirdilar. U yerda biz yovvoyi hayvonlar: yoʻlbars, ayiq va sherlar qarorgohini, daryo va okean baliqlarini, Afrikadan keltirilgan uzunoyoq tuyaqushni, Avstraliya kengurusi, chaqqon togʻ echkilari, jayra va uning bolalarini tomosha qildik. Jayranning himoya quroli uning uchlik tikanlari ekan. Baquvvat, magʻrur jirafaning koʻzlari chiroyli, katta-katta, mehrga toʻla. Uning oldingi oyoqlari, boʻyni uzun, ikkita shoxi ham bor. Arktikaning oq ayiqlari suv toʻldirilgan marmar hovuzda suzib yurishibdi.

4-bosqich. Oʻzingiz tuzgan gaplar ishtirokida matn yarating. Matn kirish, asosiy qism va xulosadan iborat boʻlsin. Unga sarlavha tanlang.

Biz dam olish kuni dadamlar bilan shahar zooparkiga bordik. Zoopark hududida keng va tekis yoʻlaklar, maydonlar, sersoya daraxtlar koʻp ekan. Zooparkning markaziy yoʻliga bolalar va ota onalar uchun guldor, yogʻoch skameyklar qoʻyilgan. Dadam bizni tuya oʻrkachiga mahkamlangan yumshoq oʻrindiqlarda sayr qildirdilar. U erda biz yovvoyi hayvonlar: yoʻlbars, ayiq va sherlar qarorgohini, daryo va okean baliqlarini, Afrikadan keltirilgan uzunoyoq tuyaqushni, Avstraliya kengurusi, jayra va uning bolalarini tomosha qildik.

Zooparkda yashaydigan yovvoyi hayvonlar, qushlar va oq ayiqlar bizga juda yoqdi. Biz oilamiz bilan qushlar va yovvoyi hayvonlarni yaxshi ko'ramiz.

Matn ustida ishlash topshiriqlari: 1. Matnning qaysi fanga oidligi, jami gaplar soni, undagi sodda va qo'shma so'zlar miqdorini aniqlang. 2. Matndagi qo'shma so'zlar ishtirokida gaplar, mavzuga oid testlar tuzing. 3. Ajratilgan so'zlarni boshqa muqobiliga almashtiring. 4. Uyushiq bo'lakli gaplarni ixchamlang. 4. Sodda va qo'shma so'zlarning farqini ko'rsating. 5. Gaplarni ixchamlang. 6. Sarlavhani o'zgartiring.

Tajriba-sinov darsi yakunida o'quvchilarga quyidagi test savollari tarqatilib, tegishli javoblar olindi:

Test savollari

1. Siz yaratgan matnni qaysi fan sohasiga kiritish mumkin?
a) biologiya b) geologiya d) tibbiyot e) adabiyot
2. Matnda qaysi fanga oid ixtisosiy atamalar qo'llanilgan?
a) adabiyotga oid b) biologiyaga oid; d) tarixga oid e) tibbiyotga oid
3. Matnda qancha so'z, so'z birikmasi, gap, yordamchi so'z ishtirok etgan?
a) so'zlar soni ...ta b) SBlari soni ...ta
d) gaplar soni ...ta e) yordamchi so'zlar soni ...ta
4. Modulning nutqiy kompetentlikni egallashga ijobiy ta'sirini sezdingizmi?
5. Slayd asosida nazorat testlari tuzing va uni guruhda o'qing.
6. Slayddan foydalanib, tasnifiy matn yarating, matn asosida test topshiriqlari tuzing. Namuna:
7. Qaysi qatorda sodda so'zlar berilgan?
A) BMT, BuxDU, ADU, Mingbuloq
B) oshqozon, atirgul, toshko'mir
D) mehnat, oila, daraxt, maktab
E) kula-kula, yoza-yoza, taq-tuq
7. Juft va takroriy so'zlar qanday farqlanadi?
A) juft so'zlarda asos ikki xil bo'ladi.
B) takroriy so'zlarda asos takrorlanadi.

D) juft va takroriy soʻzlar chiziqcha bilan yoziladi.

E) asos juft soʻzlarda ikki xil, takroriy soʻzlarda bir xil boʻladi.

8. “Qirqquloq”soʻzining qaysi soʻz turkumiga qarashliligi, tub yoki yasamaligini aniqlang.

A) ot soʻz turkumi, yasama soʻz.

B) sifat soʻz turkumi, tub soʻz.

D) son + ot soʻz turkumlari, yasama soʻz.

E) ravish soʻz turkumi, yasama soʻz.

Yuqoridagi topshiriqlar ustida ishlash oʻquvchida yozma nutqning toʻgʻri shakllanishi, rivojlanib, takomillashib borishiga sabab boʻladi. Oʻquvchi matn tili, uning tarkibidagi gaplar, bogʻlanishli nutq, yozma fikr ifodalash usullarini kuzatadi, guruhlaydi, farqlaydi, matn uchun keraklisini tanlaydi. Yaratilgan matn sifati oʻzi egallagan nutqiy kompetensiyalar miqdoriga bogʻliqligini anglab etadi.

“MYBT–4” moduli bosqichlarining har birida oʻquvchi nutqiy kompetensiyasini aniqlash, rivojlantirish, baholash imkoniyatlari mavjud. U oʻquvchi nutqiy taraqqiyoti uchun yangi pogʻona, yangicha mezon. Modul tizimida ishlash oʻquvchida suxandonlik, nutqiy kompetensiyaga ehtiyoj hosil qiladi, fikr ifodalash mahoratining til boyligi bilan oʻzaro uygʻunlikda, uzluksizlikda shakllanib borishini kafolatlaydi.

Oʻquvchi yaratgan matnlar uning til imkoniyatlaridan foydalanish darajasi haqida toʻliq maʼlumot beradi. Oʻzi yozgan matnni qayta ishlab, takomillashtirish esa oʻquvchi uchun nihoyatda qiziqarli. Quyida tajriba-sinov ishlarini olib borgan eksperimentator oʻqituvchilarga tarqatilgan “Media trening” oʻquv qoʻllanmasi dasturi topshiriqlaridan namunalari keltirildi.

“Media trening” slaydlari vositasida nutqiy kommunikativ kompetentlikni shakllantirish dasturi.

1. Slayd tasnifini oʻqituvchi yoki oʻquvchi ijrosida tinglash, takrorlash. 2. Slaydni oʻqituvchi ovozigacha taqlid qilib, ogʻzaki tasniflash. 3. Berilgan slayddan foydalanib, tasnifiy matn yaratish. 4. Berilgan slayd asosida savol va topshiriqlar, nazorat testlari, SBlari, gaplar tuzish. 5. Rangli slaydlarni monitor, proektor ekranida

namoyish qilib, yangi mavzuni tushuntirish. 6. O'quvchilarni kichik guruhlarga bo'lib, slayd yordamida o'yin-musobaqa, bahs-munozara, "Quvnoqlar va zukkolar" tanlovi o'tkazish. 7. Slayddan foydalanib, so'z birikmasi, ibora, hikmatli so'z, gap tuzish bo'yicha "Kim tezroq?" o'yinlari tashkil qilish. 8. Mavzuga oid slayddan foydalanib, «Aqliy hujum», «Debat», bahs-munozara va musobaqa darslarini tashkil qilish. 9. O'rganilgan slaydlar asosida «Zakovat» intellektual o'yinlarini uyushtirish. 10. O'rganilgan slayd asosida nutq o'stirishga yo'naltirilgan «Konferentsiya darslari»ni tashkil qilish. 11. O'rganilgan slayd asosida «Eng yaxshi og'zaki matn» treningini o'tkazish. 12. Slayddan foydalanib «Eng yaxshi test topshiriqlari» musobaqasini tashkil qilish. 13. Clayd bo'yicha "Eng yaxshi suxandon" tanlovini o'tkazish. 14. Claydni yozma tasnif qilish bo'yicha "Eng yaxshi sharhlovchi" treningini o'tkazib, g'oliblarni rag'batlantirish. 15. Clayd yordamida gap tuzish bo'yicha "Eng yaxshi uslub" tanlovini o'tkazib, g'oliblarni rag'batlantirish. 16. Slayddan foydalanib, ixtisosiy matn yaratish. 17. Slayddan foydalanib, muammoli savol va topshiriqlar tuzish. 18. Clayd mazmuniga oid, nazorat testlari tuzish. 19. Clayddan bir so'zni tanlab, SBlari va gaplar tuzish. 20. Berilgan slayd asosida muammoli vaziyat yaratish. 21. Berilgan slayd yordamida nazorat testlari va savollar tuzish. 22. Slayd mavzusiga oid nazorat testlarini yechish. 23. Slayddan foydalanib, modul tizimida matn yaratish. 24. O'rganilgan slayddan foydalanib, takrorlash va mustahkamlash darsi o'tkazish. 25. Slayddagi so'zlarga uyadosh va ma'nodoshlar tanlash. 26. O'rganilgan slayd yuzasidan taklif, tanqidiy fikr bildirish, fikrni isbotlash uchun dalillar keltirish. 27. O'rganilgan mavzu asosida mustaqil slayd yaratish. Slaydni bezashda fotoshopdan foydalanish.

Yuqorida tavsiya qilingan "Media-trening" dasturi topshiriqlari ustida muntazam ishlash, o'quvchini o'z nutqiy bilimlarini slayd vositasida sinashga, tekshirishga, rivojlantirish va mustahkamlashga odatlantiradi. O'quvchining umumlashtirish va obrazli fikrlash, fikrni monitorda, qog'ozda, ekranda tasvirlash kompetensiyasi, mantiqiy tafakkur darajasi o'sadi. Zero, "Media-trening" didaktik slaydlar to'plamidagi har bir slayd o'quvchida nutqiy-kommunikativ kompetentlikni shakllantirishga mustaqil, erkin, ravon fikr ifodalashga eltuvchi psixolingvistik-texnologik imkoniyatlar zahirasidir.

§ 4.2. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning interaktiv metodlari

G'arbiy Evropa mamlakatlarida pedagogik texnologiya ilmiy markazlari ko'pdan buyon ilmiy-amaliy faoliyat ko'rsatib kelmoqda. Ular umumta'lim tizimida internet, axborot kompyuter texnologiyasi, interaktiv metodlar va boshqa didaktik vositalardan foydalanishning tezkor usullarini ishlab chiqdilar.

Respublikamiz umumta'lim tizimida o'quvchilarni mustaqil va ijodiy faoliyatga yo'naltiradigan, darsda "portlash effekti" beradigan "Dars-munozara", "Dars-sud", "Dars-nuqtai nazar", "Dars-muloqot", "Dars-axborot", "Aqliy hujum", "Debat-dars", "Tanqidiy fikrlash", "6x6", "Diqqat, muammo!", "Menga so'z bering!" treninglari, "Lug'at auktsioni", "Lug'at-kashfiyot" darslari [14: 203; 205] kabi yuzlab interaktiv metodlarni to'plash, o'rganish va milliy ma'naviyatimizga moslashtirib, ommalashtirish til o'qitish metodikasining birlamchi vazifalaridan sanaladi. Mazkur ilg'or texnologiyalarni o'qituvchilar malakasini oshirish tizimi orqali maktabga, dars jarayoniga olib kirish, o'qituvchi faoliyatini ta'limning interaktiv metodlari [203; 205] asosida boyitish nihoyatda zarur.

Respublikamizda ona tili ta'limi sohasi uchun mustaqil fikrlash, nutqiy kompetentlik, ijodiy tafakkurni o'stirishga qaratilgan o'quv dasturlari ishlab chiqilgach, o'quvchining erkin fikrlash va uni himoyalash huquqlari, ta'limda o'quvchi shaxsi ustuvorligi tan olindi, o'quvchi idroki ijodiy va tanqidiy fikrlashga, nutqiy malakani rivojlantirishga, fikrni yozma ifodalash kompetensiyasini mustahkamlashga yo'naltirildi.

Ma'lumki, bunday maqsadlarga qaratilgan interaktiv metodlar ko'proq yuqori sinf o'quvchilari saviyasiga moslangan bo'ladi. Uni vaziyatga qarab murakkablashtirish, soddalashtirish, o'zgartirish mumkin. Quyida tavsiya qilinayotgan "**Nuqtai nazar**" nomli media-treningdan o'quvchi og'zaki nutqini o'stirish, matn yaratish, madaniy muloqot kompetensiyasini egallashda ham samarali foydalanish mumkin.

1. "**Nuqtai nazar**" nomli media-treningning ta'limiy-tarbiyaviy va rivojlantiruvchi xususiyati jadal fikrlash, fikrni qisqa, tushunarli ifodalash, notiqlik san'ati, tanqid, tinglash, anglash va

yozma qayd qilish malakasini shakllantirish bo'lsa, uning hayotiyligi nafaqat muammoni ikki tomonlama ko'rib chiqish, balki uni yechishning eng to'g'ri, qisqa va foydali variantini tanlashni o'rganishdir.

2. **“Nuqtai nazar”** muallifi (o'quvchi) ning maqsadi ishtirokchi va hakamlarni o'zi tuzgan loyihaning to'g'riligi, ko'tarilgan muammoni bartaraf etishga qodirligiga ishontirish va o'z dasturini himoya qilishdan iborat. Ona tili ta'limida mazkur media-treningdan madaniy muloqot kompetensiyasini egallashda [144; 21–23] *nutqiy kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda unumli foydalanish* mumkin.

3. **Media-trening qoidalari.** Qamrovli fikrlash, diqqatni kuchaytirish, to'g'ri yechimni tanlash va uni himoya qilishning *muhim qoidalari* quyidagilar: 1. Barcha g'oya va qarashlarni yozing. 2. G'oyalarni barchasini oling, chunki bitta yaxshi g'oya ishlab chiqarish uchun bir nechta o'rtacha g'oyalarni o'rganib chiqish kerak. 3. Hamma g'oyalarni o'rganing, ulardan eng yaxshisini tanlang yoki yangi g'oya ishlab chiqing. 4. Fikringizning isboti uchun slay va grafik jadvallardan foydalaning.

4. **Media-trening shartlari.** Treningda faqatgina hammaga ma'lum bo'lgan fakt va bilimlar tizimi ishlatiladi. Umumiy maslahatlar: nutqda gumon olmoshlari, mavhum tushunchalarni qo'llash ishonchsizlik belgisi bo'lgani uchun nutqingizda “bilmadim”, “kimdir”, “bo'lishi mumkin”, “kim bilsin”, “iloji bo'lsa” kabi so'z va so'z birikmalarini ishlatmang. To'liq ishonch bilan gapiring. Nutq aniq, ixcham, mantiqan bog'langan bo'lishi kerak. Doimo odob saqlang, muloyim, lekin ishonch bilan so'zlang. Shoshqaloqlik sizga ziyon keltiradi. Tez gapirmang. Ziyrak va e'tiborli bo'ling. Raqiblarning hamma gaplarini diqqat bilan eshiting va yozma qayd qiling.

Mazkur interaktiv media-treninglar o'quvchini tezkor matn yaratish, internet bilan muloqotga kirishish, elektron pochta xizmatidan foydalanish, SMS yozish, hayotiy ehtiyojlarga tayyor bo'lish, rasm-matnli, harakatlanuvchi reklamalar yaratishga yo'naltiradi, nutqiy kommunikativ kompetentlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

“**Nuqtai nazar**” media-treninglarida qatnashish, ixtisosiy nutq, nutqiy-intellektual o‘yin talablarini bajarish, monologik nutq, ma’ruza matni yaratish kompetensiyasini shakllantirish (o‘z dasturining to‘g‘riligini isbotlash uchun aniq yechim, hukm va xulosalar berish) bilan shug‘ullanish o‘quvchining nutqiy intellektual layoqatini takomillashtirishga xizmat qiladi. Qisqasi, “Nuqtai nazar” o‘zaro fikr almashish, o‘z fikrini himoya qilish, tanqidiy tafakkurga asoslangan ilmiy muhokama va munozara faoliyati bo‘lib, o‘quvchilarga ko‘tarilgan muammo yechimi variantlarini eshitish, qiyosiy tahlil qilish, eng to‘g‘risini tanlash imkoniyatini beradi.

“**Nuqtai nazar**” media-treninglari o‘quvchini mustaqil fikrlashga, izlanish va topishga, o‘z fikrini ilmiy ifodalash va to‘g‘ri xulosa chiqarishga o‘rgatadi, MYKSH uchun yana bir tayyorlov bosqichi vazifasini o‘taydi. O‘quvchi til, tafakkur va mantiq o‘rtasidagi bog‘lanishlarni his etishga, o‘z nutqida maqol, hikmatli so‘z, rivoyat va iqtiboslar ishlatish, zaruriy sana, fakt va dalillardan unumli foydalanishga odatlanadi.

O‘quvchilarda MYKSHning *uslubiyat* bilan o‘zaro uyg‘unlikda olib borilishi yosh avlodda nutq madaniyati taraqqiyotini ta’minlaydi. Mazkur faoliyat o‘quvchida nasriy va nazmiy matnlar, testlar, muammoli savol va topshiriqlar, axborotlar, rasmiy ish qog‘ozlarini yozish, uning qurilishi, ko‘rinishi, shakli, o‘zaro o‘xshash va farqli tomonlari haqida tasavvur hosil qiladi, unda o‘z-o‘ziga ishonch, individual uslub shakllanadi.

H. Ne‘matov, A. G‘yломov, N. Mahmudov va boshqalar tomonidan tuzilib, 2014 yilda qayta ishlangan “Ona tilidan o‘quv dasturi”ning 12-bandida: “Dastur va darsliklarda tilshunoslik va uslubiyat, imlo va talaffuz ajratilmaydi. Har bir hodisa ona tili mashg‘ulotlarida yondosh (vazifadosh va ma’nodosh)lari bilan birgalikda o‘rganilishi sababli ulardan har birining imloviy, uslubiy mohiyatlari va xususiyatlari ham hodisalar bilan birgalikda o‘zlashtirilib boriladi” deyilgan [110: 7-bet]. Demak, nafaqat MYKSH jarayonida, balki 5–9-sinflarda til o‘rganish amaliyotida ham uslubiyat masalasiga alohida e’tibor qaratish lozim. O‘quvchida ta’limning dastlabki boskichlaridanoq uslubiy bilim shakllantirilmas ekan, og‘zaki va yozma nutqning takomillashuvi qiyin kechadi. Mustaqil MYKSH esa, shubhasiz, individual uslub unsurlarini

egallash, nutqiy kompetentlikni shakllantirish bilan o‘zaro uyg‘unlik va uzluksizlikda olib borilishi, matn yaratish mashqlari shartida aks etishi lozim. “MYBT-4” moduli topshiriqlari o‘quvchida to‘g‘ri, o‘rinli, mantiqli fikr ifodalash kompetensiyasini shakllantirishi bilan xarakterlanadi. Shu sababli bu topshiriqlarni bajarish o‘quvchida individual uslub komponentlarining (unsur) shakllanishini kafo-latlaydi.

“Ta’lim” o‘quv dasturi muallifi I. Iminovning [60: 34–40] “...uslubiyat masalasi yuqori sinflarda o‘rganilishi maqsadga muvofiq...”, degan fikriga qo‘shila olmaymiz. Sababi, og‘zaki matn tuzish topshiriqlari nutq va matn tushunchasi, mantiqiy fikrlash boshlang‘ich ta’limning 2-sinfidan, matn, xatboshi va gap mavzulari 3-sinfidan boshlanishi, unda o‘quvchilarga kichik matnlar tuzish tavsiya qilinishi hisobga olinsa, uslubiyat unsurlari bilan tanishish ona tili darsliklarining 3–4-sinflaridan boshlab kiritilishi kompetensiyaviy ta’lim talabiga mos tushadi. Elementar uslubiy bilimlar og‘zaki va yozma nutqni to‘g‘ri ifodalash, kichik matnlar yaratish kompetensiyasining shakllanishini osonlashtiradi. *Uslubiy bilimlarni egallash muammosi esa qisqa, sodda, ammo o‘quvchini o‘ylashga, fikrlashga majbur qiladigan quyidagi 10 ta psixolingvistik savollar vositasida o‘z yechimini topadi:*

1. Gap to‘g‘ri tuzilganmi? 2. Gap to‘g‘ri yozilganmi? 3. Gapning kesimi qani? 4. Kesimni boshqa so‘z bilan almashtirish mumkinmi? 5. Gapda kelishik va egalik qo‘shimchalari to‘g‘ri ishlatilganmi? 6. Gapda ma’nodosh (uyadosh, zid ma’noli) so‘zlar ishlatilganmi? 7. Gapda ohang, tinish belgilari o‘rinlimi? 8. Gapni kengaytirish (ixchamlash) mumkinmi? 9. Ko‘chirma gapga aylantirsa bo‘ladimi? 10. Gappa maqol yoki iqtibos kiritish imkoniyati bormi? va hk.

Bunday savollar ustida o‘ylash, javoblar topish, to‘g‘ri javobni tanlash o‘quvchi ongi, tasavvurini kengaytirib, nutqiy kompetentlik darajasini oshiradi. Bu holat o‘tkazilgan tajriba-sinovlar jarayonida ko‘p kuzatildi.

O‘quvchiga matn yaratish jarayonida ma’nodosh qo‘shim-chalar (-chi, -kor; -dor, -li), ma’nodosh so‘zlar (ko‘hlik, go‘zal, chiroyli, ajoyib, betakror), ma’nodosh gaplar (tong otdi, tong oqardi, tong yorishdi), inversiya hodisasi: Ona tilimizning, vatanimizning

betakrorligini bilaman // Bilamanki, betakror yurtim, istiqboli barqaror yurtim kabi turli gap tuzish usullarni bilish o'quvchilarda MYKSHning zaruriy elementlaridan sanaladi.

Ona tili o'qituvchisi o'quvchilarni *matn yaratish faoliyatiga tayyorlash* jarayonida mustaqil, ijodiy-tanqidiy fikrlash, fikr mahsulini qo'lyozma holda saqlash, imloviy- uslubiy tahrirlash, undan vaziyatga ko'ra ijodiy foydalanish kompetensiyasini tarbiyalab borishi lozim. Shuningdek, matn uchun tayanch manba bo'lmish adabiyotlardan iqtiboslar, internet, televidenie ma'lumotlarini to'play bilish, voqea-hodisa, belgi-xususiyatni, o'qilgan adabiyotlarni kuzatish va chog'ishtira bilish, ular yuzasidan to'g'ri hukm va xulosa chiqarish, fikrni ixcham, aniq, tushunarli ifodalash kabi suxandonlik unsurlarini o'rganib borish o'quvchi nutqining ravon, etuk, sermazmun bo'lishiga olib keladi.

UMUMIY XULOSALAR

Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv ijtimoiy muloqot, matn yaratish madaniyati shakllangan, mustaqil tafakkur qudratiga ega bo'lgan barkamol avlodni tayyorlashning ishonchli omillaridan sanaladi. Davlat va jamiyatning raqobatbardosh mutaxassislarga bo'lgan talabini o'rganish esa yoshlarning nutqiy kommunikativ kompetentlik sifatini oshirish borasidagi **imkoniyatlar** va uni amalga oshirishning amaldagi **pedagogik shart-sharoitlari** o'rtasida muayyan **tafovut** borligini ko'rsatdi. Ta'limga kompetensiyaviy yondashuv, o'quvchilarda MYKSH mazkur tafovutni bartaraf etishning muhim sharti sanalib, o'quvchi yangi mavzuni o'rganishda, shu mavzuda matn tuzishga hozirlanishi, matn loyihasini tasavvur qila bilishi kerak. Ana shunda "MYBT-4" modulining ta'limiy effekti yaxlitligicha namoyon bo'ladi – tasavvurni tafakkurga, kompetensiyani malakaga aylantirish mexanizmi ishga tushadi, o'quvchida shakllangan nutqiy layoqat nutqiy kommunikativ kompetentlik darajasiga o'tib boradi.

Tadqiqot yo'nalishida olib borilgan ilmiy izlanishlar, UO'TMda o'tkazilgan tajriba-sinovlarda erishilgan didaktik natijalar quyidagi umumiy xulosalarga kelishimizga asos bo'ldi.

1. UO'TM 5-9-sinf o'quvchilarida shakllangan imlo savodxonligi, mustaqil fikrlash muammosining ilmiy-tarixiy negizlarini tahlil qilish, tajriba-sinov natijalari shuni ko'rsatdiki, og'zaki va yozma nutq izchillik, sathlararo aloqadorlik, o'zaro uyg'unlik va uzluksizlikda rivojlantirilishi zarur. Mustaqil matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish faoliyati yuqoridagi usulda – yaxlit bir sistema sifatida tashkil etilsa, o'quvchilarda mustaqil fikrlash, nutqiy kommunikativ kompetentlikning shakllanishiga keng va qulay imkoniyatlar yaratiladi.

2. Mustaqil fikrlash, izchillik, bosqichlilik va sistemalilik MYKSHning asosiy tamoyillari sifatida maktab amaliyotiga joriy etilganligi, ona tili darslarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning yangi, mahsuldor qirralari ochilishiga sabab bo'ldi. Til zahirasini boyitish, so'z tanlash, undan og'zaki va yozma nutqda foydalanish, nutq birliklari, tasviriy vositalar, maqol va hikmatli so'zlar yordamida matn mazmunini kuchaytirish, matn tahriri bilan

mustaqil shug'ullanish – aniq sistema qamrovida fikrlash mahsulidir. Shuningdek, nutqiy kommunikativ kompetentlik matn yaratishning *bosqichli tizimida aniqlansa*, tilning nutqiy imkoniyatlaridan foydalanish darajasi – mustaqil yaratilgan matnda aks etadi.

3. O'quvchilarda imlo, MYKSH muammosi so'z boyligini oshirish, uslubiy savodxonlik, nutq o'stirish, tilning nazariy va amaliy jihatlarini o'rganishni o'zaro uyg'unlikda tashkil qilish; matn yaratishni til mavzularining tarkibiy qismiga aylantirish; slaydlar vositasida tasnifiy matnlar yaratish va taqdimot qilish muammolari yangi avlod ona tili darsliklarini media treninglar, innovatsion texnologiyalar, mustaqil ta'lim topshiriqlari bilan boyitish orqali o'z yechimini topadi.

4. Tajriba-sinov natijalariga ko'ra kompetensiyaviy ta'limda o'quvchilarning nutqiy kompetentlik sifatlari quyidagicha aniqlanadi: a) yaratilgan matn mazmuni va tarkibiy qismlarining to'g'ri shakllantirilganligi; b) matn mavzusining dolzarbligi; d) matnning ravonligi, uning tasviriy vositalar, maqol va hikmatli so'zlar, ixtisosiy tushunchalar bilan boyitilganligi; e) matnning ixcham va mazmundorligi, f) muallif-o'quvchining sinfda o'tkazgan taqdimoti.

5. Ona tilini tizimli o'rganish moduli MYBT- 4 – o'quvchidagi nutqiy kompetentlik, matn yaratish kompetensiyasini mustaqil shakllantiruvchi, uzluksiz kengayib, takomillashib boruvchi integrativ ta'lim mexanizmi bo'lib, uning ilmiy-amaliy mohiyati o'quvchining mustaqil fikrlashga o'tishi, o'z nutqiy qobiliyatini o'zi aniqlashi, tizimli rivojlantirishi, imloviy-uslubiy savodxonlikka erishishida namoyon bo'ladi.

6. Tajriba-sinovda ijobiy samara bergan o'quvchi nutqini o'stirish, lug'atini boyitish, so'zning lug'aviy ma'nolarini sharhlash, madaniy muloqat, individual uslubni shakllantirishga xizmat qiluvchi 9 ta psixolingvistik topshiriqlar tizimining ona tili ta'limiga kiritilishi kompetensiyaviy ta'lim sifatini ko'taradi, o'quvchi egallagan nutqiy - intellektual kompetentlik, ma'naviyat, madaniy muloqot darajasini aniqlashga yordam beradi.

7. Matn mazmunini shakllantirish va boyitishda nafaqat o'zbek adabiy tili, balki umumxalq tilining barcha vositalaridan erkin

foydalanish, ularga o'z o'rnida murojaat etish, modul texnologiyasidan unumli foydalanish – o'quvchilarda mustaqil fikrlash, kreativlik, so'zni tanlab ishlatish, ravon nutq, o'z-o'ziga ishonch, o'ziga xos uslubning, nutqiy kompetentlikning takomillashuviga olib keladi.

8. Tilning leksik, grammatik, sintaktik vositalari til birliklari o'rtasidagi ma'naviy aloqani tiklab, muhim didaktik vazifani bajaradi: matnda mazmun, ohang, mantiqiylik, mahsuldorlikni ta'minlaydi. Matnda faollashadigan sintaktik vositalar: emotsional gap, ritorik so'roq gap, inversiya, gradatsiya, farqlash, o'xshatish, ulab ketish imkoniyatlaridan keng foydalanish – o'quvchining ijodkorligi, nutqiy kompetentligi belgisidir.

9. O'qituvchida kasbiy kompetentlikni shakllantirish – darsni innovatsion texnologiyalar, interaktiv usul va vositalar asosida tashkil qilishning, o'quvchida nutqiy-uslubiy kompetentlikni ta'minlashning o'quvchilarda boshlovchilik, suxandonlik, badiiy o'qish, madaniy muloqot kompetensiyalarini mustahkamlashning asosiy omilidir.

10. 5– 9-sinflarda MYKSH faoliyatini modul tizimida amalga oshirish, o'quvchi yaratgan matnni jamoa ishtirokida baholash, xatolarni birgalikda bartaraf etish, tanqidchi o'quvchilar savoliga javob berish, o'z fikrini himoya qilish, nutqiy vaziyatga qarab zarur so'z va gaplarni chet tilidagi muqobil varianti (ekvivalenti) asosida izohlash faoliyati bilan muntazam shug'ullanish, o'quvchida kommunikativ kompetentlik, o'z-o'ziga ishonch, mustaqil qaror qabul qilish xususiyatini mustahkamlashga yordam beradi.

11. 5-9-sinf ona tili darslarini kompetensiyaviy yondashuv asosida tashkil qilish – “MYBT-4” moduli tizimida fikrlashni, “Media-trening” slaydlari bilan shug'ullanishni talab etadi. Negaki, modul mexanizmi o'quvchini mustaqil fikrlashga, so'zni tanlab ishlatish va nutqni ravonlash-tirishga, so'zlarni to'g'ri birlashtirish, gap va matnni takomillashtirishga o'rgatsa, *media-trening slaydlari* nazariy bilimlarni mustahkamlash, slaydni og'zaki yoki yozma sharhlash, savol va topshiriqlar, nazorat testlari tuzish, ularni mustaqil taqdimot qilishga o'rgatadi. Har ikki texnologiya yagona bir maqsadga **matn yaratish madaniyatini o'zlashtirishga** xizmat qilib, o'quvchilarda yozma nutqni takomillashtiruvchi neyrodidaktik mexanizm vazifasini bajaradi.

12. Umumta'lim maktablarining kompyuter sinflarida maxsus "mustaqil ta'lim saytlari"ni yaratish, unda turli soha va tillarga oid ilmiy-badiiy audiokitoblar, entsiklopedik lug'atlar, videoroliklar, jahon adabiyoti namunalari, muammoli vaziyatlar, rasmiy hujjatlar, turli davr madaniyatiga oid san'at asarlari, muzeylar videotasvirini saqlash – o'quvchilarda MYKSHning, nutq madaniyatini egalashning ishonchli manbasi, til o'rganishning qulay imkoniyatidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. –T., 1996. – 276 b.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. –T., 1996. – 120 b.
3. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: «O‘zbekiston», 1997. –326 6b.
4. Karimov I.A. Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. O‘zbekiston Respublikasi Oliy majlisining 2-chaqiriq 9-sessiyasida so‘zlangan nutq. –T., 1999-yil, 29-avgust. – 63 b.
5. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2-chaqiriq 9- sessiyasidagi ma’ruza. –T., 1999. – 210 b.
6. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda. –T.: «O‘zbekiston». 1999. –185 b.
7. Karimov I.A. Yoshlarimiz-xalqimiz ishonchi va tayanchi. – T.: «Ma’naviyat», 2006. –96 b.
8. Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat–yengilmas kuch.–T.: «Ma’naviyat», 2008. –173b.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqur-lashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent, Xalq so‘zi. 2010-yil 13-noyabr.
10. Karimov I.A. O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida. –T.: «O‘zbekiston», 2010. – 47 b.
11. Mirziyoev Sh. M. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son farmoni. 2017-yil 7-fevral.
12. Mirziyoev Sh. M. “Oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash va yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risidagi” gi PQ-153-son qarori 2017-yil 20-may.
13. Abdurahmonov G‘. Xo‘jayeva D. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Akademik litseylar uchun darslik. –T.: «O‘qituvchi», 1999. –128 b.
14. Abduqodirov A. Kasb-hunar kollejlari o‘quv jarayonini jadallashtirish. // “Uzluksiz ta’lim” jurn. № 2. Toshkent: 2002. 8- 13-b.

15. Abdullayev Y. Erkin temada inshoga tayyorgarlik. – Toshkent: 1988. –78 b.
16. Abdulla Qahhor. Qo‘shchinor chiroqlari. –T.: «Yozuvchi», 1960. –163 b.
17. Abduraimova M., Qodirov M. Umumta‘lim maktablarida ona tili o‘qitish yuzasidan tavsiiya va rejalashtirish,–Toshkent: 1991. – 218 b.
18. Abduraimova M. Morfologiyani sintaksis bilan bog‘lab o‘rganish. ”O‘zbek maktablarida ona tilini o‘qitish”. Metodik tavsiyalar.–Toshkent: 1993. 8–16-b,
19. Abdurahmonov G‘. va boshq., Punktuatsiya o‘qitish metodikasi. –Toshkent: 1998. 12–18-b.
20. Abdurahmonov N. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi.–Toshkent: 1998. –172 b.
21. Абдуллаев К.М. Об одном критерии определения границ текста в азербайджанском языке. –Москва: “Советская тюркология”, 1997. –С. 24–30.
22. Adilova S. O‘zbek tilini o‘qitishda kompyuter texnologiyalaridan foydalanish. Monografiya. –Toshkent: 2006. 86 b.
23. Aminov M., Madvaliyev A., Mahkamov N., Mahmudov N. Ish yuritish. – T.: «O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat ilmiy nashriyoti, 2015.
24. Alekseyev V.S. O‘smirlarda ijodkorlik ko‘nikmasini rivojlantirish. (Metodik tavsiyalar), –T.: O‘qituvchi, 1992. –85 b.
25. Amonashvili va boshq., Pedagogik izlanish. –Toshkent: 1992. –463 b.
26. Андриянова В.И. Совершенствование обучения русской устной речи узбекских школьников. –T.: «Фан», 1998. – С. 22–34.
27. Андриянова В.И. Многозначная глагольная лексика на уроках русского языка. –Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – С. 200.
28. Андриянова В.И. и др., Методическое руководство к “Книге для чтения” для 7 класса, –T.: «Ўқитувчи», 1996. – С.185.
29. Анисимов Р.С. Изучение межфразовых связей. Журнал “Русский язык в национальной школе”, –Ташкент: 1996. – С. 13–16.

30. Апеева Л.А. Нетрадиционные приёмы обучения русскому языку в начальных классах. Учебно-методические разработки. – Ташкент: 1998. – С.128.

31. Almatov T., Yodgorov Q., Pochchaeva G. O'zbek tili o'qitish metodikasi (metodik qo'llanma) – Jizzax: 2006. – 249 b.

32. Axatova D. Fitratning ta'lim-tarbiya haqidagi qarashlari. // "Xalq ta'limi". – Toshkent: 1998. № 4, 52–54-b.

33. Ahliddinov R. Uzluksiz ta'limda pedagogik boshqaruv masalalari, // "Uzluksiz ta'lim" № 3; – Toshkent: 2002. 4–6-b.

34. Бабанский Ю.К. Оптимизация процесса обучения. – Москва: Педагогика, 1997. – С. 12–17.

35. Берзон Л.Е., Котов Р. Р, Бритвин В.Г, Кузнецов А.Б. Компьютерная лингвистика – Москва. 2002. – С. 182.

36. Беспалько В.П. Программирование обучения и дидактические основы, – М.: "Высшая школа", 1970. – С. 200.

37. Bekniyazova N.I. Boshlang'ich sinf ona tili darslarida o'quvchilarni matn yaratishga o'rgatish metodikasi. T.: "Fan va texnologiya", 2012, 160 bet.

38. Блинов Г. Классификация пунктуационных ошибок. – М.: "Высшая школа", 1970. – С.122.

39. Бим-Бад Б.М. Педагогический энциклопедический словарь. – Москва, 2002. – С. 32.

40. Bobomurodova A. Ona tili ta'limi jarayonida o'yin-topshiriqlardan foydalanish. Ped. fan. nom. diss., avtoreferati. – Toshkent: 1997. – 24 b.

41. Bobokolonov R., Ne'matova G. Ona tili o'qitishning yangi texnologiyasi haqida, – Toshkent: 1998. – 30 b.


Musobaqa darsi

Bunda o'quvchilar ikki guruhga – "Zakovat" va "Kamolot" guruhlariga ajratiladi. "Zakovat" guruhiga asosan, a'lo bahoga o'qiydigan o'quvchilar jamlanadi va ularning soni 6 nafardan oshmasligi lozim. Mazkur guruh a'zolari vaqti-vaqti bilan "Kamolot" guruhidagi faol o'quvchilar bilan almashtirilib turiladi. Maqsad – "Zakovat"ga qarshi o'ynayotgan "Kamolot" guruhi a'zolari nutqiy-intellektual qobiliyatlari, egallagan (berilayotgan savollari orqali) nutqiy kompetentlilik darajasini ko'rsatishlari va raqiblarni umumiy hisobda engib chiqishlari lozim. Murakkab savollar bilan "Zakovat" guruhi a'zolarini 3 karra mag'lubiyatga uchratgan "Kamolot" guruhi o'yinchisi, o'zining noto'g'ri javoblari bilan 3 ochko yo'qotgan "Zakovat" guruhi a'zosi o'rniga kiritiladi (ya'ni, har bir savol beruvchi o'quvchida "Zakovat" guruhiga a'zo bo'lish imkoniyati bor).

"Zakovat" ning doimiy a'zosi ham, mazkur guruh a'zoliciga da'vogar o'quvchi ham o'z bilimini, fikr ifodalash qobiliyatini rivojlantirish, ijodiy tafakkur, mantiq, idrok va fikrni to'g'ri ifodalash san'atini mukammal egallashi lozim bo'ladi. O'quvchi ongida o'zlikni anglash, o'z iqtidorini o'zgalarga namoyish qilishdek tabiiy istak uyg'onadi.

Tavsiya qilinayotgan "Zakovat" musobaqa darsi o'quvchitalabalarda mustaqil matn yaratish ko'nikmasini shakllantirish va madaniy nutqni rivojlantirish uchun mo'ljallangan. Har ikki jamoa a'zolarining joylashish tartibi quyidagicha:

"Zakovat" va shu kabi intellektual o'yinlar umumiy o'rta ta'lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar kollejarida, oliy ta'limda tashkil qilinishi mumkin. Ta'lim muassasalarining "Zakovat" jamoasi ana shunday guruhlar o'rtasida o'tkazilgan o'yin-musobaqa g'oliblaridan tuzilgan bo'lishi maqsadga muvofiq. "Zakovat" maydon markaziga, "Kamolot" esa ularning atrofiga joylashadi. Musobaqa o'qituvchi yoki boshqaruvchi tomonidan olib boriladi. O'yin tartibi xuddi "Zakovat" teleo'yiniga o'xshab ketadi, lekin beriladigan topshiriqlar mazmuni, aniq bir mavzuga bag'ishlanganligi bilan undan farqlanib turadi.



Mazkur "Zakovat" o'yin-muloqot darsida:

1. O'quvchining ona tilidan egallagan nazariy bilimlari darajasini aniqlash va baholash, rivojlantirish, berilgan savolga to'g'ri, ilmiy dalillangan javob qaytarish ko'nikmalarini shakllantirish mumkin.

2. "Zakovat" musobaqa darsida o'quvchilar o'rganilgan mavzular bo'yicha egallangan nutqiy bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotga tatbiq etadilar, o'z nutqiy qobiliyati, matn tuzish mahoratlarini namoyish qiladilar.

3. O'yinda qatnashayotgan har ikki guruh umumiy bir maqsadni: O'rgani-layotgan mavzuni to'liq o'zlashtirish, egallangan BKMLarni matn amaliyotida qo'llash, yaratilgan matnни qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitishni nazarda tutadi va unga intiladi.

4. "Zakovat" guruhi a'zolari o'qituvchi yoki qarshi guruh tavsiya qilgan topshiriq asosida mustaqil izlanishi, muammoli

savolga javob matnlari tuzishi, elektron grammatik slaydlardan foydalanib, test topshiriqlari tuzishi, "Axborotnoma"da berilgan sinov testlarini yechishi va hk ishlar bilan shug'ullanishlari mumkin. "Zakovat" ga qaraganda "Kamolot" ning imkoniyatlari ko'p va xilma-xil. Ular savol berish uchun ona tili darsligidan istalgan mavzuni tanlashlari (mavzu albatta avval o'rganilgan bo'lishi lozim), testlar, muammoli topshiriq va savollardan erkin foydalanishlari mumkin. Faqat boshlovchi tomonidan belgilangan mavzudan chetga chiqmaslik talab qilinadi. Bitta savol uchun maksimal baho 5 (besh) ball. Agar savol beruvchi guruh, javob beruvchi guruhning bergan javobidan qanoatlanmasa, o'zi javobni to'ldirish huquqiga ega²⁰. Savol va javob natijasiga ko'ra ochkolar hisoblab boriladi va eng ko'p ball to'plagan guruh o'yin g'olibi deb topiladi.

Mazkur musobaqa darslari ishtirokchilar o'rtasida haqiqiy intellek-tual tanlanishni yuzaga keltiradi. Bunday tanlanish ta'lim muassasalarida, o'quv guruhlarida sog'lom ijodiy raqobat, kitob o'qish, ilm o'rganish, o'zaro do'stlik va hamkorlik muhitini hosil qilishning ishonchli omili hisoblanadi.

²⁰Savol beruvchi tomonidan to'g'ri tanlangan va to'ldirilgan javob, mazkur guruhga foyda keltiradi. Javob beraётган guruh uchun ajratilgan ball miqdori kamaytirilib, 4 eksi 3 ballga tushiriyotishi, javobni to'ldirgan guruh hisobiga esa 1, 2 ball e'zib qo'yilishi mumkin).

ILOVALAR

**TA'LIMGA KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV
SHAKLLARI NUTQIY KOMPETENTLILIK DARAJASINI
ANIQLASH UCHUN PSIXOLINGVISTIK TESTLAR
(didaktik ta'minot. 9 ta she'riy slaydlar majmui)**

Ona ili ta'limga kompetensiyaviy

**Ona ili ta'limga kompetensiyaviy
yondashuv shakllari**

**O'quvchi ongosti taffakuri faoliyatini
maqsadli boshqarish (psixolingvistika)**

**Og'zaki va yozma matn yartish faoliyatini
rivojlantirish texnologiyalari**

**O'quvchi nutqiy kommunikativ
kompetentlik darajasini modul tizimida
aniqlash va baholash texnologiyalari**

**O'quvchi nutqiy-intellektual kompetensiyasini
aniqlash texnologiyalari**

- Shaxsga psixolingvistik yondashuv.
- She'rni yozma tahlil qiling. Uni davom ettiring.
- Yod boshqa faryod boshqa, kuy boshqa, kuymak boshqa,
- Qor bo'lsa-da ishboshi soy boshqa, irmoq boshqa,
- Yomg'irsiz yashnamas cho'l, sel boshqa, selob boshqa.

**O'quvchi nutqiy-intellektual kompetensiyasini
aniqlash texnologiyalari**

- Shaxsga psixolingvistik yondashuv.
- Ramziy belgilarni izohlang. She'rni yozma tahlil qiling.
- So'z qadrini bil farzand, son boshqa inson boshqa,
- Vaqt belgidir naqliga, shom boshqa xufton boshqa.
- Olam o'zi tilsimdir – til boshqa, tilsim boshqa
- Do'st emas har xushzabon, yor boshqa, yor-yor boshqa...

O'quvchi nutqiy-intellektual kompetensiyasini aniqlash texnologiyalari

- **Shaxsga psixolingvistik yondashuv. Ramz va rasmlarga qarab, maqol yoki hikmatli so'z ayting.**
- **She'rni yozma tahlil qiling.**
- **Sir boshqa, sirdosh boshqa, tur boshqa, turdosh boshqa,**
- **Yo'l boshqa, yo'ldosh boshqa, qo'l boshqa, qo'ldosh boshqa**
- **Uchmang makkor so'ziga, yor boshqa ag'yor boshqa**

O'quvchi nutqiy-intellektual kompetensiyasini aniqlash texnologiyalari

- **Shaxsga psixolingvistik yondashuv.**
- **Ramziy belgilarni izohlang. She'rni yozma tahlil qiling.**
- **Shirindir buncha yolg'on, til boshqa, tilak boshqa,**
- **Ogoh bo'ling, do'stlarim, yurt boshqa, yurak boshqa,**
- **Ma'nisi cho'ng bilsangiz, ot boshqa, G'irotdosh boshqa,**
- **El boshqa elat boshqa, halq boshqa, istak boshqa...**

O'quvchi nutqiy-intellektual kompetensiyasini aniqlash texnologiyalari

- **Ramziy belgilarni izohlang. She'rni yozma tahlil qiling.
Nasrga aylantiring.**
- **Shirmoy yemoq osonmas, soy boshqa, bug'doy boshqa.**
- **Yurakni pora qilgan kuy boshqa-yu, to'y boshqa,**
- **Aql ila til qarindosh, ro'y boshqa, xushro'y boshqa,**
- **Xushlamas yolg'onni dil, zor boshqa, ozor boshqa...**

O'quvchi nutqiy-intellektual kompetensiyasini aniqlash texnologiyalari

- **Shaxsga psixolingvistik yondashuv.**
- **Ramziy belgilarni izohlang. She'rni yozma tahlil qiling.**
- **Gar biyadir onasi, toy boshqa, do'nan boshqa,**
- **Mung'ayadi nam bolish, tun boshqa, kunduz boshqa,**
- **Dasturxonning ko'zi yosh, choy boshqa, taom boshqa,**
- **Oydinda qum olmosdir, ko'k boshqa, ko'klam boshqa,**

O'quvchi nutqiy-intellektual kompetensiyasini aniqlash texnologiyalari

- She'rni yozma tahlil qiling. Ramzlarni sharhlab, gap tuzing yoki maqol ayting.
- Ergashmangiz har kasga, kor boshqa, sarkor boshqa
- Garchi asosi bir so'z, pul boshqa, puldor boshqa,
- Ong boshqa, lison boshqa, dor boshqa nomdor boshqa,
- Kuylamas kuyuk ko'ngil, yor boshqa, abgor boshqa



O'quvchi nutqiy-intellektual kompetensiyasini aniqlash texnologiyalari

1.She'rni ifodali o'qing. 2.Badiiy tahlil qiling.

3.So'z o'yinlarini toping va mazmunini sharhlang.

Sarvi sumbul suvratinda bir malak, soz o'ltirur

Aylamang qoshig'a qasd xushro'-yu, xushnoz o'ltirur

Na g'azal, na-da muvashshah, na-ki qalbdin so'z

demang,

Ogoh o'lg'aysiz, tasavvuf ilmida hamroz o'ltirur,

Bahr olur bemor ko'ngil gar kelsa nogoh ro'boro' Asta-
asta so'z, bulbul na hojat, garchi qalb honish qilur!

Mustaqil ish. Berilgan nazmiy matnni nasriy matnga aylantirib ko'ring, mazmunini sharhlang. Badiiy matnni lisoniy tahlil qiling.

- Til va matn
- Tasavvurning tavalludi til, matn – izhori tafakkur, bilgil,
- Ming asrlik daraxt ersa til, matn unda yaralgan hosil,
- Hodisa deb qaralsa, inson, matn turur xulosa, Inon,
- Til sabab deb olinsa, albat, matn turur najot, oqibat.
- Til – tasavvur, matn – ta'limot, til boylikdir, matn–

MATN YARATISH - NUTQIY KOMMUNIKATV KOMPETENTLIKNI EGALLASH VOSITASI



O'quvchilarda kommunikativ savodxonlik, individual uslubni shakllantirish usullari:

- uslubiy nuqsonli matnni tuzatish;
- nasriy matnni tahrir qilish;
- nazmiy matnni tahrir qilish;
- nazmiy matnni lisoniy tahlil qilish;
- matnni nomlash;
- badiiy matnni ilmiyga aylantirish;
- publitsistik matnni badiiy matnga aylantirish;

TILNI SATHLARARO VA FANLARARO ALOQADORLIKDA O'RGANISH NUTQIY TARAQQIYOT OMILI

O'zbek tili o'qitish metodikasi:

MORFOLOGIYA
Mavzu: Til sathlarini o'zaro aloqadorlikda o'qitish metodlari

ONA TILIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARNI MYaBT-4 MODULI ASOSIDA TASHKIL QILISH

MYaBT – 4 tizimida matn yaratish:

1. Ona tili to'garaklarida;
2. O'tkir zehnlilar mushoirasida;
3. So'zlar olamiga sayohatda;
4. Badiiy matn yaratish tanlovlarida;
5. Ixtisosiy matnlar yaratishda;
6. Ixtisosiy BKMIlarni baholashda
7. Nutqiy BKMIlarni baholashda;
8. Dars- konferensiyalarda va h.k...

Tilni tizimli o'rganishda til va nutq integratsiyasini ta'minlovchi psixolingvistik komponentlar va ularning MYaBT-4 moduli sathida moddiylashuvi



- 1-bosqich. Tayanch so'zlar tanlash komponentini egallash
- 2-bosqich. So'z birikma hifesi qeeseo komponentini egallash
- 3-bosqich. Gap tuzish komponentini rivojlanirish
- 4-bosqich. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish

O'quvchida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish murakkab parapsixologik tafakkur jarayonlari mahsuli. U so'z tanlash (analiz va sintez), uni gapda to'g'ri qo'llashga ehtiyoj hosil qiluvchi psixolingvistik topshiriqlar asosida harakatga keltiriladi. "MYaBT-4" tilni tizimli o'rganishda universal texnologiya hisoblangan integrativ ta'limning bosqichli ko'rinishidir.

“MYABT-4” modulining texnologik xaritasi.

“MYABT-4” moduli tizimida ishlash: rasm-tasvir asosida matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish topshiriqlari



“MYABT-4” moduli tizimida xorijiy tilda matn yaratish

Технология создания мини текста по

картинке. Составить текст используя данную картину, по ступеньчатой системе ЧСССТ (МЯБТ-4)

• 1-ступень: Дайте название картине. Напишите опорные слова: *“Волшебное озеро”. Озеро, вода, деревья, кустарники, белый, голубой, трава, родной, окна, кровля, небо, квадратный, растут, облака...*

• 2-ступень: Составьте словосочетания. *Прозрачная вода тихого озера, белоснежные облака, старинные 2-этажные дома, чёрные тени деревьев, сказочный вид маленького, таинственного озера...*

• 3- ступень: : Составьте предложения. *1. Большие, белые облака в прозрачно-голубом фоне озера напоминает плавающего, белого лебедя с собранными крыльями. Волшебное озеро как будто ничего не забыл. В нём отражается вся таинственность и божественность родной природы...*

• 4- ступень: Составьте мини текст: *“Волшебное озеро”*

«INTEGRATIV TA'LIM»

innovatsion guruhi

LABORATORIYASI

ILMIY RAHBAR: dots. T. ZIYADOVA

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI**

Filologiya fakulteti

O‘zbek tilshunoslik kafedrası

“Integrativ ta‘lim – nutqiy madaniyatni shakllantirish omili”

Программа гранта: Интегративное обучение – гарантия освоения навыка культуры речи учащихся.



Hamkor tashkilotlar:

**Rustam Turdiyev, SVO‘MKHKT
boshqarmasi boshlig‘i.**

**Nosir Egamberdiyev, SV XTB
boshqarmasi boshlig‘i.**

Loyiha rahbari:

**Tursunoy Ziyadova GulDU.
O‘zbek tilshunosligi
kafedrası dosenti.**

Guliston 2014

GA'IDU - TSHXTPXQTBOI

Ziyatova Yansuroy
Igazatova Gulshoda

so'z birligmasi



Ona tilidan didaktik slaydlar to'plami

ELEKTRON O'QUV QO'LLANMA

5 sinf

Oliy va o'рта maxsus ta'lim vazirligi

Guliston davlat universiteti

ZIYADOVA TURSUNOY

ONA TILI

RANGLI GRAMMATIK SLAYDLAR

to'plami

Tilni tizimli o'rganish, tasnifiy-grammatik

matnlar yaratish va nutq o'stirish

mashg'ulotlari uchun didaktik ta'minot

(54 ta rangli slayd majmui)

TOSHKENT - 2009



OLIV VA O'RTA MANSUS KASB-HUNAR TA'LIMI VAZIRLIGI
GULISTOH DAVLAT UNIVERSITETI

Rus tili va adabiyoti kafedrası dotsenti

ZIYODOVA TURSUNOY USMONOVNA

O'ZBEK TILINI TEZKOR O'RGANISH

(qisqa kurs)

MEDIA TRAINING

GRAMMATIK SLAYDLAR TO'PLAMI

(Oquvchi va o'qituvchilar, abituriyentlar, talabalar uchun)

TOSHKENT 2017

Ona tili ta'limiga kompetensiyaviy yondashuvning innovatsion texnologiyalari

- Milliy tilni uzviylik va uzluksizlikda, sathlararo aloqadorlikda, izchil va tizimli o'rganish;
- Til o'rganish jarayonida imlo savodxonligi, so'z boyligini oshirish, nutqiy layoqatni mustahkamlash;
- Matn yaratishning 4 bosqichli moduli "MYBT-4" tizimida mustaqil ishlash va turli matnlar yaratish;
- Mustaqil matn yaratish jarayonida o'quvchining nutqiy kompetentlilik sifatlarini shakllantirish;
- "MYBT-4" mezonlari asosida o'quvchining nutqiy kompetentlilik darajasini aniqlash va baholash;
- Yangi mavzuni o'rganishda elektron grammatik slaydlar(EGS)dan foydalanish;
- EGS asosida tasnifiy-grammatik matn yaratish;
- kompetensiyaviy ta'limni tashkillashtirishda innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish.

GRAMMATIK SLAYD USTIDA ISHLASHNING TA'LIMIY IMKONIYATLARI

Slaydni adabiy me'yor asosida ifodali o'qish;
Slaydni guruhlariga bo'linib og'zaki sharhlash;
Slayd mazmunini to'g'ri, ravon, ixcham, tushunarli tasniflash;

Mavzu yonalishida nazorat savollari tuzish;
Slayd matni bo'yicha savol-javob o'tkazish;
Slayd matniga taalluqli nazorat testlarini yechish;
Shu mavzuga oid nazorat testlari tuzish va guruh muhokamasiga taqdim etish;

Shu mavzuda muammoli savol, topshiriqlar tuzish, qiziqarlisini tanlab, katta ekranda taqdimot qilish;
Mavzuni EGS asosida tushuntirish jarayonida og'zaki nutq madaniyatini egallash;
EGSdan foydalanib so'z boyligini oshirish, mustaqil o'quv topshiriqlari, so'z birikmalari, gaplar, maqol va hikmatli so'zlar, she'rqatorlar tuzish;

EGS asosida grammatik matn tuzish, til imkoniyatlaridan yozma nutqda samarali foydalanish.

O'zbek tilini tizimli o'qitishning innovatsion texnologiyalari

Tilni sathlararo va fanlararo aloqadorlikda o'rganish imkoniyatlari



HAR BIR TOPSHIRIQNI BAJARISH JARAYONI **ISHLOVCHI SUBYEKT** UCHUN MUAMMOLARNI YECHISH YOKI MATN (O'ZIDA MAVJUD IQTIDORDAN ONGLI RAVISHDA JODIY FOYDALANISH BILAN) YARATISH, GURUHDA ISHLASH, TAQDIMOT QILISH BILAN YAKUNLANADI



Matn yaratish jarayonida o'quvchi nutqiy kompetentlilik darajasini aniqlash, rivojlantirish va baholash imkoniyatlari



MUNDARIJA

| | |
|---|-----|
| Kirish | 3 |
| I BOB. O'QUVCHILARDA MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH ASOSLARI | |
| § 1.1. Tilni tizimli o'rganish – nutq madaniyatini egallashning muhim omili..... | 13 |
| § 1.2. O'quvchilarni matn yaratishga yo'naltirishning pedagogik-psixologik asoslari | 39 |
| § 1.3. Ona tili darsliklarida matn tuzish muammosining yoritilishi..... | 48 |
| II BOB. O'QUVCHILARNI MATN YARATISH FAOLIYATIGA TAYYORLASH | |
| § 2.1. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish – ijodiy tafakkur egasini tarbiyalashning zaruriy omili..... | 62 |
| § 2.2. Ona tili ta'limida matn ustida ishlash amaliyoti | 71 |
| § 2.3. Matnning tarkibiy qismlarini shakllantirish usullari | 76 |
| § 2.4. Matn tahriri – yozma nutqni takomillashtirish usuli | 98 |
| III BOB. O'QUVCHILARDA MATN YARATISH KOMPETENSIYASINI SHAKLLANTIRISH TEXNOLOGIYALARI | |
| § 3.1. O'quvchi matni – nutqiy kommunikativ kompetensiyalar va ijodiy tafakkur integratsiyasi mahsuli..... | 108 |
| § 3.2. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirish va rivojlantirish texnologiyasi | 117 |
| § 3.3. Matn yaratishning to'rt bosqichli moduli – o'quvchilarda nutqiy kommunikativ kompetentlikni shakllantirish vositasi..... | 133 |
| § 3.4. Ish qog'ozlari matnlarini tuzish..... | 194 |

**IV BOB. MATN YARATISH JARAYONINI
JADALLASHTIRUVCHI INNOVATSION
TEXNOLOGIYALAR**

| | |
|---|------------|
| § 4.1. Matn yaratishda elektron o'quv adabiyotlaridan foydalanish..... | 201 |
| § 4.2. Matn yaratish kompetensiyasini shakllantirishning interaktiv metodlari | 213 |
| Umumiy xulosalar | 218 |
| Foydalanilgan adabiyotlar | 222 |
| Musobaqa darsi..... | 225 |
| Ilovalar | 228 |

T. ZIYADOVA

**O‘QUVCHILARDA MATN
YARATISH KOMPETENSIYASINI
SHAKLLANTIRISHNING INNOVATSION
TEXNOLOGIYALARI**

Toshkent – «Fan va texnologiya» – 2019

| | |
|------------------------------|------------------|
| Muharrir: | Sh kusherbayeva |
| Tex. muharrir: | A.Moydinov |
| Musavvir: | F.Tishabayev |
| Musahhih: | Sh Mirqosimova |
| Kompyuterda sahifalovchi: | N Raxmatullayeva |

E-mail: tipografiyacent@mail.ru Tel: 71-245-57-63, 71-245-61-61.

Nashr.lits. AIN№149, 14.08.09. Bosishga ruxsat etildi 17.04.2019.

Bichimi 60x84 ¹/₁₆. «Timez Uz» garniturasini. Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog‘i 14,75. Nashriyot bosma tabog‘i 15,5.

Tiraji 500. Buyurtma № 61.

«Fan va texnologiyalar Markazining bosmaxonasi» da chop etildi.
100066, Toshkent sh., Olmazor ko'chasi, 171-uy.